

G.SH. Absalamova

**TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK
TERMINLARINING TARKIBIY-MAZMUNIIY
HAMDA MILLIY MADANIY TAHLILI
(Ingliz va fransuz tillari misolida)**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

ABSALAMOVA GULMIRA SHARIFOVNA

**TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK
TERMINLARINING TARKIBIY-MAZMUNII
HAMDA MILLIIY-MADANIY TAHLILI
(INGLIZ VA FRANSUZ TILLARI MISOLIDA)**

Monografiya

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand – 2025

UO‘K: 811.512.133(038)

Absalamova Gulmira Sharifovna. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy hamda milliy-madaniy tahlili (ingliz va fransuz tillari misolida). Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar institute” nashriyoti, 2025 – 226 b.

Mazkur monografiya ingliz va fransuz tillaridagi tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy hamda milliy-madaniy tahliliga bag‘ishlangan. Asarda terminlarning struktur-semantik xususiyatlari, tarixiy-etimologik ildizlari va lingvokulturologik jihatlari izchil yoritilgan. Monografiya nafaqat nazariy asos, balki ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy ahamiyatga ham egadir.

Mas’ul muharrir:

M.M.Jo‘rayeva – filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:

O.S.Axmedov – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc).

J.A.Yakubov – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

G.S.Kurbonova – O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti fransuz filologiyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc).

Ushbu monografiya Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti kengashining 2025-yil 30-avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayonida nashrga tavsiya etilgan.

© Absalamova Gulmira Sharifovna, 2025

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. TERMINOLOGIK TIZIMLARNING NAZARIY ASOSLARI	8
1.1. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminologiyasiga oid nazariy yondashuvlar	8
1.2. Ingliz va fransuz tilshunoslik atamalarining rivojlanish istiqbollari	18
1.3. Ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminlarining taraqqiyoti	27
I bob bo'yicha xulosa	39
II BOB. TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI	41
2.1. Lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarining funksional-ma'noviy jihatlari va qo'llanish shartlari	41
2.2. Ingliz va fransuz tillaridagi filologiya terminlarining tarkibiy-semantik tuzilishi.....	48
2.3. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalaridagi terminlarning milliy-madaniy jihatdan farqlanishi	60
II bob bo'yicha xulosa.....	72
III BOB. INGLIZ VA FRANSUZ TERMINLARINING YASALISH MEXANIZMLARI VA MAVZUIY TASNIFI	74
3.1. Til va adabiyotshunoslik terminlarining yasilishi va kelib chiqish manbalari	74
3.2. Terminlarning tilshunoslik va adabiyotshunoslik mezonlari asosida mavzuiy guruhlanishi va tasnifi	84
3.3. Ingliz va fransuz tilshunoslik terminlarining turli tillar tizimida tutgan o'rni va ularning voqelanishi xususiyatlari.....	95
III bob bo'yicha xulosa	104
IV BOB. INGLIZ VA FRANSUZ LUG'ATLARIDA TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK IZOHI	106
4.1. Kris Boldikning "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" lug'atida filologiya terminlarining semasiologik tavsifi	106
4.2. "Dictionnaire des littératures de langue française" lug'atidagi fransuz adabiyotshunoslik terminlarining semantik va tavsifiy xususiyatlari.....	124
4.3. "Petit Larousse Illustré 2020" tasvirli lug'atidagi lisoniy birliklarning leksik va konseptual tahlili.....	135

4.4. “Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘atida til va adabiyotshunoslik terminlarning sinonimik paradigmasi	152
IV bob bo‘yicha xulosa.....	166
V BOB. INGLIZ VA FRANSUZ TILLARIDA TILSHUNOSLIK HAMDA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING MILLIY-MADANIY INTEGRATSIYASI	168
5.1. Mishel Montenning “Les Essais” asarida fransuz adabiyotshunoslik terminlarining ifoda shakllari va ularning stilistik tafovutlari	168
5.2. “Les Essais” asarida fransuz tilshunoslik terminlarining mushtarak va differensial xususiyatlari.....	179
5.3. Ingliz va fransuz tillaridagi adabiyotshunoslik hamda lingvistik terminlarning lingvomadaniy uyg‘unlashuvi va o‘zaro ta’siri.....	190
V bob bo‘yicha xulosa.....	201
XULOSA.....	203
ATAMALAR IZOHI.....	206
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	214

KIRISH

Jahon zamonaviy tilshunosligi va adabiyotshunosligi doirasida ilm-fan, texnika hamda madaniyat taraqqiyoti jarayonida shakllanib kelayotgan terminologik bilimlar global muloqotning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. Ingliz va fransuz tillarida qoʻllaniladigan lingvistik hamda adabiy terminlarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini chuqur tadqiq etish xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilmiy almashinuv samaradorligini oshirish va terminlarning real ijtimoiy-madaniy muhitda faol qoʻllanishini taʼminlashga xizmat qiladi. Shu bois Gʻarb tillariga oid adabiy va lingvistik terminlarning lisoniy mavqei, intertekstual hamda interdiskursiv funksiyalarini tahlil etish, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini differentsial va integral yondashuv asosida ochib berish mazkur yoʻnalishning dolzarbligini belgilaydi.

Hozirgi davrda lingvoadabiyot terminlarining semantik, diskursiv va kommunikativ-funksional qirralarini aniqlash, ularning madaniyatlararo muloqotdagi oʻrnini belgilash dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida koʻrilmoqda. Terminlarning milliy-madaniy qatlamlarini oʻrganish orqali ularning koʻpmadaniyatli kontekstda samarali qoʻllanish mexanizmlarini yoritish mumkin. Ingliz va fransuz terminlarining lingvomadaniy mohiyatini tahlil qilish, ularning transmadaniy jarayonlardagi ahamiyatini belgilash, tarkibiy-mazmuniy tabiatini ochib berish hamda yangi terminologik modellarni aniqlash ushbu monografik tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Oʻzbekiston sharoitida ham ilm-fan va madaniyat sohalarida xalqaro aloqalarni kengaytirish boʻyicha belgilangan strategik maqsadlar tilshunoslik, adabiyotshunoslik va terminshunoslik tadqiqotlarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, ingliz va fransuz tillarining global kommunikatsiyadagi roli ortib borayotgan bir paytda, ularning terminologik tizimlarini qiyosiy tahlil qilish zaruratga aylangan. Bu kabi ilmiy izlanishlar milliy adabiy merosni jahon miqyosida targʻib etish, xalqaro madaniy diskursga integratsiyani taʼminlash, shuningdek, yangi lingvistik nazariyalarni ishlab chiqishga asos boʻlib xizmat qiladi. Shu maʼnoda, mazkur tadqiqot mavzusi zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda dolzarb ilmiy yoʻnalish sifatida eʼtirof etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida til siyosati va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar ham ushbu mavzuning dolzarbligini mustahkamlaydi. Jumladan, Prezident

farmonlari va qarorlari – PF-5847, PF-6084, PF-60, PF-158, shuningdek, PQ-3775 va PQ-5117 sonli hujjatlar til va adabiyot sohalarini rivojlantirish, xorijiy tillarni ommalashtirish, o‘zbek tilini davlat siyosati darajasida mustahkamlash hamda oliy ta’lim tizimida sifatni oshirish kabi strategik vazifalarni belgilagan. Ushbu monografik ish mazkur hujjatlarda belgilangan ilmiy-amaliy vazifalarning ijrosini ta’minlashda ma’lum darajada xizmat qiladi.

Mavzuning nazariy va amaliy dolzarbligi xorijiy tadqiqotlar bilan ham bevosita bog‘liq. Oksford, Garvard, Toronto, Pekin, Tokio, Bolonya, Monreal, Moskva va Montpelliyer universitetlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ingliz va fransuz terminlarining fonologik, semantik, sotsiokulturologik, kognitiv, genealogik hamda tarjimaviy jihatlari keng o‘rganilgan. Bu tadqiqotlarda terminlarning xalqaro muomalaga kirishidagi semantik transformatsiya, madaniy konnotatsiya va lingvokulturologik moslashuv jarayonlari alohida tahlil qilingan. Mazkur ish ham ana shu xalqaro tajribalarni umumlashtirish orqali ilmiy natijalarni boyitishga qaratilgan.

Jahon tilshunosligida Oygen Vyuster, Loik Depeker, Marie-Claude L’Homme, Jean-Claude Anscombe, Julia Kristeva, Eduar Glissan, Geoffrey Leech, John Lyons, Susan Bassnett, Mona Baker, Noam Chomsky, George Lakoff, Dell Hymes va David Crystal kabi yirik olimlarning tadqiqotlari lingvoadabiyot terminlarini turli metodologik yondashuvlarda tahlil qilgan. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunoslari – N.Hotamov, H.Dadaboyev, M.Umarxo‘jayev, I.Sadikova, S.Nurmatova singari tadqiqotchilar milliy terminlarning leksik-semantik hamda madaniy xususiyatlarini tadqiq etgan. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud ilmiy an’analarni davom ettiradi va ularni yangi konseptual yondashuvlar bilan boyitadi.

Mazkur monografik tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining “Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq amalga oshirildi. Ishning asosiy maqsadi ingliz va fransuz tillaridagi lingvoadabiyot terminlarining tarkibiy-mazmuniy va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida lingvokulturologik, semantik, kognitiv hamda qiyosiy-tipologik metodlar uyg‘unlashtirilib, terminlarning nazariy va amaliy jihatlari qamrab olindi.

Tadqiqot natijalari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida lingvoadabiyotshunoslik terminlarini o‘qitishda, izohli hamda ikki tilli lug‘atlar yaratishda,

tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya bo'yicha darslik va qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, mazkur ilmiy izlanish zamonaviy lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish, milliy terminologiyani rivojlantirish va global ilmiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, tadqiqot mavzusi zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida o'zining nazariy-amaliy qiymatini namoyon etadi.

I BOB. TERMINOLOGIK TIZIMLARNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminologiyasiga oid nazariy yondashuvlar

Hozirgi davrda tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminologiyasini tadqiq etishda yangi nazariyalar, fanlararo integratsiyalashuv va kognitiv mexanizmlar keng muhokama qilinmoqda. Darhaqiqat, zamonaviy terminologiya fani til birliklarini atamalashtirish mezonlari bilan cheklanmay, ularni madaniy, kognitiv, gnoseologik va sotsiopragmatik jihatdan ham tahlil etishga intiladi.

So'nggi yillarda tizimli rivojlanayotgan kognitiv yondashuv vakillari terminlarni inson tafakkurining mahsuli, konseptual bilimlarning tarkibiy qismi sifatida baholashmoqda.

Ma'lumki, terminlar obyektiv reallikni belgilovchi nominativ vosita sifatida inson ongida shakllangan tushunchalarning verbal ifodasi, ya'ni konseptual birliklaridir. Lingvistik terminlar bir vaqtning o'zida gnoseologik (bilimga oid), semantik (mazmunga oid) va pragmatik (qo'llanilish konteksti) xususiyatlarga egadir.

Terminlar muayyan nutqiy vaziyatda (diskursda) shakllanadi, ijtimoiy-madaniy muhit, kommunikativ ehtiyojlarga bevosita ta'sir qiladi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik terminlari ta'lim, ommaviy-axborot va badiiy diskurslarda turli semantik ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Lingvokulturologik jihatdan terminlar madaniy kontekstda talqin qilinib, ularning xalq ongida, milliy tafakkurda egallagan o'rni, tarixiy shakllanishi va madaniyatlararo muqobilligi o'rganiladi. Adabiyotshunoslik terminologiyasini tahlil qilish adabiyot tushunchalarining milliy-madaniy konnotatsiyalari va estetik qadriyatlarini orqali ifodalanishini aniqlashga yordam beradi.

Bugungi kunda terminologiya nazariyasi lingvistik va kognitiv fanlar kesishmasida shakllangan murakkab va ko'p qatlamli tadqiqot sohasi sifatida qaralmoqda. U ilmiy, texnik va gumanitar tushunchalarni semantik, sintaktik hamda morfologik mezonlar asosida tizimlashtirib, tarjima va standartlashtirish jarayonlarida kommunikativ aniqlikni ta'minlaydi. Terminlar tilning ichki qonuniyatlariga tayangan holda shakllangani bois, ingliz va fransuz tillaridagi tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminotizimlarining qiyosiy tadqiqi metodologik zaruriyatni belgilaydi.

Zamonaviy terminologiya fanida texnika va tilshunoslikning integratsiyasiga asoslangan strukturaviy-funksional yondashuv terminlarning sohaviy aniqlik va fanlararo muloqotini ta'minladi.

Terminologik nazariya yo'nalishlaridan biri XX-asr boshlarida Avstriya ilmiy maktabi vakili Oygen Vyuster (Eugen Wüster) tomonidan shakllantirilgan. Olimning fikricha, "Terminologiya har qanday ixtisoslashgan sohaga oid atama va tushunchalarni aniqlaydi, ularni tizimlashtiradi va xalqaro standart asosida moslashtiradi"¹. Darhaqiqat, terminlar bilimlarni ifodalaydi, ularni uzatish va sharhlashda muhim kommunikativ birlik vazifasini o'taydi.

Fransuz tilshunoslik maktabida kognitiv-konseptual yondashuv terminologiyani til birliklari va bilimlar modeli doirasidagi konseptual tizim sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, fransuz tilida ko'plab terminlar so'z yasash yoki derivatsiya orqali shakllanadi va qat'iy sintaktik strukturaviylikka asoslanadi (*traitement de données, arbre syntaxique*). Bu holat til siyosatining davlat darajasida me'yorlashtirilganligi bilan izohlanadi. Xususan, 1996-yilda nashr etilgan "Commission générale de terminologie et de néologie" (Umumiy terminologiya va neologizm bo'yicha komissiya) asarida til tizimiga yangi terminlarni joriy etishda tipologik taqqoslash muhim o'rin egallaydi.

1. Morfologik darajada inglizcha terminlar qisqa va analitik tuzilishga ega bo'lsa, fransuzcha terminlar murakkab va ko'p komponentli yasama shakllar bilan ajralib turadi.

2. Sintaktik nuqtai nazardan, ingliz tili erkin so'z birikmalarini afzal ko'radi, fransuz tili esa qat'iy grammatik me'yorlarga tayanadi.

3. Semantik ko'lamda, ingliz terminlari kontekstga moslashuvchanligi va ko'pma'noliligi bilan ajralib tursa, fransuz terminlari aniqlik va bir ma'nolilik tamoyiliga asoslanadi².

Ispaniya terminologiya maktabiga mansub kognitiv tilshunos M.T.Kabre (Mariya Tereza Kabre) tomonidan ishlab chiqilgan model keng tarqalgan. Terminshunos nazariyasida "Terminologiya faqat lingvistik emas, balki konseptual tizim sifatida ko'rib, tushunchalararo bog'liqlikni aks ettiruvchi bilim birliklari sifatida belgilaydi"³.

M.T.Kabre tomonidan ishlab chiqilgan modelda terminologiya konseptual tizim sifatida ko'riladi va tushunchalararo bog'liqlikni aks

¹ Wüster, Eugen La théorie générale de la terminologie – un domaine interdisciplinaire impliquant la linguistique, la logique, l'ontologie, l'informatique et les sciences des objets. Essai de définition de la terminologie. Actes du colloque international de terminologie – Québec:1976. –p.57–58.

² Cabré Maria Teresa. La terminologie : théorie, méthode et applications. – Ottawa: 1998. –p.22.

³ Cabré Maria Teresa. La terminologie: théorie, méthode et applications. – Ottawa: 1998. –p.33.

ettiruvchi bilim birliklari sifatida ta'riflanadi⁴. Biroq biz terminologiya ijtimoiy-konnotativ ma'nolarni to'liq izohlashda yetarli emas, deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, ingliz tilida “*data mining*”, “*language processing*”, “*syntax tree*” kabi analitik strukturalarga ega terminlarning keng qo'llanilishi tilning morfosintaktik moslashuvchanligi va semantik kontekstualik bilan tavsiflanishini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, terminologiya tilshunoslik, mantiq, kognitiv fanlar va axborot texnologiyalari tutashgan muhitda shakllangan ko'p qirrali fanlararo soha hisoblanadi.

Kanadalik tilshunos, Monreal universiteti professori Mari Klod (Marie-Claude L'Homme) leksik birliklar doirasida terminologiyani tahlil qilishni taklif qiladi.⁵

Fransuz tadqiqotchisi Bryuno de Besse nazariyalar doirasida terminologik va leksikografik ta'riflar o'rtasidagi farqni aniqlaydi. Olimning fikriga ko'ra, “Terminologik ta'riflar tushunchalararo ierarxiyani va konseptual tizimdagi joylashuvni aniqlaydi, leksikografik ta'riflar biror so'zning umumiy ma'nosini va leksik darajadagi qo'llanilishini tavsiflaydi”⁶.

Aytish lozimki, har bir nazariya o'z sohasida samarali bo'lishi mumkin, biroq zamonaviy lingvistik va gumanitar sohalarda terminologik tushunchalar ko'p qatlamli, moslashuvchan, kontekstga bog'liq bo'ladi. Shu bois, ingliz va fransuz tilshunoslik-adabiyotshunoslik terminlarini tahlil qilishda klassik va zamonaviy terminologik nazariyalarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Terminologik va leksikologik yondashuvda – konsept →onomasiologik →shakl; shakl→semasiologik→konsept onomasiologik qarashning tushunchadan shaklga yo'naltirilganligini, semasiologik til birliklaridan boshlab ma'no hosil qilish yo'nalishida ishlatilishini ko'rish mumkin.

1981-yilda tarjima nazariyotchisi G.Rondo⁷ (Rondeau Guy) tomonidan terminologiya va leksikologiya o'rtasidagi metodologik tafovutlar aniqlangan bo'lsa, ensiklopedist Uilyam Uevell (Whewell William) o'z fikrini quyidagicha bayon etadi: “Terminologiya fanga oid tushunchalarni belgilovchi atamalar tizimidir. Terminologiya fan rivoji

⁴ Cabré Maria Teresa. La terminologie: théorie, méthode et applications.– Ottawa: 1998.–p.15-40.

⁵ L'Homme M.-Cl. Nouvelles technologies et recherche terminologique.Techniques d'extraction des données terminologiques et leur impact sur le travail du terminographe. – Montréal: 2002. – p.248.

⁶ Bruno de Bessé. La définition terminologique. –Paris:1990. –p.253.

⁷ Rondeau Guy. Introduction à la terminologie. Boucherville, – Québec:1981. –p.62–63.

bilan uzviy bog‘liq hodisadir”⁸. Ushbu aytilgan fikr Axmanovaning⁹ ta’rifi bilan uyg‘un bo‘lib, olima terminologiyani til tizimi sifatida belgilaydi.

Rus terminshunosi G.O.Vinokur shunday deydi: “Terminlar sun’iy emas, balki ehtiyoj natijasida yaratiladi”¹⁰. Tilshunos A.S.Gerdning ta’kidlashicha: “Terminlar tushunchalarning aniqligi va to‘liqligini ifodalovchi birliklar bo‘lishi lozim”¹¹.

Uevell, Axmanova fikrlari terminologiya va fan o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslaydi, leksikologlar G.O.Vinokur, A.S.Gerd terminlarning ijtimoiy- funksional zaruratdan kelib chiqishini ta’kidlab, zamonaviy termin yaratishning psixolingvistik va sotsiolingvistik asoslarini ko‘rsatadi.

Germaniyalik olim Fridrix Vilgelm Kristian Karl Ferdinand fon Gumboldt (Wilhelm von Humboldt)¹² tilning ijtimoiy va tafakkur bilan bog‘liqligini chuqur tahlil qilgan bo‘lsa, Yoxan Leo Vaysgerber (Johann Leo Weisgerber)¹³ tilning madaniyatga ta’siri konsepsiyasini ilgari surgan. Ispan olimi Antoniyo Tovar (Antonio Tovar)¹⁴ tarixiy tilshunoslik va klassik filologiya sohalarida o‘zining muhim tadqiqotlari bilan tanilgan. Italiyaning mashhur adabiyotshunosi Benedetto Kroche (Benedetto Croce)¹⁵ adabiyotshunoslik tanqidda estetik va tarixiy munosabatlarni uyg‘unlashtirgan. Yaponiyalik olim Susumu Kuno (Susumu Kuno)¹⁶ funksional sintaksis va diskurs tahlili bo‘yicha muhim nazariyalar ishlab chiqqan.

Abatta, olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlar til va adabiyotshunoslikning strukturaviy, madaniy, ijtimoiy hamda kognitiv jihatlarini o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy tilshunoslik, ayniqsa, korpus tilshunosligi va terminologik tadqiqotlar ikki nazariyani uyg‘unlashtirishga urinadi. Tilshunos L’Homme (2002) ta’kidlaganidek, elektron muhitdagi terminografik faoliyat, AI yordamida termin tanlash va ontologik bog‘liqliklarni aniqlashda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

⁸ Whewell William. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. –L:1967. –p.13.

⁹ О.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. – М.:1966. – 608 с.

¹⁰ Г.О.Винокур. Проблемы культуры речи. – М.:1967. –p.168 с.

¹¹ А.С.Герд. Значение термина и научное знание // Научно-техническая информация.–М.:1991. – С.1–4.

¹² W.von.Humboldt. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts. –Berlin:1836.–p.47–59.

¹³ L.Weisgerber. Muttersprache und Weltbild. –Düsseldorf:1950. –p.31–40.

¹⁴ A.Tovar. Lenguas y pueblos del Mediterráneo. –Madrid:1954: –p.22–28.

¹⁵ –B. Croce. Estetica come scienza dell’espressione e linguistica generale. –Bari:1902. –p.65–78.

¹⁶ S. Kuno. Functional Syntax: Anaphora, Discourse and Empathy. –Ch:1987. –p.102–115.

Terminologiya fanining shakllanishi turli davrlar va ilmiy maktablar bilan uzviy bog‘liq. Rus tilshunoslik maktabining taniqli vakili O.S.Axmanova terminologiyani fan o‘z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadigan til hodisasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “Termin ilmiy ifoda kuchiga ega bo‘lgan tushuncha asosida shakllanadi va shu orqali oddiy leksik birliklardan ajralib turadi”¹⁷.

V.G.Gak, rus semantika maktabi vakili sifatida, “Termin lug‘aviy birliklarning alohida turi emas, balki ularning kontekstual funksiyasi”¹⁸ deb hisoblaydi. Bu holat Jeffri Lichning funksional semantika konsepsiyasi bilan uyg‘unlikda ko‘zga tashlanadi.

V.P.Danilenko terminologiyani ijtimoiy-texnologik jarayonlarning lingvistik ifodasi deb baholab, ilmiy yutuqlar avvalo terminologiyada, so‘ng til tizimida aks etishini ta’kidlaydi. Rus texnik-terminologik maktabining asoschilaridan biri D.S.Lotte “Terminlarni alohida emas, balki tizimdagi o‘zaro semantik aloqadorlik orqali o‘rganish kerak”¹⁹ligini qayd etadi.

Kognitiv tilshunos M.T.Kabrening modeli bo‘yicha: “konsept → nomlanish” jarayoni orqali atama shakllanadi.

Ingliz semantika maktabi vakili Jon Lyons²⁰ “terminlarning ma’nosi kontekstga qarab o‘zgarishini” ta’kidlaydi.

Inglizcha diskursni tahlil qilgan amerikalik tilshunos Jon Sveys “*janr tahlili*” (*genre analysis*) doirasida terminlarning akademik diskursdagi rolini aniqlab bergan. Unga ko‘ra, kommunikatsiyaning samaradorligi terminlarning standartlashganligi va ijtimoiy maqomi bilan bog‘liqdir. Xususan, “*ilmiy janrlar*” orqali terminlar ma’lum konvensiyalarga muvofiq ravishda ishlatiladi, turli millat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni osonlashtiradi. Jon Sveysning fikricha, “... xalqaro kommunikatsiyada terminologiyaning noto‘g‘ri talqin qilinishini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Standartlashtirilgan terminlar umumiy tushuncha maydonini yaratadi va konseptual aniqlikni kafolatlaydi”²¹.

Tilning ijtimoiy-semiotik funksiyalariga e’tibor qaratgan ingliz tilshunosi M.A.K.Halliday: “Til – ijtimoiy hayot mahsuli”, deb

¹⁷ O.S.Axmanova, S.A.Ter-Mkrтчичан. Научное определение как лингвистическая и семиотическая проблема. Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – М.:1976. – С.57–63.

¹⁸ O.S.Axmanova, S.A.Ter-Mkrтчичан. Научное определение как лингвистическая и семиотическая проблема. Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – М.: 1976. – С. 57–63.

¹⁹ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М., 1961. С.45.

²⁰ Lyons John. Semantics. – Cambridge:1977. Vol.2.

²¹ M. John Swales. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. –Cambridge:1990. –p.288.

hisoblaydi. Olimning fikricha, “Har bir fan sohasi o‘z leksik tizimiga ega, soha ichidagi bilimlarni atamalar orqali ifodalaydi. Terminlar nafaqat lingvistik birlik, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ham tahlil qilinishi lozim”²². Zero, atama vositasida obyektiv bilim, bilimni aks ettiruvchi madaniy kontekst uzatiladi.

Tarjimashunoslikda professorlar B.Hatim (Basil Hatim) va Ian Meyson (Ian Mason) terminlarning tarjima jarayonidagi rolini chuqur o‘rganib, ularni kontekstual moslik asosida tahlil qilishni tavsiya qiladi. Olimlar “Terminlarning maqsadi til madaniyatiga mos kelishi va o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi ustuvor”²³ dir, deb biladi. Bu fikrni qo‘llab-quvvatlagan tilshunos Mona Baker ham “Tarjimada termin tanlashda madaniy omillarni hisobga olinishi muhim”²⁴ ligini e’tirof etadi. Professor terminologik moslikni “madaniy ekvivalent” tamoyiliga asoslangan holda baholaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham terminlarning milliy moslashuvi masalasi alohida o‘rganilgan. A.A.Abdudzizov xorijiy terminlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi va ularning fonetik-morfologik jihatdan adaptatsiyalashuvini tadqiq qilgan. Tilshunos olim: “Terminlarning faol va passiv qatlamlarga bo‘linishi ularning stilistik vazifasi va ijtimoiy zarurat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi”²⁵.

O‘zbek terminologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida yetuk olimlar, jumladan, I.Mirzayevning ilmiy pozitsiyasi muhim o‘rin tutadi. Olim lingvistik atamalarning ichki tuzilishi, semantik tahlili va funksional qo‘llanilishi yuzasidan izchil tadqiqotlar olib borgan. Izohli va izohsiz lug‘atlar tuzishda faol ishtirok etgan holda, atamalarning semantik aniqligi, stilistik neytralligi va diskursga mosligini belgilagan. I.Mirzayev xalqaro terminlarning o‘zlashtirilishi va yuzaga keladigan tafovutlarni lingvistik tahlil qilgan hamda ularni milliy leksikaga moslashtirish muammolarini yoritgan. Olim terminlarni “tarjima obyekti bilan birga, madaniy-ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq lingvokulturologik birlik”²⁶ sifatida baholaydi.

O‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligida faol izlanish olib borgan M.E.Umarxo‘jayev fan sohalariga oid terminlarni tizimlashtirish, ularning leksik-semantik xususiyatlari va tarjimasida milliylik masalasini chuqur o‘rgangan. Olim terminologik birliklarning

²² M.A.K.Halliday. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. – London:1978. –p.256.

²³ B.Hatim, I. Mason. Discourse and the Translator. – London:1990. –p.272.

²⁴ M.Baker. In Other Words: A Coursebook on Translation.–London: 2018. –p.74–114.

²⁵ A.A.Abdudzizov. O‘zbek tilining ijtimoiy-lingvistik masalalari. – T:1997. – –B. 56–72.

²⁶ I.Mirzayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T:1995. – 304 b.

kommunikativ samaradorligini asosiy nazariy mezon sifatida ilgari suradi. Tilshunosning fikricha, terminlarning ijtimoiy va madaniy kontekstda barqaror o‘rnashuvi til va tafakkur uyg‘unligining muhim ko‘rsatkichidir²⁷.

Olim Hamidulla Dadaboyev o‘z tadqiqotlarida lingvistik birliklarning, xususan, terminlarning fonetik, semantik va grammatik xususiyatlarini chuqur o‘rgangan. Olim terminlarning ichki tuzilmasi, morfemik chegaralari va ularning sistematik joylashuvi masalalariga alohida e‘tibor qaratgan. “*Obrazlilik*”, “*badiiyat*”, “*uslub*” kabi poetik birliklar turli kontekstlarda ko‘p ma‘nolilikka ega bo‘lishi mumkinligi namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Rasulov Ravshanxo‘ja – o‘zbek tilshunosligi va leksikologiya yo‘nalishlarida faoliyat yuritgan olim bo‘lib, terminologik tushunchalarning tizimli tahlilini olib borgan. Olimning “*Umumiy tilshunoslik*” nomli darsligida terminlar faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki til tizimining kognitiv va gnoseologik komponenti sifatida talqin etiladi²⁸. Leksikolog terminlarni tafakkurning asosiy semantik ko‘rinishlaridan biri, ijtimoiy ong va kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘liq hodisa sifatida izohlaydi.

Ma‘lumki, adabiyotshunoslik terminologiyasi – adabiyotshunoslik jarayoni, janr, uslub, poetika, tahlil kategoriyalarining mohiyatini aniqlash va izohlash uchun asosdir. Adabiyotshunoslik fanining konseptual jihatlarini mustahkamlash bilan birga, tahlil obyektining tushunchalar doirasida aniqligini ta‘minlaydi. Shu sababli, turli mamlakat olimlari tomonidan ilgari surilgan terminotizim adabiyotshunoslikda metodologik yangilanishga va global tahliliy izlanishlar rivojiga turtki bo‘lmoqda. Biroq tadqiqotlarda ayrim holatlarda terminlarning semantik aniqligi yetarlicha yoritilmasligi yoki kontekstual qo‘llanilishi yuzaki tahlil qilinishi kabi kamchiliklar ham uchrab turadi.

Rus-amerikalik tilshunos Roman Jakobson²⁹ XX-asrda adabiy tilni tahlil qilishda fonologik prinsiplarga asoslangan struktural yondashuvni ilgari suradi. Tilshunos “poetik funksiya”, “ekspressivlik”, “paradigmatik” va “sintagmatik” kabi tushunchalar orqali adabiyotshunoslik til va poeziya uslubi o‘rtasidagi chegaralarni belgilashga harakat qilgan. Jakobson terminologiyaning struktural va

²⁷ M.E.Umarxo‘jayev. Chet tillarni o‘qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari // Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2007. 10.02. – B.189–190.

²⁸ R. Rasulov. Umumiy tilshunoslik. – T: 2013. – B.312.

²⁹ R.Jakobson. Linguistics and Poetics. – Cambridge:1960. –p.350–377.

ma'nodosh darajadagi tahlilini muhim deb bilsa-da, madaniy tafovutlarni yoritishda cheklanganligini ta'kidlaydi.

Estoniyalik olim Yuriy Lotman³⁰ adabiy matnni "*semiotik tizim*" sifatida talqin etadi. Olimning "*semiosfera*", "*madaniy kod*", "*matnlararo aloqa*" kabi tushunchalari terminologiyani tahlil qilishda belgi tizimlari va madaniy sememalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochib beradi. Lotmanning nuqtai nazari adabiyotshunoslik terminlarini tahlil qilishda keng qamrovli nazariy asosni yaratadi.

Bolgariyalik olim Tvetan Todorov³¹ adabiyotshunoslik janrlar terminologiyasiga narratologik tahlil orqali kirib kelgan. Olim "*diskurs*", "*hikoya*", "*matn darajalari*" kabi atamalar orqali adabiyotshunoslik struktura va mazmun darajalarini farqlashni taklif qilgan.

Rus adabiyotshunosi G.A.Gukovskiy tomonidan ilgari surilgan tarixiy-evolyutsiya yo'nalishida "*realizm*", "*romantik*", "*klassitsizm*" kabi poetik atamalar adabiy maktablar rivoji bilan bog'liq holda o'rganiladi³².

Fransuz adabiyotshunosi Jerar Jenet (Gérard Genette)³³ adabiy matnlarning ichki tuzilishini "*transtekstuality*", "*gipermatn*", "*metamatn*" kabi atamalar orqali tahlil qilib, kognitiv-semiotikani yaratgan. Adabiyotshunosning fikriga ko'ra matnlararo aloqadorlikni aniqlash muhim, shuningdek, terminlarning milliy-madaniy va tarjima ekvivalentlari masalasi hali ham batafsil ishlab chiqilmaganligini kuzatish mumkin.

Mashhur rus tilshunos, adabiyotshunos olimi M.M.Baxtin³⁴ "*dialogizm*", "*xronotop*", "*polifoniya*" tushunchalari orqali adabiyotshunoslik matnni ijtimoiy-ideologik muloqot turi sifatida talqin etadi.

Ko'rib chiqilgan struktural, semiotik, tarixiy-evolyutsion, kognitiv-semiotik va dialogik nazariyalar adabiyotshunoslik terminotizimini o'rganishda muhim zamin yaratadi.

Qator manbalarni kuzatar ekanmiz, tadqiqotlarning dastlabki bosqichida lingvistik (fonetik, morfologik) va poetik (badiiy-estetik) tushunchalarning aniqligiga diqqat qaratilganligini ko'ramiz.

³⁰ Y.M. Lotman. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. – London:1990. –p.123–165.

³¹ T.Todorov. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre. –Ithaca, NY: 1975. –p.3–20, 82–105.

³² Г.А.Гуковский. О реализме в литературе. – М.:1965. – С. 45–97.

³³ G. Genette. Palimpsests: Literature in the Second Degree.–Lincoln:1997. –p.1–37; 212–280.

³⁴ M.M. Bakhtin. The Dialogic Imagination: Four Essays. –Austin:1981. –p.259–422.

Shuhrat Sirojiddinovning fikricha, “Terminlarni madaniy til belgilari hamda ijtimoiy kontekst uygʻunligida tahlil qilish lozim³⁵”. Haqiqatdan ham terminlarning milliy-madaniy tafovutlarini ochib berishda madaniy til belgilari alohida oʻrin tutadi. R.Doniyorov³⁶ oʻz paytida texnik va ilmiy atamalarni standartlashtirish masalalariga eʼtibor qaratgan edi. Shuningdek, tilshunos va semasiolog olim K.Musayev³⁷ terminlarni tafakkur bilan bevosita bogʻliq semantik birliklar sifatida tahlil qiladi. Xususan, bu borada Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari” (2018) asarida “*janr*”, “*uslub*”, “*poetika*” kabi tushunchalarni yoritadi.

Umuman olganda, “terminologiya” tilshunoslik, kognitiv fanlar, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan chorrahasida shakllangan sohadir.

Mazkur tadqiqot doirasida ingliz va fransuz tilshunoslik-adabiyotshunoslik terminotizimlariga oid usullar (struktural, funksional, diskursiv, kognitiv, semiotik, narratologik) keng koʻlamda tahlil qilinib, ularning afzallik va cheklovlarini aniqlab berishga harakat qilinadi. Kabre va L’Homme kabi tadqiqotchilar ilgari surgan konseptual mulohazalar bilan Axmanova, Lotte va Vinokurlarning anʼanaviy texnik-ontologik nazariyalari oʻrtasidagi tafovutlar terminlarning shakllanishi va qoʻllanishining ijtimoiy-madaniy moslashuviga eʼtibor qaratiladi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida terminotizim – yaʼni adabiyotshunoslikdagi atamalar tizimini shakllantirish, ularni tahlil qilish va taʼriflash jarayoni – keyingi 10 yillikda yangi metodologiya asosida tobora rivojlanib bormoqda.

Terminotizim kontekstdagi atamalarning shaklanish mexanizmlari, semantik xususiyatlari, ijtimoiy kommunikativ vazifalari hamda diskursdagi roli ilmiy oʻrganishni talab etadi. Ilmiy doirada terminologiyaning yirik namoyandalari K.Rey, E.Vyuster, M.T.Kabre kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan tizimlilik, ixtisoslashuv, barqarorlik, kontekstsizlik va kommunikativlik mezonlari oʻzbek adabiyotshunosligida ham muhim tamoyil sifatida eʼtiborga molik.

Keyingi davrlarda strukturalizm, kognitiv lingvistika, diskursiv tahlil kabi zamonaviy metodlar qoʻllanilmoqda. Strukturalizm (F.de Sossyur, L.Bloomfield) til birliklarining tizimli tuzilishiga, funksional

³⁵Sh. Sirojiddinov. Adabiyotshunoslik terminlari: mazmun va metodika. –T: 2014. –B. 41–58; 101–116.

³⁶R. Doniyorov. Texnik terminlarning oʻzbek tiliga moslashtirilishi. –T: 2018. –B. 23–38; 65–82.

³⁷K.M. Musayev. Til leksikasi va terminlar tizimi. –Toshkent: 2001. –B. 29–43, 87–102.

yondashuvi esa birliklarining (M.A.K.Halliday) ijtimoiy kommunikativ vazifalari tahliliga yo'naltirilgan. Kognitiv tilshunoslik (G.Lakoff, R.Langacker) til va tafakkur o'zaro bog'liqligini nazarda tutadi. Diskursiv tahlil (N.Fairclough, Teun A. van Dijk) tilni ijtimoiy amaliyot, deb baholaydi, shu bilan birga terminlarning shakl, mazmun, konnotatsiya, qo'llanish chastotasi va pozitsion vazifalarini aniqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, adabiyotshunoslik terminlarini faqat semantik yoki morfologik mezonlar asosida tahlil qilish yetarli bo'lmaydi. Terminlarni keng kontekstda, ya'ni tarixiy-evolyutsion, ijtimoiy-ideologik, madaniy, va lingvokulturologik darajalarda o'rganish zarurati mavjud. Shu bois, terminlarning tarjima va standartlashtirishdagi o'rni, ularning ko'pma'nolilik, sinonimiya, grammatik integratsiya kabi jihatlarining tadqiq doirasini yanada kengaytirish lozim.

Qolaversa, adabiyotshunoslik terminlarini o'rganishda metodologik yondashuvlarning uyg'unligi ularning konseptual aniqligi va global diskursga moslashuvini ta'minlaydi.

1.2. Ingliz va fransuz tilshunoslik atamalarining rivojlanish istiqbollari

Ravshanki, tilshunoslik terminlari — bu fan doirasidagi maxsus tushunchalarni ifodalovchi, semantik, morfologik, sintaktik va pragmatik talablarga mos ravishda ixtisoslashgan birliklar bo'lib, ular tilning tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillari ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Ingliz tilshunoslik terminologiyasining shakllanish bosqichlari o'z ildizlari bilan qadimgi german tillariga borib taqaladi. VII–VIII-asrlarda diniy matnlarni tarjima qilish orqali ko'plab lotincha so'zlar ingliz tiliga kirib kelgan.

1066-yilgi Norman istilosi natijasida ingliz tiliga ko'plab fransuzcha sud-huquq terminlari singdiriladi³⁸. XIV-asrda Jefri Choser (Geoffrey Chaucer) o'zining “The Canterbury Tales (“Kenterberi ertaklari)” asarida xalq tiliga asoslangan adabiy uslub yaratgan bo'lib, ingliz tilshunoslik terminlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Fransuz tilshunoslik terminologiyasi lotin va yunon tillarining qat'iy semantik va grammatik asoslariga tayangan holda shakllangan. Terminlarning asosiy qismi davlat va cherkov tashkilotlari orqali

³⁸ A.C.Baugh, T.A Cable. History of the English Language. 5th ed. –London: 2002. –p.464.

tarqalgan bo‘lib, tarixiy taraqqiyot jarayonida arab, nemis va ingliz tillaridan ham muayyan darajada so‘z va iboralar o‘zlashtirilgan.

Fransuz tilidagi lingvistik terminlar, ayniqsa, XVII–XIX-asrlarda mustahkamlangan va “Commission Générale de Terminologie et de Néologie (Terminologiya va neologiya bo‘yicha bosh komissiya) Fransiya hukumatiga qarashli rasmiy til, terminologiya va neologiya bilan shug‘ullanuvchi komissiya bo‘lib, uning asosiy vazifasi yangi terminlar va neologizmlarni ishlab chiqish, tartibga solish hamda rasmiylashtirishdan iborat.

Ingliz tili G‘arbiy German tillarining Ingvaeon (lotincha “Ingvaeones” so‘zidan olingan bo‘lib, german qabilalari) guruhiga mansub bo‘lib, uning fonologik va morfologik bazasi qadimiy german ildizlariga tayanadi. Devid Kristal (David Crystal), Albert Kroll Bou (Albert Croll Baugh) va Tomas Keybl (Thomas Cable) kabi tilshunoslar qayd etganidek, “Ingliz tilining V-asrdan boshlab shakllangan bosqichma-bosqich rivojlanishi til tizimining semantik va sotsiokognitiv jihatdan taraqqiyotiga olib kelgan”³⁹.

Ingliz tilshunoslik terminologiyasining tarixiy bosqichlarida shakllangan atamalarning lingvistik diskursdagi roli, ularning shakllanishi va tashqi tillar (lotin, fransuz, skandinav) ta‘siriga alohida urg‘u beradi.

Qadimgi ingliz tili davri (V–XI asrlar) til rivojida muhim bosqich bo‘lib, u inflektiv morfologiyaga asoslangan sintetik tuzilishga ega edi. Fonologik tizimida [æ], [θ], [ð] kabi fonemalarning mavjudligi german tillari guruhiga mansublikning aniq belgisidir. Fleksiyalar egalik, kelishik (*case*) va ko‘plik (*plurality*) kabi grammatik kategoriyalarni ifodalashda faol ishlatilgan, morfosintaktik tizimning murakkab ekanligini ko‘rsatadi.

Ilk terminologiya leksik birliklar, jumladan “*cyning*” (qirol), “*land*” (yer) va “*godspell*” (xushxabar) kabi atamalar, diniy va agrar kontekstda vujudga kelib, semantik jihatdan muayyan konseptual asosga ega bo‘lgan.

Bu davrda ingliz tili fonologik boylik, affiksatsion morfologiya va germano-skandinav hamda lotin manbalaridan oziqlangan leksik tarkib bilan ajralib turgan. Tilning bu bosqichdagi holatini yoritishda “Beovulf” dostoni (Beowulf), “Vercelli kitobi” (Vercelli Book) va “Yuniy qo‘lyozmasi” (Junius Manuscript) kabi manbalar asosiy rol o‘ynaydi.

³⁹ D. Crystal. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: 2003. –p.75–122.

O'rta ingliz tili davrida (1150–1450) Norman istilosi (1966-yildagi) ta'sirida fonologik, morfologik va leksik o'zgarishlar yuz berdi; fransuz tilidan kirgan [ʃ], [ʒ] tovushlari orqali *“justice”*, *“parliament”*, *“religion”* kabi huquqiy va siyosiy atamalar ingliz tilining rasmiy diskursini boyitgan.

Morfologik jihatdan bu davrda fleksiyaviy shakllarning yemirilishi kuzatilib, til analitik tizim tomon siljigan. Bunda qadimgi sintetik tuzilmalar o'z o'rnini sintaktik (masalan, SVO tartibi, yordamchi fe'llar kabi) vositalarga bo'shatib bergan.

O'rta ingliz tili davrida kirib kelgan *“lexicon”*, *“clause”*, *“register”* kabi lingvistik terminlarning morfemik ildizlari ko'pincha lotincha yoki fransuzcha manbalarga borib taqaladi.

Yozma tilning me'yorlashtirilishi jarayonida Jefri Choser (Geoffrey Chaucer) asarlari ahamiyatga molik, unda *“East Midland”* (Sharqiy Midlend) dialekti asosida umumlashtiruvchi yozuv normasi shakllangan. 1476-yilda Uilyam Kakston tomonidan matbaaning joriy etilishi yozma tilning standartlashuvi va nutq birliklarining barqarorlashuviga olib kelgan.

Tarixiy unli tovushlarning keng ko'lamli siljishi (taxminan 1400–1600) ingliz tilining fonologik tizimida tub paradigmatic o'zgarishlar boshlangan bosqich bo'ldi. *“Great Vowel Shift”* deb nomlanuvchi fonetik jarayon davomida cho'ziq unlilarning talaffuzi tizimli tarzda o'zgargan (masalan, *bite* [bi:tə] [bart], *meet* [me:tə] [mi:t]). Natijada zamonaviy ingliz fonologik tizimining shakllanishiga qadam qo'yilib, talaffuz normalari, leksik birliklarning o'qilishi va morfofonemik uyg'unligi yangilangan.

Tovushlarning siljish davri lotin va yunon tilidan o'zlashtirilgan terminlarning ingliz tiliga integratsiyalashuvi bilan ajralib turadi. *“Science”*, *“nature”*, *“logic”* kabi terminlar dastlab diniy yoki metafizik konnotatsiyalarga ega bo'lgan bo'lsa-da, tarixiy unli tovushlarning siljishi jarayonida ular sekulyar va kognitiv-semantik maydonga ko'chgan.

Shu bilan birga, sintaksis (*“syntax”*), morfologiya (*“morphology”*), fonema (*“phoneme”*) kabi tilshunoslik atamaları aynan shu davrda shakllana boshlagan, lotincha va yunoncha kontekst orqali ingliz terminotizimiga singdirilgan. Ushbu atamalar tilshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan ilk konseptual birliklardir.

Adabiy uslubda Uilyam Shekspir (William Shakespeare) ijodi alohida e'tiborga loyiq. Shekspir tilga yangi ifoda shakllarini olib kirgan, terminlarni keng qo'llagan.

1476-1800-yillar ingliz tilining normativlashuvi va terminologiyasining paydo bo'lishida burilish nuqtasi bo'lgan. Matbaachilikning rivojlanishi yozma til birliklarining ko'payishiga, ularning turg'unlashuviga va leksik birxillikni ta'minlashga imkon yaratadi. Samyuel Jonson (S.Johnson) tomonidan 1755-yilda nashr etilgan ingliz tilining birinchi muhim lug'ati – *A Dictionary of the English Language* – ijtimoiy diskursda ishlatiladigan terminlarning orfografik va semantik jihatdan standartlashtirilishi uchun asosiy poydevor bo'lgan.

Fonetik jihatdan orfoepik me'yorlar barqarorlashib, yozma va og'zaki nutq tafovuti kamaytirildi⁴⁰. Ingliz tiliga kirgan lotin va yunoncha atamalar ("*philosophy*", "*anatomy*", "*democracy*") deyarli o'zgartirilmay qabul qilinib, tabiiy va ijtimoiy fanlar uchun universal terminotizimni yaratdi.

Ingliz tili tobora global til sifatida shakllanib borar ekan, u lingvistika, texnologiya, diplomatiya, siyosat kabi bir qancha funksional uslub sohalariga chuqur singib ketdi. Tilning kengaygan funksional roli, xususan, diskurs ("*discourse*"), janr ("*genre*"), uslubiy qatlam ("*register*") kabi ko'pma'noli va tarmoqlararo terminlarning leksik tizimda shakllanishi va keng qo'llanilishi orqali namoyon bo'lgan.

Umuman olganda, Erta zamonaviy davr ingliz tilining institutsional leksika jihatidan rivojlanishida zamin bo'lgan bo'lib, bugungi global terminotizimning tarixiy asoslarini yaratadi.

Ingliz tilining hozirgi zamonaviy davri (1800-yildan hozirgacha) ingliz tilshunosligi terminologiyasining shakllanishi va kengayishida texnologik taraqqiyot, globallashtirish va medialashuv jarayonlari muhim determinant sifatida rol o'ynagan. Raqamli inqilob va internet madaniyati ta'sirida "*Wi-Fi*", "*cloud*", "*e-mail*", "*AI*" kabi yangi terminlar neologik yasaliş, metaforik transfer va domenlararo semantik ko'chish asosida tezda leksik tizimga singdirilgan.

Hozirgi zamonaviy davr bosqichda ingliz terminologik tizimi abbreviatsiya (masalan, *GPS*, *CPU*), kompozitsion birliklar (*eco-friendly*), hamda metaforik kengayishlar (masalan, virus → "*digital infection*") orqali sezilarli darajada boyidi⁴¹. Bunda tilshunoslik

⁴⁰ A.C.Baugh, T. Cable. *A History of the English Language*. –London: –p.2002. –59.

⁴¹ G. Leech. *Principles of Pragmatics*. –London: 1983. –p.103–138.

terminlari texnik-dasturiy sohalar, ekologiya, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi, va kommunikatsiya kabi fanlararo domenlarni qamrab oldi.

Ingliz tili fonetik tarixiy taraqqiyoti davomida ko'p bosqichli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Zamonaviy bosqichda "Received Pronunciation (RP)", "General American (GenAm)" va boshqa talaffuz variantlarining parallel mavjudligi ingliz tilida fonologik polisentralizmni shakllantirdi. Talaffuzdagi ko'pmarkazlilik hodisasi global ingliz tilining transmilliy xususiyatlarini kuchaytirdi.

Qadimgi ingliz tili bosqichi deb ataluvchi V–XI-asrlarga oid davr fonetik tizimi [æ:], [θ], [x] kabi tub german fonemalarning ustunligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda morfologik tizim flektiv xarakter, grammatik kategoriyalardagi ko'plik, egalik ma'nolari asosan qo'shimchalar yordamida ifodalangan. Terminologik jihatdan diniy (masalan, *God, heaven*), agrar (masalan, *field, harvest*), siyosiy va tabiiy hodisalarga oid so'zlar asosiy qatlamni tashkil etgan.

Keyingi taraqqiyot bosqichi, ya'ni o'rta ingliz tili bosqichi (Norman istilosidan keyin) XII–XV-asrlarni qamrab olib, fransuz tilidan kirib kelgan [ʒ], [ʃ], [dʒ] kabi tovushlar fonetik tizimda yangilik yaratdi. Terminologiyada siyosiy (*parliament*), huquqiy (*justice*), cherkovga oid (*religion*) va ijtimoiy terminlar fransuz tilidan o'zlashtirildi. Tilning ijtimoiy vazifasi ushbu bosqichda kengayib, keng qatlamda qo'llanila boshlandi.

Til taraqqiyoti davomida uyg'unlashish va standartlashuv davri (XVIII-asr) yuzaga keldi. "Received Pronunciation (RP)" – standart fonetik me'yor sifatida shakllandi. Morfologik tizim lotin va yunon tillaridan kirib kelgan so'zlar bilan boyidi. Falsafa, mantiq va demokratik qadriyatlarga oid atamalar (*philosophy, democracy, logic*) ingliz tilining madaniy maqomini mustahkamladi.

Zamonaviy davr (XIX–XXI-asrlar) ingliz tilining global maqomda qaror topgan bosqichidir. Bu davrda "RP" bilan bir qatorda "General American (GenAm)", "Australian English", "Indian English" kabi mintaqaviy talaffuz variantlari rivojlandi. Natijada fonologik polisentralizm – ya'ni bir til doirasida bir nechta talaffuz markazlarining parallel mavjudligi hodisasini yuzaga keltirdi. Morfologik tizim abbreviatsiyalar (masalan, *NASA, UNESCO*), kompozitsiyalar (*blackboard, website*) neologizmlar orqali kengaytirildi. Terminologik sohada texnologik (*cyberspace, interface*), madaniy va global kontseptual atamalar keng rivojlandi va tilni zamon bilan hamnafas qildi.

Ingliz tilshunoslik terminologiyasi bosqichma-bosqich fonetik va morfologik o'zgarishlarga tayanib, uning asosiy yo'nalishi tashqi leksik ta'sirlar (lotin, fransuz, skandinav tillari), semantik ixtisoslashuv va diskursga asoslangan metaforik kengayishi bo'ldi.

Ingliz tilshunoslik terminologiyasi ko'proq strukturalizm va funksionalizmga tayansa, fransuz modeli kognitiv va konseptual asoslarni ilgari surgan, deb aytish mumkin.

Ingliz va fransuz lingvistik terminologiyasi qiyosiy tahlilidan ayon bo'ladiki, ingliz tilida terminlar ko'proq analitik va qisqa shaklda bo'lsa, fransuz tilida ular murakkab va ko'p komponentli bo'lishga moyildir. Sintaktik jihatdan ingliz tilida erkinlik ustun bo'lsa, fransuz tilida qat'iy grammatika talab etiladi. Semantik jihatdan ingliz tilidagi terminlar ko'p ma'nolilik (*polysemy*) bilan ajralib tursa, fransuz tilida bir ma'nolilik va aniqlik ustuvorlik qiladi.

Tilshunoslik terminologiyasi tilshunoslik fanining muhim komponentlaridan biri bo'lib, ixtisoslashgan atamalar tizimi orqali lingvistik tushunchalarni aniqlash, ifodalash va standartlashtirishni maqsad qiladi. Har bir tilda terminlarning shakllanishi, rivojlanishi, qo'llanish chastotasi va stilistik darajasi tarixiy, madaniy va siyosiy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ingliz va fransuz tillarida lingvistik terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayonni tashkil etadi.

“Fransuz tilshunoslik terminologiyasining rivojida ilk muhim bosqich 1539-yil Qirol Fransua I tomonidan chiqarilgan “Villiers-Cotterêts” farmoni bilan bog'liq bo'lib, ushbu farmon asosida fransuz tili davlat hujjatlari va qonuniy yozuvlar tili sifatida rasmiylashtirildi va terminologiya tizimining tarqqiyotiga zamin yaratdi”⁴².

XVII–XVIII-asrlarda klassik adabiyotshunoslikning rivojlanishi (Molyer, Rasin, Volter kabi mualliflar), ilm-fan taraqqiyoti va davlat tili siyosati fransuz terminologiyasining boyishiga turtki bo'ldi.

XIX-asrda fransuz tiliga sanoat inqilobi ta'siri ostida kimyo, fizika, biologiya, tibbiyot va huquq sohalariga oid atamalar ko'paydi.

Ingliz tilshunoslik terminologiyasi qadimgi german til qatlamlariga asoslangan va qadimgi ingliz (450–1150), o'rta ingliz (1150–1500) hamda zamonaviy ingliz (1500–hozirgi) bosqichlarida rivojlanib bordi.

Renessans davri va bosma nashrning ommalashuvi oqibatida ingliz tiliga yunon va lotin tillaridan atamalar kirib keldi. 1604-yilda tilshunos

⁴²“Ordinance of Villiers-Cotterêts.”

Wikipedia.

https://en.wikipedia.org/wiki/Ordinance_of_Villiers-Cotter%C3%AAts

Robert Kaudri (R.Cawdrey) tomonidan tuzilgan “*Table Alphabetical*”⁴³, 1755-yilda Samuel Johnson yaratgan “*A Dictionary of the English Language*” asarlari ingliz atamalarining standartlashuviga sabab bo‘ldi.

XX-asrda ingliz tilining xalqaro mavqei ortib, strukturalizm (F. de Sossyur), transformatsion grammatika (N.Chomsky), semantik nazariyalar (J.Lyons, G.Leech) asosida sintaksis (“*syntax*”), semantika (“*semantics*”), botiniy tuzilma (“*deep structure*”), sirtqi tuzilma (“*surface structure*”) kabi yangi terminlar vujudga kelib, tilshunoslikning tarkibiy qismlariga aylandi.

Fransuz tilining lingvistik terminologiyasi tahlilida onomasiologik (Cabré, 1998) hamda semasiologik (L’Homme, 2002) modellar asos qilib olindi. Har bir tarixiy bosqich terminlaridagi leksik tafovutlar o‘rganildi.

O‘rta asrlarda (XI–XV) fransuz tilidagi terminlar asosan diniy va huquqiy sohalarga oid bo‘lgan. “*évêque*” (*bosh ruhoniy*), “*roi*” (*qirol*), “*loi*” (*qonun*), “*justice*” (*adolat*) kabi atamalar davrga xos bo‘lib, ularning ko‘pchiligi lotin manbalaridan olingan⁴⁴.

Renessans davrida (XVI-asr) fransuz tiliga yunon va lotin tillaridan transliteratsiya yo‘li bilan “*anatomie*” (*anatomiya*), “*médecine*” (*tibbiyot*), “*philosophie*” (*falsafa*) kabi terminlar kirib kelgan⁴⁵. Fransua Rable kabi ijodkorlarning asarlari orqali tibbiyot va falsafiy sohalarga oid terminlar xalq tiliga moslashtirilgan.

XVIII–XIX-asrlar fransuz ilm-fani va madaniyati yuksalishida tub burilish davri bo‘lib, adabiyotshunoslik, san‘at, ijtimoiy g‘oyalar sezilarli darajada ilgariladi va Yevropa ma‘naviy hayotiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. XVIII–XIX-asrlar fransuz ilm-fani va madaniyatining jadallashgan davri bo‘lib, terminologiyaning tizimli shakllanishi kuzatiladi. “*Encyclopédie*” (1751–1772) loyihasi doirasida “*chimie*” (*kimyo*), “*anatomie*” (*anatomiya*), “*science*” (*fan*) kabi ilmiy tushunchalar ilk bor ensiklopedik asosda rasmiylashtirildi va keng ommaga yetkazildi. Fransuz tilida va boshqa yevropa tillarida ham ilmiy atamalarni yagona uslubiy mezon asosida ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Kimyo sohasida A.L.Lavuaziyer (Antoine Laurent Lavoisier) va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan “*oxygène*” (*kislorod*, fransuzcha), “*carbone*” (*uglerod*, fransuzcha), “*hydrogène*”

⁴³ “*Table Alphabetical*.” Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Table_Alphabetical

⁴⁴ R. Wright. *The Development of Latin and Vernaculars in Medieval Europe*. –Frankfurt: 2000. – 300 –p.

⁴⁵ M. Fumaroli. *Humanism and the Reform of Sacred Language in Early Modern France*. – Chicago: 2003. –p.100–108.

(*vodorod*, fransuzcha) kabi atamalar terminologik tizimlashuvda burilish yasadi.

Lavuaziyer maktabi tomonidan joriy etilgan nomenklatura fransuz terminotizimini shakllantirib, fan tili sifatidagi mavqeini mustahkamladi va boshqa tillarda terminologik standartlashtirildi.

Fransuz tilida terminologiya shakllanishi XI–XV-asrlar (O‘rta asrlar)dan boshlanib, ijtimoiy atamalar asosan lotin va cherkov tili ko‘magida, huquqiy va diniy tizim bilan uyg‘un (“*évêque*”, “*loi*”, “*clergé*”) shakllangan. Renessans davrida (XVI-asr) transliteratsiyaga asoslangan terminologik kengayish yuz berib, lotin va yunon tillaridan olingan “*médecine*”, “*philosophie*”, “*anatomie*” kabi atamalar fransuz tiliga kirib kelgan.

Ma‘rifatparvarlik va izchillik bosqichi (XVIII–XIX asrlar)da ushbu an‘ana tendensiya yanada kuchaydi. Ensiklopedik tafakkur va tasnifiy tizimlar rivojlanishi natijasida terminologiya fan sohasi sifatida ixtisoslashdi. Kimyo va biologiya kabi tabiiy fanlarga oid “*chimie*”, “*hydrogène*”, “*carbone*” kabi atamalar yuzaga keldi.

Zamonaviy taraqqiyot davrida raqamli va global integratsiya bosqichi (XX–XXI-asrlar) vujudga kelib, fransuz tiliga informatika, raqamli texnologiyalar va kompyuter texnologiyalari orqali “*informatique*” (axborot texnologiyalari), “*logiciel*” (dasturiy ta‘minot), “*ordinateur*” (kompyuter), “*cybersécurité*” (kiberxavfsizlik), “*réseau numérique*” (raqamli tarmoq) kabi zamonaviy atamalar faol ravishda kirib keldi.

Fransuz tilining terminologik shakllanishi o‘rta asrlarda cherkov va davlat idoralari doirasida “*évêque*” (*episkop* / *yepiskop*), “*roi*” (*qirol*), “*loi*” (*qonun*), “*justice*” (*adolat* / *sud tizimi*) kabi diniy-huquqiy terminlar bilan boshlangan (Wright, 2000, p.300) davrda ilm fan tili sifatida lotin tili ustun bo‘lgan, fransuz terminologiyasi asosan boshqaruv va ijtimoiy-huquqiy doiralar bilan cheklangan.

XX–XXI-asrlarda fransuz tiliga kompyuter texnologiyalari orqali “*logiciel*” (*dasturiy ta‘minot*), “*ordinateur*” (*kompyuter*), “*informatique*” (*informatika*), “*cybersécurité*” (*kiberxavfsizlik*), “*intelligence artificielle*” (*sun‘iy intellekt*) singari zamonaviy terminlar kiritilib, ular ingliz tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lsa-da, “Académie Française” tomonidan milliylashtirish siyosati orqali fransuz tiliga

moslashtirildi, atamalar leksik modifikatsiyalar orqali hosil qilinib, semasiologik tahlil mezonlariga to‘liq javob beradi⁴⁶.

Masalan:

- “*cybersécurité*” = *cyber* + *sécurité* → raqamli xavfsizlik (leksik kompozitsiya)

- “*mégadonnées*” = *méga* + *données* → katta hajmli ma’lumot (metaforik kengayish)

- “*ordinateur*” = “*ordonner*” (*buyurmoq*) + “*-ateur*” (*vosita*) → kompyuter (semantik uzluksizlik)⁴⁷

Fransuz tili terminologiyasi O‘rta asrlar (XI–XV-asrlar) bosqichidan shakllanishni boshlagan. XI–XV-asrlarda “*évêque*” (*episkop*), “*loi*” (*qonun*), “*clergé*” (*ruhoniyluk*) kabi birliklar faol qo‘llanilgan.

Keyingi rivojlanish renessans davri (XVI-asr) bilan bog‘liq bo‘lib, ilm-fan va madaniyatning uyg‘onishi fonida terminologiya transliteratsiyaga asoslangan holda kengaya boshladi. Lotin va yunon tillariga murojaat qilinib, tibbiyot, falsafa hamda tabiiy fanlarga oid “*médecine*” (tibbiyot), “*philosophie*” (falsafa), “*anatomie*” (anatomiya) kabi terminlar fransuz tiliga kirib keldi, terminlar konseptual tizimlarni til orqali ifodalashda muhim vosita bo‘ldi.

Ushbu harakat ma’rifatparvarlik va ilmiy izchillik bosqichi (XVIII–XIX-asrlar)da yanada chuqurlashdi. Ensiklopedik tafakkur va klassifikatsion tizimlar rivojlanishi natijasida terminologiya fan sohalari asosida ixtisoslashdi. Kimyo va biologiya kabi tabiiy fanlarga oid “*chimie*” (*kimyo*), “*hydrogène (vodorod)*”, “*carbone*” (*uglerod*) kabi atamalar yanada boyidi, terminlar onomasiologik g‘oya – konseptdan atama tomon shakllantirildi.

Shu bilan birga, “*Académie Française*” kabi til siyosatini yurituvchi muassasalar tomonidan terminlarni milliylashtirish, angloamerikalarni cheklash hamda fransuz tilining global texnologik muhitda leksik mustaqilligini saqlab qolishga qaratilgan siyosat olib borilgan.

Fransuz tilining lingvistik terminologiyasi har bir davrda ijtimoiy, madaniy va jarayonlarga mos holda boyib borgan. Tadqiqot fransuz terminologiyasida shakliy-morfologik, funksional-semantik va institutsional mexanizmlarning uyg‘un ishlashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga globalizatsiya sharoitida fransuz tili ingliz tilidan kirib kelgan

⁴⁶ M.-C.L’Homme. Le terme et le contexte: l’unité terminologique, base de la représentation des connaissances spécialisées. – Paris: 2002. –p.264.

⁴⁷ R. Mitkov. The Oxford Handbook of Computational Linguistics. – Oxford: 2003. –p.800

terminlarni moslashtirish orqali o‘z terminotizimini boyitishda davom etmoqda deb aytish mumkin.

Ingliz va fransuz tilshunoslik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishini diaxronik hamda sotsiokognitiv ko‘lamda tahlil qilsak, ularning terminotizimi lingvistik va madaniy omillar ta‘sirida turli yo‘nalishda shakllanganligi kuzatiladi. Har ikki til terminlari fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlarga tayangan holda, tashqi manbalardan kirib kelgan leksik birliklar orqali boyigan.

Ingliz tilshunoslik terminlari qadimgi german ildizlaridan boshlab, Norman istilosi davrida fransuzcha huquqiy va siyosiy leksik qatlamlar bilan, qadimiy unli tovushlar siljishi bosqichida fonologik modernizatsiya va metaforik kengayish orqali sezilarli taraqqiyotga erishgan. Erta va Kech zamonaviy davrlarda matbaachilik, raqamli texnologiyalar va globallashuv ta‘sirida “*science*”, “*syntax*”, “*AI*”, “*cyberspace*” kabi interdisiplinar va universal leksik birliklar shakllangan bo‘lib, ular ingliz tilining global terminologik yetakchiligini mustahkamlab kelmoqda.

Fransuz tilshunoslik terminologiyasi klassik adabiyotshunoslik va davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq holda, dastlab cherkov, qonunchilik doirasida shakllanib, Renessans va inqiloblar davrida yunon-lotin asosidagi terminlarning rasmiylashtirilishi bilan barqarorlashgan. Bu jarayon “*Académie Française*” va “*Commission Générale de Terminologie et de Néologie*” kabi institutsional muassasalar tomonidan boshqarilgan. So‘nggi asrlarda ingliz tilining kuchli ta‘siriga qaramay, fransuz tili terminlarni fonetik va morfologik jihatdan o‘zlashtirish orqali terminologik mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, ingliz tilida terminlar ko‘proq analitik, qisqa shaklli va kontekstga asoslangan bo‘lsa, fransuz terminlari sintaktik jihatdan murakkab, morfologik jihatdan ko‘p komponentli va semantik jihatdan qat‘iylikka moyilligi kuzatildi. Ingliz tilining jahon miqyosida kengayishi va fransuz tilining institutsional me‘yorlashtirilishi o‘zining tarixiy hamda madaniy farqlari bilan ajralib turadi.

1.3. Ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminlarining taraqqiyoti va konsepsiyasi

Aytish lozimki, adabiyotshunoslik terminlari – adabiy jarayon, janr, uslub, poetik struktura va estetik kategoriyalarni ifodalovchi ixtisoslashgan lisoniy birliklar bo‘lib, konseptual va semantik mazmuni belgilangan til shakli orqali uzatadi. Ular morfologik tuzilishi, semantik yuklamasi va diskursiv qo‘llanilishiga ko‘ra umumiy leksik birliklardan farqlanadi.

Ingliz adabiyotshunoslik terminologiyasining ilk bosqichlari qadimgi german va anglo-sakson unsurlariga tayanadi; o‘rta ingliz davrida (1150–1500) esa Norman bosqini ta’sirida fransuz tilidan keng leksik o‘zlashuv yuz bergan.

“*Romance*” atamasi lotincha “*romanicus*” ildizidan olingan bo‘lib, ritsarlik qadriyatlari, epik jang va saroy muhabbati kabi tushunchalarni anglatadi. Bu atama O‘rta asr nasr adabiyotida syujetli, sarguzashtli va idealizatsiyalangan qahramonlik hikoyalarini ifodalagan va shu orqali epik janrdan nasriy janrga o‘tish bosqichini belgilab bergan.

“*Chivalry*” atamasi fransuz tilidagi “*chevalier*” (ritsar) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, morfologik jihatdan ko‘plik shaklida, semantik tomondan axloqiy ijtimoiy majburiyatlar va adabiyotshunoslik idealizatsiyani ifodalaydi. Diskursiv jihatdan leksema jasorat, sadoqat, rahmdillik kabi qadriyatlarni bildiradi.

Choser asarlarida uchraydigan “*courtly love*” (*saroy muhabbati*) atamasi badiiy obrazlarda sevgi, ehtiros, sadoqat va axloqiy cheklovlar kabi tushunchalarni uzatishda yordam beradi. Termin morfologik jihatdan fransuzcha “*courtois*” (*nazokatli, muloyim*), va “*amour*” (*muhabbat, sevgi*) so‘zlariga tayanadi, semantik jihatdan romantik tuyg‘ular va ijtimoiy konvensiyalar orasidagi ziddiyatni anglatadi. “*Courtly love*” diskursiv jihatdan ritsar hamda malika o‘rtasidagi murakkab axloqiy va hissiy munosabatlarni tasvirlaydi. Shu bilan birga, “O‘rta ingliz tili davrida shakllangan adabiyotshunoslik terminlarning faqat etimologik yoki tarixiy jihatdan tahlili ularning zamonaviy lingvistik funksiyalarini to‘liq ochib bera olmaydi”⁴⁸. “*Romance*”, “*chivalry*”, “*courtly love*” singari atamalarni tahlil qilish uchun integrativ yondoshuv - kognitiv-semantik, funksional-pragmatik va madaniy-tarixiy mezonlarning uyg‘un sintezi zarurdir.

⁴⁸ –B. Mitchell, F.C. Robinson. A Guide to Old English. –Oxford:2011. –p.112–130.

Jefri Choserning “*The Canterbury Tales*” asarida “*courtly love*” (saroy muhabbati) atamasi poetik birlik sifatida ishlatilgan, termin semantik jihatdan ritsarlik axloqi, saroy madaniyati va shaxsiy ehtiroslar orasidagi o‘zaro murakkab munosabatni anglatadi. Morfologik jihatdan bu birikma “*court*” (saroy) va “*love*” (muhabbat) leksik birliklarining birikuvi bo‘lib, sintaktik jihatdan nominal birikma sifatida adabiy tavsiflarda keng qo‘llaniladi.

Diskursiv kontekstda “*courtly love*” fransuz adabiyotidan ingliz adabiy tiliga o‘tib, ritsar va ayol obrazlari o‘rtasidagi axloqiy cheklovli, ammo hissiy jihatdan sevgi munosabatlarini tasvirlagan. “*Courtly love*” tushunchasi o‘rta asr madaniyatida sevgi konsepsiyasining ijtimoiy normativlar asosida ideallashtirilgan shaklini ifodalaydi.

Shu bilan birga, fransuz tilidan ingliz tiliga o‘zlashtirilgan adabiyotshunoslik terminlari – xususan, “*romance*”, “*chivalry*”, “*courtly love*” – ingliz adabiyotshunosligini uslubiy boyitgan, badiiy ifodaning estetik ko‘lamini kengaytirgan, ingliz tilining strukturaviy va semantik tizimiga ta’sir ko‘rsatgan⁴⁹. Adabiyotshunoslik terminlarining shakllanishi natijasida ingliz adabiyotida yangi janrlar, yangicha poetik obrazlar bilan boyib, ingliz adabiy diskursida madaniy ko‘chish lingvistik transformatsiyaning uzviyligini ko‘rsatadi.

1500–1700-yillar ingliz tilidagi adabiy terminologiya sifat va qamrov jihatidan tub o‘zgarishni belgilab berdi. Renessans – “qayta uyg‘onish” davri – ingliz tilining klassik yunon va lotin tilidan o‘zlashtirgan adabiyotshunoslik terminlari orqali boyigan.

Morfologik va etimologik jihatdan “*drama*” (*drama, sahna asari*), “*epic*” (*epos, doston*), “*poetry*” (*she’riyat*), “*hero*” (*qahramon*) kabi terminlar antik yunon va lotin ildizlariga ega bo‘lib, ular Renessans davri yozuvchilari tomonidan hech qanday semantik modifikatsiyalarsiz ingliz tiliga moslashtirilgan. Masalan:

“*Drama*” – yunoncha “*dran*” (harakat qilmoq) fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, bu termin teatr, aktyorlik va sahna harakati bilan bog‘liq badiiy janrni ifodalaydi.

“*Epic*” – “*epikos*” (yunon) – bu janr qahramonlik, tarixiy epizodlar va milliy miflar asosidagi dostonlarga xos termin sifatida ishlatilgan.

“*Poetry*” – lotincha “*poeta*” (shoir) so‘zidan olingan bo‘lib, ritmik, estetik ifoda usulini anglatadi.

⁴⁹ J.Algeo, T. Pyles. *The Origins and Development of the English Language*. –Boston: 2010. –p.300–328.

“*Hero*” – “*heros*” (yunon) – ideal obraz va axloqiy jasorat tushunchasini bildiruvchi asosiy qahramonni ifodalovchi termindir⁵⁰.

Bu terminlarning qo‘llanilishi Renessans davri adabiyotida estetik, janrga xos va konseptual aniqlikni kuchaytirgan, shuningdek adabiy tafakkurda universalizmga intilishni aks ettirgan.

Ushbu terminlarning kelib chiqishi, tarkibiy o‘zgarishi, madaniy va adabiy tahlilni talab etadi. “*Epic*”, “*poetry*”, “*hero*” terminlari semantik jihatdan taraqqiyot yo‘lini bosib, Renessans davri yozuvchilari, xususan Shekspir ijodida yanada boyib, yangi konnotativ ma’nolar bilan to‘ldirilgan.

“*Epic*” atamasi yunoncha “*epikos*” (ἔπος – so‘z, hikoya) ildizidan kelib chiqib, dastlab katta hajmdagi qahramonlik dostonlarini anglatgan va zamonaviy semantik kengayish natijasida bu atama film, roman, komiks va boshqa janrlarda ham qo‘llanilgan, ko‘pincha “*buyuk*” yoki “*hayratomuz*” voqealarni ifodalashda ishlatiladi⁵¹ (Crystal, 2003).

Bu terminlarning fransuz tilidagi mos shakllari – “*épopée*” (*epic*), “*poésie*” (*poetry*), “*héros*” (*hero*) – fonetik va semantik jihatdan inglizcha variantlarga o‘xshaydi ammo konnotatsion yuklamalari farq qiladi. Masalan, “*poésie*” fransuz tilida ko‘proq rasmiy, akademik ohangga ega bo‘lsa, ingliz tilidagi “*poetry*” norasmiy, ko‘proq subyektiv estetik bahoni anglatadi⁵².

Uilyam Shekspir (1564–1616) ingliz tilining boyishi va adabiyotshunoslik diskursining kengayishida beqiyos hissa qo‘shgan. Shekspir o‘zining asarlarida 1700 ga yaqin yangi so‘z va iboralarni tilga kiritgan, ularning aksariyati neologizm sifatida o‘z leksik tizimida saqlanib qolgan.

Shekspir ijodida “*soliloquy*” (yolg‘iz o‘ziga aytilgan monolog), “*aside*” (tomoshabinga qaratilgan yashirin fikr), “*majestic*”, “*critical*”, “*laughable*” kabi atamalar chuqur dramatik va stilistik funksiyani bajargan. Masalan, “*soliloquy*” lotincha “*solus*” (yolg‘iz) va “*loqui*” (gapirmoq) so‘zlaridan tashkil topib, Shekspir sahnalarida qahramonning ichki kechinmalarini ochiqlash vositasi sifatida ishlatilgan.

“*Critical*” Shekspir tilida ilk bor “*o‘ta muhim*” yoki “*tanqidiy nazar bilan qarash*” ma’nosida ishlatilgan bo‘lib, keyinchalik bu atama kontekstlarda keng qo‘llanila boshlagan.

⁵⁰ J.A. Burrow, T.Turville-Petre. A Book of Middle English. –Oxford:2005. –p.234–260.

⁵¹ Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – 5th ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2003. –p.529

⁵² J.Algeo, T. Pyles. The Origins and Development of the English Language. –Boston: 2010. –p.300–328.

Shekspirning tilga kiritgan yangi birliklari haqida Kristal (2003), Albert K. Bo, Kable (2013), Kalpeper (2001)larning tadqiqotlari mavjud. Bu manbalarda Shekspir neologizmlarining semantikasi, qo‘llanilish sahnalari va ularning lingvistik moslashuvi batafsil yoritilgan.

Renessans davri yozuvchilaridan sanalgan Shekspir, ko‘plab yunoncha va lotincha atamalarni ingliz tiliga tarjima qilmasdan, asl holida qabul qilgani bois ingliz tili boshqa tillar bilan leksik darajadagi raqobatda o‘z mavqeini mustahkamlash imkoniga ega bo‘lgan.

XVIII–XIX-asrlarda ingliz adabiyotshunoslik tilida romantizm, realizm, ma’rifatparvarlik (*enlightenment*) kabi harakatlar orqali yangi atamalar va janrlar paydo bo‘ldi: “*sentimental*” (*hissiyotli, romantik*), “*realistic*” (*realistik, hayotiy*), “*melancholy*” (*g‘amgin, mungli*). Shunday qilib, adabiyotshunoslik terminlarni tahlil qilishda faqat ularning tarixiy ildizlari va boshqa tillardagi parallel shakllari bilan qiyosiy yoritish ham muhimdir.

Adabiyotshunoslik jarayonlarning tarixiy rivojida ayrim janrlar va uslublar ijtimoiy ong shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Xususan, satira – bu ijtimoiy-siyosiy illatlar, axloqiy nuqsonlar hamda shaxsiy kamchiliklarni hajv va kinoya orqali fosh etish hamda tanqidiy ifodalovchi badiiy uslub sanaladi. Mixail Baxtin satirani “*karnavalistik diskurs*” doirasida tushuntirib, uni jamiyatdagi ierarxik tuzumlarni buzuvchi, xalqona o‘yin orqali tanqidni ifoda etuvchi janr deb ta’riflaydi⁵³. Shuningdek, Nortrop Fray satirani “*Anatomy of Criticism*” asarida klassik adabiyotshunoslik shakllari doirasida “*qayta ijtimoiylashuv*” vositasi sifatida ko‘rsatadi⁵⁴. Jonatan Sviftning “*Gulliver’s Travels*” asaridagi Lilliput monarxiyasi orqali anglatilgan siyosiy kinoyaning kuchli ijtimoiy fon bilan bog‘laydi. Xuddi shunday, Aleksandr Popning “*The Rape of the Lock*” asari aristokratik jamiyatdagi ma’naviy inqirozni hajv vositasida tasvirlaydi.

Roman (novel) janri XVIII-asrda badiiy nasrning yangi shakli sifatida vujudga kelib, Ian Uott tomonidan “burjua individualligining adabiyotshunoslik ifodasi” sifatida izohlangan⁵⁵. Uottning fikricha, romanning asosiy xususiyati – shaxsiy tajribaning voqelik sifatida tan olinishi va u orqali ijtimoiy tuzumga munosabat bildirilishidir. Daniel Defoning “*Robinson Crusoe*” asari mustaqillik, mehnat etikasi va

⁵³ M. Bakhtin. *Rabelais and His World*. – Bloomington: 1984. –p.4–20.

⁵⁴ N. Frye. *Anatomy of Criticism: Four Essays*. –Princeton: 1957. –p.224–237.

⁵⁵ I. Watt. *The Rise of the Novel: Studies in Defoe, Richardson and Fielding*. –Berkeley: 1957. –p.15–34, 60–76.

ma'naviy sinovlar orqali burjua ongini ifodalaydi. Semyuel Richardsonning "Pamela" romanida ijtimoiy tabaqalanish va nafs ustidan nazoratni markazlashtiradi.

XIX-asrda realizm romantizmga qarshi reaksiya sifatida yuzaga kelgan va G.Lukach tomonidan "realistik roman nazariyasi" doirasida chuqur tahlil qilingan⁵⁶. Unga ko'ra, realizm badiiy voqelikni tasvirlashda tarixiy dialektikani saqlaydi va individual hayotni ijtimoiy tuzum bilan uzviy bog'liq holda ochib beradi. Charlz Dikkinsning "Oliver Twist" va "David Copperfield" asarlari ijtimoiy tengsizlik, bolalar mehnatidan foydalanish va huquqsizlik kabi dolzarb masalalarni yoritgan, XIX-asr Angliyasidagi ijtimoiy muammolarni fosh etadi. Rolan Bart realizmga nisbatan shubha bilan qarab, uni "realistik illuziya" deb ataydi⁵⁷.

Romantizm XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlarida jamiyatning ratsional paradigmasiga qarshi chiqib, tabiat, his-tuyg'u va individualizmni ulug'lashga yo'naltiriladi. Izayya Berlin⁵⁸ romantizmni inson tabiatining serqirraligini va ratsionalizm cheklovlarini inkor etuvchi falsafiy-axloqiy ta'limot orqali tahlil qiladi. Romantik asarlar subyektiv tajribani, ichki kechinmalarni badiiy ifodalashga harakat qiladi. Gotika janri romantik harakatning ichki subjanri bo'lib, u inson ruhiyatining qorong'u, ongsiz qatlamlarini ochib beradi. Gotika estetikasi haqida David Punter "The Literature of Terror" asarida shunday deydi: "Gotika nafaqat qo'rquvni uyg'otadi, balki madaniy qo'rquvlarni tilga chiqaradi."⁵⁹ Meri Shellining "Frankenstein" asari ilmiy tajribaning etik chegaralarini, insonning yaratuvchilik qudrati va mas'uliyatini muhokama qiladi. Edgor Allan Poning hikoyalari inson ongi, ong osti va irratsional qo'rquvlarni badiiy tasvirlaydi.

Yuqorida tilga olingan janrlar o'zaro izchil tarixiy uzviylikka ega: satira – ma'rifatparvarlik ruhining mahsuli, roman – burjua ongining ifodasi, realizm – sanoatlashgan jamiyatdagi adabiyotshunoslik xolislik zarurati, romantizm – bu xolislikka nisbatan hissiy-axloqiy reaksiya, gotika-romantizm ichidagi antropologik noaniqlikni ifodalaydi.

Bugungi adabiy jarayonda bu janrlarning ta'siri sezilarli darajada saqlanmoqda. Masalan, postmodern adabiy realizm va satiraning shakl va mazmunini kinoyali tarzda qayta ishlaydi. "*Metafiction*" – o'z-o'zini

⁵⁶ G. Lukács. The Historical Novel / Trans. H. and S. Mitchell. –London:1969. –p.45–78.

⁵⁷ R. Barthes. The Reality Effect.–Berkeley: 1989. –p.141–148.

⁵⁸ I. Berlin. The Roots of Romanticism. 1999. –p.1–22.

⁵⁹ D.Punter. The Literature of Terror: A History of Gothic Fictions from 1765 to the Present Day. 2nd ed. –London: 1996. –P.93.

anglaydigan roman shakli – roman janrining o‘z tarixiy asoslariga tanqidiy nazar tashlashidir. Gotika zamonaviy “*dystopian*” (kelajakdagi zulmkor, nazorat ostidagi, yoki inson huquqlari buzilgan jamiyatni tasvirlaydigan adabiyotshunoslik janr) va “*psychological thriller*” (ruhiy tahlilga asoslangan hayajonli adabiyotshunoslik) janrlarida yangi shakllarda namoyon bo‘lmoqda.

Ma’lumki, romantizm XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlarida shakllangan adabiy-estetik hamda falsafiy oqim bo‘lib, mazkur termin klassitsizm va ma’rifatparvarlikning rasmiy hamda ratsionalistik yondashuvlariga qarshi reaksion harakat sifatida vujudga kelgan. Romantizm tabiatning go‘zalligi va ilohiy mohiyatini yuksak qadrlab, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni o‘zining markaziy estetik-falsafiy tamoyili sifatida ilgari surgan.

M.H.Abramsning ta’kidlashicha, romantizm “tasavvur va his-tuyg‘ular orqali inson ruhiyatining yuksak shakllarini anglashga urinuvchi”⁶⁰ adabiy modeldir. Angliya adabiyotida Uilyam Vordsvort va Semyuel Teylor Kolsrijning “*Lyrical Ballads*”(1798) – Lirik balladalar she’riy to‘plami romantizmning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. To‘plamda tabiat “inson ruhining poklanish manbai” sifatida tasvirlanadi va individualizm estetik qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

Naturalizm – XIX - asr oxirida realizmning radikallashtirilgan shakli sifatida shakllangan adabiy tendensiyadir. Fransuz yozuvchisi E.Zola naturalistik asarlarni “eksperimental roman” tamoyili asosida izohlagan (Zola, “*The Experimental Novel*”, 1880)⁶¹. Naturalizmning asosiy xususiyatlaridan biri – biologik determinizm, irsiyat, atrof-muhit va psixologik omillarning inson taqdiriga ta’sirini aniq va ta’sirchan realizm vositasida badiiy tasvirlashdir. T.Hardy ingliz adabiyotida naturalizm g‘oyalarining yorqin vakili bo‘lib, inson irodasining ijtimoiy sharoitlar va tabiat kuchlari qarshisidagi ojizligini ruhiy va falsafiy tasvirga aylantirgan.

Shu o‘rinda qisqa xulosa qiladigan bo‘lsak, romantizm, realizm va naturalizm yo‘nalishlari ingliz adabiyoti tarixida “*individualizm*”, “*tabiat kultivatsiyasi*”, “*biologik determinizm*” va “*ijtimoiy muhit*” kabi konseptual tushunchalarning adabiy ifodasini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan, g‘oyalar adabiy tasvir, obrazlar va poetik konstruksiyalar orqali ifoda etilgan va ingliz badiiy diskursining asosiy semantik yo‘nalishlariga aylangan.

⁶⁰ M.H. Abrams *The Mirror and the Lamp: Romantic Theory and the Critical Tradition*. – N.Y.: 1953. – p.416.

⁶¹ É. Zola. *The Experimental Novel*. –New York: 1893 (original work published 1880). –p.1–45.

Gotika janri XVIII-asr oxiri – XIX-asr boshlarida shakllanib, inson ruhiyatining qorong‘i qatlamlarini – qo‘rquv, yolg‘izlik, sirli muhit va fojiali holatlarni tasvirlash orqali romantik estetikani dramatik ifoda etgan. Gotika janri an’anaviy klassik janrlar doirasiga kirmasdan, balki romantizm oqimi ichida shakllangan stilistik makon sifatida qaraladi (Botting, Gothic, 1996). Gotik adabiyotshunoslik, shuningdek, psixologik botiniylik, irratsionallik va estetik holatlarni o‘ziga xos tarzda aks ettirgan.

XX-asr boshlariga kelib, modernizm adabiyoti yuzaga keldi va texnologik taraqqiyot, shaxsiy o‘zlik inqirozi hamda inson psixologiyasidagi murakkabliklarni badiiy ifoda markaziga olib chiqdi. Bu davr yozuvchilari – J.Joys, V.Vulf, T.S.Eliot – adabiy shakllarni yangilash maqsadida ichki monolog, temporal parchalilik, subyektiv idrok, assotsiativ tahlil kabi ilg‘or uslublarni ishlab chiqdi.

P.Childs (2000) modernizmni “haqiqatga shubha bilan qarovchi va uni badiiy forma orqali qayta qurishga urinuvchi adabiy oqim”⁶² sifatida tavsiflaydi.

Postmodernizm XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, modernizmni jiddiylik, kinoyali, fragmentar, intertekstual nazar bilan almashtiradi, “*métalittérature*” (*meta-adabiyotshunoslik*, fransuzcha), “*narrative relativism*” (*narrativ relativizm*, inglizcha), “*hyperréalité*” (*hiperreallik*, fransuzcha) kabi yangi adabiyotshunoslik terminlari yuzaga keldi.⁶³

Bundan tashqari, XXI-asrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan raqamli adabiyotshunoslik (“*digital literature*” (*raqamli adabiyotshunoslik*, inglizcha), “*texte interactif*” (*interaktiv matn*, fransuzcha), “*analyse hypertextuelle*” (*gipermatnli tahlil*, fransuzcha) kabi yangi adabiyotshunoslik tushunchalari ingliz tili terminologiyasiga qo‘shildi.

“Ong oqimi” (*stream of consciousness*) badiiy texnikasi XX-asr boshlarida modernist adabiyotshunoslikning o‘ziga xos belgisi – qahramonning ichki kechinmalari, ong osti fikrlari va assotsiativ xotira jarayonlarini mantiqsiz ifodalashni nazarda tutadi. Bu texnikaning asosiy manbasi sifatida Anri Bergsonning vaqt va ong haqidagi konsepsiyalari, shuningdek, Zigmund Freyding psixoanalitik tushunchalari ko‘rsatiladi. Qolaversa, ong oqimi usuli ingliz modernizmining yirik vakillari – Jeyms Joys va Virdjiniya Vulf asarlarida yuksak darajada

⁶² P.Childs. Modernism. – London; New York: Routledge, 2000. –p.181

⁶³ L.A Hutcheon. Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. – N.Y.; 1988. –p.268

namoyon bo'lgan.⁶⁴ Xususan, Joysning “*Ulysses*” (1922) romanida Leopold Blumning bir kunlik ong doirasida inson fikrining tabiiy va boshqarilmagan oqimi aks ettirilgan. Vulf “*Mrs. Dalloway*” (1925) va “*To the Lighthouse*” (1927) asarlarida vaqt va ong oralig'idagi farqlarni tilning poetik vositalari orqali tahlil qilgan.

Bu texnikaning terminologiyadagi aks sadosi “*ichki monolog*”, “*psixologik realistik tasvir*”, “*assotsiativ ong oqimi*” kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Ong oqimi adabiyotshunoslikda shaxsiy o'zlik, subyektiv vaqt, psixik determinatsiya kabi konseptual birliklarni ilgari surgan.

XX- va XXI-asr ingliz tilidagi adabiy terminologiya bu kabi texnik avangardizmga tayangan holda kengaydi. “Modernizm texnologik taraqqiyot, shaxsiy fragmentatsiya va ruhiy inqiroz motivlarini asos qilib olgan bo'lsa, postmodernizm ironik intertekstualik, hikoya fragmentlari va o'yin asosidagi til vositalarini ilgari surdi”⁶⁵. Shuningdek, XXI-asrda raqamli adabiyotshunoslik, “*hypertext fiction*” (gipermatnli badiiy asar, inglizcha), “*roman interactif*” (interaktiv roman, fransuzcha), “*transmedia storytelling*” (transmedia hikoyalash, inglizcha) kabi yangi adabiyot atamaları shakllandi.

Fransuz tilidagi adabiy terminologiyaning asosiy qatlamlari lotin va yunon tillaridan o'zlashgan bo'lib, bu jarayon ilk o'rta asrlardan oq boshlangan. XI–XIII- asrlarda lotin tili Yevropa bo'ylab fan, din va ta'limning asosiy tili bo'lib, bu holat fransuz tilining ilmiy, badiiy qatlamlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shu boisdan fransuz adabiyotshunoslik leksikasiga “*poésie*” (she'riyat), “*comédie*” (komediya), “*tragédie*” (tragediya), “*épopée*” (epos) kabi atamalar aynan lotin tili orqali kirib kelgan va yunon klassik asarlariga tayangan holda shakllangan.

Renessans davrida yunon va lotin klassikasiga qaytish harakati (*reception classique*) fransuz tilining badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Jumladan, “*humanisme*” (gumanizm) atamasi qadimgi yunon falsafasidagi insonparvarlik, erkin tafakkur va ma'naviy kamolot g'oyalari tayanadi. Shuningdek, “*classicism*” (klassitsizm) atamasi fransuz adabiyotida qoidalarga sodiqlik, uyg'unlik va “*adabiy ideal*” tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, Aristotelning “*Poetika*” asari va Sofokl, Vergiliy kabi antik yozuvchilarning asarlariga tayangan⁶⁶ hamda

⁶⁴ J.Joyce. *Ulysses*. Paris: Shakespeare and Company, 1922. –p.10–70; 210–245.

⁶⁵ L. Hutcheon. *A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction*. –London: 1988. –p.65–89.

⁶⁶ Aristotle. *Poetics*. –London: 1996. –p.1–35.

o'zining fransuzcha namoyonini Bualo, Korne va Rasin asarlarida topgan.

XI–XV-asrlarda fransuz tili qirollik saroyi, cherkov va feodal aristokratiya doiralarida asosiy aloqa vositasiga aylanishi bilan adabiyotshunoslik til maqomiga ega bo'ldi. Bu jarayonda “*chanson de geste*” (qahramonlik qo'shiqlari), “*troubadour*” (saroy she'riyati ijrochisi), “*roman*” (nasriy epik qissa) kabi atamalar paydo bo'ldi. Fransuz adabiyoti orqali ritsarlik, jasorat, diniy fidoyilik kabi konseptlarni aks ettirish uchun shakllan terminologik tizim semantik yangiliklar, poetik janrlarning stilistik va ijtimoiy funksiyalariga asoslanib, hozirgi zamon adabiy nutqida ham keng qo'llanilmoqda.

XI-asr oxirida yaratilgan “*La Chanson de Roland*” (taxminan 1100-yil) o'rta asr fransuz adabiyotining eng qadimgi muhim epik dostoni sifatida tan olinadi. Asar Karl Buyuk davrida rivojlangan feodal jamiyat va ritsarlik qadriyatlarini badiiy shaklda aks ettirgan bo'lib, fransuz adabiy tilining dastlabki shakllanish bosqichlarini ifodalaydi. Doston o'zida siyosiy mafkura, diniy e'tiqod va axloqiy ideallarni mujassam etgan bo'lib, bu orqali o'rta asr fransuz terminologiyasining ijtimoiy, madaniy kontekstdagi shakllanish jarayonini ko'rish mumkin. Asarda keng qo'llanilgan “*chevalerie*” (ritsarlik) va “*féodalité*” (feodalizm) kabi atamalar jamiyatning sotsial tuzilishi, adabiy obrazlarning etik va axloqiy tizimini ham belgilagan. “*Chevalerie*” atamasi dastlab otliq jangchilarni bildirgan bo'lsa, keyinchalik u ritsarning sadoqat, jasorat, saxovat, xudojo'ylik kabi xulqga doir fazilatlarini ifodalovchi axloqiy me'yorlar tizimiga o'zgarib borgan⁶⁷. “*Féodalité*” lord-vassal tizimi, yer egaligi va siyosiy sodiqlikni anglatuvchi sotsiopolitik model sifatida adabiyotshunoslik tasvirda mustahkam o'rin egallagan⁶⁸.

O'rta asrlar Yevropasida katolik cherkovining kuchayishi bilan bir qatorda lotin tili asosida diniy terminlarning fransuz tiliga o'tishi jadallashdi. Cherkov tomonidan yozilgan ibodat matnlari, tarjimalar va diniy risolalar orqali ko'plab diniy atamalar fransuz adabiyotshunoslik leksikasiga kirib keldi. Masalan, “*penitence*” (tavba), “*salut*” (najot), “*damnation*” (la'nat) kabi so'zlar diniy tushunchalarni adabiyotning diniy qatlamini izchil shakllantirdi. Ko'p hollarda lotin tilidan kelib chiqqan “*poenitentia*”, “*salus*”, “*damnatio*” kabi terminlar dindorlik, axloqiy poklanish va ilohiy jazo, muqaddaslar hayoti kabi mavzularni

⁶⁷ G. Duby. *The Three Orders: Feudal Society Imagined*. –Chicago: 1980. –p.45–88.

⁶⁸ M. Bloch. *Feudal Society*. –London: 1961. –p.17–52.

yorituvchi diniy diskursni boyitgan,⁶⁹ (*hagiografiya*), nasihatnoma va moralitet dramalarning semantik asosini shakllantirgan⁷⁰.

XVI-asrda yuz bergan Renessans harakati Yevropada qadimiy yunon va lotin adabiyotiga qaytish, klassik estetikani tiklash, inson markazidagi dunyoqarashni rivojlantirish orqali fransuz adabiy tilining semantik va uslubiy boyishiga olib keldi. Bu davrda fransuz tiliga “*tragédie*” (fojiya, fransuzcha), “*comédie*” (komediya, fransuzcha), “*drame*” (drama, fransuzcha), “*épopée*” (epos / doston, fransuzcha) kabi klassik adabiy janr atamaları kirib kelib, yunon tragediyasi va rim epikasi poetik me’yorlariga asoslandi. Shu bilan birga terminlar Aristotelning “Poetika”si, Sofokl va Evripidning dramatik uslubi, Vergiliy va Ovidiy kabi yozuvchilarning epik shakllaridan ilhomlanib, fransuz adabiy me’yorlarini belgilab berdi. Bu hodisa “*reception classique*” deb nomlangan tarixiy-estetik jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, unda antik davr poetikasining fransuz madaniyatiga moslashtirilgan talqini yetakchilik qilgan.

Renessans davrida faol ijod qilgan Pyer Ronsar (1524–1585) – “La Pléiade” deb atalgan adabiy guruhning yetakchi vakili sifatida fransuz she’riyatini yunon va lotin badiiy merosi bilan boyitgan⁷¹. Ronsar o‘zining “Les Amours”, “Hymnes” kabi to‘plamlarida yunon mifologiyasidagi obrazlarni (Afina, Orfey, Zevs) poetik qo‘llab, fransuz tilidagi she’riy ifodaning simbolik, falsafiy va estetik ko‘lamini kengaytirgan⁷². Uning ijodi orqali klassik adabiyotga asoslangan klassitsizm tamoyillari – uyg‘unlik, soddalik, me’yoriylik – mustahkamlangan.

XVI-asr Renessans davrida “*humanisme*” (gumanizm) va “*classicism*” (klassitsizm) tushunchalari fransuz terminologiyasida asosiy o‘ringa chiqib, antik falsafa va poetika bilan uzviy aloqada rivojlangan.

Gumanizm, avvalo, qadimgi yunon va rim adabiy-falsafiy merosiga tayanib, insonning aql-zakovati, axloqiy erkinligi va estetik didini targ‘ib qildi⁷³. Bu tamoyil fransuz adabiyotida shaxs obrazining psixologik va individual kechinmalar asosida tasvirlanishiga yo‘l ochdi.

⁶⁹ Diniy-adabiy janr bo‘lib, nasroniy an‘analarida Xudoga sadoqat, axloqiy poklik, shahidlik yoki mo‘jizakorlik bilan ajralib turgan muqaddas shaxslarning hayoti, faoliyati va ilohiy xizmatlarini tasvirlaydi. Ushbu janrning asosiy maqsadi – diniy targ‘ibot, axloqiy ibrat va imon-e‘tiqodni mustahkamlashdir.

⁷⁰ J.Le Goff. La civilisation de l'Occident médiéval. –Paris: 1985. –p.112–139.

⁷¹ –P.Ronsard. Les Amours. –Paris:1578 (Reprint 1993). Selected poems.

⁷² A.Kastler. Les sources latines du lexique littéraire français. –Paris:1991. –p.78–104.

⁷³ –P.O. Kristeller. Renaissance Thought and Its Sources. – New York: 1979. –p.11–35.

Masalan, Monten asarlarida inson tabiatining ziddiyatli, murakkab holatlari falsafiy esse shaklida ochib berildi.

Klassitsizm yunon va lotin adabiyotidagi me'yorilik, uyg'unlik va janr qoidalarini fransuz adabiyotiga moslashtirish orqali rivojlandi. Aristotelning "Poetika" asaridagi uch birlik qoidasi (vaqt, joy, voqea) va axloqiy didaktizm bosh estetik mezon sifatida qabul qilindi. Fransuz klassitsizmining asoschilari Pyer Kornel (Pierre Corneille), Jan Rasin (Jean Racine) va Nikola Bualo (Boileau)lar o'z asarlarida antik namunalarni zamonaviy kontekstga moslashtirgan holda qo'llaganligi aniqlandi⁷⁴.

XX-asr fransuz adabiyotshunoslik tilining shakllanishida modernizm va postmodernizm oqimlari chuqur semantik va estetik o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu davrda "*existentialisme*" (ekzistensializm), "*surréalisme*" (surrealizm), "*minimalisme*" (minimalizm) kabi yangi atamalar adabiy tahlilda keng qo'llana boshladi.

Ekzistensializm g'oyasi insonning ma'nisizlik, yolg'izlik va axloqiy tanlovdagi erkinligini badiiy ifoda markaziga olib chiqdi. Bu tamoyil Jan-Pol Sartr ("La Nausée", "Les Mouches") va Albert Kamyu ("L'Étranger", "Le Mythe de Sisyphe") kabi adiblar tomonidan shakllantirildi. "*Existentialisme*" atamasi 1940–50-yillarda fransuz madaniy diskursida shaxsiy anglash, mas'uliyat va bo'shliq metaforasi orqali semantik tarmoqlanishga ega bo'ldi⁷⁵.

Surrealizm, o'z navbatida, A.Breton tomonidan 1924-yilda yozilgan "Manifeste du surréalisme" asari orqali asoslandi. Zigmund Freydning ong osti, tush va erkin assotsiatsiyasiga tayangan holda adabiyotshunoslik matnda ongsiz kechinmalar, irratsional tasvirlar va fantastik fikrlarni tasvirlaydi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida fransuz tilida "*littérature numérique*" (raqamli adabiyotshunoslik) va "*hypertexte*" (gipertekst) kabi yangi atamalar yuzaga keldi. Bu terminlar klassik bosma adabiyotshunoslikdan farqli o'laroq, multimediya, interaktivlik va giperbog'lanmalar asosida matnni tajriba obyektiga aylantiradi.

"*Littérature numérique*" tushunchasi elektron platformalarda (veb-sayt, ilova, interaktiv format) yaratilgan matnlarni qamrab oladi, shakl kitobxon va matn o'rtasidagi passiv munosabatni pasaytirib, aktiv o'quv

⁷⁴ N. Boileau. L'Art poétique. – Paris: 1674 (Reprint 1995). –p.7–48.

⁷⁵ J.—P.Sartre. L'existentialisme est un humanisme. – Paris: 1946. –p.1–45.

tajribasini taqdim etadi”⁷⁶. Matn o‘quvchining harakati orqali dinamik shaklda vujudga keladi, bu gipertekstual struktura (*hypertexte*)⁷⁷ orqali amalga oshadi.

Fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasi rivoji bosqichma-bosqich tarixiy, falsafiy va texnologik omillar ta’sirida shakllangan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Gumanizm va klassitsizm antik merosni fransuz tiliga uyg‘unlashtirdi, modernizm va postmodernizm ong, identitet hamda lisoniy o‘yinlari orqali badiiy ifodaning yangi shakllarini yaratdi. XXI-asrda raqamli adabiyotshunoslik atamalari matn bilan o‘quvchi o‘rtasidagi aloqani tubdan o‘zgartirib, fransuz tilining badiiy ekspressivligini yangi bosqichga olib chiqdi.

Ingliz va fransuz terminologiyasining tarixiy rivojlanishini tilshunoslik, madaniyat, estetik tafakkur bilan uzviy bog‘liq murakkab va ko‘p qatlamli shaklda kuzatish mumkin.

Terminlar orqali ijtimoiy tabaqalararo munosabatlar, ideallashtirgan muhabbat va ritsarlik axloqi ingliz adabiyotshunoslik diskursida badiiy ifoda topgan desak, adashmaymiz. J.Choser o‘z asarlarida “*aristocratic affection*” (*amour aristocratique*, fr.) va “*poetic devotion*” (*dévotion poétique*, fr.) motivlarini ilgari surib, ingliz tilini yuqori ijtimoiy qatlam doirasida shakllantirishga ko‘maklashadi.

Renessans davriga kelib, “*theatrical art*” (*art théâtrale*, fr.), “*heroic narrative*” (*récit héroïque*, fr.), “*verse literature*” (*littérature en vers*, fr.) hamda “*legendary figure*” (*personnage légendaire*, fr.) kabi terminlar yunon-rim klassikasida ingliz adabiyotshunoslik tafakkurida estetik, janrli va konseptual aniqlikni mustahkamlaydi, badiiy asarlarda shakl, mazmun, obrazlar tizimi yanada murakkablashadi.

Xuddi shunday, fransuz terminologiyasi ham o‘rta asrlardan boshlab lotin va yunon tiliga tayangan holda shakllangan bo‘lib, “*poésie*”, “*tragédie*”, “*chevalerie*” kabi atamalar diniy, sotsiopolitik va madaniy kontekstda faol qo‘llanilgan.

Renessans davrida “*humanisme*” va “*classicism*” tushunchalari fransuz tilida shaxs markaziyliigi va poetik me’yoriylikni ifodalovchi estetik tamoyillarga aylangan. XX–XXI-asrlarda “*existentialisme*”, “*surréalisme*”, “*hypertexte*”, “*littérature numérique*” kabi terminlar

⁷⁶ N.K. Hayles. *Electronic Literature: New Horizons for the Literary*. – Notre Dame: 2008. –p.21–58.

⁷⁷ Badiiy matnda jiddiylikdan chekinib, formal tuzilmani buzish, ironiya, parodiya va interaktivlik orqali o‘quvchiga erkin tajriba imkonini beruvchi estetik tamoyildir

badiiy tafakkur, ong osti va interaktivlik asosida yangicha shakllanishga yuz tutadi.

Demak, tahlil qilingan guruhga xos ingliz va fransuz terminologiyasi o'z taraqqiyotida tarixiy-davriy bosqichlar, semantik transformatsiyalar va funksional omillar orqali shakllanib, asta-sekinlik bilan universal leksik va poetik tizimlarga aylangan. Bu jarayon, bir tomondan, har ikki til adabiyotshunoslik tafakkurining madaniy, siyosiy va estetik kontekstda rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, til ichidagi morfo-sintaktik va semantik tizimlarning o'zaro integratsiyasi, xorijiy tillar ta'siri, paradigmalarning o'zgarishi bilan izohlanadi.

Xususan, ingliz adabiyotshunoslik terminlari anglo-sakson, norman-fransuz, renessans va zamonaviy globalizm davrlarida shakllanib, analitik sintaksis, ko'pma'nolilikka ochiqlik hamda stilistik moslashuvchanlik orqali ijtimoiy-diskursiv kontekstga moslashgan. Fransuz terminlari, aksincha, grammatik qat'iylik, konseptual aniqlik va estetik me'yorlashuv tamoyillariga tayangan holda, tarixiy davrlarda normativ, iyerarxik strukturalar orqali takomillashgan.

I bob bo'yicha xulosa

1. Terminologiya zamonaviy tilshunoslik, kognitiv fanlar va kommunikatsiya chorrahasida shakllangan bo'lib, ingliz va fransuz tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminotizimlari fanlararo uyg'unlashuv orqali o'rganilmoqda. O.Vyusterning klassik onomasiologik modeli va M.T.Kabrening kognitiv terminlarning semantik barqarorligi hamda konseptual dinamikasini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

2. Ingliz tilining terminologik tizimi struktural va funksional-liberal paradigmalariga asoslanadi. Tilning analitik sintaksis, qisqa morfologik birliklari va kontekstual ko'pma'nolilikka moyilligi terminlarning pragmatik shakllanishiga zamin yaratgan. D.Krystal va O.Jespersen tomonidan bildirilgan qarashlarga ko'ra, ingliz tili bugungi kunda dunyo miqyosida yetakchi diskurs tili sifatida faoliyat yuritmoqda.

3. Fransuz terminologik maktabi estetikaga asoslangan bo'lib, terminlarning shakllanishida derivatsiya qonuniyatlari, sintaktik qat'iylik va ierarxik tartib ustuvor ahamiyatga ega. Tizim davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, "Commission générale de terminologie et

de néologie” tomonidan muvofiqlashtiriladi. Fransuz modeli konseptual aniqlik va semantik soddalikni ustuvor tamoyil sifatida belgilaydi.

4. Ingliz va fransuz terminologiyasi morfologik, sintaktik va semantik tafovutlar asosida qiyosiy o‘rganilganda, ingliz tilida terminlar qisqa, ko‘pma’noli va kontekstga yuqori darajada sezgir, fransuz tilida, ular ko‘pkomponentli, qat’iy grammatik shakllangan va bir ma’nolilikka intiluvchi xususiyatga ega ekanligi nomoyon bo‘ladi. Bu holat har ikki tilda termin shakllanishida o‘ziga xos lingvokulturologik asoslar mavjudligini tasdiqlaydi.

5. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik terminlarini tahlil etishda kognitiv, diskursiv va sotsiokulturologik modellar integratsiyalashuvi zarur sanaladi. Ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminlari o‘z tillarining ichki poetik va estetik ehtiyojlarini qondirish hamda madaniyatlararo diskurslarda universal ahamiyat kasb etadi.

6. Terminologik tizimlarning tarixiy shakllanishi ularning faqat lingvistik mezonlarga asoslanmaganligini, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, madaniy paradigmalarning almashinuvi va ilmiy tafakkurdagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz va fransuz terminologiyasi misolida kuzatiladiki, tilshunoslik va adabiyotshunoslik atamalarining semantik aniqligi va funksional moslashuvi nafaqat lingvistik tuzilishga, balki har bir jamiyatning intellektual ehtiyojlari va kommunikativ an’analariga ham tayanadi. Shu bois, terminologik tizimlarni o‘rganishda ularning tarixiy-evolyutsion qatlamlarini sotsiokognitiv kontekstda tahlil qilish zarurat sanaladi.

7. Shuningdek, ingliz va fransuz terminologiyasini qiyosiy o‘rganish global til siyosati va madaniyatlararo muloqotdagi muhim o‘rinini ochib beradi. Ingliz tili terminologiyasining moslashuvchanligi va ko‘pma’nolilikka ochiqligi uni xalqaro ilmiy-diskursiv jarayonlarda yetakchi mavqega olib chiqqan bo‘lsa, fransuz tili terminologiyasining qat’iy normalashuvi va semantik aniqligi uni davlat siyosati va ilmiy-madaniy meros bilan uyg‘unlashtirgan. Natijada, ikkala tizim ham universal kommunikativ maydonni shakllantirishda turlicha, ammo bir-birini to‘ldiruvchi metodologik imkoniyatlarni taqdim etadi.

II BOB. TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

2.1. Lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarining funksional- ma'noviy jihatlari va qo'llanish shartlari


Yuqorida ta'rif keltirganimizdek, terminologiya – har qanday sohaning asosiy tushuncha va kategoriyalarini ifodalaydi, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda terminlar bilimlar tizimini shakllantiradi, ularni uzviy muloqot kontekstida funksional tarzda qo'llash imkonini beradi, zamonaviy tafakkurda bilimning uzatilishi va konseptual anglanishida diskursiv birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Lingvistik va adabiyotshunoslik terminlari o'z mazmuni hamda vazifasi jihatidan vaqt o'tishi bilan semantik kengayish, ixtisoslashuv yoki metaforik ko'chish kabi o'zgarishlarga uchraydi. Ularning shakllanishi madaniy, tarixiy, estetik va kognitiv omillar bilan bog'liq bo'lib, har bir terminning o'ziga xos funksional yuklamasi mavjud. Shuningdek, terminologiya tilshunoslik va adabiyotshunoslikda konseptual izchillik, semantik aniqlikni va muloqotda normativlikni ta'minlaydi.

Lingvistik terminlar – fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika kabi sohalarda aniq tushunchalarni ifodalash uchun ko'pincha analitik, qisqa shaklli va monosemantik birliklar sifatida namoyon bo'ladi (masalan, *phoneme*, *morpheme*, *allophone*). Adabiyotshunoslik terminlari estetik, falsafiy va sotsiomadaniy kategoriyalarni ifodalovchi ko'p qatlamli, konnotativ xususiyatga ega tushunchalardir (*symbol*, *allegory*, *irony*, *intertextuality*).

Otto Jespersen (1933) o'zining strukturaviy-funksionallik talqinida til birliklarining aniqligini birlamchi mezon, deb hisoblab, lingvistik terminlarni konseptual ifodaning yagona va izchil modeli sifatida ta'riflagan hamda atamalar til tizimining barqarorligini saqlashini ta'kidlagan⁷⁸. M.Sodiqova lingvistik terminlar haqida shunday deydi: “Aniqlik har bir terminning faqat bitta tushunchani anglatishini talab qiladi. Lingvistik tahlilda terminlarni tarmoqli tavsiflash o'rinli bo'ladi⁷⁹. Quyida keltirilayotgan rasm orqali lingvistik va adabiyotshunoslik terminlari orasidagi farqlar va kesishmalar aniqligi ifodalanadi:

⁷⁸ O. Jespersen. A Modern English Grammar on Historical Principles. – Copenhagen: 1933. –p.344–350.

⁷⁹ M. Sodiqova. Fe'l stilistikasi. – Toshkent: 1975. –B. 60–75.



2.1.1-rasm

Lingvistik va adabiyotshunoslik terminlari: funksional va semantik farqlanishi

Masalan, “*phoneme*” termini eng kichik fonologik birlik bo‘lib, [p] va [b] tovushlarining farqlanishi orqali “*sip*” va “*sib*” so‘zlari ma’nodosh emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, “*metaphor*” termini “*meta*” (ko‘chish) + “*phoros*” (olib boruvchi) kontekstga ko‘ra yangi ma’no qatlamlarini hosil qiladi.

Adabiyotshunoslik terminlari lingvistik terminlarga qaraganda ko‘proq madaniy, tarixiy va sotsiologik ma’nolarga ega sanaladi. “*Symbol*” termini, masalan, biror obraz orqali yashirin ma’no uzatadi, adabiyotshunoslik-estetik tahlilda *konnotativ* ma’no yetkazadi. Shuning uchun ushbu terminlar ko‘pincha zamonaviy gumanitar munosabatlarda (*poststrukturalizm, semiotika, diskursiv tahlil*) ko‘p qatlamli semantik o‘yin sifatida qaraladi.

Tarixiy jihatdan qaralganda, ingliz va fransuz tilshunoslik-adabiyotshunoslik terminlari asosan lotin, yunon ildizlariga borib taqalgan, ularning shakllanishida yunon-rim ilmiy-madaniy merosi muhim o‘rin tutgan. Masalan, “*syntax*” (yunoncha *syn* – birga, *taxis* – tartib) gap tuzilmasining ichki qonuniyatlarini ifodalasa, drama (yunoncha *dran* – harakat qilmoq) adabiyotshunoslik janr sifatida sahna, harakat va voqelik ifodasining poetik vositasi sifatida qaralgan.

Shu boisdan, har ikki turdagi terminlar o‘zaro mustaqil bo‘lsa-da, analitik tahlilda bir-birini to‘ldiruvchi tizimlar sifatida qaralishi lozim, nazarimizda.

Amerikalik mashhur strukturalist L.Blumfild (Leonard Bloomfield) (1933) terminlarning aniq va qat’iy belgilanishi orqali lingvistik tahlilda tizimlilik hamda mantiqiy izchillikni ta’minlash mumkinligini ta’kidlaydi. Olim shunday deydi: “Leksik birliklar, ayniqsa terminlar, aniq va yagona ma’noga ega bo‘lib, izlanishlarni osonlashtirib, amaliy tahlilda chalkashliklarning oldini oladi.”⁸⁰ Masalan, “*fonema*” (*phoneme*) faqat fonologik birlik sifatida ishlatiladi va boshqa darajadagi birliklar bilan aralashmaydi, terminologik izchillikni ta’minlaydi.

2.1.2-jadval

Lingvistik birliklar: soha va ta’rif mezonlari

Termin	Soha	Aniqlik mezonlari
<i>phoneme</i>	Fonologiya	Tovush tizimidagi eng kichik ma’no farqlovchi birlik
<i>morpheme</i>	Morfologiya	Ma’noga ega eng kichik morfematik birlik
<i>syntax</i>	Sintaksis	Gapda so‘zlar tartibi va ularning tarkibiy tuzilishi

Zamonaviy tilshunoslik vakili D.Kristal (D.Crystal) terminlarning shaklan oddiy va qulay bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Kristalning fikricha, murakkab tuzilmalar oddiy terminlar orqali ifodalansa, ularni anglash osonlashadi: “Lingvistik nazariya murakkab bo‘lishi mumkin, ammo uning doirasida foydalaniladigan terminlar oddiy bo‘lishi lozim.”⁸¹ Albatta olimning bu tamoyili bilimlarning keng ommaga yetkazilishi, o‘quv jarayonida tushunarlikni oshirishi mumkin hamda tarjima sohasida aniq muvofiqlikni ta’minlaydi.

Yevropa strukturalizmining asoschilaridan biri F.de Sossyur (F.de Saussure) (1916) terminologiyani tarkibiy izchillikni saqlovchi tizimli birlik, deb hisoblaydi. Olim tilni “belgilar tizimi” sifatida tasvirlar ekan, har bir terminning o‘z o‘rnida aniqlangan bo‘lishini barqarorlik sharti sifatida ko‘rsatadi: “Har bir lingvistik birlik o‘z o‘rnida aniqlangan bo‘lishi lozim. Terminologiyaning beqarorligi nazariyani ham beqaror qiladi”⁸². Shuningdek, transformatsion-generativ grammatikaga asos solgan N.Chomskiy (N.Chomsky, 1965) lingvistik mustahkamligi, global

⁸⁰ L. Bloomfield. Language. – New York: 1933. –p.21.

⁸¹ D. Crystal. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: 2003.–p.9.

⁸² F. Saussure. Course in General Linguistics. – London: 1983 (orig. 1916).

qiyosiy tahlilga yaroqliligi terminlarning barqaror va yagona ma'noga ega bo'lishi bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi: "Terminlar yagona ma'noda ishlatilgan taqdirdagina ularni turli tillar tizimida qiyosiy tahlil qilish mumkin"⁸³.

2.1.3.-jadval

Lingvistik tushunchalarning semantik aniqligi va chalkashlik xavfi

Termin	Ma'nosi	Xatolik ehtimoli
<i>semantics</i>	So'z yoki iboraning ma'nosini tahlil etadi	Morfologiya bilan chalkashlik
<i>syntax</i>	So'zlar va gaplarning tuzilmasi	Pragmatika bilan adashtirish xavfi

Poststrukturalist olim T.Todorov ilmiy tahlil uchun tushunchalarning aniq chegaralanishi va terminlarning faqat bitta ilmiy tushunchani ifodalashi zarurligini ta'kidlaydi. Tilshunosning fikricha "Terminologiya o'z funksiyasini to'liq bajara olishi uchun atamalar semantik jihatdan eksklyuziv belgilanishi lozim. Tahlilda faqat bitta tushunchani anglatadigan, boshqa terminlar bilan aralashmaydigan atamalargina haqiqiy termin sanaladi"⁸⁴. Nazarimizda, har qanday atama o'zining semantik chegarasi doirasida ishlatilishi shart. Aks holda, terminologik chalkashlik yuzaga kelib, aniqlikka putur yetadi.

Bundan tashqari, morfologiya (*morphology*) – tilshunoslikning asosiy sohalaridan biri bo'lib, so'z shakllarining tuzilishi, grammatik funksiyalarini o'rganadi. Soha so'zning morfemalarga – masalan, "*unhappiness*" so'zidagi *un-*, *happi-*, *-ness* - ajralishini, ularning infleksion (so'z o'zgartiruvchi) va derivatsion (so'z yasovchi) turlarini, morfologik paradigmalarning shakllanishi, hamda "*agglutinative*", "*flektiv*", "*izolyativ*" kabi morfologik modellarning tipologik farqlarini qamrab oladi⁸⁵. Morfologiya grammatik birliklarni tasniflaydi, ularning tarkibiy aloqalarini aniqlaydi.

Chomskiy: "Har bir termin o'z funksional chegarasini mantiqan belgilash zaruriyatini ta'kidlaydi"⁸⁶. Sapir (1921) universal terminologiya qirrlarini o'rganib, global tarmoqlararo tadqiqotlarni rivojlantiradi⁸⁷.

⁸³ N. Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: 1965. –p.24.

⁸⁴ T.Todorov. Theories of the Symbol. – Ithaca, NY: 1981. –p.40.

⁸⁵ P.H. Matthews. Morphology. – Cambridge: 1991. –p.3–18.

⁸⁶ N.Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: 1965. –p.48–60.

⁸⁷ E.Sapir. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: 1921. –p.3–20; 145–152.

Tadqiqot doirasida “*British National Corpus*” (BNC), “*Open Multilingual WordNet*” va “*Frantext*” korpuslaridan foydalanilib, “*syntax*”, “*phonetics*”, “*morphology*” kabi asosiy terminlarning ko‘ptilli ishlatilish chastotasi, kontekstual taqsimoti, hamda tarjima ekvivalentlari empirik tahlilga tortildi. Korpuslar asosida olib borilgan tahlil natijalari terminlarning turli til makonlarida bir xil semantik yuk bilan qo‘llanilishi kuzatildi. *Masalan:*

“*Syntax*” (*lotincha syntaxis*) – so‘z birikmalari va gap tuzilmasining tarkibiy tuzilmasini ifodalaydi;

“*Phonetics*” (*yunoncha phonētikos*) – tovushlarning artikulyatsion, akustik va fiziologik tavsiflarini o‘rganadi;

“*Morphology*” grammatik birliklarning shakllanishi, paradigmatic aloqalari va tipologik tafovutlarini qamrab oladi.

Terminlar o‘zining ko‘ptillilik (*multilingualism*), universallik (*universality*), aniqlik (*precision*), ixchamlik (*conciseness*) va rasmiylik (*formality*) kabi tamoyillari bilan tahlilning asosiy poydevorini tashkil etadi.

E.Nida “Ilmiy tushunchalarni bir til va madaniy makondan boshqasiga o‘tkazishda ularning ma’no yaxlitligini saqlab qolish san’ati sifatida talqin qiladi”⁸⁸. Bu, o‘z navbatida, tilshunoslik fanining xalqaro standartlar asosida integratsiyalashuviga, tizimlararo ko‘prik qurilishiga asos yaratadi.

Tilshunoslik terminlarining kelib chiqishi va zamonaviy funksiyalari quyidagicha izohlanganligini kuzatamiz.

“*Grammar*” (*grammatica*, lot.) – tilning ichki strukturasi, ya’ni morfologik va sintaktik qurilishini tavsiflovchi tizim⁸⁹.

“*Phoneme*” (*phōnēma*, yun.) – ma’no farqlovchi eng kichik fonologik birlik va tovush tizimining tarkibiy komponenti vazifasini bajaradi.⁹⁰

“*Semantics*” (*semantikos*, lot./yun.) – til birliklarining ma’noviy yukini, ularning konnotatsiyasi va diskursiv qo‘llanishini o‘rganadigan soha⁹¹.

“*Descriptive linguistics*” – mavjud til holatini empirik kuzatuv, neytral tahlil va realistik tasvirlashga asoslangan bo‘lib, Leonard Bloomfield (1933) tomonidan asoslangan.

⁸⁸ E.A. Nida. *Toward a Science of Translating*. –Leiden: 1964. –p.1–15; 120–125.

⁸⁹ D. Crystal. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. –MA: 2008. –p.220.

⁹⁰ N.S. Trubetzkoy. *Principles of Phonology*. –Berkeley: 1969. –p.33–41.

⁹¹ J. Lyons. *Semantics*. Vol. 1. – Cambridge: 1977. –p.17–35.

“*Prescriptive linguistics*” til me’yorlarini belgilab beruvchi normativ va ko‘proq pedagogik-grammatik an’anada qo‘llaniladi.

“*Descriptive*” va “*prescriptive*” fikrlar qarama-qarshi ko‘rinsa-da, amalda ular o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi funksiyaga ega bo‘lib, birinchisi real til holatini kuzatsa, ikkinchisi uni ijtimoiy jihatdan me’yorlashtirishni ta’minlaydi.

Adabiyotshunoslikda terminlar badiiy matnlarni amaliy tahlil qilish, janrlarni tasniflash, poetik uslublarni belgilash hamda ideologik-falsafiy qatlamlarni ochib berish vositasidir. M.Baxtin (1981) terminlarning funksional chegaralarini aniq belgilab, badiiy matnning ichki ideologik, diskursiv va janr paradigmalarini izchil tahlil qilinishini qayd etadi.

Quyidagi tahlil asosiy adabiyotshunoslik terminlariga asoslanadi.

“*Metafora*” – bir predmetni boshqasi orqali tasvirlash asosida tuzilgan ko‘chma ma’nodagi poetik vosita; u metonimiyadan (yaqinlik asosidagi nomlash) semantik asos bo‘yicha farqlanadi.⁹²

“*Epitet*” – obrazli tasvirga emotsional rang beruvchi sifatlovchi vosita bo‘lib, alegoriya (g‘oyaviy simvol) va simvol (ko‘p qatlamli tasvir) bilan adashtirilmasligi lozim.

“*Alegoriya*” – abstrakt tushunchalarni butun bir voqea yoki personaj orqali ifodalovchi poetik shakldir.

Keltirilgan misollardan kelib chiqib, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi terminlarni muloqotni standartlashtiruvchi epistemik birliklar, deb ayta olamiz. Har bir atamaning semantik aniqligi, universal moslashuvchanligi zamonaviy gumanitar fanlarning yaxlitligini ta’minlaydi. Terminologik izchillikni saqlash, ularning aniq chegaralarini belgilash taraqqiyotning muhim strategiyasidir.

Adabiyotshunoslik terminologiyasi matnni konseptual anglash, tafakkur modelini tasniflash va estetik qatlamlarni ochishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘lib, u o‘zbek adabiyotshunoslarining qarashlari orqali milliy terminologik tafakkurning qamrovi hamda ilmiy yondashuvlarini belgilashga yordam beradi.

E.Xudoyberdiyev o‘zining “*Adabiyotshunoslikka kirish*” asarida adabiyot terminlarining semantik aniqligi va tushunchaviy chegaralari haqida keng fikr bildiradi. Olimning ta’kidlashicha, “adabiy termin har doim muayyan poetik, janr yoki uslubiy tushunchaga bevosita tegishli sanalib, anglatuvchilik vazifasini bajaradi”.⁹³ Bu qarashga ko‘ra,

⁹² I.A. Richards. *The Philosophy of Rhetoric*. –Oxford: 1936. –p.89–96.

⁹³ E.Xudoyberdiyev. *Adabiyotshunoslikka kirish*. –Toshkent: 2007. –B. 41.

“*epitet*”, “*simvol*”, “*tragediya*” kabi terminlar badiiy matnning ichki qatlamlarini modellashtirishda funksional birlik sifatida qo‘llanadi.

Filologiya sohasida faoliyat yurituvchi yetuk olimlar D.O‘rayeva va D.Quvvatova tomonidan tuzilgan “Jahon adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” adabiyot terminlarining xalqaro semantik moslashuvchanligini yoritishda muhim manbadir ⁹⁴. Lug‘atdagi “*metaphor*”, “*romantism*”, “*symbolism*” kabi atamalarning ingliz, fransuz, rus va o‘zbek adabiyotidagi semantik ekvivalentlari bu terminlarning transmadaniy talqinlar orqali bir-biriga yaqin qo‘llanilishini ko‘rsatadi, terminlar xalqaro tadqiqotlarda kontekstlararo moslashuvchanlikni ta‘minlashini isbotlaydi.

Lingvopragmatika va stilistika sohalarida izlanishlar olib boruvchi J.Eltazarov o‘zining “Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv” asarida adabiyotshunoslik terminlari masalasiga lingvopragmatik nuqtai nazardan yondashadi ⁹⁵. Olim terminlarning ixchamligi, tejamliliigi funksional muloqotning samaradorligi uchun muhimlikni ko‘rsatib, “*sonet*”, “*drama*”, “*epik*” kabi terminlar mazmun jihatidan ixcham bo‘lishi bilan kognitiv yukni kamaytirishi va muloqotni soddalashtirishini ta‘kidlaydi.

M.Yo‘ldoshev “Badiiy matn lingvopoetikasi” asarida terminlarni “matnning ichki strukturasi, estetik niyat va poetik kommunikatsiya o‘rtasidagi interfeys” deb ta‘riflab, “*simvol*” va “*epitet*” terminlari estetik obrazlar yaratilishidagi stilistik isbotini keltiradi. ⁹⁶

Terminlar orqali badiiy matn strukturasi, janrlararo chegaralar, poetik diskurs, madaniyatlararo adabiyotshunoslik kodlarining uyg‘unligi aniqlanadi, semantik-analitik, lingvopoetik va madaniy-komparativ yondashish zamonaviy adabiyotshunoslikda metodologik poydevor yaratadi.

Terminlarning tahlillaridan ularning semantik aniqligi, xalqaro moslashuvchanlik, poetik tahlildagi lingvopoetik roli va muloqotdagi funksional ixchamligi namoyon bo‘ladi. Demak, lingvistik va adabiyotshunoslik terminlari tafakkurni tizimlashtiruvchi va estetik anglanishni soddalashtiruvchi vosita sifatida baholanishi zarur, degan xulosaga kelish mumkin.

⁹⁴ D.O‘rayeva, D. Quvvatova. Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati. –Buxoro: 2019. –B. 180.

⁹⁵ J. Eltazarov. Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. –Samarqand:2004. –B. 110.

⁹⁶ M.Yo‘ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: 2008. –B. 47–53.

2.2. Ingliz va fransuz tillaridagi lingvoadabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-semantik tuzilishi

Ingliz va fransuz tillarida shakllangan tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminologiyasi har bir tilning madaniy, ilmiy, falsafiy rivojlanish yoʻnalishlari bilan bogʻliq boʻlib, ularning tarkibiy va mazmuniy jihatlari sezilarli farqlarni ravshanlashtiradi. Fransuz strukturalizmining asoschisi Ferdinand de Sossyur tilshunoslikning nazariy poydevorini yaratgan boʻlib, u til (*langue*) va nutq (*parole*) tushunchalarini keskin ajratadi. Sossyurga koʻra, “*langue*” – bu ijtimoiy va jamoaviy belgilar tizimi, “*parole*” individual va konkret nutq aktidir⁹⁷. Fransuz tilshunosligida farqlash tahlil usulining muhim elementi hisoblanadi.

Ingliz tilshunosligida terminlar “*language*” va “*speech*” orqali ifodalanadi. Biroq, “*language*” ingliz tilida koʻproq umumiy til tizimini anglatib, Sossyur tavsiflagan ijtimoiy kontekstdagi “*langue*” tushunchasini toʻliq qamrab olmaydi. Natijada, ingliz tilidagi terminlar koʻproq analitik va amaliyotga asoslangan boʻlsa, fransuz tilidagi atamalar strukturalistik va abstrakt tasnifga yaqin turadi.

N.Chomskiy⁹⁸ tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion-generativ grammatika ingliz tilshunosligiga yangi tushunchalarni olib kirdi. “*Deep structure*” (chuqur tuzilma) va “*surface structure*” (sirtqi tuzilma) terminlari tilda mazmun va sintaksis darajalarini tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Fransuz tilshunosligida bu tushunchalar “*structure profonde*” va “*structure superficielle*” sifatida tarjima qilinsa-da, ular Chomskiy paradigmasi darajasida keng qoʻllanilmaydi. Bu farq, asosan, fransuz anʼanalarining strukturalistik va fenomenologik yoʻnalishga tayanishi bilan bogʻliq.

Adabiyotshunoslik terminologiyasi sohasida fransuz olimi J.Jenet taklif etgan “*narration*” (hikoya qilish), “*focalization*”, va “*niveaux de narration*” (hikoya darajalari) tushunchalari hozirgi zamon narratologiyasining poydevorlaridan biri hisoblanadi⁹⁹. J.Jenettning nazariyasiga koʻra, har bir badiiy matn koʻp qavatli hikoya kontekstlaridan tashkil topadi va bu kontekstlar orqali matn tahlil qilinadi.

⁹⁷ F.Saussure. Cours de linguistique générale.–Paris: 1916. –p.23–31.

⁹⁸ N.Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. –Cambridge: 1965. –p.15–30.

⁹⁹ G.Genette Narratologie: Figures III. –Paris: 1972. –p.245–278.

Ingliz adabiyotshunosligida ushbu terminlar tarjimada qabul qilinadi: “*narration*”, “*levels of narrative*”, “*internal/external focalization*”. Ingliz tadqiqotlarida tushunchalar ko‘proq pragmatik va psixologik aspektlarda tahlil qilinadi, fransuz tilida struktura va matn ichki tizimiga urg‘u beriladi.

Quyida berilgan jadvalda ingliz va fransuz terminologik tizimlarining farqlari umumlashtirilgan:

2.2.1-jadval.

Inglizcha va fransuzcha terminlarning qiyosiy tahlili

Terminologik juftlik	Ingliz tili	Fransuz tili	Izoh
Til va nutq	language / speech	langue / parole	Ingliz tilida umumiyroq, fransuz tilida aniq ajratilgan
Tuzilma darajalari	deep / surface structure	structure / profonde structure superficielle	Ingliz tilida Chomsky modeli asosida; fransuzda kamroq
Hikoya tahlili	narration / narrative levels	narration / niveaux de narration	Ingliz tilida psixologik yondashuv; fransuz tilida struktural
Fokalizatsiya (e‘tibor markazi)	focalization (internal/external)	focalisation (interne/externe)	Har ikki til matnshunoslikda o‘z yondashuvini belgilaydi

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalaridagi ingliz hamda fransuz terminlari o‘ziga xos tarixiy shakllanish yo‘li va kontekstdagi qo‘llanish uslublari bilan ajralib turadi. Fransuz tilshunosligi ko‘proq strukturalizm va sotsiologik, ingliz terminologiyasi analitik, kognitiv va transformatsion usullarga tayanadi.

Ingliz tilida shakllangan ba’zi terminlar quyidagilardan tashkil topgan:

2.2.2-jadval.

Yunon etimologiyasiga asoslangan terminlarning semantik talqini

Termin (Ingliz)	Asosi (Yunoncha)	Mazmuni
Phonology	<i>phōnē</i> (“ovoz”) + <i>logos</i> (“ilm”)	Tovush tizimining strukturaviy va funksional tahlili
Syntax	<i>syntaxis</i> (“tuzilish”)	Grammatik birliklarning tartib va aloqalari
Morphology	<i>morphē</i> (“shakl”) + <i>logos</i>	So‘z shakllarining strukturaviy o‘zgarishi
Poetics	<i>poiētikē</i> (“yaratuvchilik san’ati”)	She’riy janrlar va poetik qonuniyatlar tadqiqi

Fransuz tilshunoslik va adabiyotshunoslik maktablari antik ildizli terminlarni qabul qilgan.

Ingliz va fransuz terminologiyasi tarixiy ildizlariga sodiq qolgan holda, zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda rivojlangan va madaniy hamda lingvistik omillar sintezi orqali global ilmiy diskursga integratsiyalashgan.

Lotin tili ham terminologik tizim shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Jumladan:

2.2.3-jadval.

Lotin etimologiyasi asosida shakllangan lingvistik va adabiyotshunoslik terminlari

Termin (Ingliz)	Lotin manbasi	Mazmuni
Grammar	<i>grammatica</i>	Grammatik va morfologik birliklarning o‘zaro aloqasi
Rhetoric	<i>rhetorica</i>	Nutq san’ati va ifoda uslublari
Literature	<i>litteratura</i>	Yozma matnlarning estetik tahlili

Fransuz tilidagi “*grammaire*”, “*rhétorique*” va “*littérature*” kabi terminlar mos inglizcha atamalar – *grammar*, *rhetoric*, *literature* – bilan uyg‘unlikda fonetik va semantik jihatdan shakllanadi. Bu terminlar ko‘pincha kompozitsiya usuli orqali vujudga keladi (masalan, *morpheme–morphème*, *discourse–discours*), hamda estetik-semantik birliklar orqali (masalan, *figurative–figuré*, *metaphorical–métaphorique*) yanada murakkab va chuqur ma’noga ega bo‘ladi.

Ingliz va fransuz tillari terminologiyasining o‘zaro ta’siri leksik transfer, kognitiv struktur va diskursiv metodologiyalar darajasida chuqur integratsiyani ta’minlaydi.

E.Benvenist “nutq pozitsiyasi” (*énonciation*) nazariyasini ishlab chiqadi¹⁰⁰. Derrida terminlarning nisbiyligi va ma’no o‘zgaruvchanligini tahlil qiladi¹⁰¹.

Terminlarning fanlararo diskursdagi o‘zaro ta’siri jarayonida fransuz tilshunosligi va adabiyotshunosligi ingliz diskursiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Fransuz atamaları, jumladan “*langue*”, “*parole*”, “*discours*” ingliz tilida ham lingvistik terminologiyaning ajralmas qismiga aylandi. Masalan, *langue* ingliz tilida “*language system*” (til tizimi) sifatida, “*parole*” esa “*individual speech act*” (individual nutq akti) sifatida talqin qilinadi. “*Structure*” (strukturaviy model), “*function*” (funktional rol) va “*competence*” (til bilish salohiyati), fransuz adabiyotshunosligi va tilshunosligi matnlariga kirib, diskursni boyitgan.

O‘zaro integratsiyaning ilmiy va madaniy natijalari lingvistik, adabiy tafakkurning global darajada universallashtirishiga olib keldi. Lingvistika va adabiyotshunoslik milliy chegaralardan chiqib, xalqaro diskurs uchun terminologik asos yaratdi. Ikkala tillarda terminlar bevosita o‘zlashtirildi, madaniy muhitda o‘ziga xos semantik va pragmatik modifikatsiyaga uchradi.

Ikki til terminologiyasining o‘zaro ta’siri kognitiv-diskursiv integratsiya bilan tavsiflanib¹⁰², semantik hududlarning kengayishi va fanlararo muloqotning intensivlashuvi orqali shakllandi. Ingliz va fransuz tillari misolida olib borilgan qiyosiy-kognitiv va pragmatik tahlil terminlarning umumiy ildizlariga qaramasdan, semantik, madaniy tafovutlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda asosiy poetik va stilistik terminlarning inglizcha va fransuzcha shakllari hamda ularning semantik-madaniy tafovutlari tizimlashtirilgan:

¹⁰⁰ É. Benveniste. Problems in General Linguistics. –Florida: 1971. –p.223–230.

¹⁰¹ J. Derrida. Of Grammatology. – Baltimore: 1976. –p.62–73.

¹⁰² –P.H. Matthews. The Concise Oxford Dictionary of Linguistics. –Oxford: 2014. –p.137–140; 245–248.

2.2.4-jadval.

Inglizcha va fransuzcha poetik-stilistik terminlarning semantik-madaniy differensial jihatlari

Kategoriya	Inglizcha atama	Fransuzcha atama	Semantik va madaniy farq
Poetik janr	epic, tragedy	épopée, tragédie	Antik ildizga ega bo'lsa-da, milliy qahramonlik konsepsiyasi shakllanishi har bir til va madaniyatda turlicha.
Badiiy vosita	metaphor, simile	métaphore, comparaison	Simile ingliz tilida "like/as" orqali ifodalanadi, fransuz tilida "comme" bog'lovchisi bilan ifodalanadi.
Stilistik figura	irony, hyperbole	ironie, hyperbole	Fransuz stilistik interpretatsiyasida ijtimoiy konnotatsiya kuchliroq, ijtimoiy tanqidga yo'naltirilgan.
Matn tuzilishi	narrative voice	voix narrative	Fransuz adabiyotida ichki monolog shakllanishi aniqroq va psixologik tafakkurga tayangan.
Janr tavsifi	drama, satire	drame, satire	Satira ingliz adabiyotida ijtimoiy kritikaga, fransuz adabiyotida ijtimoiy-estetik ifodaga urg'u beradi.

Poetik va stilistik terminlarning qiyosiy tahlilidan kelib chiqib, ingliz va fransuz tillari o'zining tarixiy, madaniy, kognitiv kontekstlariga mos holda terminlarni o'zlashtirgan va rivojlantirgan, deyish mumkin.

Masalan, "*epic*" va "*épopée*" atamaları har ikkala til tizimida antik yunon-rim adabiyotidan kelib chiqqan bo'lsa-da, ingliz epikasi ko'proq milliy qahramonlik va individuallikga urg'u beradi (*Beowulf*, *Paradise Lost*), fransuz "*épopée*"larida qahramonlik va tarixiy jarayonlar aks ettiriladi (*La Chanson de Roland*).

Badiiy vosita sifatida "*metaphor*" va "*métaphore*" semantik mazmuni saqlagan bo'lsa-da, "*simile*" (ingliz tilida *like/as* bilan) va "*comparaison*" (fransuz tilida *comme* bilan) o'rtasida pragmatik hamda stilistik ifoda uslublari farq qiladi. Ingliz stilistikasida "*simile*" oddiy va bevosita qiyos vositasi sifatida ishlatilsa, fransuz matnlarida "*comparaison*" ko'pincha poetik ta'sir doirasini kuchaytiradi.

Stilistik figuralar – "*irony*" va "*hyperbole*" – ingliz adabiyotshunosligida ko'proq individual tafakkur va tanqidiy fikrning

ifodasi sifatida qo‘llanilsa, fransuz adabiyotida ular jamiyatdagi an’anaviy tartibga nisbatan estetik tanqid vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Matn tarkibidagi “*narrative voice*” (inglizcha) va “*voix narrative*” (fransuzcha) birliklari ham muhim farqlarga ega: ingliz adabiyotida odatda an’anaviy hikoya qiluvchi pozitsiyadan chiqilmaydi, fransuz adabiyotida ichki monolog shaklida qahramonning psixologik ichki olamini tahlil qilish afzal ko‘riladi (*Marcel Proust* uslubiga xos)¹⁰³.

Janr tavsifida ham sezilarli tafovut mavjud: ingliz adabiyotida “*satire*” ko‘proq ijtimoiy tanqidning o‘tkir va sarkastik shaklini aks ettirsa (Swiftning “*A Modest Proposal* asari”)¹⁰⁴, fransuz adabiyotida “*satire*” ko‘proq estetik to‘qimalangan va ijtimoiy-estetik didaktik shaklga ega (Molièrening asarlarida)¹⁰⁵.

Misol sifatida “*allegory*” va “*allégorie*” terminlarini olsak, ingliz tilida “*allegory*” ko‘proq abstrakt g‘oyalarni falsafiy yoki axloqiy shaklda ifodalaydi. (masalan, *The Pilgrim’s Progress*).

Fransuz tilida “*allégorie*” ko‘proq obrazli va poetik vosita sifatida qo‘llaniladi, u ko‘pincha tasviriy san‘at va she‘riyatda dinamik, ko‘rinadigan simvolik shakllarda qo‘llaniladi¹⁰⁶.

Ingliz tili tarixan fransuz va nemis tillari bilan uzviy aloqada bo‘lib, badiiy terminologiyaga ikkala tildan olingan ko‘plab birliklar singib ketgan. Bu terminlar kelib chiqishi, semantik kengayishi, madaniy konnotatsiyalari orqali ingliz tilining zamonaviy ilmiy diskursini boyitgan va fanlararo aloqalarni mustahkamlagan.

Navbatdagi jadvalda ingliz tiliga o‘tgan terminlar va ularning asosiy ma‘nolarini ko‘rish mumkin:

2.2.5-jadval.

Transmadaniy adabiyotshunoslik terminlari: etimologiya va funksional tahlil

Termin (Ingliz)	Manba til	Asl shakl	Asosiy ma‘no	Adabiyotshunoslik qo‘llanish
<i>Genre</i>	Fransuz	<i>genre</i>	Tur, toifa	<i>Tragedy, comedy, novel</i> janr tasnifi
<i>Leitmotif</i>	Nemis	<i>Leitmotiv</i>	Asosiy mavzu	Asarda ramziy g‘oya takrorlanishi
<i>Déjà vu</i>	Fransuz	<i>déjà vu</i>	Ilgari ko‘rilgan holat	Ong va xotira tajribalari

¹⁰³ M. Proust *In Search of Lost Time*. –London: 2003. –p.312–318.

¹⁰⁴ J. Swift. *A Modest Proposal and Other Satires*. –New York:1996. –p.5–12.

¹⁰⁵ Molière. *Tartuffe and Other Plays*. –New York: 1967. –p.40–45.

¹⁰⁶ J.A.Cuddon. *The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary Theory*. –London:1999. –p.25–27;511–515.

“Genre” termini adabiyot matnlarni tasniflashda asosiy tushuncha bo‘lib, u tragediya (*tragedy*), komediya (*comedy*), va roman (*novel*) kabi shakllarni belgilashda qo‘llanadi. Termining fransuzcha “genre” shakli Aristotelning “*Poetika*” asarida asoslangan tragediya janri tahliliga borib taqaladi. Aristotel tragediyani qahramonning falokatga olib keluvchi xatoligi (hamartiya) va tomoshabindagi “*catharsis*” orqali ta’riflaydi, bu zamonaviy janr tasniflari uchun poydevor bo‘lib hisoblanadi. “*Leitmotif*” atamasi nemischa “*leitmotiv*” so‘zidan olingan bo‘lib, termin ilk bor R.Vagnerning operalarida har bir qahramon, holat yoki g‘oyani ifodalovchi musiqiy fragment sifatida qo‘llanilgan. Masalan, “*Tristan und Isolde*” operasida asosiy sevgi mavzusi takroriy musiqiy motiv orqali tinglovchiga eslatib turiladi. Bu konsept keyinchalik adabiyotshunoslikga ham o‘tib, badiiy matnda ramziy g‘oyaning muntazam takrorlanishini anglatadi. “*Déjà vu*” termini fransuz tilidan olingan bo‘lib, “*ilgari ko‘rilgan holat*” degan ma’noni anglatadi va asosan ong va xotira tajribalari bilan bog‘liq. Adabiyotshunoslikda bu fenomen, masalan, Jeyms Joysning “*Ulysses*” romanida tafakkur sahnalari orqali noaniq tanishlik va ong jarayonlarining murakkabligini tasvirlashda ishlatilgan. Terminlar kelib chiqishi, semantik yuklamasi va badiiy funksiyasi jihatidan turli tillar va madaniyatlar orasida ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Fransuz terminologiyasining asosiy qismi qadimgi yunon va lotin tillaridan o‘zlashtirilgan¹⁰⁷, fonetik, morfologik va semantik jihatdan fransuz tili tizimiga moslashtirilgan.

Quyidagi jadval fransuz terminlari va ularning etimologiyasini ko‘rsatadi:

2.2.6-jadval.

Fransuz tilidagi lingvistik terminlar: etimologiyasi va funksional qo‘llanilishi

Termin (Fransuz)	Asl manba	Asosiy ma’no	Qo‘llanilishi
Linguistique	Latin (lingua)	Tilshunoslik	Syntax, pragmatics, language evolution
Grammaire	Greek (grammatike) Latin (grammatica)	Yozuv san’ati va grammatik tuzilma	Sintaksis va morfologik tahlil
Rhétorique	Greek (rhetorikē)	Nutq san’ati	Auditoriyani ishontirish va stilistik vositalar

¹⁰⁷ R. Fowler. *Linguistics and the Novel*. –London: 1977. –p.50–100.

Fransuz tilshunoslik diskursida “*linguistique*”, “*grammaire*” va “*rhétorique*” terminlari o‘zining tarixiy-etimologik ildizlari bilan ilmiy konsepsiyalar tizimini shakllantiradi. “*Linguistique*” termini lotincha “*lingua*” (til) so‘zidan kelib chiqib, tilning strukturasi va tarixini o‘rganadi. “*Grammaire*” yunoncha “*grammatikē*” va undan o‘tgan lotincha “*grammatical*” til birliklarining sintaktik va morfologik tuzilishini tartibga soladi. “*Rhétorique*” yunoncha “*rhetorikē*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, nutq san’ati sifatida auditoriyani ishontirish va ta’sir ko‘rsatish uslublarini o‘z ichiga oladi. Klassik ritorika doirasida “*métaphore*” (metafora) va “*allégorie*” (allegoriya) kabi stilistik vositalar markaziy o‘rinni egallaydi ¹⁰⁸. Fransuz tilidagi adabiyotshunoslik diskurslar ko‘pincha “*univocité*” – ya’ni bir ma’ nolilik tamoyiliga tayanadi.

2.2.7-jadval.

Chomsky nazariyasiga oid fransuz sintaktik terminlari

Termin (Fransuz)	Izohi	Nazariy asos
<i>Structure profonde</i>	Gapning yashirin semantik va grammatik tuzilmasi	Chomsky transformatsion-generativ grammatikasi
<i>Structure superficielle</i>	Gapning yuzaga chiqqan grammatik shakli	Transformatsion qoidalar orqali tahlil

Fransuz tilshunosligida “*structure profonde*” (botiniy tuzilma) atamasi gapdagi yashirin semantik va sintaktik bog‘liqliklarni ifodalaydi; ya’ni u gap yuzasiga chiqmagan sintaktik munosabatlarni ochib beradi (*La structure profonde révèle les relations syntaxiques implicites*). Bunga qarama-qarshi holda, “*structure superficielle*” (yuzaki tuzilma) – gapning grammatik jihatdan yuzaga chiqqan ko‘rinishi bo‘lib, u transformatsion qoidalar orqali tahlil qilinadi (*La structure superficielle est analysée dans la grammaire transformationnelle*). Bu ikki qatlam orasidagi o‘zaro aloqani tushunish Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion-generativ grammatika doirasida sintaktik strukturalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Jumladan, “*discours littéraire*” (adabiy nutq) atamasi adabiy matnlarning uslubiy, semantik va kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilishda faol qo‘llaniladi.

H.G.Viddouson o‘zining “*Stylistics and the Teaching of Literature*” (1975) asarida badiiy matnlarning o‘rganilishida stilistik tahlilning

¹⁰⁸ U. Eco. *The Role of the Reader*. –Bloomington: 1979. –p.25–65: 120–160.

ahamiyatini ta'kidlaydi ¹⁰⁹. Olimning fikricha, “*narration*” (hikoya qilish) matn struktura va mazmunini tahlil qilsa, “*poésie classique*” (klassik she'riyat) uslubiy va semantik jihatdan yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Fransuz tilining terminologiyasi ko'pincha lotin va yunon ildizlariga asoslanadi, tizimlilik va milliy madaniy an'analarga moslashish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ingliz va fransuz tillaridagi terminologik birliklar tarkibiy jihatdan sezilarli farq qiladi. Bu farqlar har ikki tilning morfologik, sintaktik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Ingliz tilida terminlar asosan analitik shaklda qurilib, qisqa va aniq ifoda bilan ajralib turadi. Ular odatda ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z birikmasidan tashkil topadi. Masalan, “*narrative perspective*” termini “*narrative*” (hikoya) va “*perspective*” (qarash nuqtasi) so'zlarining birikmasidan hosil bo'lib, adabiyotshunoslikda hikoya qiluvchi subyektning nuqtai nazarini bildiradi.

Noam Chomskiy (*Aspects of the Theory of Syntax*, 1965) ingliz tili terminlarining sintaktik botiniy va sirtqi tuzilmalar o'rtasidagi semantik aloqalarni ochib berishdagi moslashuvchanligini ta'kidlaydi ¹¹⁰.

Joffrua (Geoffroy, 1995) ta'kidlaganidek, fransuz tilida terminologik birliklar ko'pincha bitta so'zli shaklda yoki sifatlarning determinatorlar bilan birikishi orqali hosil qilinadi. Masalan, “*structure profonde*” (chuqur tuzilma) termini “*structure*” (tuzilma) va “*profonde*” (chuqur) so'zlarining birikmasidan hosil bo'lib, gapning semantik asosini tashkil etuvchi grammatik tuzilmani anglatadi. Shuningdek, “*formation des mots*” (so'z shakllanishi) morfologik jihatdan “*formation*” (shakllanish) va “*des mots*” (so'zlar) birikmasidan tuzilgan bo'lib, lingvistikada so'zlarning yasaliş jarayonini tahlil qilish uchun ishlatiladi (Geoffroy, 1995, p. 72).

E. Benvenist (1966) fransuz tili birliklarining semantik aniqligi va tizimlilik prinsiplariga asoslanishini ta'kidlaydi. (Benveniste, 1966, p. 128).

Ingliz va fransuz tillaridagi terminlarning semantik mohiyati va funksional farqlari, filologiya sohalarida nazariy va amaliy yo'nalishlarni shakllantiradi. Ingliz tilidagi “*narrative*” va “*discourse*” atamaları odatda amaliy tahlil va matn jarayonlariga qaratilgan bo'lsa,

¹⁰⁹ Widdowson H.G. *Stylistics and the Teaching of Literature*. –London: 1975. –p.23–24.

¹¹⁰ Chomsky N. *Syntactic Structures*. –The Hague: 1957. –p.54.

fransuz tilidagi “*narration*” va “*discours*” ko‘proq konseptual yondashuvni ifodalaydi (Adam, 1992).

Tilshunos olim A.Martine (1960) terminologiyaning ingliz va fransuz tillari o‘rtasidagi almashinuv jarayonini tahlil qilib: “*Fransuz va ingliz tillari o‘rtasida terminologik almashinuv lingvistika, adabiyotshunoslik va boshqa fan sohalarida yangi tushunchalarning rivojlanishiga olib kelgan*” deya ta’kidlaydi (Martinet, 1960, p. 89).

Bu o‘zaro ta’sir ikki yo‘nalishda amalga oshgan:

Fransuz tilidan ingliz tiliga terminlar o‘tishi: Fransuz tili tarixan ko‘plab tushunchalarning manbai bo‘lgan. Masalan, *déconstruction* (dekonstruksiya) termini J.Derrida tomonidan ishlab chiqilgan (Derrida, 1967) va keyinchalik ingliz tiliga *deconstruction* shaklida o‘tgan. Dekonstruksiya matn qurilishini va undagi yashirin qarama-qarshiliklarni tahlil qilish metodidir.

Ingliz tilidan fransuz tiliga terminlar o‘tishi: Global texnologik rivojlanish jarayonida ingliz tilidan fransuz tiliga ko‘plab terminlar singdirilgan. Masalan, “*computer linguistics*” (kompyuter lingvistikasi) atamasi fransuz tilida “*linguistique informatique*” shaklida qabul qilingan bo‘lib, til tuzilmasini va ishlash jarayonini kompyuter texnologiyalari orqali o‘rganish sohasini anglatadi.

Shuningdek, “*deep learning*” (chuqur o‘rganish) tushunchasi ham ingliz tilidan fransuz tiliga “*apprentissage profond*” shaklida o‘tgan. Texnologiya bo‘yicha yetakchi olim Joffri Hinton (Geoffrey Hinton) fikricha, “*deep learning*” – sun’iy intellekt rivojlanishining fundamental asosidir.

Fransuz tili terminologiyasi nazariy tushunchalarni aniq va tizimli ifodalaydi. Joffri ta’kidlaganidek, fransuz tilida terminologik birliklar ko‘pincha bitta so‘zli shaklda birikishi orqali hosil qilinadi¹¹¹, shu bilan birga, bir tomondan, terminlarning ixchamligini, ikkinchi tomondan, semantik aniqligini ta’minlaydi.

E.Benvenist (1966) fransuz tili terminologiyasining xususiyatlarini tahlil qilib, uning semantik aniqlik, tizimlilik prinsiplariga asoslanganligini ta’kidlaydi. Benvenist fikricha, terminlar tizimining mazmuniy ravshanligi muloqotda aniq va barqaror tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi¹¹².

Fransuz tilshunosi Jean-Michel Adam tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ingliz tilidagi “*narrative*” va “*discourse*” terminlari

¹¹¹ G. Leech. *Style in Fiction*. –London:1981. –p.100–150.

¹¹² É. Benveniste. *Problèmes de linguistique générale*. –Paris: 1966. –p.128.

asosan amaliy tahlil va matnning kompozitsiyasi jarayonlariga e'tibor qaratgan holda qo'llanilsa, fransuz tilidagi "narration" va "discours" terminlari nazariy-konseptual tahlilga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu tafovut tilshunoslik va adabiyotshunoslikda metodologiyaning turlicha shakllanishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, ingliz va fransuz tillari o'rtasidagi terminologik almashinuv global madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Terminologik ta'sir ikki tilda ham yangi tushunchalarning yaratilishiga, mavjud terminlarning semantik, funksional kengayishiga olib keladi.

Fransuz tilidan ingliz tiliga o'tgan, ya'ni o'zlashgan terminlar ko'pincha adabiyotshunoslik, falsafa va ijtimoiy fanlar sohalarida uchraydi. Jumladan:

Rhetoric (fr. *rhétorique*) – notqlik san'ati;

Critique (fr. *critique*) – tanqidiy tahlil;

Genre (fr. *genre*) – adabiyotshunoslik janr tushunchasi¹¹³.

Ushbu terminlarning ingliz diskursiga kirib kelishi natijasida olimlarning qarashlarida stilistik boylik va metodologik diversifikatsiya yuzaga kelgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "Middle English Dictionary" (MED)¹¹⁴ ma'lumotlar bazasida fransuz tilidan ingliz tiliga o'tgan terminlarning 30% dan ortig'i adabiyotshunoslik va san'at sohalariga oid bo'lgan.

XX–XXI-asrlarda ingliz tilining fransuz tiliga bo'lgan ta'siri natijasida inglizcha texnologik atamalar fransuz leksikasini sezilarli darajada boyitdi. Jumladan, "big data" (fr. *données massives*) – katta ma'lumotlar tahlili; "machine learning" (fr. *apprentissage automatique*) – o'z-o'zini o'rgatish tizimlari; "computer linguistics" (fr. *linguistique informatique*) – tilni texnologik vositalar yordamida tahlil qilish kabilardir.

"Commission d'enrichissement de la langue française" (2019) ma'lumotlariga ko'ra, 1995–2018-yillarda fransuz tiliga kirgan inglizcha texnologik terminlar soni 380 dan oshgan. Ingliz va fransuz terminologiyasining asosiy qatlamini qadimgi yunon va lotin tillaridan olingan birliklar tashkil etadi:

Phonology, syntax, morphology kabi ingliz terminlari;

Sémiotique, rhétorique, grammaire kabi fransuz terminlari.

¹¹³ M. Görlach. *Lexical Influence of French on Middle English*.—Amsterdam: 2002. —p.68–70.

¹¹⁴ J.Simpson, E.Weiner. *The Oxford English Dictionary*. 2nd ed. Oxford: 1989.

Bu terminlarning tarqalishi unifikatsiyalashgan termin tizimini shakllantirgan.¹¹⁵ Lotin va yunon ildizlari asosidagi terminlarning diskursdagi ulushi taxminan 65–70% ni tashkil etadi¹¹⁶.

Ingliz va fransuz tillarida shakllangan terminologiya o‘zining uslubi, terminlarning xususiyati, moslashuv darajasi jihatidan sezilarli farqlarga ega. Quyida keltirilgan jadvalda qiyoslanayotgan tillarning terminologik tizimlari o‘rtasidagi nazariy va amaliy tafovutlar taqqoslangan.

2.2.8-jadval.

Ingliz va fransuz terminologiyasining tizimli o‘ziga xosliklari

Asosiy omillar	Ingliz terminologiyasi	Fransuz terminologiyasi
Yondashuv uslubi	Analitik, qisqa, amaliy	Nazariy, tizimli, tafsilotli
Termin xususiyati	Dinamik, adaptiv	Semantik aniqlikka yo‘naltirilgan
Moslashuv qobiliyati	Yuqori (xususan texnologik terminlar)	O‘rtacha (standartlashtirish muhim)

Benvenist (1966) fransuz terminologiyasining izchilligini ta’kidlagan bo‘lsa, Chomsky (1965) ingliz tilidagi terminlarning amaliy samaradorlikka qaratilganligini asoslab beradi.

E.Xaugen (1950) va Kabre (1999) tomonidan ilgari surilgan asoslarga tayangan holda, ingliz va fransuz tillari o‘rtasidagi o‘zaro terminologik almashinuv jarayoni modellashtirilib, uning bosqichlari, xususiyatlari tahlil asosida bayon etiladi.

1. *Reception* (qabul qilish): Yangi termin boshqa tilga kirib kelishi (masalan, *déconstruction* ingliz adabiyotshunosligiga kirib keldi).

2. *Adaptation* (moslashuv): Termin fonetik va morfologik moslashuvi (*genre* ingliz tilida /ʒanr/ tarzida talaffuz qilinadi).

3. *Integration* (integratsiya): Termin ilmiy diskursda funksional birlikka aylanadi (masalan, “*machine learning*” fransuz ilmiy jurnallarida standart termin sifatida ishlatiladi).

Bu modellashtirish tillararo va madaniyatlararo adaptatsiya jarayonini ilmiy asosda izohlaydi.

¹¹⁵ D. Crystal. English as a Global Language. – Cambridge: 1997. –p.94.

¹¹⁶ –P.Durkin. Borrowed Words: A History of Loanwords in English. – Oxford: 2014. –p.102–103.

Terminologik almashinuvning madaniy omillari quyidagicha tizimlashtiriladi: birinchidan, globalizatsiya jarayonlari ingliz tilining xalqaro muloqotdagi dominant rolini mustahkamlab, terminologik almashinuvni jadallashtirgan ¹¹⁷, ikkinchidan, internet va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi terminlarning global miqyosda tez tarqalishiga va ommalashuviga ko‘mak bermoqda ¹¹⁸, uchinchidan, “*Horizon Europe*” va “*ERC*” kabi transmilliy hamkorlik dasturlari doirasida ko‘plab yangi terminlar shakllanmoqda va ular turli tillar tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilinmoqda.

B.Zaydlxofer (B.Seidlhofer) ta’kidlaganidek sotsiopragmatika tillararo termin almashinuvi kommunikatsiyada o‘zaro moslashuv va madaniy tranzit jarayonlarini kuchaytiradi. ¹¹⁹

Ingliz va fransuz tillarida shakllangan lingvo-adabiyotshunoslik terminologiyasi o‘zining tarkibiy, mazmuniy xususiyatlari orqali har bir tilning rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Fransuz tilshunosligi, strukturalistik va fenomenologik yo‘nalishlarga tayanib, nazariy izchillik va tizimlilikni asosiy tamoyil sifatida belgilagan bo‘lsa, ingliz tilshunosligi analitik, amaliy, kognitiv asosdagi metodologiyani shakllantirgan.

2.3. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalaridagi terminlarning milliy-madaniy jihatdan farqlanishi

Aytish koizki, til va adabiyotshunoslik har qanday jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va estetik tafakkurining yorqin ifodasidir. Har bir tilning terminologik fondi o‘zining turli xususiyatlari bilan ajralib turadi va shu orqali lisoniy hamda adabiy istilohlar tizimining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Ingliz va fransuz lisoniy - adabiyot terminologiyasining shakllanish jarayonini qiyosiy o‘rganish, tillarning madaniy asoslari, ijtimoiy rivojlanish bosqichlari va turli me‘yorlarini aniqlashga yordam beradi. Ingliz tili o‘z tarixiy taraqqiyotida german-rim madaniyati, xristianlik, protestantlik va liberal demokratik qadriyatlar ta’sirida shakllangan bo‘lsa, fransuz tili yunon-rim an’analari, katolik axloqi, ratsionalizm va respublikachilik g‘oyalari asosida shakllangan. Har ikkala tilning terminologiyasi ham madaniy ildizlarning to‘liq ifodasi sifatida

¹¹⁷ J. House. English as a lingua franca: A threat to multilingualism? // Journal of Sociolinguistics. 2003. Vol. 7, No. 4. –p.556–578.

¹¹⁸ D.Crystal. Language and the Internet. –Cambridge: 2006. –p.30.

¹¹⁹ B.Seidlhofer. English as a lingua franca. –Oxford:2005. Vol. 59, No. 4. –p.339–341.

shakllanib, milliy tafakkurni aks ettiradi. Shuningdek, 1066-yilgi Norman bosqini ingliz adabiy tiliga fransuz va lotin ildizli ko‘plab so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘lib, tilning aristokratik va madaniy leksik qatlamini ham shakllantirdi.

2.3.1-jadval.

Adabiy terminlarning fransuzcha–inglizcha qiyosi

Fransuz manbasida	Ingliz tili terminlari	Mazmuni
<i>poésie</i>	<i>poetry</i>	She’riyat
<i>roman</i>	<i>romance</i>	Sarguzasht roman
<i>prose</i>	<i>prose</i>	Nasr
<i>chevalerie</i>	<i>chivalry</i>	Ritsarlik qadriyatlari

Bu terminlar orqali ingliz adabiyotida jamiyatning aristokratik qadriyatlari, ritsarlik etikasi va epik rivoyati mustahkamlandi.

Renessans davri Yevropa madaniyatida, xususan, ingliz va fransuz adabiyotshunoslik tafakkurida antik yunon, rim adabiyotshunoslik an’alarining qayta kashf etilishiga zamin yaratdi. Renessans davrida adabiy janrlar terminologiyaning milliy madaniyat kontekstiga moslashtirildi.

2.3.2-jadval.

Antik adabiyotshunoslik atamalarining ingliz va fransuz tillaridagi ekvivalentlari

Antik manba	Ingliz terminlari	Fransuz terminlari	Ma’nosi
τραγωδία (tragoidia)	tragedy	tragédie	Fojiya
κωμωδία (komoidia)	comedy	comédie	Komediya
ἔπος (epos)	epic	épopée	Epik she’r
δρᾶμα (drama)	drama	drame	Drama

Renessans tafakkuri antik janrlarni zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda yangilab, milliy estetik qadriyatlarni ifodalovchi adabiyotshunoslik atamalariga aylantirdi. Ingliz adabiyoti individualizm va tajribaga tayanib rivojlantirgan bo‘lsa, fransuz adabiyoti tartib, ratsionalizm va universalizm tamoyillariga asoslandi.

Protestantlik ta’sirida ingliz adabiy tafakkuri subyektiv tajribani va individual mas’uliyatni qadrllovchi terminlar bilan boyidi. XVII-asr

Fransiyasida Ludovik XIV siyosati ta'sirida adabiy til va terminologiyani qat'iy normallashtirish siyosati olib borildi. Adabiy istilohlar estetika, ratsionalizm va axloqiy me'yorlar bilan bog'liq ravishda rivojlandi.

2.3.3-jadval

Fransuz klassik adabiyoti nazariyasida estetik tamoyillar va ularning ma'nolari

Klassik tamoyillar	Fransuz terminlari	Ma'nosi
Klassik uslub	<i>classicisme</i>	Klassitsizm
Moslik va muvofiqlik	<i>bienséance</i>	Adabiyotshunoslik muvofiqlik
Haqiqiylik	<i>vraisemblance</i>	Realistik ishonarlilik

Classicism, bienséance, vraisemblance terminlari fransuz adabiyotida dramatik va epik asarlarning ideallashtirilgan realistik tasviriga zamin sanaladi.

Xususan, XVIII-asr Ma'rifat davri ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasida aql, fikrlash va mantiqiy istilohlar shakllantirildi.

2.3.4-jadval.

Ma'rifiy tushunchalarning inglizcha va fransuzcha ifodalari

Ma'rifiy tushunchalar	Ingliz terminlari	Fransuz terminlari	Ma'nosi
Aql va mantiq	reason	raison	Aql
Ma'rifat	enlightenment	lumières	Ma'rifat harakati
Falsafiy esse	philosophical novel	essai philosophique	Falsafiy asar

Fransuz sanoat inqilobi adabiy terminologiyani siyosiy-ijtimoiy qadriyatlar bilan boyitdi.

2.3.5-jadval.

Ijtimoiy qadriyatlar: ingliz va fransuz terminlari

Siyosiy-ijtimoiy qadriyatlar	Ingliz terminlari	Fransuz terminlari	Ma'nosi
Ozodlik	liberty	liberté	Erkinlik
Tenglik	equality	égalité	Tenglik
Islohot	reform	réforme	Islohot
Ideal jamiyat	utopia	utopie	Utopiya

Norman bosqini, Renessans, Protestant reformatsiyasi, Fransuz klassitsizmi, Ma'rifat davri va inqiloblar adabiyotshunoslik terminlariga shakl va mazmun jihatidan hissa qo'shdi. Ingliz adabiyotshunoslik tafakkurida individualizm va tajriba ustuvor bo'lib, fransuz adabiy tafakkurida ratsionalizm va ijtimoiy tartib g'oyalari yetakchi rol o'ynadi.

Shuningdek, ingliz va fransuz adabiy til tizimlarida erkinlik, tartib, individualizm va universallik kabi konseptlar adabiy istilohlarning mazmuniy tarkibiga va funksional yuklanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan (Anderson, 1991).

Ingliz adabiy tafakkuri "*liberty*," "*self-reliance*" va "*individualism*" kabi terminlar orqali shaxsiy tajriba va mustaqillikni estetik qadriyat sifatida yuksaltiradi va qadriyatlar, xususan, romantik she'riyatda (masalan, Wordsworth va Shelley ijodida) va realizm romanlarida (Dickens va Thackeray asarlarida) keng ko'lamda estetik ifodasini topgan.

Fransuz adabiy terminologiyasi "*universalité*," "*raison*" va "*ordre*" kabi terminlar orqali umumiy jamiyat qadriyatlari, ratsionalizm va ijtimoiy tartibni aks ettiradi (Foucault, 1970). Ma'rifat davri va klassik fransuz dramaturgiyasi (Racine va Molière asarlarida) qadriyatlarning badiiy ifodasida tayanch sanalgan.

Adabiyotshunoslik terminlarining semantik (mazmun) va pragmatik (qo'llanish) xususiyatlari har bir xalqning adabiyotshunoslik tafakkurini shakllantiruvchi faktorlardir.

Ingliz adabiyotshunoslik terminologiyasi ko'proq individual tajriba, shaxsiy kechinma va dramatik holatlarni ifodalovchi semantik maydon bilan ajralib turadi. Masalan, "*tragedy*" atamasi ingliz adabiyotida ko'pincha individual fojiya, ruhiy iztirob bilan to'yingan taqdir va emotsional kurashni aks ettiradi (Eagleton, 1983), bu Shekspir dramalarida, romantik she'riyat va XIX-asr realizmida yorqin namoyon bo'ladi.

Fransuz adabiyotshunoslik terminlari ko'proq jamiyat me'yorlari va qadriyatlar markaziga qurilgan. "*Tragédie*" atamasi fransuz adabiyotshunoslik an'analarida jamiyat axloqiy me'yorlarining buzilishi yoki umumiy ijtimoiy tartibning inqirozi natijasida yuzaga keladigan fojaviy holatni ifodalaydi, bu holat klassik fransuz dramaturgiyasida (Racine, Corneille) ko'rinadi.

2.3.6-jadval

Ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasida semantik va pragmatik tafovutlar

Termin	Ingliz tilidagi ma'no yuklamasi	Fransuz tilidagi ma'no yuklamasi
<i>tragedy</i>	Shaxsiy fojiya va individual kurash	Jamiyat axloqining buzilishi
<i>romance</i>	Ichki tajriba va shaxsiy sarguzasht	Ijtimoiy-munosabat doirasidagi sarguzasht
<i>comedy</i>	Shaxsiy kulgili hodisa va ichki ironiyalash	Jamiyatdagi kulgili anomaliya

Yuqorida berilgan jadvalda ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasidagi semantik va pragmatik tafovutlar yoritilgan. “*Tragedy*”, “*romance*” va “*comedy*” kabi janr atamalari har ikki til va adabiyotshunoslik an’anasida mavjud, ammo ularning semantik mazmuni turlicha talqin etiladi. Masalan, ingliz adabiyotida “*tragedy*” asosan shaxsiy fojiya, ichki ruhiy kurash va individual taqdir bilan bog‘liq bo‘lsa (Eagleton, 1983), fransuz an’analarda atama ko‘proq ijtimoiy axloq buzilishi kontekstida qo‘llaniladi.

Bu semantik tafovutlar bilan bir qatorda, pragmatik farqlar ham aniq ko‘zga tashlanadi. Ingliz adabiyotshunoslik istilohlari, odatda, muallifning mustaqil ovozi, subyektiv interpretatsiyasi va individual dunyoqarashini ifodalashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ingliz adabiyotida shaxsning ichki holati va psixologik kechinmalariga urg‘u berilishini ko‘rsatadi. Aksincha, fransuz istilohlari ijtimoiy kodlar, madaniy me‘yorlar va umumiy baholash standartlarida shakllanadi. Fransuz adabiyotida janrlar va estetik qadriyatlar ijtimoiy normalar bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu tarzda, ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasi o‘rtasidagi semantik-pragmatik tafovutlar, har ikki milliy adabiyotshunoslikning janr tizimi, estetik tamoyillari va tarixiy-madaniy evolyutsiyasini tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

Ingliz adabiyotida, Sanoat inqilobi va konstitutsiyaviy monarxiya davri ta’sirida jamiyatda ijtimoiy o‘zgarishlarga munosabatni aks ettiruvchi yangi terminlar, jumladan, “*progress*,” “*reform*,” va “*social novel*” kabi atamalar shakllandi)¹²⁰. Charlz Dikens (Charles Dickens)ning “*Hard Times*” asari “*social novel*” atamasining badiiy ifodasi sifatida ingliz adabiyotshunoslik tafakkuriga kirib bordi va

¹²⁰ R. Williams. *Keywords: A Vocabulary of Culture and Society*. –London:1977. –p.92–112.

sanoat jamiyatining salbiy oqibatlarini yoritish orqali adabiyotshunoslik istilohlarning ijtimoiy kontekstda kengayishini namoyish etadi.

Fransuz adabiyotida 1789-yilgi Fransuz inqilobi natijasida “*égalité*” (tenglik), “*république*” (respublika) va “*citoen*” (fuqaro) kabi istilohlar adabiyotshunoslik diskursga faol kirib keldi. V.Gyugo va E.Zola kabi yozuvchilar o‘z asarlarida bu yangi siyosiy va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettirib, adabiyotshunoslik orqali jamiyatdagi tenglik, erkinlik va fuqarolik anglanishini estetik, ideologik darajada tasvirlagan.

2.3.7-jadval.

Siyosiy-iqtisodiy omillar ta’sirida shakllangan terminlar

Siyosiy omil	Ingliz termini	Fransuz termini
Inqilob	<i>revolution</i>	<i>révolution</i>
Demokratik qadriyatlar	<i>reform</i>	<i>réforme</i>
Fuqarolik anglanishi	<i>citizen</i>	<i>citoen</i>

Terminlar zamonaviy ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning adabiyotshunoslik diskursdagi ifodaviy vositalariga aylangan bo‘lib, ular o‘z zamonasining ideologik va estetik paradigmalari bilan uyg‘un holda adabiyotshunoslik tafakkur rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

XX–XXI-asrlarda texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo muloqot adabiyotshunoslik terminologiyasining tarkibiy, ma’no jihatdan yangilanishiga olib keldi. Globalizatsiya jarayonlari natijasida madaniy chegaralar nisbiylashib, adabiyotshunoslik diskursda transmilliy, ko‘p madaniyatli, gibrid shakllar keng ko‘lamda o‘z ifodasini topa boshladi.

Ingliz tilidagi zamonaviy adabiyotshunoslik terminologiya o‘ziga xos madaniy-falsafiy ma’noga ega bo‘lib, “*postmodernism*”, “*multiculturalism*” va “*global village*” kabi atamalar orqali madaniy pluralizm, identitetlarning ko‘pligi hamda transmilliy o‘zaro ta’sir g‘oyalarini ifodalaydi¹²¹.

Ingliz adabiyotida terminologiya badiiy-estetik ifodadan tashqari, madaniy gibridlik va zamonaviy o‘ziga xoslik shakllanish jarayonini ham aks ettiradi. Tadqiqotchilar esa bu orqali globalizatsiya sharoitida shaxsiy va madaniy o‘zlikni anglatuvchi ijtimoiy munosabatlarni yoritadilar.

Zamonaviy fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasi global jarayonlarni madaniy-estetik nuqtai nazardan talqin etadi. “*Mondialisation*”, “*créolisation*” va “*métissage culturel*” singari atamalar orqali madaniy gibridlik, diversifikatsiya va o‘zaro ta’sir

¹²¹ H.K. Bhabha. The Location of Culture. –London: 1994. –p.125–148.

jarayonlari ifodalanadi. Bu terminlar fransuz adabiyotida gibril identitet, madaniyatlararo muloqot va ko'p qatlamli estetik tajribalarni aks ettiruvchi konseptual vosita sifatida shakllanib, lingvistik va tarixiy unsurlar sintezini badiiy ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Globalizatsiya milliy o'ziga xoslikga bosim o'tkazgan bo'lsa-da, ingliz va fransuz adabiyotshunoslik madaniyatlari zamonaviy terminologik strukturalar orqali milliy-madaniy xususiyatlarni saqlab qolish va uni qayta talqin etishga intilmoqda. Natijada, adabiy terminologiya global ta'sirni qabul qilgan holda, har ikki madaniyat doirasida milliy estetik konsepsiyalarni yangi sharoitda qayta shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Avvalo, Fukolt (Foucault)ning diskursiv semantikasida adabiyotshunoslik terminlarining ma'no va funksiyasi ijtimoiy-tarixiy kontekstda shakllanishi tahlil qilinadi. Uning qarashlariga ko'ra, har bir termin zamonasining madaniy va ijtimoiy tuzilmalariga bog'liq holda semantik dinamikaga ega bo'ladi. Fairklog (Fairclough)ning kritik diskurs tahlili adabiyotshunoslik terminlarni lingvistik birlik, balki ijtimoiy dominatsiya va madaniy sifatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida talqin etadi. Qiyosiy-tarixiy tahlil yordamida ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasining shakllanish jarayoni, semantik-evolyutsiya va madaniy tafovutlarni ochib berishda vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tanlangan empirik materiallar maxsus mezonda – ya'ni, terminlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan siyosiy-madaniy jarayonlarga daxldor bo'lgan adabiy matnlar (masalan, Shakespeare, Milton, Hugo, Rousseau) tarixiy hujjatlari negizida saralandi¹²². Amaliy tahlil tarixiy asosga ega bo'lib, xulosalar empirik dalillar bilan mustahkamlanadi.

Quyida ingliz va fransuz adabiyotshunoslik tafakkurida "*liberty*" va "*liberté*" terminlarining shakllanishi va rivojlanishini qiyosiy tarzda ko'rib chiqamiz.

Fransuz adabiyotida "*liberté*" jamiyatdagi tenglik va fuqarolik huquqlari konsepsiyasi zaminida shakllangan bo'lib, V.Gyugo asarlarida (masalan, *Les Misérables*) ijtimoiy adolat va majburiyat ideallari bilan boyitilgan.

Jadvalda "*liberty*" va "*liberté*" terminlarining dastlabki ma'nolari, diskursiv o'zgarishlari va zamonaviy talqinlari taqqoslab ko'rsatilgan:

¹²² T. Eagleton. *Literary Theory: An Introduction*. – Oxford:1983. –p.75–95.

2.3.8.-jadval.

“Liberty/liberté” atamasining ingliz va fransuz adabiyotidagi bosqichli semantik rivoji

Bosqich	Ingliz tilida “liberty”	Fransuz tilida “liberté”
Dastlabki ma’no	Siyosiy ozodlik: monarxiyaga qarshi kurash (Magna Carta, 1215)	Siyosiy erkinlik va fuqaro huquqlari (Fransuz Inqilobi, 1789)
Diskursiv o’zgarish	Romantik she’riyatda shaxsiy ozodlik va ruhiy mustaqillik (Wordsworth, Lines Composed a Few Miles above Tintern Abbey)	Realistik romanlarda ijtimoiy adolat va tenglik ideallari (Hugo, Les Misérables)
Zamonaviy talqin	Global inson huquqlari, shaxsiy o’zlik va identitet masalalari	Jamoaviy huquqlar va ijtimoiy tenglikning adabiy ifodasi

Jadvaldan ko‘rinadiki, “*liberty*” va “*liberté*” terminlari dastlab siyosiy-ijtimoiy kontekstda shakllangan. Ingliz madaniyatida “*liberty*” shaxsiy erkinlik va ruhiy mustaqillik tushunchalari bilan romantik adabiyotda estetik jihatdan boyitilgan. U.Vordsvort kabi shoirlar “*liberty*”ni insoniy ruh va tabiat bilan uyg‘un holda talqin qilishgan.

Demak, ingliz adabiy tafakkurida “*liberty*” ko‘proq shaxsga yo‘naltirilgan va ruhiy ozodlik timsoli, fransuz adabiyotshunoslik tafakkurida “*liberté*” ijtimoiy birlik va umumiy fuqarolik qadriyatlari, shuningdek, har ikki termin global madaniyatda o‘z milliy-madaniy xususiyatlarini inson huquqlari va global tenglik g‘oyalari bilan shakllantirgan.

Tanlangan empirik materiallar doirasida “*revolution*” va “*revolution*” terminlarining semantik evolyutsiyasi ham ingliz va fransuz madaniyatida o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlanganini ko‘rish mumkin.

Tanlangan empirik materiallar doirasida “*revolution*” termini ingliz va fransuz madaniyatida o‘ziga xos semantik taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin. Quyidagi jadval ushbu terminning tarixiy bosqichdagi semantik transformatsiyasini aks ettiradi.

2.3.9.-jadval.

“Revolution” atamasining ingliz va fransuz adabiy kontekstidagi tarixiy-semantik rivoji

Bosqich	Ingliz tilida “revolution”	Fransuz tilida “revolution”
Dastlabki ma’no	Siyosiy tizim o‘zgarishi (Angliya fuqarolar urushi, 1640–1660)	Ijtimoiy va siyosiy tartibning to‘liq o‘zgarishi (1789 Fransuz Inqilobi)
Diskursiv o‘zgarish	Miltonda shaxsiy isyon va metafizik kurash (Paradise Lost)	Zolada ijtimoiy isyon va ishchilar harakati (Germinal)
Zamonaviy talqin	Innovatsiya va texnologik taraqqiyot metaforasi (Digital Revolution)	Siyosiy uyg‘onish va madaniy o‘zgarish ramzi sifatida

Jadval tahlilidan ko‘rinadiki, “*revolution*” atamasi har ikkala adabiy an’anada dastlab siyosiy tuzumga qarshi radikal o‘zgarish sifatida shakllangan. Ingliz adabiyotida bu tushuncha, xususan Miltonning “*Paradise Lost*” asarida insonning ichki isyoni va axloqiy tanlovi timsoliga aylangan. Fransuz adabiyotida “*revolution*” ko‘proq ijtimoiy adolat va guruh harakatlari bilan bog‘lanib, E.Zolaning “*Germinal*” romanida ijtimoiy islohotlar ramzi sifatida mustahkamlangan. Ingliz tafakkurida bu atama shaxsga doir va psixologik talqinda rivojlangan bo‘lsa, fransuz an’anasida, siyosiy uyg‘onish va ijtimoiy birdamlikning g‘oyaviy ifodasi sifatida shakllangan. Zamonaviy kontekstda ingliz madaniyatida “*revolution*” atamasi texnologik taraqqiyotni anglatuvchi metaforaga (masalan, *digital revolution*) aylangan bo‘lsa, fransuz madaniyatida u hanuzgacha siyosiy-madaniy yangilanishning ideali sifatida tus olmoqda.

Ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasida ayrim universal atamalar ham turlicha semantik evolyutsiyani bosib o‘tgan quyidagi jadvalda o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi.

2.3.10.-jadval.

Ma’rifiy terminlarning ingliz va fransuz semantik evolyutsiyasi

Termin	Ingliz semantik evolyutsiyasi	Fransuz semantik evolyutsiyasi
“Utopia”	Shaxsiy va adabiy ideal jamiyat (More)	Siyosiy va ijtimoiy ideal jamiyat (Rousseau)
“Reason”	Individual tafakkur va axloqiy mas’uliyat (Locke)	Ratsional ijtimoiy tartib va ma’rifiy ong (Descartes)
“Progress”	Shaxsiy rivojlanish va taraqqiyot	Ijtimoiy islohotlar va umumiy taraqqiyot

Bu terminlar milliy madaniy qadriyatlarida turlicha talqin qilinib, ingliz adabiyotida ko‘proq shaxsga, fransuz adabiyotida jamiyatga qaratilgan semantik qatlamni hosil qilgan.

Adabiyotshunoslik terminlarining shakllanishida bir nechta diskurs – siyosiy (inqilob va fuqarolik huquqlari), diniy (protestant axloqi va katolik ratsionalizmi) va madaniy (ma’rifiy qadriyatlar, romantik harakatlar) uzviy ravishda o‘zaro ta’sir ko‘rsatgan. Har bir tarixiy bosqichda dominant diskurs terminlarning semantik, pragmatik xususiyatlarini aniqlab, ularni o‘z kontekstiga mos tarzda qayta shakllantirgan.

O‘rganilgan materiallardan ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminologiyasining rivojlanishida bir qator tendensiyalar kuzatiladi. Avvalo, semantik kengayish jarayoni diqqatga sazovordir: dastlab siyosiy va diniy kontekstda yuzaga kelgan terminlar vaqt o‘tishi bilan adabiy-estetik diskursda o‘z doirasini kengaytirib, yangi ma’no qatlamlarini o‘zlashtirgan.

Bundan tashqari, pragmatik moslashuv jarayoni ham muhim rol o‘ynab, madaniyatlararo tarixiy va ijtimoiy ehtiyojlariga javoban terminlarga yangi vazifa yuklagan, natijada ular milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi madaniy vositaga aylangan.

Ingliz va fransuz adabiy terminologiyasi o‘rtasidagi tahlil milliy-madaniy tafovutlarning aniq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi: ingliz adabiyotida individualizm, shaxsiy tajriba va subyektiv dunyoqarash markaziy diskurs elementlari sifatida shakllangan bo‘lsa, fransuz adabiyotshunoslik tafakkurida ratsionalizm, ijtimoiy tartib va umumiy g‘oya ustuvorlik kasb etgan.

“*Reason*”, “*progress*” va “*utopia*” kabi ma’rifiy atamalar turli semantik yo‘nalishda taraqqiy etib, milliy adabiy an’analarni aks ettirgan. Globalizatsiya, transmilliy madaniyat va raqamli inqilob sharoitida esa bu terminlar milliy-falsafiy ildizlarini saqlagan holda yangi semantik, pragmatik va ideologik qatlamlar bilan boyimoqda. Til va adabiyot orqali milliy o‘ziga xoslik hamda madaniy til birligi adabiy terminologiya vositasida uzluksiz uzatiladi. Ushbu tadqiqotda ingliz va fransuz adabiy terminlari misolida mazkur jarayonlar tizimli va qiyosiy tahlil qilinmoqda.

Ingliz adabiy madaniyatida tayanch terminlar quyidagi shaklda rivojlangan:

2.3.11.-jadval.

Ingiliz adabiy-falsafiy terminlarining semantik evolyutsiyasi va madaniy til belgilari

Termin	Dastlabki ma'no	Zamonaviy evolyutsiya	Madaniy kod
<i>Liberty</i>	Siyosiy erkinlik (Magna Carta)	Shaxsiy ozodlik va individual identitet	Individualizm
<i>Self-reliance</i>	Mustaqil tajriba (Protestant etikasi)	Mustaqillik va avtonomiya	Tajribaviy tafakkur
<i>Common sense</i>	Sog'lom fikr (John Locke)	Realistik qarash va global pragmatizm	Realistik tafakkur
<i>Salvation</i>	Axloqiy qutqarilish (Reformatsiya)	Subektiv axloqiy tajriba	Protestant qadriyatlari

U.Vordsvort she'riyatida "*liberty*" shaxsiy erkinlik va ruhiy mustaqillik aks ettirilganligini, Milton "*Paradise Lost*" asarida erkin iroda, ilohiy adolat g'oyalari ingliz qadriyatlari bilan uyg'unlashtirganligini kuzatish mumkin.

Zamonaviy ingliz adabiyotida (Zadie Smith, Kazuo Ishiguro asarlarida) "*freedom*" va "*identity*" ingliz adabiy tafakkurida shaxsiy tajriba va milliy madaniy ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

Siyosiy jarayon ta'sirida fransuz adabiy terminologik tizimi keskin rivojlangan. 1789-yilgi Fransuz inqilobi va undan keyingi Ma'rifat davri fransuz adabiy tiliga yangi semantik qatlamni olib kirib, fransuz madaniyatining ratsional va ijtimoiy xarakterini aks ettirgan.

Fransuz adabiyotshunoslik tafakkurida "*liberté*", "*raison*", "*ordre*" va "*fraternité*" kabi falsafiy-adabiy terminlar o'ziga xos madaniy kodlar asosida shakllangan. Dastlabki tarixiy ma'noda ular inqilobiy, falsafiy yoki klassik adabiy kontekstlarda ishlatilgan bo'lsa, zamonaviy davrda ularning semantik qamrovi kengayib, yangi ijtimoiy-falsafiy talqinlar bilan boyigan.

Masalan, "*liberté*" dastlab Fransuz Inqilobi davrida ijtimoiy erkinlik tushunchasini anglatgan bo'lsa, hozirgi kunda u fuqarolik huquqlari va jamoaviy birdamlikni ifodalovchi umumiy e'tiqod darajasiga ko'tarildi. "Raison" Dekart (Descartes) falsafasida ratsional tafakkurni bildirgan bo'lsa, zamonaviy talqinda keng qamrovli falsafiy tafakkur konsepsiyasini ifodalaydi. "Ordre" klassik adabiyotshunoslikda ijtimoiy uyg'unlik timsoli sifatida qo'llangan bo'lsa, hozirgi davrda siyosiy va madaniy muvozanatni ta'minlovchi ijtimoiy barqarorlik belgisi sifatida qaraladi. Shuningdek, "*fraternité*" 1789-yilgi inqilobiy

shior sifatida birodarlik g'oyasini ifoda qilgan bo'lsa, zamonaviy diskursda fuqarolik birdamligi va madaniy hamjihatlikning ramzi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu terminlar fransuz madaniy-estetik tafakkurida barqaror davomiylik kasb etgan bo'lib, zamonaviy adabiyotshunoslik diskursida ham o'z o'rnini saqlab qolmoqda.

Shuningdek, zamonaviy adabiyotshunoslik diskursida ingliz va fransuz tafakkurida madaniy terminlarning semantik transformatsiyasi kuzatiladi. "*Multiculturalism*" ingliz adabiyotida talqin qilinsa, fransuz adabiyotida madaniy diversifikatsiya tushunchasi bilan bog'lanadi. "Postmodernism" ingliz kontekstida shaxsiy o'zlikning dekonstruksiyasi bilan, fransuz kontekstida esa madaniy kodlar bilan izohlanadi. "*Global village*" ingliz adabiyotida global madaniy birlashuv timsoli bo'lsa, fransuz adabiyotida "*métissage*" konsepsiyasi orqali madaniyatlararo gibridlik va o'zaro aralashuv jarayonlarini aks ettiradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, Salman Rushdi va Zedi Smit ijodida ingliz adabiyotida o'zlikning o'zgaruvchanligi konseptual asosda yoritilgan bo'lsa, Eduard Glissan tomonidan ilgari surilgan "*métissage*" g'oyasi fransuz adabiyotida madaniyatlararo muloqot, uyg'unlik va ko'p qatlamli jihatlarni tasvirlashga xizmat qiladi. Natijada, ingliz va fransuz adabiyotida milliy o'zlikning moslashuvchanlik darajasi ortib, zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar ushbu terminlarning semantik qamrovini kengaytirgan.

Adabiyotshunoslikda "*tragedy*" va "*romance*" janrlari ingliz va fransuz tafakkurida turlicha talqin qilingan. Tragediya Aristotel modelidan kelib chiqqan holda ingliz adabiyotida, xususan Shekspir ijodida, shaxsiy drammatizm va individual fojiaga asoslangan shaklga ega bo'lgan. Fransuz adabiyotida esa Rasin tragediyani ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga yo'naltirib, uni milliy an'analarga moslashtirgan. "*Romance*" ingliz adabiyotida ritsarlik hikoyalaridan shaxsiy sarguzashtga o'tgan bo'lsa, fransuz adabiyotida Balzak ijodida ijtimoiy-psixologik roman shaklida rivojlangan.

Ushbu tahlildan ma'lum bo'ladiki, madaniyatlararo muloqot janrlarning yangi ma'noviy va badiiy ko'rinishlarini yuzaga keltirib, ingliz va fransuz adabiyotshunosligida atamalar tizimining moslashuvchanligini ta'minladi. XXI-asrdagi texnologik taraqqiyot adabiyotshunoslik atamalari rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Ingliz adabiyotida "*cyberpoetry*" Leonard tomonidan raqamli she'riyat tajribasi sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, fransuz adabiyotida Bouchardon uni "*poésie numérique*" —

ya'ni raqamli she'riyat sifatida talqin qilgan. "*Hypertext novel*" ingliz kontekstida Michael Joyce tomonidan interaktiv roman shaklida yaratilgan bo'lsa, fransuz adabiyotida Rettberg uni ko'p qirralik hikoya sifatida izohlagan. "*Digital storytelling*" ingliz adabiyotida transmedia hikoya qurilishi sifatida shakllangan bo'lsa, fransuz adabiyotida "*narration numérique*" — raqamli hikoyalash shaklida qaralgan.

Ingliz adabiyotida "*instapoetry*" hodisasi ijtimoiy tarmoqlarda she'riyatning ommalashuvini kuchaytirgan bo'lsa, fransuz adabiyotida "*twittérature*" orqali qisqa poetik shakllar kengaygan. Xulosa qilib aytganda, ingliz va fransuz adabiyotshunoslik atamalari raqamli davr ta'sirida yangi qirralar kasb etgan bo'lsa-da, ular milliy madaniyatlarning tarixiy qadriyatlarini asrab-avaylashda davom etmoqda.

Til va adabiyotshunoslik har bir xalqning tarixiy tajribasidir, milliy qadriyatlar esa avloddan-avlodga barqaror uzatiladi. Ingliz va fransuz lisoniy-adabiyotshunoslik terminologiyalarining shakllanish jarayoni ularning tarixiy, diniy va madaniy taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib, til va adabiyotshunoslik orqali ifodalangan. Turli inqiloblar adabiyotshunoslik terminologiyasiga shakl va mazmun jihatidan boylik olib kirgan va adabiyotshunoslik terminlari milliy madaniy xotirani saqlash bilan birga, zamonaviy o'ziga xos jihatlar bilan shakllanishida estetik va ijtimoiy rol o'ynaydi.

II bob bo'yicha xulosalar

1. Lingvoadabiyotshunoslik terminlari o'z semantik, morfologik va diskursiv xususiyatlari orqali fanlararo muloqotning negizini yaratadi. Terminlarning aniqligi va yagona talqini tafakkur barqarorligini ta'minlaydi.

2. Ingliz va fransuz tillari terminologiyasining struktur-semantik tahlili ularning madaniy, ma'naviy, tarixiy tafovutlarini aniqlab beradi. Ingliz tilshunosligida ko'proq analitik va amaliy xarakter, fransuz maktablarida strukturalizm va tizimlilik kuzatildi.

3. Global madaniy oqimlar ta'sirida ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminlari transmilliy va gibrid shakllarda boyigan. Madaniyatlararo dialogda adabiyotshunoslik terminlarning semantik maydoni kengaygan.

5. Ingliz adabiyotshunoslik tafakkurida individualizm va subyektiv tajriba ustuvor bo'lsa, fransuz adabiyotshunoslik tafakkurida

ratsionalizm va ijtimoiy tartib konsepsiyalari yetakchi o‘rin egallagan; bu holat janrlar va terminlarning shakllanishida semantik farqlarni yuzaga keltirganligi oydinlashadi.

6. Terminologik almashinuv jarayoni tillararo integratsiyani ta’minlab, ingliz va fransuz ilmiy diskursida yangi tushunchalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan; bu jarayon sotsiopragmatik va kognitiv omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

7. XXI-asrda raqamli madaniyat va globalizatsiya adabiyotshunoslik terminologiyasini yangilab, “*digital storytelling*”, “*hypertext novel*”, “*poésie numérique*” kabi atamalarni shakllantirdi; bu terminlar zamonaviy o‘ziga xoslik xususiyatlarini va estetik tafakkurning yangi ko‘rinishlarini ifodalashga xizmat qilishi aniqlandi.

III BOB. INGLIZ VA FRANSUZ TERMINLARINING YASALISH MEXANIZMLARI VA MAVZUIY TASNIFI

3.1. Til va adabiyotshunoslik terminlarining yasilishi va kelib chiqish manbalari

Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda terminlarning kelib chiqishi, shakllanishi, semantik taraqqiyoti, madaniy va milliy xususiyatlari muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ushbu bobda ingliz va fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminologiyasining derivativ tabiati, sinonimiya va stilistik tafovutlari hamda genetik-etimologik shakllanishi tizimli o'rganiladi. Ingliz va fransuz tillaridagi lingvistik-adabiyotshunoslik terminlarining affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya hamda semantik yasalish tartiblari tahlil qilinadi.

Umberto Eko (Umberto Eco) (1976) terminlarni semiotika va tilshunoslik sohalarida diskursni barqaror uslubda ifodalashga qo'l keladigan vosita sifatida baholagan¹²³. Shuningdek, V.V.Vinogradov (1986) terminlarni "ilmning leksik yadrosi" deb atab, ularning gnoseologik yukini alohida ta'kidlaydi¹²⁴.

Monosemiya (bir ma'nolilikka intilish), terminlarning ilmiy matnlarda noto'g'ri talqin qilinishining oldini oladi hamda ularning aniq va qat'iy tushunchalarini ifoda etadi.

Fanlararo moslik tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining boshqa fanlar bilan uyg'un qo'llanilishini va universalligini ta'minlaydi. Masalan, ingliz tilidagi "*phoneme*", "*morpheme*", "*intertextuality*" fransuz tilidagi "*narratologie*", "*langue*", "*discours*" kabi terminlar "BNC", "COCA" va "Frantext" kabi korpuslarda semantik aniqlik, strukturaviy barqarorligi bilan ajralib turadi.

Terminlar bir ma'nolilik yordamida qurilsa-da, amaliyotda "*style*", "*register*", "*genre*" kabi birliklar kontekstga qarab turlicha ma'no anglatgani bois sinonimiya va variantlik masalalarini yuzaga keltiradi.

Lingvistik va adabiyotshunoslik terminlari affiksatsiya (qo'shimcha qo'shish), kompozitsiya (so'z biriktirish) va konversiya (so'z turkumi almashinuvi) – yordamida shakllanadi. Terminlar grammatik jihatdan ixcham, semantik tomondan aniq, ilmiy muloqotda tushunarlikni ta'minlaydi. Masalan, "*phonology*" termini "*phon(o)*" (ovoz) va "*-logy*" (fan) komponentlaridan tarkib topgan bo'lsa, "*sociolinguistics*"

¹²³ U. Eco. A Theory of Semiotics. –Bloomington: 1976. –p.8–10, 68–75.

¹²⁴ Виноградов В.В.Проблемы русской грамматики: Лексика и грамматика в системе языка.– М.:1986.– С.22–25.

esa “*socio-*” (ijtimoiy) va “*linguistics*” (tilshunoslik) birliklarining birlashuvidan yuzaga kelgan. Bu usullar terminologik birikmalarning grammatik soddaligi va semantik aniqligini ta’minlaydi.

Ayrim hollarda terminlar metaforizatsiya yoki tarixiy ma’no siljishi orqali shakllanadi. Aytaylik, “*postmodernism*” va “*deconstruction*” kabi terminlar nazariy maktablarga qarab turlicha ma’no kasb etadi.

“*Postcolonialism*” yoki “*deconstruction*” kabi terminlar mintaqaviy va mafkuraviy jihatdan turlicha mazmun kasb etishi mumkin.

Terminlarning genetik va etimologik tahlili ularning tarixiy shakllanishi hamda semantik evolyutsiyasini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilidagi ko‘plab lingvistik atamalar (masalan, *lexicon*, *syntax*) qadimgi yunon va lotin tillaridan kirib kelgan bo‘lsa, fransuz tilidagi “*poétique*”, “*structuralisme*” kabi birliklar lotin tili merosining davomchisi hisoblanadi.

Aytaylik, “*lexicon*” (yun. *lexis* – “so‘z”) lotin tilidan ingliz tiliga o‘tib, zamonaviy tilshunoslikda faol qo‘llaniladi; “*poétique*” lotincha “*poetica*” singari bugungi fransuz tilida o‘z ma’nolariga ega. Shuningdek, qadimgi yunon tilidagi “*logos*” termini dastlab “*so‘z*”, “*aql*”, “*tartib*” kabi ma’nolarda ishlatilgan bo‘lsa-da, hozirgi lingvistikada “*semantik tizim*” yoki “*mantiqiy birlik*” sifatida talqin qilinadi.

“*Postcolonial*” va “*postmodern*” davrda terminlarning mafkuraviy konnotatsiyalari sezilarli darajada kuchayganligi kuzatildi. Bundan tashqari zamonaviy hamkorlik tilshunoslikda xalqaro standartlashtirilgan terminlarga ehtiyojni keskin oshirdi. Bu ehtiyojni qondirish maqsadida ISO (International Organization for Standardization), IATE (Inter-Active Terminology for Europe) va TermNet kabi xalqaro institutlar terminologik birliklarning yagona, fanlararo mos keladigan korpuslarini ishlab chiqmoqda. “*Phoneme*”, “*syntax*”, “*semantics*” kabi ingliz tilidagi tilshunoslik atamalari boshqa Yevropa tillarida ham hech qanday o‘zgarishsiz yoki minimal fonetik moslashtirish bilan qabul qilinmoqda. Shuningdek, “*intertextualité*” (fransuzcha) atamasi ingliz tilida “*intertextuality*” shaklida qabul qilinib, terminlar sathida semantik va morfologik uyg‘unlik ta’minlanmoqda.

Milliy tafakkur negizida mahalliy terminlar bazasini rivojlantirish, ularni xalqaro muomalaga olib chiqish dolzarb strategik vazifa sanaladi.

Ingliz adabiyotshunoslik tilining shakllanishi tarixiy va strukturaviy jihatdan uch asosiy til – lotin, qadimgi yunon va german tillarining ta’siri bilan bog‘liq. Lotin tili E.Benvenist ta’riflagan “*dominion*

modeli”da¹²⁵, Rim imperiyasi davrida qonunchilik, diplomatiya va diniy sohalarda normativ leksikani ta’minlagan bo‘lib, ingliz tiliga “*justice*”, “*verdict*”, “*contract*” kabi atamalarni olib kirgan.

Yunon tili konseptual model orqali ingliz ilmiy-adabiyotshunoslik leksikasiga kirib kelgan. “*Syntax*”, “*logic*”, “*theory*”, “*phenomenon*” kabi terminlar orqali ingliz tilida abstrakt fikrlash va tushunchalarni ifodalash imkoniyati yuzaga kelgan.

German tillari ingliz tilining morfosintaktik asoslarini shakllantirgan. Halliday ilgari surgan “*strata model*”ga ko‘ra, ingliz tili grammatik struktura, fe’l sistemasi va sintaktik qurilmalarda aynan germanik ta’sirni saqlagan (*word, sentence, strong/weak verb*)¹²⁶.

Quyidagi jadvalda har bir tilning shakllanish jarayonlari taqqoslab ko‘rsatiladi.

3.1.1-jadval.

G‘arbiy terminologik an‘analarining modellari va ta’sir doiralari

Mezoni	Lotin	Yunon	German
Ta’sir sohasi	Qonunchilik, adabiyotshunoslik, grammatika	Fan, falsafa, nazariy tushunchalar	Grammatika, sintaksis, fonologiya
Dominant model	Normativ (me’yorlashtiruvchi)	Abstrakt (ilmiy-konseptual)	Strukturaviy (tuzilmaviy)
Kiritilgan davr	mil. avv. I asr – milodiy V asr	mil. avv. V–IV asrlar	milodiy V–IX asrlar

Navbatdagi jadvalda turli davrlarda ingliz tiliga kirib kelgan terminlar misolida til qatlamlarining shakllanishi ko‘rsatiladi.

3.1.2-jadval

Terminlarning tarixiy shakllanishi va semantik rivojlanishi

Termin	Asl tili	Ilk ishlatilgan davr	Hozirgi shakl	Semantik o‘zgarish
Poetics	Lotin/Yunon	Antik davr	<i>poetic, poetry</i>	Adabiyotshunoslik-estetik soha nomi sifatida
Syntax	Yunon	mil. avv. IV asr	<i>syntax</i>	Grammatik strukturani ifodalovchi
Word	German	IX asr	<i>word</i>	Leksik birlik sifatida

¹²⁵ É. Benveniste Problems in General Linguistics. –Florida:1971.–p.130.

¹²⁶ M.A.K. Halliday An Introduction to Functional Grammar. –London:1985. –p.22–31.

Amerikalik olim U.Venreyich (Weinreich) ninf qarashiga ko‘ra, fransuz tili yuqori ijtimoiy tabaqalar tomonidan rasmiy aloqa vositasi sifatida qabul qilingan, natijada sud, huquq, ma‘muriyat va tilda fransuzcha terminlar keng tarqalgan¹²⁷.

Haqiqatdan ham bu davrda ingliz tilida sinonimik egizaklar (*lexical doublets*) paydo bo‘lib, nemis tilidagi “ask” so‘zining yoniga fransuzcha “*inquire*”, “*start*” so‘zining yoniga “*commence*” kabi variantlar kirgan¹²⁸. Quyidagi jadvalda fransuz ildizli inglizcha terminlar, ularning german ildizli sinonimik egizaklari va qo‘llanish sohalari keltirilgan. Bu terminlar ingliz tilida uslubiy tafovutni ifodalovchi misollar sifatida tahlil qilinadi.

3.1.3-jadval

Fransuzcha ildizli ingliz terminlarning germanik sinonimlari va ularning qo‘llanish sohalari

Inglizcha termin	Fransuz ildizi	Sinonimik egizagi (germanic)	Qo‘llanish sohasi
<i>genre</i>	<i>genre</i>	<i>type</i>	Adabiyotshunoslik
<i>commence</i>	<i>commencer</i>	<i>begin/start</i>	Rasmiy nutq, hujjatlar
<i>liberty</i>	<i>liberté</i>	<i>freedom</i>	Siyosiy-falsafiy matnlar

Yuqoridagi berildan til qatlamlari o‘rtasidagi leksik ustuvorlikni ko‘rish mumkin.

Tarixiy manbalarga tayanib, Kroll Bou (Albert Croll Baugh) va Tomas Keybl (Thomas Cable) ta’kidlaganidek, Norman istilosidan keyingi ikki asr davomida ingliz tiliga 10,000 dan ortiq fransuzcha so‘z o‘zlashtirilgan¹²⁹. Bu so‘zlar rasmiy, madaniy va diskurslar orqali mustahkamlangan bo‘lib, til boyishining miqyosini ko‘rsatadi. Qonunchilik (*justice, court*), diplomatiya (*embassy, sovereign*) va san’at (*art, beauty*) sohalorida fransuzcha terminlarning dominantligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ingliz tilining tarixiy taraqqiyoti davomida boshqa tillardan, xususan lotin, yunon va fransuz tillaridan kirib kelgan ko‘plab terminlar ingliz tilining ichki tizimiga moslashgan. Bu jarayon, lingvistik adabiyotshunoslikda uyg‘unlashuv “assimilyatsiya” deb ataladi.

Yangi terminlar kirib kelar ekan, ular ingliz tilining mavjud strukturaviy tizimiga moslashadi. Bunday moslashuv fonetik qisqarish,

¹²⁷ U. Weinreich. *Languages in Contact: Findings and Problems*. –New York: 1953. –p.57–63; 91–96.

¹²⁸ –P.Durkin. *Borrowed Words: A History of Loanwords in English*. –Oxford: 2014. –p.117–134; 198–205.

¹²⁹ A.C.Baugh, T. Cable. *A History of the English Language*. –London: 2002. –p.152–163.

affiksial o'zgarish, semantik torayish yoki sintaktik funksiyaga ega bo'lish orqali amalga oshadi.

Yangi terminlarning kirib kelishidagi o'zgarishlarni izohlashda Chomskiy va amerikalik tilshunos Morris Xalle (Moris Halle) tomonidan ishlab chiqilgan morfofonemik integratsiya modeli¹³⁰ boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksik birliklar ingliz tilining mavjud fonologik qoidalari (*stress patterns, segment almashishlar, tovush uyg'unligi*) va morfologik strukturasi (affiks, so'z yasash modeli) bilan uyg'unlashadi. Natijada, tilga kirib kelgan terminlar o'z shaklini o'zgartiradi va ingliz tilining semantik-hissiy tizimida yangicha funksiyalarni bajarishi kuzatiladi.

Assimilyatsiyalashuv jarayoni bir necha bosqichda sodir bo'ladi. Dastlab, so'z fonetik darajada qisqaradi, talaffuz o'zgaradi hamda keyinchalik, morfologik darajada unga inglizcha affikslar birlashtiriladi yoki ichki struktura qayta ishlanadi. Shu o'rinda qisqa xulosa qilib aytganda, semantik darajada ma'no torayishi, ixtisoslashuvi yoki yangi konnotatsiyalar yuzaga keladi. Bunga misol qilib quyidagi jadvalda misollarni keltiramiz.

3.1.3-jadval

Inglizcha terminlarning shakl va funksional zamonaviylashuvi

Asl shakl	Inglizcha shakl	O'zgarish turi	Hozirgi funksiyasi
critique (fr.)	critic	Fonetik qisqarish	Tahlilchi, san'atshunos
poetica (lat.)	poetic, poetry	Affiksatsiya	Adabiyotshunoslik janr/sifat ifodasi
logos (gr.)	logic	Semantik torayish	Falsafiy kategoriya sifatida
auditorium (lat.)	audience	Strukturaviy qisqarish	Tinglovchilar guruhi
réflexion (fr.)	reflection	Ortografik va fonetik moslashuv	Fikrlash, aks (fizik va metaforik ma'noda)
scriptura (lat.)	script, scripture	Morfemik ajralish	Yozma matn, diniy kontekst
philosophia (gr.)	philosophy	Fonetik moslashuv, affiksi -y	Nazariy-falsafiy atama
discours (fr.)	discourse	Semantik ixtisoslashuv	Tilshunoslikda matn, nutq uslubi

¹³⁰ N.Chomsky, M.Halle, The Sound Pattern of English. –New York: 1968. –p.11–16.

Berilgan misollar ingliz tiliga o'zlashgan so'zlarning fonetik, morfologik va semantik jihatdan o'zgarishlarga uchraganligini ko'rsatadi. Avvalo, fonetik oddiylashuv yoki qisqarish jarayoni kuzatiladi:

Masalan, fransuz tilidagi "*critique*" so'zi ingliz tilida "*critic*" shakliga o'tib, *-que* affiksi *-ic* bilan almashtirilgan. Morfologik o'zgarishlar inglizcha affikslar orqali amalga oshadi, buning yaqqol misoli sifatida "*poetica* → *poetic*" va "*philosophia* → *philosophy*" juftliklarini keltirish mumkin. Shuningdek, bu jarayon uslubiy jihatdan farqlanuvchi sinonimlar hosil qilishga olib keladi, masalan, "*freedom*" (germanik) va "*liberty*" (fransuz) so'zlari bir-biriga ma'nodosh bo'lsa-da, turli nutq uslublarida qo'llaniladi. Bundan tashqari, semantik ixtisoslashuv ham yuzaga keladi: yunon tilidagi "*logos*" so'zi keng ma'noga ega bo'lgan bo'lsa, inglizcha "*logic*" faqat tafakkur vositasi sifatida ishlatiladi. Bu holatlar ingliz tilining o'zlashgan leksik birliklarni moslashtirish hamda uslubiy-funksional jihatdan tartibga solish qobiliyatini namoyon etadi.

Ingliz tilining leksik va terminologik boyishida yangi so'z yasash mexanizmlari markaziy o'rin egallaydi. Adabiyotshunoslik diskursida paydo bo'layotgan terminlarning ko'pchiligi mavjud birliklar asosida struktur jihatdan qayta shakllantiriladi. Bu jarayon tilshunoslikda "*derivatsiya*" deb yuritilib, semantik, stilistik hamda struktura darajasida tilning izchil rivojlanishini ta'minlaydi.

Ingliz tilshunosi L.Bauer (L.Bauer)¹³¹ derivatsiyani tahlil qilib, ingliz tilida yangi terminlarni yaratishning uchta tayanch nuqtasi mavjudligini asoslaydi:

Affiksatsiya – so'zga old yoki orqa qo'shimchalar (affikslar) qo'shish orqali yangi birlik hosil qilish;

Kompozitsiya – ikki yoki undan ortiq mavjud so'zning birikmasidan yangi so'z yasash;

Konversiya – mavjud so'z turkumini o'zgartirish (masalan, otni fe'lga aylantirish) orqali yangi ma'no va vazifa hosil qilish.

Postmodern va poststrukturalist adabiyotshunoslik diskurslarda derivativ birliklar faol ishlatilganda differensial belgilari ko'zga tashlanadi.

¹³¹ L. Bauer English Word-Formation. –Cambridge: 1983. –p.67–79, 84–88.

3.1.4-jadval

Ingiliz tilidagi lingvistik terminlarning modellashtirish usullari va ularning kontekstual qo‘llanilishi

Model turi	Termin	Tuzilishi	Masalan (kontekst)
Affiksatsiya	intertextuality	inter- + text + - uality	Poststrukturalizm mualliflik konsepsiyasi
Kompozitsiya	language change	language + change	Til tarixidagi evolyutsion jarayon
Konversiya	to text	ot → fe’l (text → to text)	Madaniy kontekstda faoliyat fe’li sifatida: “to text a passage”

Tahlilga olingan misollarda derivatsiya turlari ingliz tilida yangi terminlarning hosil bo‘lishi va ularning adabiyotshunoslik kontekstda ishlatilganligi berilgan.

Bunday birliklar o‘zining tarkibiy komponentlari orqali ma’lum semantik maydonlarga mansubligini saqlab qolgan bo‘lsa-da, ular stilistik jihatdan yangi konnotatsiyalarni ham olib keladi.

Derivativ modellar – affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya – ingliz adabiyotshunoslik tilining strukturaviy moslashuvchanligini va semantik kengayuvchanligini namoyon etuvchi vositalardir. Bu ilmiy mushoxada ingliz tilining mustahkam, barqaror, stilistik jihatdan boy va ko‘p qirrali terminologik tizimga ega bo‘lishidir.

Fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminologiyasining shakllanishida lotin va qadimgi yunon tillari tarixiy qatlam sifatida namoyon bo‘ladi, fransuz adabiyotshunoslik leksikasining fonetik, morfologik va semantik tuzilmalariga singib ketgan. Bu jarayon falsafa, ritorika, poetika va semiotika sohalarida sezilarli iz qoldirgan. Lotin tili Rim imperiyasining rasmiy, qonunchilik va diniy til sifatida o‘z terminologik yo‘li bo‘lgan. Lotin tilidan fransuz tiliga o‘tgan (*substantif, conjugaison, préposition*) terminlar aniqlik va grammatik mustahkamlikni aks ettiradi.

Yunon tili, o‘zining falsafiy va boy merosi – xususan Aristotel, Platon, Gippokrat kabi mutafakkirlarning asarlari orqali – konseptual tushunchalarni ifodalovchi qatlamni shakllantirgan. Yunoncha terminlar (*théorie, logique, métaphore, phonème*)¹³² fransuz tilida ko‘pincha analitik va abstrakt tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llanilgan.

¹³²Amiot J. Les racines grecques dans le lexique scientifique français. –Paris:1992. –p.35–42; 78–85.

3.1.5-jadval

Ingiliz tilidagi lingvistik terminlarning modellashtirish usullari va ularning kontekstual qo‘llanilishi

Fransuz ha termin	Asl manbai	Fonetik/morfologik o‘zgarish	Soha
<i>poétique</i>	Yunoncha poētikos	–ikos → –ique (adjektival affiks)	Adabiyotshunoslik nazariyasi
<i>syntaxique</i>	Yunoncha syntaxis	–xis → –xique	Tilshunoslik
<i>lexème</i>	Yunoncha lexis + –ème	Morfologik qo‘shilma	Morfologiya
<i>rhétorique</i>	Yunoncha rhetorikē	Orfografik moslashuv, –ē → –ique	Ritorika
<i>sémantique</i>	Yunoncha semantikos	Fonetik uyg‘unlashuv va adjektivlashuv	Semantika
<i>discours</i>	Lotincha discursus	–us → –ours (fransuz nominal shakl)	Adabiyotshunoslik nutq
<i>conjugaison</i>	Lotincha coniugatio	–atio → –aison (fonetik va morfemik transformatsiya)	Grammatika
<i>substantif</i>	Lotincha substantivum	–ivum → –if	So‘z turkumi

Fransuz lingvo-adabiyotshunoslik terminologiyasining shakllanishi ikki tarixiy bosqich – klassik (XVII–XIX asrlar) va zamonaviy (XX–XXI asrlar) davr doirasida keskin farqlanadi¹³³. Har ikki davrda tilshunoslik va adabiyotshunoslik atamalarining yaratilishiga madaniy kontekst ta’sir ko‘rsatgan.

Klassik davrda terminologiya normativ-lotincha andozada shakllanib, grammatika, ritorika, versifikatsiya va uslubga e’tibor qaratilgan. Bu davrda yaratilgan “*grammaire*”, “*versification*”, “*style*”, “*eloquence*” kabi terminlar adabiy me’yorni belgilovchi tushunchalarga aylangan.

Modern davr terminlari ko‘p hollarda individual mualliflar tomonidan maktablar doirasida ishlab chiqilgan va keyinchalik akademik diskursda o‘z o‘rnini egallagan:

Intertextualité – J.Kristeva tomonidan ilgari surilib, matnlararo bog‘liqlik konsepsiyasini anglatgan¹³⁴.

¹³³ É.Benveniste. Problems in General Linguistics. –Florida:1971. –p.114–128.

¹³⁴ J.Kristeva. Semeiotiké: Recherches pour une sémanalyse. Paris: 1969. –p.143–156.

Déconstruction – J.Derrida terminidir; matnning ichki ziddiyatini ochib berishda qo‘llagan”¹³⁵.


Narrativité – J.Jenet tomonidan ishlab chiqilgan, hikoya strukturasi anglatadi¹³⁶.

Bu terminlar ko‘pincha metaforik, diskursiv kontekstda shakllanadi va qat‘iy lug‘aviy chegaraga ega emas.

Klassik terminlarda tarixiy barqarorlik ta‘minlansa-da, zamonaviy kontekstlarda semantik jihatdan yetarli elastiklik mavjud emas. Zamonaviy (modern) terminlar mazmunan boy va keng qamrovli bo‘lsa-da, ularning talqini noaniqlik hamda o‘zgaruvchanlik xususiyatiga egadir. Terminlarning o‘zgaruvchan tabiati ularning ilmiy-intellektual ahamiyatini kuchaytiradi, lekin tilshunoslikni endigina o‘rganayotganlar uchun tushunishda qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi

3.1.6-rasm.

Fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminologiyasining davriy taqsimoti



3.1.6-rasm. Fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminologiyasining davriy taqsimoti

Yuqoridagi diagramma fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminologiyasining klassik va modern davrlardagi namoyon bo‘lishini soha kesimida taqqoslaydi. Ko‘rinib turibdiki, klassik davrda “*grammaire*”, “*rhétorique*”, va “*stylistique*” kabi normativ sohalar ustunlik qiladi. Modern davr “*sémiotique*” va “*discours*” kabi tushunchaviy hamda diskursiv yo‘nalishlarga ko‘proq urg‘u beradi.

¹³⁵ J. Derrida. *Of Grammatology*. –Baltimore: 1976. –p.87–100.

¹³⁶ G.Genette. *Narratology: Discourse and Story*. –Ithaca: 1980. –p.19–28.

3.1.7-jadval

Fransuz tilidagi lingvistik terminlarning morfologik modellashtirish usullari

Termin	Tuzilishi	Morfologik model
sociolinguistique	socio- + linguistique	Kompozitsiya
intertextualité	inter- + text + -ualité	Affiksatsiya
lecture → lire	Ot → fe'l (yoki aksincha)	Konversiya
stylistique	style + -istique	Affiksatsiya
métalangage	méta- + langage	Kompozitsiya

Bu terminlar ko‘plab yaqin ma’noli birliklar orasida semantik ortiqchalik (*redundancy*) muammosini yuzaga keltiradi. Masalan, “*signification*”, “*sens*”, “*referent*” terminlari tushunchaviy jihatdan bir-biriga yaqin, ammo uslubiy tafovutlar mavjudligi diskurs aniqligini pasaytiradi.

Ingliz tili aglutinativ unsurlarni ko‘proq saqlagan bo‘lsa, fransuz tili flektiv strukturalarga tayanadi. Parallel terminlar (masalan, *narrative identity*, *identité narrative*) ikki tilda kognitiv jihatdan o‘xshash, madaniy va stilistik jihatdan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va fransuz lingvo-adabiyotshunoslik terminologiyasining tarixiy, genetik va struktur asoslari turlicha bo‘lishiga qaramay, har ikkisi ham o‘z tizimida zamonaviy diskursni shakllantiradi. Ingliz tili o‘zining sintaktik soddaligi va qisman aglutinativ unsurlari orqali funksional aniqlikka erishsa, fransuz tili flektiv tizim hamda murakkab morfologiyasi vositasida estetik tafsilotlarni yuzaga chiqaradi. Derivatsion hamda assimilyatsion yondashuvlar har ikki tilning ichki qonuniyatlariga mos holda yangi terminlarning taraqqiyotiga imkon yaratadi. Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, parallel terminlarning kognitiv, stilistik va madaniy moslashuvi global kontekstda ularni tarjima va moslashtirishda murakkablik tug‘diradi. Shu bois zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda terminlarning tuzilishi, semantik mazmuni hamda tarixiy-madaniy integratsiyasini izchil o‘rganish filologik terminologiyaning nazariy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3.2. Terminlarning tilshunoslik va adabiyotshunoslik mezonlari asosida mavzuiy guruhlanishi va tasnifi

Ingliz va fransuz tillaridagi lisoniy hamda adabiyotshunoslik terminlarning mazmuniy tuzilishi, terminologik kengayishi va konseptlarni ifodalashda affiksatsiya muhim o‘rin tutadi. Yangi terminlar prefiks, suffiks, ba‘zan inffiks qo‘shilishi affiksatsiya orqali hosil qilinadi. Prefikslar inkor va ziddiyatni anglatadi, suffikslar agentlik va mavhumlikni bildiradi. Ingliz tilida affiksatsiya soddalik va fonetik moslikka tayanadi, fransuz tilida morfologik turg‘unlikni saqlaydi. Kompozitsiya va konversiya terminlarning tipologik xususiyatlarini ochib beradi.

Quyidagi jadval ingliz va fransuz tillarida affiksatsiya orqali hosil bo‘lgan adabiyotshunoslik-lingvistik terminlarning morfologik tuzilmasi va mazmuniy funksiyalari taqqoslanadi. Birliklarning ikki tildagi morfologik muvofiqligi translingval terminologik uyg‘unlikni ko‘rsatadi.

3.2.1-jadval

Ingliz va fransuz tillarida affiksial modellashtirish turlari hamda terminologik-stilistik funksiyalari

Affiks turi	Inglizcha misol (strukturasi)	Fransuzcha misol (strukturasi)	Izoh
Prefiks	ungrammatical (un- + grammatical)	antipoétique (anti- + poétique)	Terminlarda inkor ma‘nosini hosil qiluvchi prefikslar zamonaviy tahlil va dekonstruksiyalarida keng qo‘llaniladi.
Prefiks	nonliterary (non- + literary)	non-narratif (non- + narratif)	“Adabiy emas” degan ma‘noni bildiruvchi negativ prefikslar; modern tanqid terminologiyasida keng tarqalgan.
Suffiks	structuralism (structure + -al + -ism)	structuralisme (structure + -alisme)	“-ism” / “-isme” suffikslari falsafiy ishlatiladi (izm-formatsiya).
Suffiks	feminist (femina)	féministe	Terminologik shakllanishda

	+ -ist)	(femme + -iste)	suffikslar orqali agent (harakat qiluvchi) yoki tarafdorlik bildiruvchi birliklar yaratiladi.
Suffiks	poeticity (poetic + -al + -ity)	poéticité (poétique + -ité)	Abstraktlik bildiruvchi suffikslar (-ity, -ité) orqali kontseptual terminlar hosil qilinadi.
Prefiks + Suffiks	deconstructionist (de- + construct + -ion + -ist)	déconstructi onniste (dé- + construction + -niste)	Derridaning dekonstruksiyasiga oid terminlar ingliz va fransuz tillarida parallel ravishda affiksatsiya orqali yaratilgan.
Inffiks	abso-bloody-lutely (absolutely ichiga emfatik infiks)	fan-tas-ti-quent (og‘zaki emfatik ohangda)	Ingliz va fransuz og‘zaki nutqida ta’sirchanlik yoki ironiyani kuchaytiruvchi infikslik stilistik usul sifatida ishlatiladi.

Affiksatsiya lingvistik terminologiyada morfologik jarayon sifatida namoyon bo‘lib, bunda ingliz tilidagi “-ism” va fransuz tilidagi “-isme” suffikslari yordamida “modernism”, “structuralism”, “postcolonialism” kabi terminlar hosil qilinadi.

Shu bilan birga, affiksatsiya jarayonida prefiksial inkor (*un-*, *non-*, *anti-*) alternativlik va zidlikni ifodalash vositasi sifatida qo‘llanadi. Masalan, “*antihero*” yoki “*noncanonical*” kabi birliklar diskursga nisbatan muqobil qarashlarni ifodalaydi. E.Benvenist bu hodisani “ideologik fon asosida shakllangan morfologik inkor mexanizmi” sifatida izohlaydi¹³⁷. Ingliz tilidagi affiks terminlarning fransuz tiliga “*structuralism*” – “*structuralisme*”, “*deconstructionist*” – “*déconstructionniste*” tarzida semantik moslikda o‘tishi, Vinay va Darbelnet tomonidan “*lingvistik kalibrlash*” deb ataluvchi tarjima strategiyasini tashkil qiladi¹³⁸, affiksatsiya morfologik tizimlararo interfeys, translingval terminologik izchillikni ta’minlaydi.

Kompozitsiya lingvistik terminologiyada universal model, tilning grammatik va sintaktik tipologiyasiga bog‘liq holda farqlanadi: ingliz

¹³⁷ É. Benveniste Problèmes de linguistique générale. Tome I. –Paris:1969. –p.84–97.

¹³⁸ J.P.Vinay, J. Darbelnet. Stylistique comparée du français et de l’anglais: Méthode de traduction. –P:1958. – p.102–118.

tilida bu model determinatorsiz, sintetik ko‘rinishda, “*speech act*”, “*word formation*” kabi ixcham birliklar orqali yuzaga chiqsa, fransuz tilida analitik asosda, “*acte de parole*”, “*théorie littéraire*” kabi predlogli va ko‘makchi birliklar orqali ifodalanadi ¹³⁹. Bu farq strukturaviy tilshunoslikda “*head-first*” va “*modifier-head*” modellarining qarama-qarshiligi bilan izohlanadi va kognitiv semantik tizimda ham til konseptlarini ochib beradi.

3.2.2-jadval

Lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarning inglizcha hamda fransuzcha kompozitsiya modellari: sintaktik, morfologik tafovutlar

Kompozitsiya turi	Inglizcha misol (strukturasi)	Fransuzcha misol (strukturasi)	Ilmiy izoh
Noun + Noun	<i>speech act</i>	<i>acte de parole</i>	John Austin va Searl tomonidan ishlab chiqilgan til falsafasidagi markaziy atama; fransuz tilida analitik tarzda predlog bilan ifodalangan.
Noun + Noun	<i>word formation</i>	<i>formation des mots</i>	Tilshunoslikdagi hosila birliklar, ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri birikma, fransuzchada prepozitsiyali strukturaviy model.
Adjective + Noun	<i>literary theory</i>	<i>théorie littéraire</i>	Nazariy bilimlarga tayanib, nomlanishida qo‘llaniladi; ikki til orasidagi sintaktik pozitsiyalar o‘rnashuvi mavjud.
Noun + Participle	<i>meaning-making</i>	<i>construction du sens</i>	Ma‘noni hosil qilish jarayonini anglatuvchi psixolingvistik va adabiyotshunoslik termin; fransuz tilida nominalizatsiya +

¹³⁹ C. Bally *Traité de stylistique française*. –Genève: 1909. –p.66–74.

			predlog.
Noun + Noun	<i>narrative structure</i>	<i>structure narrative</i>	Hikoya kompozitsiyasi; fransuz tilida sifatli ot konstruksiyasi, inglizchada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki ot birikmasi.
Adjective + Noun	<i>free indirect style</i>	<i>style indirect libre</i>	Stilistik uslub nomlarida fransuz tilida sifat (adjektiv) odatda postpozitsiyada, ya‘ni otdan keyin keladi. Bu holat til tipologiyasida sifatlarning joylashuvi bo‘yicha mavjud farqlarni yaqqol namoyon etadi.
Gerund + Noun	<i>reading process</i>	<i>processus de lecture</i>	Kognitiv faoliyat jarayonini anglatuvchi termin ingliz tilida odatda gerundiv konstruksiyalar orqali ifodalanadi, fransuz tilida esa asosan ot + predlog shaklidagi konstruksiyalar orqali namoyon bo‘ladi.
Noun + Adjective	<i>textual coherence</i>	<i>cohérence textuelle</i>	Matnshunoslik terminologiyasi; fransuz tilida klassik sifatlashgan model.

Jadvalda ingliz va fransuz tillarida kompozitsiya orqali shakllangan adabiyotshunoslik va lingvistik terminlarning morfosintaktik tuzilishi tahlil qilindi. Ingliz tilida terminlar sintetik va ixcham shaklda, fransuz tilida esa analitik, predlogli yoki sifatlashgan tartibda hosil bo‘lib, “*narrative structure*”, “*speech act*” kabi birliklar komponentlarning leksik qiymatini saqlagan holda terminning shakliy jihatdan ortiqcha unsurlarsiz, o‘z ma‘nosini saqlagan holda qisqa va aniq tuzilishini aks

etdi¹⁴⁰. Biroq, bu soddalashtirish semantik tafsilotlarning qisqarishiga olib kelishi, aksincha, fransuz tilidagi kompozitsion terminlar analitik sintaksisga tayanib, “*structure narrative*”, “*acte de parole*” kabi birliklarda *de, du, des* kabi predloglar yordamida semantik aloqadorlikni aniq, qat’iy sintaktik pozitsiyada namoyon etadi¹⁴¹. Har bir element, “*construction du sens*” yoki “*processus de lecture*” kabi terminlar ma’noni mustaqil saqlaydi va fransuz tilining tarkibiy vazifasiga tayanib terminologik strategiyani yaqqol namoyon etadi.

Qiyosiy tilshunoslik doirasida “*word formation*” – “*formation des mots*”, “*free indirect style*” – “*style indirect libre*” kabi terminlar, terminologik izomorfizm tushunchasi orqali tavsiflanadi¹⁴². Har ikkala til morfologik, sintaktik jihatdan farq qilgan bo’lsa-da, semantik ekvivalentlikni saqlagan holda, translingval tarjimada formal-semantik muvozanatni ta’minlaydigan parallel strukturalar yaratishga muvaffaq bo’ladi.

Shuningdek, kompozitsion terminlar ilmiy diskursning epistemologik qatlamida ham metodologik funksiyani amalga oshiradi. “*Narrative structure*” adabiyotshunoslik tahlil doirasida matnning tashkil etish prinsiplari bilan bog’liq. “*Speech act*” tilning kommunikativ va pragmatik imkoniyatlarini ifodalaydi.

Konversiya (*conversion*) – bu so’zning tashqi morfologik belgilarisiz boshqa leksik-turkum darajasiga o’tishi natijasida yangi birlikni vujudga keltiradigan lingvistik mexanizmdir. Bu hodisa ingliz tilida faol ishlovchi model hisoblanadi, otdan fe’lga, sifatdan otga, fe’ldan otga o’tish shakllari keng qo’llaniladi.

Fransuz tilida konversiya hodisasi chegaralangan, o’zgarishlar odatda leksik hosilalar yoki murakkab so’z birikmalari orqali amalga oshiriladi¹⁴³. Ushbu holat ikki tilning morfologik tipologiyasini aniq namoyon etadi: ingliz tili analitik qurilishga asoslangan bo’lsa, fransuz tili esa flektivlik va grammatik ko’rsatkichlarga tayanadigan morfologik tizimni ifodalaydi.

Yuqoridagi jadval ingliz va fransuz tillarida konversiya usulida hosil bo’lgan adabiy-lingvistik terminlar qiyosiy tahlil etilib, ingliz tilida konversiya morfologik o’zgartirishsiz amalga oshiriladi. Fransuz tilida konversiya bevosita amalga oshmaydi, balki affiksatsiya, artikllar yoki

¹⁴⁰ J.L.Austin *How to Do Things with Words*. –Oxford: 1962. –p.94–108.

¹⁴¹ J.P.Vinay, J.Darbelnet *Stylistique comparée du français et de l’anglais: Méthode de traduction*. –Paris: 1958. – p.102–118.

¹⁴² J.R.Searle. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge:1969. –p.31–42.

¹⁴³ J. Dubois. *Dictionnaire de linguistique*. –Paris: 1994. –p.211–213.

leksik-parafrazalar yordamida yuzaga chiqadi. Jadvaldagi misollar har ikki tilning tipologik tuzilmasi, terminologik strategiyalari va epistemologik vositalaridan dalolat beradi.

3.2.3-jadval

Ingliz va fransuz tillarida so‘z turkumlari o‘rtasidagi konversiya jarayonining qiyosiy tahlili

Konversiya yo‘nalishi	Inglizcha birlik (strukturasi)	Fransuz ha muqobili	Izoh
Noun → Verb	to text (from text)	envoyer un message	Ingliz tilida so‘z turkumini o‘zgartirish uchun hech qanday morfologik vosita talab qilinmaydi; fransuz tilida bu semantik transfer asosida fe‘lli ibora bilan ifodalanadi.
Verb → Noun	a critique (from to critique)	une critique	Har ikkala tilda tanqidiy munosabat bildiruvchi birliklar mavjud, biroq fransuz tilida nominal affiksatsiya orqali belgilanadi.
Adjective → Noun	the unknown (from unknown)	l’inconnu(e)	Sifatning predmetga aylanishi ingliz tilida soddalashtirilgan, fransuzcha variantda artikl va rod moslashuvi orqali belgilanadi.
Noun → Verb	to author (from author)	écrire / être l’auteur de	Ingliz tilida otdan fe‘lga bevosita o‘tish mumkin, fransuz tili semantik tavsifli birikmalar vositasida buni ifodalaydi.
Adjective → Noun	a native (from native)	un autochtone	Kelib chiqish yoki millatni ifodalovchi birlik ingliz tilida sifatdan otga o‘tadi; fransuz tilida bu maxsus ot bilan beriladi.
Verb → Noun	a read (from to read)	une lecture	Ingliz tilida o‘qish jarayoni konversiya asosida nomlanadi, fransuz tilida muqobil nominalizatsiya yordamida hosil bo‘ladi.

Ingliz tilidagi konversiya hodisasi morfologik jihatdan o‘ta tejamkor va strukturaviy soddalik tamoyiliga ko‘ra til tizimida affikssiz, bevosita so‘z turkumi o‘zgarishi orqali yangi birliklar yaratishga yordam beradi. “Konversiya polifunksionallikni ta’minlab, leksik imkoniyatlarni kengaytiradi va tilning ekspressiv salohiyatini oshiradi”¹⁴⁴. Tadqiqotchilar bunday tizimni ingliz tilining pragmatik moslashuvchanlik va struktural ixchamlikka intiluvchi tabiati bilan izohlaydi¹⁴⁵. Shunga qaramay, fransuz tili bu borada ancha normativ va konservativ bo‘lib, so‘z turkumlari qat’iy morfologik ko‘rsatkichlar orqali belgilanganligi sababli, konversiya hodisasi bu tilda zaiflashadi; leksik yangiliklar asosan derivatsiya, nominalizatsiya yoki frazeologik birliklar orqali hosil qilinadi.

Struktural farqlanish til tipologiyasining tabiiy oqibati sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilidagi sintaktik terminlar, odatda, determinatorsiz, ixcham tartibda qurilgan bo‘lib, bu konstruksiyalar muayyan ilmiy, uslubiy tushunchalarni ekspressiv ifodalash imkonini beradi. Aksincha, fransuz tilida bunday birliklar predlog (*de, du, des*) yordamida bog‘langan va *head-modifier* modeliga tayanadi¹⁴⁶. Fransuz tilining normativ sintaktik strukturalarga sodiqligi va kategoriya ichidagi o‘zaro formal muvozanatga urg‘u berishini ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda ingliz va fransuz tillarida sintaktik konstruksiya hosil bo‘lgan adabiy-lingvistik terminlar keltirilgan.

3.2.4-jadval

Inglizcha va fransuzcha ilmiy atamalarda sintaktik konstruksiya turlarining tuzilishi va ifoda usullari

Konstruksiya turi	Inglizcha misol	Fransuzcha muqobili	Izohi
Attributiv ibora	<i>stream of consciousness</i>	<i>courant de conscience</i>	Ingliz tilida determinatorsiz va ixcham, fransuz tilida predlog asosida qurilgan.
Predlogli birikma	<i>point of view</i>	<i>point de vue</i>	Har ikki tilda sintaktik jihatdan barqaror va qabul qilingan birlik.

¹⁴⁴ M.A.K. Halliday. An Introduction to Functional Grammar. –London: Arnold, 1994. –p.208–222.

¹⁴⁵ R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Svartvik. A Comprehensive Grammar of the English Language. –London: 1985. –p.17–21; 441–443.


¹⁴⁶ M.Baker. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: 1992. –p.21–36; 83–90.

Aniqlovchi + aniqlanmish	<i>free indirect speech</i>	<i>discours indirect libre</i>	Aniqlovchi o'zni ingliz tilida oldin qo'llaniladi, fransuz tilida aniqlovchi birlik aniqlanmishdan keyin joylashadi.
Qaratqich munosabatini ifodalovchi so'z birikmasi	<i>act of interpretation</i>	<i>acte d'interprétation</i>	Ingliz tilida qaratqich konstruksiya orqali, fransuz tilida predlog yordamida ifodalanadi.
Bir nechta komponentdan tashkil topgan, o'tli birlik	<i>theory of metaphor</i>	<i>la théorie de la métaphore</i>	Ingliz va fransuz tillarida strukturaviy moslikni namoyon etadi.
O'tli tuzilma	<i>narrative of identity</i>	<i>récit de l'identité</i>	Ingliz va fransuz tillarida analitik tuzilma asosida ifodalanadi.
Sifat+ibora	<i>visual literacy skills</i>	<i>compétences en lecture visuelle</i>	Ingliz va fransuz tillarida tuzilma o'xshash bo'lsa-da, sifat (modifier)ning joylashuvi farqlanadi.

Ingliz tilidagi terminlar (*phoneme, clause, poetic, speech act, stylistics*) odatda determinatorsiz, ixcham va sintetik shaklda qo'llanadi. Fransuz tilidagi muqobillari (*son, proposition, poétique, acte de parole, stylistique*) esa analitik tuzilishi va morfologik barqarorligi bilan farqlanadi.

3.2.5-rasm.

Tematik terminlarning inglizcha va fransuzcha korpus chastotasi



Grafikda ikki tildagi terminlarning korpus chastotasi solishtirilgan, ingliz tilidagi birliklar barcha guruhlarda ustunlik qiladi; “*speech act*”, “*structural analysis*” va “*figurative language*” eng yuqori ko‘rsatkichga ega. Bu farq ingliz tilining global diskursdagi ustuvor mavqeini, fransuz tilining nisbatan lokal va akademik ixtisoslashuvini aks ettiradi hamda tarjimada morfosintaktik moslashuv va semantik ekvivalentlikning dolzarbligini ko‘rsatadi. Korpus lingvistikasi (BNC, COCA, Frantext) terminlarning matnda qo‘llanilishini aniqlaydi, ularning strukturaviy moslashuvini namoyon etadi¹⁴⁷.

Tematik guruhlash va korpus kuzatuvlari semantik bog‘lanishni yoritadi hamda adabiy-lingvistik terminologiyani bilim tuzilmasida konseptual joylashtirishga xizmat qiluvchi gnoseologik tushuncha sifatida talqin etish zaruriyati oydinlashadi. Terminlarning funksiyasi uslub, kontekst, estetik yuklama va matndagi mavqeiga bog‘liq holda o‘zgarib, ma’no qatlamlarini boyitadi va talqinning turlicha imkoniyatlarini yaratadi.

Quyida berilgan jadvalda ingliz va fransuz tillaridagi parallel terminlar tahlil qilinadi:

3.2.6-jadval.

Uslubiy mezon bo‘yicha ingliz va fransuz terminlarining diskursiv farqlanishi

Ingliz tilidagi termin	Fransuz tilidagi muqobili	Kontekst / vazifasi	Uslubiy tavsif
<i>freedom</i>	<i>liberté</i> / <i>liberty</i>	emotsional va badiiy / Rasmiy va siyosiy	Subyektiv / Normativ, qonunchilikda qo‘llanadi
<i>narrative voice</i>	<i>voix narrative</i>	Adabiyotshunoslik tanqid, hikoyalovchi nuqtai nazaridan	Metaforik, fokalizatsiyaga yo‘naltirilgan
<i>style</i>	<i>style littéraire</i>	Janrlararo qiyos, estetik tahlil	Individual mualliflik ohangi
<i>perspective</i>	<i>point de vue</i>	Roman va esse tahlilida pozitsiya ifodasi	Subyektiv nuqtai nazar burchagi
<i>tone</i>	<i>tonalité</i>	Badiiy uslub / ironik, dramatik, falsafiy	Estetik yuklama

¹⁴⁷ Davies Mark. The Corpus of Contemporary American English (COCA). <https://www.english-corpora.org/coca/>; British National Corpus (BNC). Oxford University, 2007. <https://www.natcor-p.ox.ac.uk/>; Frantext Database (ATILF-CNRS). <https://www.frantext.fr>

Bilamizki, “Til faqat aloqa vositasi emas, balki epistemik pozitsiyani ham bildiradi”¹⁴⁸. Masalan, “*freedom*” individuallikni bildirsa, “*liberty*” ko‘proq huquqiy maqom bilan bog‘liq. Shunday qilib, bu terminlar oddiy sinonimlar emas, balki diskursiv pozitsiyani ko‘rsatuvchi indeksator sifatida xizmat qiladi. Poststrukturalist tahlilda (Derrida, Genette) “*narrative voice*” va “*voix narrative*” kabi terminlar metadiskurs sifatida o‘rganiladi. Stilistik omil, nutq uslubi va g‘oya o‘zaro bog‘lanib, epistemologik struktura uchligini shakllantiradi.

Tarjima jarayonida semantik siljish, uslubiy tafovut hamda turli ilmiy maktablarning qarashlaridagi farqlarni inobatga olish zarur. Quyida keltirilgan jadvalda tarjimada tafovut yuzaga keladigan terminlar aniqlanib, misollar asosida tahliliy jihatdan yoritildi.

3.2.7-jadval.

Tarjimada terminlarning semantik va kontekstual siljishi

Fransuzc ha termin	Inglizcha muqobil	Formal o‘xshashlik	Kontekst farqi
analyse textuelle	textual analysis	Yuqori	Fransuz tilida strukturaviy; ingliz tilida ko‘proq psixoanalitik, ijtimoiy tahlil
intertextualité	intertextuality	Yuqori	Fransuz diskursida Genette; inglizda Barthes, Kristeva asosida kengaygan
narratologie	narratology	Yuqori	Fransuzda formalistik tahlil; inglizda diskurs tahlilga o‘tadi
langage littéraire	literary language	O‘rtacha	Fransuz tilshunosligida normativ; ingliz tilida ko‘proq funksional holatda qo‘llaniladi

B.Kassin (B.Cassin) (2004) “*Vocabulaire européen des philosophies*” asarida bu holatni “*filosofik metafora*” deb ataydi – ya’ni terminlar tarjimada ko‘chib, yangi kontekstda o‘ziga xos ma’no qatlamini ham hosil qiladi¹⁴⁹. Demak, tarjima jarayonida qo‘llanayotgan terminlar o‘z semantik doirasida lingvistik chegaradan tashqari ilmiy-mafkuraviy yuklamani ham tashiydi. Shu bois tarjimon ushbu ko‘rinmas

¹⁴⁸ É. Benveniste. *Problèmes de linguistique générale. Vol. 1.* –Paris: 1966. –p.223–235.

¹⁴⁹ B.Cassin. *Vocabulaire européen des philosophies: Dictionnaire des intraduisibles.*–Paris:2004.–p.35–49, 182–186.

ma'no qatlamini adekvat talqin etish salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Terminlar kognitiv maydonda shakllanib, shu kontekstda anglanadi.

Quyida keltirilgan misollar ingliz va fransuz tillarida semantik struktura o'rtasidagi moslikni yoritadi.

3.2.8-jadval.

Kognitiv moslik orqali terminlar taqqoslanishi

Inglizcha termin	Fransuzcha termin	Kognitiv maydon / Konseptual asos	Tavsif
<i>narrative identity</i>	<i>identité narrative</i>	Hikoya ko'magida shaxs shakllanishi	Paul Ricoeur konsepsiyasi, zamon va xotira bilan bog'liq
<i>textual space</i>	<i>espace textuel</i>	Matnni fazoviy struktura sifatida tushunish	Deleuze va Genette metaforalari asosida ¹⁵⁰
<i>cultural memory</i>	<i>mémoire culturelle</i>	Madaniy birliklarda xotira tuzilishi	Assman va Nora munosabatlari
<i>conceptual metaphor</i>	<i>métaphore conceptuelle</i>	Abstrakt fikrni konkret model bilan anglash	Lakoff, Johnson qarashlari

J.Lakoff (George Lakoff) va M.Jonson (Mark Johnson) (1980) tomonidan ilgari surilgan kognitiv metaforaga ko'ra, "Til inson tajribasini tartibga soluvchi konseptual tizim sifatida harakatlanadi; u shunchaki aloqa vositasi emas, balki ongdagi bilim va tushunchalarni modellashtiruvchi strukturadir".¹⁵¹ "*Identité narrative*" termini oddiy tarjima qilinadigan ibora emas, balki epistemologik pozitsiyani ifodalovchi vosita bo'lib, uning "*narrative identity*" shaklidagi inglizcha muqobili bilan semantik darajada emas, balki tushunchaviy qiyoslanishi lozim.

Xuddi shuningdek, "*textual space*" va "*espace textuel*" kabi terminlar o'rtasidagi moslik semantik, madaniyatlararo tafakkur modeli, shuningdek, makon konsepsiyasining ifodasidir: fransuz tilshunosligida bu tushuncha ko'proq *fazoviy poetika (spatial poetics)* doirasida qaralsa, ingliz tilida ushbu termin matnlararo muloqotni ifodalovchi interaktiv diskursiv struktura sifatida talqin etiladi. Har bir termin o'z ichida madaniyat, epistemologiya va semiosferani mujassamlashtiradi.

¹⁵⁰ G. Deleuze. Critique et clinique. –Paris: Minuit, 1993. –p.69–84.

¹⁵¹ G.Lakoff, M. Johnson. *Metaphors We Live By*. –Chicago: 1980. –p.3–30, 14–21.

Tasniflar va jadvaldagi empirik tahlil terminlarning kontekstual, diskursiv hamda kognitiv obyekt sifatida faol ekanligini ko'rsatadi.

Tarjima madaniyatlararo interpretatsiya jarayoni sifatida terminlarni asl kontekstda anglashda yuqori ilmiy aniqlikni talab etadi. U tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik o'rtasida mustahkam ko'priq vazifasini bajarib, terminlarni talqin qilishda fanlararo uyg'unlik zarurligini ko'rsatadi.

Ingliz va fransuz tillaridagi terminlar grammatik, gnoseologik va madaniy asoslarda shakllanib, mos ravishda sintetik va analitik tuzilmalarga tayangan holda semantik aniqlikni ta'minlaydi. Ularni tahlil qilishda shakl, sintaksis va konseptual kontekstni qamrab oluvchi fanlararo yondashuv muhimdir.

3.3. Ingliz va fransuz tilshunoslik terminlarining turli tillar tizimida tutgan o'rni va ularning voqelanishi xususiyatlari

Darhaqiqat, "Terminlar shunchaki ma'no anglatuvchi birlik emas, balki jamiyatdagi muayyan tartib va bilim tizimini asoslab beruvchi ideologik vositadir"¹⁵².

Ingliz va fransuz tillari, o'zining madaniy, tarixiy ta'siri tufayli, boy hamda xilma-xil terminologik tizimlarni shakllantirgan. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda terminologik birliklar endilikda oddiy leksik yoki texnik atamalar sifatida emas, balki madaniy-diskursiv tizimning markaziy komponentlari sifatida talqin etilmoqda

Til tushunchalari kognitiv metaforaga ko'ra metaforik shakllanib¹⁵³, terminlar konseptual strukturalar madaniyatda o'z o'rnini topishini anglatadi. Masalan, "*understand*" so'zi "*pastda ushlab turmoq*" degan fazoviy metaforani o'z ichiga oladi, bilimni "*egallash*" deb talqin qilishga olib keladi. Bu o'z navbatida G'arb madaniyatidagi ilm-ustuvorlik g'oyasini tasdiqlaydi.

"*Representation*" atamasi British National Corpusda 245 ming marta, Frantext fransuz korpusida 137 ming marta qayd etilgan. Ushbu statistik tafovut terminning anglo-amerikan ilmiy diskursida ustuvorlik kasb etishini hamda ingliz tilida o'zini ifodalash va bayon etish jarayonida yuqori darajadagi siyosiy konnotatsiyani namoyon etishini ko'rsatadi¹⁵⁴.

¹⁵² M. Foucault. The Archaeology of Knowledge. – London: 1969. –p. 80–85.

¹⁵³ G.Lakoff, M.Johnson, Metaphors We Live By. – Chicago: 1980. –p.3–30; 14–21.

¹⁵⁴ British National Corpus (BNC). Oxford University, 2007. <https://www.natcor-p.ox.ac.uk> Frantext Database (ATILF-CNRS). <https://www.frantext.fr>

Quyidagi jadval tadqiqotlarda terminlarning epistemik yoʻnalishi (yaʼni bilim qanday shakllanishi) hamda madaniy asoslari (tarixiy, falsafiy yoki diniy kontekst) oʻrtasidagi aloqalar yoritiladi. Har bir termin muayyan bilim paradigmasi va madaniy dunyoqarash bilan chambarchas bogʻliqdir:

3.3.1-jadval

Ingliz tilidagi asosiy ilmiy-madaniy terminlarning epistemik va madaniy asoslari

Termin	Epistemik yoʻnalish	Madaniy asos
<i>Experience</i>	Empirik kuzatuv	Anglo-Sakson eksperimentalizm
<i>Individual</i>	Subektiv markazlik	Protestant etikasi
<i>Fact</i>	Verifikatsiyalanuvchi haqiqat	Ilmiy metodologiya

Ingliz tilidagi “agency” atamasi Gʻarb epistemologiyasida individual tajribani, fransuz tilida: “agentivité”, asosan, konsept sifatida cheklangan sohalarda qoʻllanadi. Shu oʻrinda, inglizcha ilmiy diskursda shaxsiy tajriba va verifikatsiyalanuvchi haqiqat epistemik ustuvorlikka ega. “Objectivity” termini inglizcha ilmiy diskursda neytral, universal bilimga ishora qilsa-da, uning fransuzcha ekvivalenti – “objectivité scientifique” – koʻproq ehtiyotkorlik hamda muvozanat bilan bogʻlanadi. Bu Gʻarb va frankofon ilmiy anʼanalaridagi tafakkur farqlarini ochib beradi.

R.Dekartning “Discours de la méthode” asarida “raison” (aql, mantiq) tushunchasi koʻmagida falsafiy asoslangan boʻlib, fransuz lingvistik va adabiyotshunoslik terminologiyasida konseptual ierarxiyani shakllantirgan¹⁵⁵.

3.3.2-jadval

Fransuz tilidagi terminlarning falsafiy asoslari va madaniy manbalari

Termin	Nazariy asos	Madaniy-falsafiy manba
Raison	Tafakkur ustuvorligi	Descartes dualizmi, Maʼrifat (Enlightenment) falsafasi
Structure	Formalistik tahlil	Lévi-Strauss strukturalizmi
Discours	Bilim va hokimiyat ifodasi	Foucaultning genealogik va arxeologik modeli

Terminlar orqali har bir jamiyat oʻzining bilimni anglash usulini va unga xos ideologik tuzilmani namoyon etadi. Terminlar fransuz ilmiy

¹⁵⁵ R. Descartes. Discours de la méthode. –Oxford: 2006. –p.3–36.

an'analarida bilimni tizimlashtirish va universal shaklga keltirish istagini aks ettiradi. Shu sababli fransuz tilidagi terminlar odatda yuqori sathdagi mazmun bilan ajralib turadi.

“*Structure*” atamasi tilshunoslikdan tashqari antropologiya, psixanaliz va falsafada birlik sifatida qaraladi.

Postkolonializm, feminist epistemologiya va poststrukturalizm oqimlari terminning shakllanishi, ularning hokimiyat bilan aloqasi va “haqiqat” konstruksiyasidagi rolini ochib beradi.

3.3.3-jadval.

Ingliz va fransuz terminlarining konnotatsion farqlari va ideologik konteksti

Termin	EN konnotatsiya	FR konnotatsiya
<i>Agency</i>	Faol subyektivlik, tanlov erkinligi (postkolonial)	Nazariy tushuncha, ijtimoiy cheklovli (<i>agentivité</i>)
<i>Representation</i>	O'zini ifoda, identitet siyosati	Davlat vakilligi, institutsional ko'rinish
<i>Laïcité</i>	Dunyoviylik (ekvivalent mavjud emas)	Milliy siyosiy model, ideologik himoya

Xususan, G.Ch.Spivak (Gayatri Chakravorty Spivak) o'zining mashhur “*Can the Subaltern Speak?*” maqolasida G'arb ilmiy diskursida ishlab chiqilgan terminologiya “*subaltern*” – ya'ni mustamlaka qaramog'idagi yoki ijtimoiy jihatdan quyi mavqedagi subyektlarning ovozi to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ustuvor ideologik filtrlardan o'tgan holda ifodalashini ko'rsatadi¹⁵⁶.

Ingliz tilida “*representation*” feministik, postkolonial diskurslarda o'ziga xoslikni qayta tiklash vositasi bo'lsa, fransuz tilida bu termin ko'proq siyosiy tizim ichidagi “*xalq nomidan gapirish*” huquqini bildiradi.

Quyida keltirilgan jadvalda til va terminologiyaning epistemik asoslari bilan ularning diskursiv xususiyatlari borasida tahlillar berilgan. Ingliz tili terminologiyasi, asosan, pragmatik va empirik tamoyilga tayanadi, ya'ni terminlar tajriba, kuzatuv va amaliy natijadorlik sabab, aniqlik (“*clarity*”) hamda qo'llash qulayligi (“*usability*”) kabi mezonlar bilan baholanadi.

¹⁵⁶ G.C.Spivak. *Can the Subaltern Speak?* –Urbana: 1988. –p.271–313.

3.3.4-jadval

Ingliz va fransuz tilidagi diskursning epistemik va stilistik o'ziga xosligi

Til	Epistemik model	Diskursiv xususiyatlar
Ingliz tili	Pragmatik-empirik	Terminologiya, odatda, aniq natija, soddalik va amaliyotga yo'naltirilgan. "Clarity" (aniqlik) va "usability" (qo'llash qulayligi) G'arb akademik yozuvida ustuvor prinsiplar sifatida qaraladi. Terminlar ko'pincha eksperiment, kuzatuv va tajribaga tayanadi.
Fransuz tili	Nazariy-abstrakt	Terminologiya murakkab nazariy konstruksiyalar, falsafiy qatlamlar va strukturaviy ierarxiyalarda joylashadi. "Cohérence" (ichki uyg'unlik) va "abstraction" (abstrakt fikrlash) fransuz diskursining tamoyillaridan biri bo'lib, tafakkur izchilligi va metodik mukammallik talab etiladi.

Fransuz tili nazariy va abstrakt epistemik modelga asoslanadi. "Cohérence" (tuzilmaviy uyg'unlik) va "abstraction" (abstraksiyalash) fransuz diskursining ilmiy aniqlik mezonlari bo'lib, tafakkur tartibi, ratsional aniqlik va metodologik mukammallik talab etiladi.

Nazarimizda tafovutlar tarjima, ilmiy muloqot va madaniyatlararo diskursda terminologik farqlanish va ehtimollik, noekvivalentlik muammolarini yuzaga chiqaradi.

Ingliz va fransuz tillaridagi terminologik tizimlar o'rtasidagi farqlar, ularning ortidagi epistemik paradigmalarning tafovutiga borib taqaladi. Ingliz tilida terminlar "rational simplicity", ya'ni sodda, aniq va amaliy maqsadga yo'naltirilganlik tamoyiliga tayanadi.

Terminlar ko'p hollarda transmadaniy muloqot vositasi sifatida qo'llanilsa-da, ular barcha tillarda bir xil semantik konnotatsiyani saqlab qolmaydi. Shaklan o'xshash atamalar turli til tizimlarida turlicha madaniy semantik yuklamaga ega bo'lishi mumkin.

Ingliz tilidagi "subjectivity" atamasi asosan ichki shaxsiy pozitsiya va individual qarashni anglatadi, fransuz tili talqinida inson ongining tajribadan mustaqil holda bilimni shakllantirishga xizmat qiluvchi ichki imkoniyat (Kant, Husserl) hamda ontologik-metafizik "men" tushunchasi bilan bog'lanadi. Shu sababli, bu qatlamni inobatga olmaslik tarjimada sezilarli tafovutlarga olib keladi. Ingliz tilidagi

“*rationality*” qaror qabul qilish vositasi yoki foydalilik mezoniga asoslanadigan bo‘lsa, fransuz tilidagi “*raison*” Aristotel va Dekart an’anasidan kelib chiqqan aql (*logos*) tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Kognitiv semantika nuqtai nazaridan bunday tafovutlar “*cultural models*” orqali tushuntiriladi; har bir til termin atrofida o‘ziga xos bilim arxitekturasini shakllantiradi va shaklan o‘xshash birliklar mazmun jihatdan mutlaqo turlicha bo‘lishi mumkin.

Adabiyotshunoslik terminologiyasining xususiyatlarini sanab o‘tar ekanmiz unda faqatgina janr va uslubiy farqlarning nomlanishi emas, balki madaniyatning estetik ongini, davrning falsafiy idealini va g‘oyaviy siluetini aks ettiruvchi diskursiv konstruksiya ekanligini ko‘ramiz. Har bir atama o‘z ortida muayyan davrning tarixiy-estetik tafakkuri, madaniy paradigmasi va ijtimoiy tushunchalarini yashirgan bo‘ladi. Ingliz va fransuz adabiyotshunoslik tafakkuri ikki turlicha epistemik modelda shakllangan: biri eksperimentatorlik va stilistik yangilangan, ikkinchisi estetik-falsafiy oqimlar orqali davrni va ong holatini ifodalashga qaratilgan.

3.3.5-jadval.

Adabiyotshunoslik terminologiyasining madaniy-epistemik modellari

Til	Epistemik yondashuv	Dominant terminlar
Ingliz tili	Janr va stilistik ko‘lam	<i>Realism, Modernism, Postmodernism</i>
Fransuz tili	Estetik-falsafiy epoxalash	<i>Classicisme, Symbolisme, Existentialisme</i>

Ingliz adabiyotshunoslik tanqidida “*Modernism*” tushunchasi odatda stilistik inqilob, sintaktik buzilish va ichki monolog kabi uslublar bilan tavsiflanadi. J.Joyce va V.Woolf ijodida bu oqim til eksperimentlari orqali o‘z ifodasini topgan. Fransuz kontekstida esa “*Modernité*” jamiyatning modern holati, estetik iztirob va ekzistensial inqiroz tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, Ch.Baudelaire, A.Camus va J.-P.Sartre asarlarida insonning ichki kechinmalari falsafiy asosda yoritilgan.

M.Berman o‘zining “*The Experience of Modernity*” (1982) asarida modernizmni texnikaviy yangilik emas, balki madaniy shok, zamonaviylik og‘rig‘i va g‘amgin ong holati sifatida talqin qiladi¹⁵⁷. Shu tariqa, ingliz adabiyotida modernizm ko‘proq uslubiy yangilanish (formal innovation) nuqtai nazaridan tushuntirilsa, Berman uni

¹⁵⁷ M.Berman. All That Is Solid Melts into Air: The Experience of Modernity. –London:1982. –p.89–131.

g'oyaviy-emotsional doirada kengroq talqin etadi. Fransuz terminologiyasida "*classicisme*" oddiy uslubiy kategoriya emas, balki nizom, muvozanat va abadiylik idealini ifodalaydi, ingliz tilidagi "*realism*" esa real hayot manzaralarini tasvirlashga yo'naltirilgan adabiy yo'nalishni bildiradi. Shunday qilib, shaklan o'xshash bo'lgan terminlar turli madaniy kontekstlarda semantik va konseptual jihatdan sezilarli tafovutlarga ega ekanligi ko'zga tashlanadi.

XXI - asrda ingliz tilining global ilmiy va madaniy hukmronlikka aylanishi natijasida adabiyotshunoslik va ilmiy atamalar ko'pincha anglo-amerikan yondashuvi asosida yagona me'yorlarga solina boshlandi. Ushbu jarayon boshqa tillarda, xususan fransuz tilida, madaniy hamda bilishga oid mustaqillikni (epistemik suverenitetni) saqlash maqsadida soflik (purizm) harakatlarining kuchayishiga olib keldi. Calvet (1999) o'zining "*La guerre des langues*" asarida bu jarayonni "til urushi" deb atab, fransuz tilidagi atamalarni saqlab qolishni madaniy o'zlikni himoya qilish vositasi sifatida tahlil qiladi¹⁵⁸.

Ingliz va fransuz ilmiy-madaniy modellari global va nazariy yo'nalishlarda sezilarli farqlarni namoyon etadi. Ingliz tilida atamalar ko'pincha soddalashtirilgan va xalqaro mezonlarga uyg'unlashtirilgan holda umumiylikka intiladi. Fransuz tilida esa atamalar qat'iy nazorat ostida bo'lib, milliy-madaniy qoidalarga tayangan holda shakllanadi. Ingliz tilidagi atamalar tizimi fanlararo qo'shilish jarayonida G'arb markazli yondashuvga asoslanib, jahon nutqiy maydonida faolroq o'rin egallaydi. Biroq ushbu global o'zlashtirish ko'pincha ilmiy (epistemik) hukmronlik sifatida baholanadi. Fransuz ilmiy an'anasida esa mustaqil va ko'p qatlamli nazariy doira ustuvor bo'lib, soflik (purizm) siyosati milliy ma'no chegaralarini himoya qilish vositasi sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga, bu yondashuv ayrim hollarda elitachilik xavfini ham tug'diradi. Masalan, ingliz tilidagi "*governance*" atamasi siyosiy boshqaruvning yangilangan modelini ifodalasa, fransuz tilida u qabul qilinmay, o'rniga "*gouvernement*" (hukumat) yoki "*gestion publique*" (jamoat boshqaruvi) kabi variantlar qo'llanadi.

Adabiyotshunoslik va tilshunoslik atamalarini faqat til vositalari sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, bilishga oid (gnoseologik) yondashuvlar hamda geosiyosiy jarayonlarning mahsuli sifatida talqin etish lozim. Ingliz tilidagi atamalar tizimi ko'proq amaliy yo'nalish, uslubiy yangilanish va xalqaro me'yorlarga moslashuv orqali shakllanadi. Aksincha, fransuz ilmiy-madaniy an'anasida nazariy

¹⁵⁸ L.-J. Calvet. *La guerre des langues et les politiques linguistiques*. –Paris: –p.11–36.

mustaqillikni saqlash, estetik davrlar asosida konseptual tartib yaratish hamda atamalar sofligini himoya qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayonida ekvivalentlik masalasi grammatik moslik doirasidan chiqib, ma'no tafovutlarini aniqlash, pragmatik maqsadlarni qayta qurish va ilmiy nutqning bilishga oid yaxlitligini boshqa tilga ko'chirishni taqozo etadi. Shu jihatdan, atamalar nafaqat til birliklari, balki ular orqali ilmiy tafakkurning tushunchaviy tuzilishi ham uzatiladi. Demak, tarjimonning vazifasi tilni ko'chirishdan iborat bo'lib qolmay, balki ilmiy bilishni belgilararo (intersemiotik) darajada qayta shakllantirishdir¹⁵⁹.

Ingliz tilida "*conceptual metaphor*" atamasi fransuz tilida "*métaphore conceptuelle*" shaklida qo'llanib, kognitiv tilshunoslik kontekstida ishlatiladi. Shuningdek, "*cognitive mapping*" atamasi fransuz tiliga "*cartographie cognitive*" tarzida tarjima qilinib, asosan psixologik terminologiyada qo'llanadi. Tarjima jarayonida esa semantik soddalashtirish va diskursiv izchillik o'rtasida muvozanatni saqlash muhim masala sifatida dolzarbligini saqlab qoladi. Grammatik jihatdan soddalashtirilgan ekvivalentlik ba'zan anglash osonligini va sintaktik izchillikni ta'minlasa-da, bu jarayon ko'pincha terminning semantik yukini hamda konnotativ darajasini to'liq ifodalash imkonini bermaydi¹⁶⁰.

Dinamik ekvivalentlik asosida frazeologik birliklarning tarjima modellari ko'pincha semantik ma'noni saqlagan holda, asl ifodaning funksional ta'sirini o'quvchiga yetkazishga qaratiladi. Masalan, ingliz tilidagi "*he kicked the bucket*" iborasi fransuz tilida "*il est mort*" shaklida evfemistik ifoda sifatida qo'llanadi. Shuningdek, "*a rule of thumb*" iborasi "*une estimation*" tarzida tarjima qilinib, umumiy qoidaning tafakkuriy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvda asosiy urg'u mazmun va interpretatsiya uyg'unligiga qaratilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda terminning tarixiy yoki madaniy qatlamlari soddalashtirilib yuborilishi mumkin. Natijada, iboraning genetik va madaniy semantik ma'lumotlari qisman boy berilishi ehtimoli yuzaga keladi.

Funksional ekvivalentlik tarjimada diskursiv aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Termin har doim qo'llanilgan kontekstga mos ravishda tanlanadi. Masalan, ingliz tilidagi "*performance*" atamasi iqtisodiy matnda "*rendement*" (samaradorlik), madaniy yoki san'at kontekstida

¹⁵⁹ J. House. Translation as Communication across Languages and Cultures. –London: 2015. –p.42–60.

¹⁶⁰ M. Baker. In Other Words: A Coursebook on Translation. –London: 1992. –p.10–34.

esa “*interprétation*” (ijro) shaklida ifodalanadi. Xuddi shuningdek, “*field*” atamasi biologik sohada “*champ*”, ijtimoiy fanlar doirasida esa “*domaine*” tarzida qo‘llanadi. Bu jarayon ko‘p ma‘noli va turli sohalarda qo‘llanadigan terminlarni kontekstga asoslangan tarzda tarjima qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois, dinamik ekvivalentlikka asoslangan yondashuv tarjima amaliyotida eng maqbul strategiyalardan biri sifatida e‘tirof etiladi. U leksik moslikni ta‘minlash bilan birga, nutq sohasi doirasida terminning maqsadli ma‘nosini to‘g‘ri va aniq ifodalash imkonini beradi.

Shu bilan birga, termin tarjimasida faqat til darajasidagi muvofiqlik emas, balki konseptual, madaniy va funksional darajadagi moslik ham muhimdir. Dinamik qarash semantik izoh, o‘quvchi uchun qulaylikni ta‘minlasa, funksional ekvivalentlik aniqlik va terminologik adekvatlikni kafolatlaydi. Har ikki uslub tarjimon oldida lingvistik vositachidan tashqari, epistemik muloqot dizayneri bo‘lish zaruratini qo‘yadi.

3.3.6.-jadval.

Tarjima strategiyalari va ularning lingvistik-amaliy samaradorligi

Usul	Ta‘rif	Amaliy misol (EN → FR)
Kalkalash	Strukturaviy moslikni saqlovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima	Social contract → Contrat social
Adaptatsiya	Madaniy moslashtirish	White House → Palais de l’Élysée
Transpozitsiya	So‘z turining o‘zgarishi	To explore → Une exploration
Modulyatsiya	Nuqtayi nazar o‘zgarishi orqali tarjima	You are right → Vous n’avez pas tort
Konversiya	Tuzilmani o‘zgartirib ifoda etish	Smoking kills → Le tabac nuit à la santé

Terminologik tarjima jarayonida muqobillik (ekvivalentlik) har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki avtomatik tarzda ta‘minlanavermaydi. Madaniy kontekstlar o‘ziga xos semantik va diskursiv qatlamlarga ega bo‘lgani sababli, noekvivalentlik hodisasi tarjimon oldiga murakkab tanlovlarni qo‘yadi. Bu sharoitda tarjimon faqatgina til vositachisi emas, balki ilmiy bilish va madaniy tafakkurni konvertatsiya qiluvchi kompetent subekt sifatida faoliyat yuritadi.

Tarjima sohasida taniqli fransuz-kanadalik tilshunos olimlar Vinay va Darbelnet noekvivalentlik yuzaga kelgan hollarda modulyatsiya

usulini, ya'ni anglatkichlar oralig'ida mazmuni kontekstual qayta qurish orqali semantik barqarorlikni ta'minlash strategiyasini eng moslashuvchan usul sifatida taklif qilgan¹⁶¹.

Birinchi, noekvivalentlik kognitiv tafovutni ko'rsatish mumkin. Har bir til o'zining konseptual tizimlari va bilim arxitekturasi asosida dunyoni anglaydi. Masalan, ingliz tilidagi "selfhood" (shaxsiylik, "menlik holati") atamasi o'zbek tilida bevosita semantik muqobilga ega emas. Bu holat "individ" tushunchasining G'arb falsafasidagi mustaqillik va o'zlik konsepsiyasiga bog'langanligini ko'rsatadi. O'zbek tilida bu tushuncha ko'proq jamiyatga bog'langan, ijtimoiy anglash tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi, fanlararo murakkablik ham tarjimada muhim noaniqlik manbai bo'lib, ayrim atamalar faqat ijtimoiy-gumanitar fanlar kontekstida mavjud, texnik yoki tabiiy fanlar doirasida bevosita tushunilmaydi. Masalan, "epistemicide" (bilim tizimining zo'rvonlik orqali yo'q qilinishi) – bu atama tarix, sotsiologiya va postkolonial tafakkurda muhim tushuncha bo'lsa-da, boshqa sohalarda begona va kontekstdan uzilgan bo'lib qolishi mumkin.

Uchinchi, madaniy tafovut ham tarjimada ekvivalentlikni ta'minlashda jiddiy to'siq bo'lib chiqadi. Masalan, "Thanksgiving" yoki "Common Law" kabi tushunchalar o'ziga xos tarixiy, diniy va siyosiy kontekstlarga ega bo'lib, bunday atamalar semantik konnotatsiya, identitet mazmunini o'zida mujassamlashtirgani bois tarjimada ularni oddiy leksik almashtirish emas, balki izohlovchi yoki adaptiv strategiyalar orqali tushuntirish talab etiladi.

Noekvivalent terminlarni tarjima qilishda bir nechta samarali strategik usullar qo'llaniladi: modulatsiya – ma'noni boshqa burchakdan qayta ifodalash (masalan, *He barely passed the exam* → *Il a juste réussi l'examen*); deskriptiv tarjima – termin o'rniga uning funksional mazmunini bayon qilish (*Common Law* → *anglo-sakson huquq tizimi asosida shakllangan adliya amaliyoti*); generalizatsiya – tor termin o'rniga umumlashtirilgan atamani tanlash (*epistemicide* → *bilimlarning yo'q qilinishi*); kontekstual moslashtirish tarjimani o'quvchi uchun tushunarli, ammo mazmunan xolis shaklda berishga undaydi (*selfhood* → *shaxsiylik hissi* yoki *ichki "men"*), semantik aniqlik va diskursiv xolislikni ta'minlaydi.

¹⁶¹ J.–P.Vinay, J. Darbelnet. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. Trans. and ed. by J.C. Sager, M.-J. Hamel. –Amsterdam: 1995. –p.30–39.

Tarjimada noekvivalent terminlar bilan ishlash – bu oddiy lingvistik muammo emas, balki madaniy, g‘oyaviy va kognitiv tafovutlarni uyg‘unlashtirish san‘ati sanaladi. Va, bizningcha, *modulyatsiya*, *deskriptiv*, *generalizatsiya* va *kontekstual moslashtirish* kabi strategiyalar orqali tarjimon semantik mazmunni yoqotmasdan, aniqlik va madaniy sezgirlikni birlashtira oladi.

Noekvivalent terminlarni tarjima qilishda uchta asosiy strategiya qo‘llaniladi. Birinchidan, izohli tarjima usuli termin ma‘nosini oddiy so‘z bilan emas, balki kengroq konseptual izoh orqali tushuntiradi va shu orqali chuqur semantik qatlamni saqlashga imkon beradi. Ikkinchidan, sinonimik almashtirishda termin bevosita tarjima qilinmasa ham, unga ma‘nodosh birlik orqali funksional ekvivalentlik yaratiladi. Uchinchidan, qulay soddalashtirish yo‘li mavhum yoki murakkab ilmiy termini o‘quvchiga tushunarli shaklda ifodalashga xizmat qiladi; bu ayniqsa ommabop ilmiy matnlar uchun samarali hisoblanadi.

Demak, terminologik tizimlar tilning grammatik va leksik qatlamlari bilan cheklanmaydi, balki ular madaniy, kognitiv va bilishga oid kontekstlar bilan uzviy bog‘liqdir. Terminlar faqat axborot tashuvchi birlik emas, balki ilmiy tafakkur, ideologik pozitsiya va madaniy bilim strukturasi shakllantiruvchi konseptual vosita sifatida maydonga chiqadi. Ingliz tilida terminologiya ko‘proq global standartlashtirishga yo‘naltirilgan pragmatik va empirik xarakterda bo‘lsa, fransuz an‘anasida nazariy izchillik, ratsionalizm va madaniy suverenitet asosiy tamoyil sifatida ustuvorlik kasb etadi.

III bob bo‘yicha xulosa

1. Ingliz va fransuz terminlarining yasaliş mexanizmlari bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya ikki tilning morfologik tipologiyasi hamda ilmiy tafakkurini belgilovchi muhim vositalardir. Ingliz tilida sintetik, ixcham va polifunksional birliklar ustuvor bo‘lsa, fransuz tili murakkab morfologik qurilish, nazariy qat‘iyat va semantik aniqlikni saqlashga intiladi.

2. Terminlarning tarixiy shakllanishi qadimgi yunon, lotin, german va fransuz ildizlariga borib taqaladi. Bu qatlamlar zamonaviy diskurslarda yangi semantik yuklamalar bilan boyigan bo‘lsa-da, ularning dastlabki etimologiyasi bilan doim ham to‘liq mos kelmaydi. Shu bois, terminologik tadqiqotlarda tarixiy-etimologik tahlil semantik va kontekstual talqin bilan uyg‘unlashgan holda olib borilishi lozim.

3. Ingliz va fransuz tillaridagi shaklan o'xshash, ammo mazmunan farqli terminlar tarjimada semantik siljish, uslubiy tafovut va gnoseologik noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, "*narrative identity*" va "*identité narrative*" kabi birliklar bir qarashda ekvivalent ko'rinsa-da, ularning epistemik manbalari farq qiladi. Shu sababli, terminologik tarjima doimo kognitiv, pragmatik va madaniy kontekst bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur.

4. Shuningdek, ingliz va fransuz terminlari derivatsiya va assimilyatsiya jarayonlari orqali shakllanadi. Ammo bu jarayon ko'pincha sinonimiya, redundantlik va stilistik tafovutlarni keltirib chiqaradi. Bunday holat terminlarning funksional izchilligi hamda diskursiv aniqligini zaiflashtirishi mumkin, shu bois ularni tizimli tasniflash va standartlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Ingliz tilining global ilmiy diskursdagi mavqei ko'plab terminlarning inglizcha shaklda standartlashuviga olib kelgan. Bu jarayon xalqaro muloqotni soddalashtirsa-da, boshqa tillarda milliy leksikaning orqada qolish xavfini yuzaga keltiradi. Shu bois, mahalliy terminologik resurslarni boyitish va ularni xalqaro ilmiy muomalaga olib chiqish strategik vazifa sifatida qaraladi.

6. Fransuz terminologiyasi nazariy izchillik va madaniy suverenitetni saqlash tamoyiliga asoslanadi. Puristik siyosat ko'pincha elitachilik xavfini tug'dirgan bo'lsa-da, u milliy semantik chegaralarni himoya qilishda va mahalliy ilmiy an'analarning uzluksizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Inglizcha terminologiyaning pragmatik-empirik yo'nalishi bilan fransuzcha terminologiyaning nazariy-falsafiy yondashuvini qiyoslash ikki madaniyatning ilmiy paradigmatlari qanday farqlanishini yaqqol namoyon qiladi.

7. Ingliz va fransuz lingvo-adabiyotshunoslik terminologiyasining yasalish mexanizmlari, tarixiy-etimologik asoslari va mavzuiy tasnifi ularning semantik, stilistik hamda madaniy xususiyatlarini ochib beradi. Parallel terminlar kognitiv va diskursiv jihatdan turlicha talqin qilinishi mumkinligi sababli, ularni keng ko'lamli tahlil qilish nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun, balki tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik va falsafa uchun ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

IV BOB. INGLIZ VA FRANSUZ LUG‘ATLARIDA TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK IZOHI

4.1. Kris Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” lug‘atida filologiya terminlarining semasiologik tavsifi

Adabiyotshunoslik terminologiyasining ilmiy tadqiqi, leksik-semantik tahlili, nazariy konsepsiyalari hamda metodologik izchillikni ta’minlashda muhim sanalib, bu borada Britaniyalik olim Kris Boldik (Chris Baldick) tomonidan tuzilgan “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” (1990) lug‘ati zamonaviy adabiyotshunoslik tanqid va nazariyaning asosiy atamalarini ixcham, tizimli va ilmiy asoslangan tarzda bayon qilgan yetuk manba sifatida e’tirof etiladi. Mazkur lug‘atning bir necha bor qayta tahrirlanib nashr etilgani va uning keng ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy tan olingani lug‘atning metodologik ilmiy-metodik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Mazkur to‘rtinchi bobda “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” (1990) lug‘atidan lingvo-adabiyotshunoslikka oid muhim terminlar tanlab olinib, ularning semantik ko‘lami, tarixiy-etimologik asoslari, morfologik xususiyatlari hamda adabiyotshunoslik amaliyotidagi qo‘llanish shakllari asosida tahlil qilinadi. Har bir termin tahliliy yondashuv orqali izchil talqin qilinib, adabiyotshunoslik jarayonlaridagi o‘rni va funksional ahamiyati aniqlanadi. Shuningdek, lug‘atda terminlarning nazariy-analitik yoritilishi bilan birga, ularning aniq adabiy misollar yordamida sharhlanishi ushbu tadqiqotning ilmiy mantiqiy izchilligini ta’minlaydi.

Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” asari zamonaviy adabiyotshunoslik va tilshunoslik nazariyalarining tutash nuqtasida yaratilgan bo‘lib, unda adabiy vositalar hamda tarixiy-estetik tushunchalar nazariy asosda tizimlashtirilgan. Lug‘at metafora, ironiya, alliteratsiya kabi stilistik birliklarning semantik qatlamlarini ochishda nazariy-amaliy yondashuvni taklif etib, o‘quvchi uchun tezkor va qulay qo‘llanma vazifasini bajaradi. Biroq izohlar ko‘proq intuitiv va konseptual tavsifga ega bo‘lib, metodologik aniqlik hamda interdisiplinar tafsilotlar ikkinchi planda qoladi.

Adabiyotshunoslik terminlari til birliklari sifatidagina emas, balki falsafiy-estetik tafakkur va nazariy qarashlar evolyutsiyasini mujassamlashtirgan kognitiv kategoriyalar sifatida ham ahamiyat kasb

etadi. Ularning genezisi, semantik yuki va zamonaviy adabiyotshunoslikdagi funksional o‘rni, ayniqsa lotin va qadimgi yunon manbalaridan kirib kelgan birliklarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu terminlar Rim va yunon sivilizatsiyalarining intellektual merosi bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi adabiyotshunoslik diskursida ham dolzarbligini saqlab qolgan.

Tadqiqot davomida lug‘atdagi terminlar turli tillardan (lotin, yunon, fransuz, nemis) o‘zlashganligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Ularning yasaliş usullari (derivatsiya, kompozitsiya, qisqartma), morfemik tarkibi, semantik yadrosi, sintaktik realizatsiyasi hamda ekvivalentlik, adekvatlik, madaniy konnotatsiya, uslubiy registr, sinonimik bog‘lanish va leksikografik mezonlari analitik asosda ko‘rib chiqildi.

Jumladan, “*Stream of consciousness*” – ya’ni ong oqimi termini, Kris Boldik tomonidan modernist adabiyotshunoslikdagi psixologik-estetik hodisa sifatida ta’riflanadi. Termin inson tafakkuridagi sezgi, xotira va ong oqimini grammatik va sintaktik chegaralarsiz aks ettirib, Doroti Richardson (Dorothy Richardson) (*Pilgrimage*), Djeym Djoys (James Joyce) (*Ulysses*), Virdjiniya Vulf (Virginia Woolf) (*Mrs Dalloway*) hamda Uilyam Folkner (William Faulkner) (*The Sound and the Fury*) kabi olimlar tomonidan badiiy shaklga solingan¹⁶². Boldik ushbu uslubni “*interior monologue*” bilan farqlab, uni ongdagi tasavvurlarni muallif ovozisiz, fikrlarning tabiiy ketma-ketligini aks ettirishga qaratilgan adabiy yondashuv sifatida sharhlaydi.

Poetika va janr strukturalaridan biri bo‘lgan “*sonetus*” (lot. *sonus* – “ovoz, qo‘shiq”), ya’ni “Sonnet” — 14 misradan iborat, ohang va qofiya tizimiga asoslangan lirik she’r shaklidir. Ingliz adabiyotida u ko‘pincha “*iambic pentameter*”, fransuzda “*alexandrine*”, italyan an’anasida esa “*hendecasyllabic*” o‘lchovda yaratiladi. Sonetning qofiya sxemasi ikki asosiy shaklga bo‘linadi.

1. Italyan (Petrarchan) soneti 8 misradan iborat “*octave*” (ikki *quatrain*dan tuzilgan, qofiyalanishi *abbaabba*) va 6 misrali “*sestet*”dan tashkil topadi. Sestet qofiyasi odatda “*cdcdcd*” yoki “*cdecde*” tarzida bo‘ladi. Mazmuniy “burilish” (*volta*) odatda “*octave*” va “*sestet*” o‘rtasida yuz beradi, biroq John Milton variantida u 10-misra atrofida ko‘zga tashlanadi (*Miltonic sonnet*). Italyan soneti turli milliy adabiyotlarda, jumladan ingliz adabiyotida keng tarqalgan shakldir.

2. Ingliz (Shakespearean) soneti uchta “*quatrain*” va yakuniy “*couplet*”dan tashkil topgan bo‘lib, qofiya sxemasi odatda

¹⁶² C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001. –p.244.

“*ababcdcdefefgg*” tarzida bo‘ladi. Uning muhim varianti “Spenserian sonnet” “*abab bcba cdcd ee*” tizimi bilan ajralib turadi. Har ikkala shaklda ham “burilish” yakuniy “*couplet*”da yuz berib, epigramga xos kuch va aniqlik baxsh etadi.

Sonet shakli XIV-asrda Petrarka tomonidan mashhur muhabbat she‘riyatida ommalashib, XVI-asrda Ispaniya, Fransiya va Angliyaga, XVII-asrda esa Germaniyaga yoyildi. Dastlab u asosan “*courtly love*” mavzusida yaratilgan bo‘lsa, keyinchalik John Donne diniy, John Milton esa ruhiy va siyosiy mazmunga tatbiq etdi. XVIII asrda qiziqish susaygan bo‘lsa-da, XIX-asrda Vordsvort (Wordsworth), Kits (Keats) va Bodler (Baudelaire) uni yangicha ruhda qayta tikladilar. Bugungi kunda ham sonet shakli o‘z poetik dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ba‘zi shoirlar bir-biriga bog‘langan sonetlar turkumini yaratgan, ular “*sonnet sequence*” yoki “*sonnet cycle*” deb ataladi. Ingliz adabiyotidagi misollar: Ser Filipp Sidneyning “*Astrophel and Stella*” (1591), Spenserning “*Amoretti*” (1595), va Shekspirning “*Sonnets*” (1609)¹⁶³. Keyinchalik Elizabet Barrett Brauning “*Sonnets from the Portuguese*” (1850) hamda U.X.Oden (W.H.Auden)ning “*In Time of War*” (1939) singari namunalari paydo bo‘lgan. Sonetlarning takrorlanuvchi misralar bilan bir-biriga bog‘langan shakli “*crown of sonnets*” deb yuritiladi. Bundan tashqari, sonet shaklining g‘ayrioddiy variantlari ham mavjud: G.M.Hopkins (G.M.Hopkins) tomonidan yaratilgan 10½ misrali “*curtal sonnets*” yoki Djorj Meredit (George Meredith)ning 16 misrali “*Modern Love*” (1862) turkumi shular jumlasidandir.

“*Trilogia*” (yun. *tri-logia* – “uchta nutq”) – “*trilogy*” – bu o‘zaro tematik, syujet yoki obrazlar jihatidan bog‘liq bo‘lgan uchta drama yoki roman to‘plamidan iborat adabiy birlikdir. Bu atama qadimgi Yunon tragediyalariga borib taqaladi, chunki Afina bayramlarida asarlar ko‘pincha uchliklar tarzida namoyish etilgan. Shunga qaramay, Esxil (Aeschylus)ning “*Oresteia*” trilogiyasi qadimgi davrdan saqlanib qolgan yagona to‘liq trilogiyadir¹⁶⁴. Keyinchalik Shekspir (Shakespeare)ning “*Henry VI*” asari bunday uchlik dramatik tarkibga misol bo‘ladi. Zamonaviy nasrda ham trilogiyalar keng tarqalgan bo‘lib, masalan, Samyuel Bekket (Samuel Beckett)ning quyidagi uch romanidan iborat trilogiyasi mashhur: “*Molloy*” (1950), “*Malone Meurt*” (*Malone Dies*,

¹⁶³ H.Vendler *The Art of Shakespeare’s Sonnets*. – Cambridge:1999.–p.1–10 –p.; D.Fuss *Essentially Speaking: Feminism, Nature, Difference*. –London:1989. –p.67–72.

¹⁶⁴ C.Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. –Oxford: 2001. –p.262.

1951) va “*L’Innommable*” (*The Unnamable*, 1952). Bu murakkab g’oyalarni yoki uzoq davom etadigan voqealarni bosqichma-bosqich yoritish imkonini beradi; trilogiya odatda ichki izchillik va badiiy butunlikni ifodalovchi yondashuv¹⁶⁵ sifatida baholanadi.

Kris Boldik lug‘atda “*tragedy*” tushunchasining madaniy va tarixiy tafovutlar doirasida tahlil qilingani kuzatiladi. Terminshunos “*tragedy*”ni insoniy zaiflik va axloqiy ziddiyat asosida sharhlab, Aristotelning “*Poetics*” asariga murojaat qilib, tragediyani “jiddiy va mukammal harakatni imitatsiya qilish” deb ta’kidlaydi”¹⁶⁶.

“*Lacuna*” (lot. *lacuna* – “bo’shliq”) – matndagi yo‘qotilgan yoki noma’lum qismlar, (ko‘plik shakllari: *lacunae* yoki *lacunas*) – bu qo‘lyozma yoki matnda mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan, biroq yo‘qolgan, tushib qolgan yoki saqlanmay qolgan bo‘shliqdir ¹⁶⁷ . Adabiyotshunoslikda “*lacuna*” tushunchasi matnning to‘liq bo‘lmagan joylarini anglatadi. Bunday bo‘shliqlar odatda tarixiy sabablarga ko‘ra – masalan, parchalanish, yondirilish yoki nusxa ko‘chirishdagi xatolar tufayli – yuzaga keladi, “*lacunal*” yoki “*lacunose*” bo‘lib, ular bo‘shliqlarga ega matnlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Shuningdek, “*ellipsis*” (qisqartma) va “*hiatus*” (uzilish) tushunchalari bilan ham yaqin aloqaga ega. “*Lacuna*” tushunchasi matndagi ma’no qatlamlaridagi uzilishlarni aniqlaydi.

Matnshunoslik va lingvistik tushunchalardan “*Expositio*” (lot. *exponere* – “bayon qilish”) – “*exposition*” – bu har qanday mavzuga oid tizimli tushuntirish yoki mantiqiy izoh bayon etish bo‘lib, drama yoki hikoyaning kirish qismi hisoblanadi. Masalan, teatr sahnasida yoki roman boshida bo‘layotgan voqealar ichida ilgari sodir bo‘lgan hodisalar haqida ma’lumot berish orqali o‘quvchi yoki tomoshabin voqealar kontekstini tushunadi¹⁶⁸. Ushbu termin hikoyadagi muhim element – xarakterlar, joy, va vaziyatni belgilab beruvchi boshlang‘ich bo‘limni anglatadi. “*Expository*” – sifat shakli bo‘lib, “*expound*” - “*tushuntirmoq*”, “*bayon qilmoq*” ma’nosidagi fe’l shaklidir. *Exposition* asar syujetining poydevorini tashkil etadi va o‘quvchini voqeliklar olamiga tayyorlaydi, narrativ strukturaning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, voqealar va obrazlar konteksti aniqlanadi.

¹⁶⁵ Aeschylus. *The Oresteia*. –London: –p.1–90; Rehm R. *Greek Tragic Theatre*. –London.1992.–p.112–130; Carlson M. *Theories of the Theatre: A Historical and Critical Survey*. –Ithaca:1993. –p.40–45.

¹⁶⁶ C.Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. –Oxford:2001.p260 .

¹⁶⁷ C.Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. –Oxford:2001.p136.

¹⁶⁸ C.Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. –Oxford:2001.–p.90.

“*Leitmotif*” (yoki *leitmotiv*) – bu adabiy asarda takror-takror uchraydigan ibora, tasvir, “*symbol*” yoki vaziyat bo‘lib, uning muntazam ravishda takrorlanishi odatda muayyan “*theme*”ni (mavzuni) ko‘rsatish yoki mustahkamlash vazifasini bajaradi¹⁶⁹. Mazkur atama nemischa “*boshchi motiv*” (yetakchi ohang) ma’nosini anglatadi va dastlab musiqiy tanqidda paydo bo‘lgan.

“*Literal*” – so‘zma-so‘zlik prinsipiga asoslangan tahliliy metod bo‘lib, tarjimada denotativ aniqlikni saqlash vositasi sifatida ishlatiladi. “*Literal*”– bu so‘z, ibora yoki matnning hech qanday ko‘chma (ya’ni *ironic, allegorical, metaphoric, yoki symbolic*) ma’noga ega bo‘lmagan, eng sodda, bevosita va asl lug‘aviy ma’nosini bildiruvchi shaklidir. Shu sababli, matnning “*literal*” talqini deganda uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yuzaki anglash tarzidagi ma’nosi tushuniladi. “*Literalism*”– bu matnlarni ko‘pincha ularning “*connotation*”lari (yordamchi yoki qo‘shimcha ma’nolari) va obrazli shakllarini inkor etgan holda, faqatgina yuzaki lug‘aviy ma’noda sharhlashga moyillikdir¹⁷⁰. Shuningdek, “*literal translation*” – bu tarjima uslubidir, u matnning har bir elementini bir tildan boshqasiga imkoniyat darajasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishga intiladi, ammo bu holat ko‘pincha ikki til orasidagi “*idiom*” (ifoda vositalaridagi farq)ni hisobga olmaydi. Bunday tarjima ko‘pincha matnning asl maqsadini buzishi yoki uning kontekstini yetarlicha uzatmasligi mumkin. Shu bois, “*literal*” yondashuv adabiyotshunoslik talqinda har doim ham yetarli emas, ammo tahlilning boshlang‘ich bosqichlarida foydali bo‘lishi mumkin.

“*Langue*” – bu fransuz tilidagi “til” yoki “tilda so‘zlashish” ma’nolarini bildiruvchi so‘z bo‘lib, u tilshunoslikda, ayniqsa shveysariyalik tilshunos F.de Sossyur (Ferdinand de Saussure) tomonidan ilgari surilgan maxsus termin sifatida ishlatiladi. Sossyur o‘zining mashhur “*Cours de linguistique générale*” (1915) asarida “*langue*” va “*parole*” tushunchalarini bir-biridan ajratgan. Ushbu saralashda “*langue*” – bu til tizimi, ya’ni ma’lum bir tilga oid fonologik farqlanishlar, grammatik qoidalar, elementlarning kombinatsiyalanish imkoniyatlari kabi abstrakt va ijtimoiy jihatdan bo‘lishilgan qonun-qoidalarining yig‘indisidir¹⁷¹. Bunga qarama-qarshi holda, “*parole*” – bu tilning individual hodisasi, ya’ni real nutq aktlari, iboralar va gapirish amaliyotidir. Sossyur ta’kidlaganidek, “*langue*” – bu “*parole*”ning

¹⁶⁹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford:2001.–p.138-139.

¹⁷⁰ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford:2001.–p.140-141.

¹⁷¹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford:2001.–p.136-137.

barcha xilma-xil shakllari ostida yotuvchi asosiy tizim bo‘lgani sababli, termin lingvistik fan uchun bosh obyekt sifatida qaralishi kerak.

“*Langue*” va “*parole*” oppozitsiyasi “*structuralism*” nazariyasining asosiy nazariy poydevorlaridan biri sifatida qaraladi. Biroq ayrim strukturalist tadqiqotlarda “*langue*” (ya’ni aniq bir tilning qoidalar tizimi) bilan Sosyur tomonidan ilgari surilgan uchinchi atama — “*langage*” (tilning umumiy va universal tizimi sifatidagi tushuncha) o‘rtasidagi farq ba’zan chalkash talqin etilgan. Natijada, strukturalistlar tomonidan “*language*”ga berilgan mazmun ko‘pincha Sosyur ta’kidlagan “*langue*”dan ko‘ra “*langage*”ning abstrakt va universal tizim sifatidagi konsepsiyasiga yaqinroq bo‘lgan¹⁷².

Poetik va estetik konsepsiyalardan “*Ubi sunt*” – bu lotincha ibora bo‘lib, “*qani ular...?*” yoki “*ular qayerda?*” degan ma’noni ifodalaydi. Termin odatda o‘rta asr lotin she’riyatida hayot va go‘zallikning o‘tkinchiligini ifodalash uchun ishlatilgan bo‘lib, ko‘pincha she’rning kirish qatori yoki “*refrain*” (naqorat) sifatida, ayniqsa vafot etgan shaxslarni xotirlashda qo‘llanadi¹⁷³. Mazkur ibora o‘zining poetik funksiyasi bois o‘rta asr she’riyatida, shuningdek ayrim keyingi davr adabiy namunalarda ham keng qo‘llangan takrorlanuvchi mavzu — umumiy “motif” sifatida tanilgan. Bunday she’rlar, lotin yoki “*vernacular*” (xalq tilidagi) variantlarda, notiq qahramonning o‘tmishdagi mashhur insonlar yoki go‘zallar qayerda ekanini so‘rab murojaat qilishi bilan boshlanadi. “*Ubi sunt*” motivining eng mashhur namunasi – Fransua Viyon (François Villon)ning taxminan 1460-yilda yozilgan “*Ballade des dames du temps jadis*” asari bo‘lib, unda mashhur misra takrorlanadi: *Mais où sont les neiges d’antan?* (ya’ni: “O‘tmishdagi qorlarga nima bo‘ldi?”). Ushbu misra ingliz tilida D.G.Rossetti (D.G.Rossetti) tomonidan “*But where are the snows of yester-year?*” tarzida tarjima qilingan. Bu motiv insoniyatdagi nostalgiya, yo‘qotish va hayotning o‘tkinchi tabiatini poetik tarzda ifoda etadi va adabiy ekzistensial ohangni kuchaytiradi¹⁷⁴.

“*Ut pictura poesis*” – bu ibora lotin shoiri Goratsiy (Horace) tomonidan miloddan avvalgi taxminan 20-yilda yozilgan “*Ars Poetica*” asarida ishlatilgan bo‘lib, “qanday bo‘lsa rassomlik, shundaydir she’riyat” anglatadi. Bu ibora she’riyat va tasviriy san’at o‘rtasidagi o‘xshashlik tamoyilini ifodalovchi asosiy estetik prinsipga aylangan.

¹⁷² F. Saussure. *Course in General Linguistics*. –Chicago:1986. –p.9–22;65–70.

¹⁷³ C.Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. –Oxford: 2001.–p.267.

¹⁷⁴ Curtius E.R. *European Literature and the Latin Middle Ages*. –Princeton.1990.–p..317–328.

Mazkur g'oya turli davrlarda ijod qilgan adiblar va rassomlar tomonidan ilgari surilib, termin adabiy matnni asosan "tasvirlash" yoki "ifodalash" metaforalari orqali anglash an'analarning shakllanishiga asos bo'lgan. Ayniqsa, Renessans davri estetikasi va "*neoclassicism*" nazariyalarida salmoqli ahamiyatga ega bo'lgan. Biroq, ushbu o'xshatishga nisbatan tanqidiy yondashuv ham mavjud bo'lib, terminga nemis dramaturgi va tanqidchisi G.E.Lessing tomonidan "*Laokoon*" (1766) asarida munosabat bayon etilgan. Asarda adabiy va tasviriy san'atning vaqt va makonga nisbatan turlicha vositalarga ega ekanligi ta'kidlanib, bu ikki "opa-singil san'at"ning cheklovlari va imkoniyatlarini ajratib ko'rsatgan. Ushbu iboraning ildizida yotgan umumiy prinsip bu ikki san'at turining tabiatni taqlid qilishdagi (*mimesis*) umumiy vazifasidir. "*Ut pictura poesis*" iborasi shu tariqa san'atshunoslik va poetika tarixida fundamental estetik konsepsiyaga aylangan.

Alifbo va madaniy an'analarga mansub bo'lgan lotin hamda yunon tillaridan olingan adabiyotshunoslik terminlari zamonaviy adabiyotda nafaqat tarixiy taraqqiyot mahsuli, balki nazariy tafakkur, semantik tahlil va gnoseologik asoslashning markaziy vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, lotincha terminlar o'zining etimologik aniqligi va konseptual ko'lamdorligi bilan adabiy-falsafiy fikrning tayanchini tashkil etadi. Shuningdek, fransuz tilidan olingan terminlar ham o'zining leksik, semantik va estetik-funksional xususiyatlari bilan zamonaviy adabiy tahlil va diskursda ahamiyatli ta'sir ko'rsatgan.

Usul va stilistik vositalar guruhidagi atamalar poetik va dramatik ijodni ifodalaydi. "*Cheville*"¹⁷⁵ bu vazn talablariga mos kelishi uchun she'riy satrda semantik yuklamasi bo'lmagan so'zlar yoki iboralardan foydalanish amaliyotidir. Termin ingliz she'riyatida, xususan, Choser (Chaucer)da "eek", "for sothe" kabi so'zlar bilan uchraydi.

"*Claque*"¹⁷⁶ - atamasi XIX-asr Parij teatr amaliyotida spektakllarni sun'iy tarzda olqishlash uchun yollangan shaxslar guruhini anglatib, san'at asarining qabul qilinishi va ijtimoiy bahosiga manipulyativ ta'sir ko'rsatgan. Mazkur hodisa adabiyotshunoslik hamda sahna san'atida haqiqat va taassurot o'rtasidagi ziddiyatni namoyon etuvchi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etiladi.

"*Longueur*"¹⁷⁷ adabiy asarda haddan tashqari cho'zilgan, zerikarli bo'lim yoki sahnani ifodalaydi. "*Courtly love*"¹⁷⁸ O'rta asrlardagi

¹⁷⁵ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.37-38.

¹⁷⁶ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford:2001.–p.40.

¹⁷⁷ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.143.

¹⁷⁸ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.53.

aristokratik sevgi madaniyatining badiiy ko‘rinishidir. Bu motiv she‘riyatda erkakning sadoqatini aks ettiradi. “*Jouissance*”¹⁷⁹ Rolan Bart tomonidan kiritilgan va “*Plaisir*”dan farqli ravishda, o‘quvchiga erotik, ruhiy titroq keltiruvchi, ko‘pincha tartibsiz, intuitiv zavqni anglatadi. “*Vraisemblance*”¹⁸⁰ adabiy matnda haqiqatning ishonarli illuziyasi bo‘lib, voqelikni ishonchli tarzda yaratishda ishlatiladi. Bu atama klassik dramaturgiyada muhim poetik prinsip hisoblangan “*verisimilitude*”ga teng hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda fransuz tilidan o‘zlashgan adabiy-estetik terminlar nafaqat leksik birlik, balki madaniyatlararo estetik tafakkurni ifodalovchi konseptual struktura sifatida muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda ingliz adabiy leksikasiga fransuz tili orqali kirib kelgan 24 ta atama “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” asosida tanlab olinib, ular besh semantik guruh doirasida tahlil qilindi.

4.1.1.-rasm

Kris Boldik izohli lug‘atidagi fransuz tilidan o‘zlashgan terminlar tasnifi



Kris Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” asarida *adabiyotshunoslik nazariya va lingvistik tahlil* doirasidagi fransuzcha terminlar orqali poststrukturalizm, semiotika va narratologiya o‘rganildi.

Derridaning “*différance*”¹⁸¹ neologizmi tilning farqlovchi tizim sifatidagi xususiyatini belgilasa, “*discours*”¹⁸² Emil Benvenist (Émile

¹⁷⁹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.132.

¹⁸⁰ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.274.

¹⁸¹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford:2001.–p.66-67.

Benveniste) tomonidan matndagi subyektiv, dieksis orqali ifodalanuvchi nutq shakli sifatida taqdim etiladi, “*histoire*”¹⁸³ – voqealarning obyektiv ketma-ketligi bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Shu bilan birga, “*écriture*”¹⁸⁴ tushunchasi yozuvning stilistik, siyosiy va genderga oid qirralarini, jumladan, “*écriture féminine*” orqali patriarxal strukturaga qarshi yozuv shaklini bildiradi. Sosyurning “*langue*”¹⁸⁵ atamasi tilning ijtimoiy va grammatik tizimidagi strukturaviy yondashuvini asoslaydi va “*parole*” bilan farqlanadi.

“The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” asarida *adabiyotshunoslik janrlar, shakllar va matn turlariga* oid fransuzcha atamalar adabiyotshunoslik matnning tuzilishi, uslubiy ko‘rinishi va janr doirasini tahlili ham kuzatiladi. “*Avant-garde*”¹⁸⁶ san’at va adabiyotshunoslikda an’analarni rad etuvchi modernistik yangilikka asoslangan harakatlarni bildirsa, “*belles-lettres*”¹⁸⁷ nafis, lekin ko‘pincha yengil badiiy nasr shakllarini anglatadi, shu jihatdan, “*causerie*”¹⁸⁸ esse janrining norasmiy, suhbatga o‘xshash yumshoq shaklidir. “*Aperçu*”¹⁸⁹ yozuvchining tezda ilg‘agan tushunchasi yoki qisqa tahliliy xulosasini bildiradi, “*chanson*”¹⁹⁰ esa trubadurlar ijodiga oid sevgi va sadoqat mavzusidagi musiqiy she‘r shakli sifatida tanilib, “*conte*”¹⁹¹ kinoyali va ma’rifiy qisqa hikoya, ko‘p hollarda Volter va Lafonten ijodida ko‘zga tashlanadi. “*Drame*”¹⁹² esa Deni Didro (Denis Diderot) tomonidan ishlab chiqilgan, komediya va tragediya oralig‘idagi dramatik shaklni bildiradi. Shuningdek, “*récit*”¹⁹³ – hikoya va bayon qilishdan farqli o‘laroq, voqealarning matndagi strukturaviyligini ifodalaydi. Bu atamalar orqali adabiy matnning janrga oid belgilari, stilistik o‘ziga xosligi va badiiy uslubiy yo‘nalishlar anglanadi.

Adib *ijodiy meros va ma’rifatparvarlik* harakati (tarixiy-intellektual) bu guruh tarixiy va madaniy kontekstda ijod va fikr rivojini aks ettiradi. “*Oeuvre*”¹⁹⁴ - muallifning to‘liq ijodiy korpusini, ya’ni barcha asarlarini ifodalaydi. Bu atama tanqidiy adabiyotshunoslikda

¹⁸² C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.68.

¹⁸³ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.114.

¹⁸⁴ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.75.

¹⁸⁵ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.136-137.

¹⁸⁶ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.22-23.

¹⁸⁷ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.26-27.

¹⁸⁸ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.35.

¹⁸⁹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.15.

¹⁹⁰ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.36.

¹⁹¹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.50.

¹⁹² C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.72.

¹⁹³ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.214.

¹⁹⁴ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.177.

muallifning adabiy merosini baholashda, “*canon*” va “*corpus*” masalalarida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, “*Philosophes*”¹⁹⁵ XVIII-asr fransuz Ma‘rifatparvarlik davrining asosiy intellektual vakillarini o‘zida jamlaydi. Volter, Didro, Monteskye kabi faylasuflar o‘z asarlari orqali institutlar va ijtimoiy e‘tiqodlarni ratsional tanqid ostiga olib, zamonaviy adabiyotshunoslikda erkin fikrlash va ijtimoiy ongning shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. Bu atama madaniy tarix va g‘oyaviy adabiy tahlilida markaziy o‘rin tutadi.

“*Différance*”, “*discours*”, “*écriture*”, “*langue*”, “*histoire*” va “*lisible*” kabi nazariy atamalar orqali poststrukturalizm, semiotika va narratologiyaning murakkab konseptlari tahlil qilindi. Janr va matnshunoslik doirasida “*avant-garde*”, “*belles-lettres*”, “*drame*”, va “*récit*” singari atamalar adabiyotshunoslik shakllarining struktura va uslubiy xususiyatlarini aniqlashda metodologik asos bo‘ldi. Usul va stilistik vositalarga oid “*cheville*”, “*claque*” va “*longueur*” kabi terminlar adabiy matnning texnik xususiyatlari, ritmik tuzilishi va estetik samaradorligini baholash mezonlarini belgilaydi. Tematik va emotsional qatlamga mansub “*courtly love*”, “*jouissance*”, “*vraisemblance*” kabi terminlar o‘quvchi resepsiyasi, poetik motiv va badiiy haqiqat muammolari bilan bevosita bog‘liq. “*Oeuvre*” va “*philosophes*” mualliflik merosi va madaniy-intellektual harakatlarning tarixiy, estetik kontekstda shakllanishini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda xulosa qiladigan bo‘lsak, lug‘atdagi fransuzcha adabiy terminlar faqat atama sifatidagina emas, balki g‘oyaviy-estetik, madaniy va gnoseologik tahlil uchun asos bo‘luvchi nazariy vosita sifatida zamonaviy adabiy tadqiqotda fundamental va markaziy o‘rin egallagan.

Darhaqiqat, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarining kesishgan chorrahasida joylashgan terminologik tahlil bugungi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Kris Boldikning “*The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*” asari dastlab adabiyotshunoslikka oid tushunchalarni tizimlashtirishga qaratilgan bo‘lsa-da, uning tarkibida tilshunoslik bilan bevosita bog‘liq ko‘plab atamalar semantik, genealogik, struktural asosda yoritilgan.

Lug‘atda aks etgan lingvistik terminlari adabiyotshunoslik terminlari singari zamonaviy lingvistik paradigmaga tayangan holda xususan, kognitiv-konseptual, diskursiv-matnshunoslik, korpus-statistik, sintaktik-funksional, fonetik-morfologik va stilistik-analitik yo‘nalishlar

¹⁹⁵ C.Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. –Oxford: 2001.–p.192.

asosida – tizimli leksik-semantik tahlil qilishga harakat qilindi. Shu metodologik asosda, tahlilning birinchi bosqichi sifatida fonetik va morfologik struktura terminlari o‘rganildi hamda ularning lingvistik tizimdagi nazariy, funksional o‘rni aniqlandi.

Kris Boldikning “*The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*” asarida fonetik va morfologik struktura terminlari guruhidan tanlangan “*phoneme*”, “*morpheme*” va “*onomatopoeia*” atamaları tilshunoslikning asosiy qurilish birliklarini ifodalovchi kichik markaziy tushunchalar sifatida qaralishi, leksik-semantik tizim qatlamlarida faol ishlashi aniqlandi.

Jumladan “*phoneme*” (fonema) atamasi Kris Boldik tomonidan tilning tan olingan tovush farqlari tizimida ma’no farqlovchi eng kichik birlik sifatida tavsiflanadi¹⁹⁶. Terminshunosning ta’kidlashicha, har bir fonema o‘ziga xosligini boshqa fonemalarga qarama-qarshi qo‘yish orqali oladi, ya’ni fonemalar o‘zaro almashtirib bo‘lmaydigan birliklar bo‘lib, ularni almashtirish so‘z ma’nosini o‘zgartiradi.

Strukturalizm maktabi vakillari (Trubetskoy, Jakobson) bu birlikni tildagi ajratuvchi funksiyasi orqali aniqlab, minimal juftliklar orqali fonemalarning semantikasini namoyon qilgan¹⁹⁷. Fonemalarning kombinatsiyasi asosida morfema shakllanib, lug‘at ta’rifiga ko‘ra, “*morpheme*” (morfema) tilning grammatik ma’noga ega bo‘lgan eng kichik birliklaridan biridir.

Morfema – tilshunoslikda eng kichik semantik birlik bo‘lib, termin so‘zlarning grammatik, leksik strukturasi tashkil etadi. Bu tushuncha deskriptiv (Bloomfield) va generativ (Chomsky) lingvistik oqimlarida markaziy birlik sifatida o‘rganilgan.

Til tizimida morfemalardan tashkil topgan, ammo o‘ziga xos stilistik xususiyatlarga ega bo‘lgan muhim birlik – bu “*onomatopoeia*” hisoblanadi. Adabiyotshunos Kris Boldik ushbu termini quyidagicha tushuntiradi, “*onomatopoeia*” (tovushga taqlid) — bu tovushni anglatuvchi yoki eslatuvchi so‘zlar orqali uning ta’sirini yaratishga asoslangan usul deya “*whack*”, “*fizz*”, “*crackle*”, “*hiss*” kabi so‘zlarni misol keltiradi. Termin, asosan, she’riyatda, ba’zida nasriy matnlarda ham uchraydi. Onomatopiya bevosita tovushni takrorlashdan ko‘ra, ko‘proq so‘z va tovush o‘rtasidagi konvensional (odat tusiga kirgan) bog‘liqlikga asoslanadi.

¹⁹⁶ Ch. Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. –Oxford:2001. –p.192.

¹⁹⁷ N.S. Trubetzkoy *Principles of Phonology*.: –California: 1969. –p.48–51.

Paradigmatik nuqtai nazardan, fonema morfemani, morfema esa onomatopik birlikni yaratishga xizmat qiluvchi sathlararo zanjirni tashkil etadi. Genealogik jihatdan atamalar qadimgi yunon tiliga borib taqaladi (*phonē, morphē, onomatopoiia*) va zamonaviy lingvistika – ayniqsa strukturalizm va generativizm – doirasidagi tushunchalardir.

Kris Boldikga fikricha, *sintaksis* adabiy uslub (*style*)ning asosiy belgilovchilaridan biridir. She'riyatda bu tartib ko'pincha inversiya (so'z tartibini o'zgartirish) orqali buziladi, nasriy matnlarda esa murakkab sintaktik konstruksiyalar, xususan periodik gaplar orqali ifodaning ta'sir kuchi oshiriladi¹⁹⁸. U. Shekspir she'riyatidagi inversiya holatlari – so'z tartibining buzilishi – matnga kuchli emotsional urg'u kiritadi (*“What light through yonder window breaks?”*)¹⁹⁹, albatta bu grammatikadan tashqaridagi strategiya hisoblanadi.

Adiblar J. Joys yoki V. Vulf asarlarida *“syntax”* – ichki ong oqimi, refleksiya va ruhiy holatlarni verbal tartibga soluvchi vosita, deb qaraladi. *“Syntax”*ni ong harakatini semantik ifoda etib, strukturaviy daraja bilan birga, *“speech act”* atamasi tilning diskursiv kuchini ochib berishi J. Ostin va J. Sirl tomonidan asoslangan²⁰⁰.

Mazkur nuqtai nazardan, izohli lug'atda *“illocutionary act”* illokutsion akt bu biror gapni aytish orqali ayni paytda ma'lum bir ijtimoiy yoki kommunikativ harakatni amalga oshirish hodisasi, deya ifodalangan termin bilan birga berilib, J.L. Austin tomonidan ilgari surilgan (*speech act theory*) nutq akti nazariyasiga ko'ra, har bir gapiruv harakati faqat grammatik jihatdan to'g'ri gap (lokutsion akt)ni ifoda etish bilan cheklanmay, tasdiq, va'da, ogohlantirish, buyruq, tahdid kabi ma'noli harakatga aylanadi. Illokutsion aktlar performativ iboralar (*performatives*) bo'lib, ular nutq jarayonida o'z-o'zini amalga oshiruvchi harakat sifatida namoyon bo'ladi. Masalan:

I arrest you in the name of the law.

I hereby renounce the Devil and all his works.

I promise to defend and uphold the constitution.

Bunday gaplar nafaqat aytiladi, balki aytilgan paytda voqelikda o'zgarish yuz beradi²⁰¹.

Kris Boldikning *“The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms”* lug'atida *“semantics”* semantika tilshunoslik yoki falsafaning

¹⁹⁸ C. Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. –Oxford:2001. –p.121.

¹⁹⁹ W. Shakespeare. *Romeo and Juliet*. –Oxford: 2000. Act 2, Scene 2.

²⁰⁰ J.R. Searle. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. –Cambridge: 1969. –p.15–40.

²⁰¹ J.L. Austin. *How to Do Things with Words*. –Oxford:1962. –p.94–108.

tildagi ma'nolarni o'rganishga oid sohasi deb ta'riflanadi ²⁰² . Pragmatikaning semantik qatlami tadqiqida “*denotation*” va “*connotation*” atamaları izohli lug‘atda bir o‘rinda keltirilgan. Ta’rifga ko‘ra konnotatsiya – bu so‘z yoki iboraning to‘g‘ridan-to‘g‘ri lug‘aviy (denotativ) ma’nosidan tashqari ravishda yuzaga keladigan qo‘shimcha semantik va assotsiativ ma’nolar doirasidir. Shu jumladan, ingliz tilidagi “*worm*” so‘zining denotatsiyasi “*a small, slender invertebrate*” bo‘lsa, uning konnotatsiyasi – “*slow burrowing activity*” kabi xususiyatlar orqali “*worming his way into favour*” singari metaforik ifodalarda yashirin harakat qiluvchi odam obrazini yaratadi.

Konnotatsiyalar metafora kabi stilistik vositalarning semantik asosini tashkil etadi. Bu atamaning sifat shakli “*connotative*”, fe’l shakli esa “*connote*” bo‘lib, bilvosita ma’no anglatuvchi birlik sifatida xizmat qiladi ²⁰³ . Amerikalik shoir, yozuvchi S.Plath she’rlarida “*mirror*” denotatsiya nuqtai nazaridan oynani bildiradi, konnotativ o‘zlikni yo‘qotish, ruhiy tushkunlik ramzidir²⁰⁴ . Ushbu ma’no qatlamlarining kengayishida “*polysemy*” ya’ni ko‘pma’ nolilik alohida ahamiyatga ega. Kris Boldick “*polysemy*”ni tilshunoslikdagi atama sifatida bir so‘zning ikki yoki undan ortiq, mazmunan bir-biridan farqli ma’nolarga ega bolish xususiyatini anglatadi deya ta’kidlaydi²⁰⁵ . Misol uchun, “*grave*” so‘zi ingliz tilida “*serious*” (jiddiy) yoki “*tomb*” (qabr) ma’nolarini bildirishi mumkin. Polisemiya “*homonymy*” bilan bog‘liq bo‘lsa-da, farqi shundaki, omonimlar shaklan o‘xshash, lekin kelib chiqishi va ma’nosi jihatidan mustaqil bo‘ladi, polisemiya bitta so‘zning ma’no ko‘p qatlamliligidan kelib chiqadi.

Bundan tashqari, “*leksis*” – tilshunoslikda tilning lug‘at boyligini, so‘zlar majmuasini ifodalovchi atama hisoblanadi. Bu tushuncha bilan bog‘liq bir qator atamalar mavjud: “*lexical*” – “so‘z boyligiga oid” yoki “lug‘atga oid” degan ma’noni bildiruvchi sifat shakli (masalan, *lexical item* – leksik birlik); “*lexicon*” – so‘zlar va ularning ma’nolarini jamlagan lug‘at; “*lexicographer*” – lug‘at tuzuvchi, ya’ni so‘zlarni to‘plash va tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi shaxs; “*lexicography*” lug‘atshunoslik ²⁰⁶ , ya’ni lug‘at tuzish nazariyasi va amaliyotini o‘rganadigan tilshunoslik sohasidir.

²⁰² C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.232.

²⁰³ G.N. Leech. Semantics: The Study of Meaning. –London. 1981. –p.9–16; 28–33.

²⁰⁴ S.Plath. The Collected Poems. –New York. 1981.–p.173.

²⁰⁵ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.199

²⁰⁶ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.139.

Roman Jakobsonning poetik funksiyasi²⁰⁷, Joffri Lichning stilistik pragmatika modeli va zamonaviy diskursiv yondashuvlar, har bir stilistik vosita o'zining nazariyasi bilan tahlil etiladi. Xususan, “*alliteration*” (yoki “*head rhyme*”, “*initial rhyme*” nomlari bilan ham tanilgan) bu qo'shni so'zlar tarkibida odatda urg'uli bo'g'inlarning bosh undosh tovushlari takrorlanishiga asoslangan badiiy uslubdir. Bunday she'riyatda qofiyadan ko'ra alliteratsiya asosiy takroriylik va she'rlar “*alliterative verse*” (alliteratsiyali she'r) deb ataladi²⁰⁸. Unli tovushlar ham boshqa unlilar bilan alliteratsiya hosil qilishi mumkin.

R.Yakobsonning poetik funksiya nazariyasida bu hodisa fonik sathdagi estetik ifodaning markaziy namunasidir. Aytaylik, “*Dark depths devour dreams*” kabi iboralarda tovush va semantik urg'u uyg'unlik kasb etib, matnning ritmik-estetik ta'sirchanligini oshiradi²⁰⁹.

Shu jihatdan olib qaralganda, “*metaphor*” metafora eng muhim va keng tarqalgan badiiy ifoda vositalaridan biri bo'lib, tilshunoslikda ham asosiy semantik va kognitiv hodisa sifatida o'rganiladi. Unda bir narsa, g'oya yoki harakat boshqa bir so'z yoki ibora orqali shu narsalarga xos bo'lgan umumiy sifat yoki o'xshashlik asosida ifodalanadi. Metaforada bu o'xshashlik bevosita emas, balki tasavvur orqali yuz beradi: masalan, erkakni “*that pig*” deb atash yoki “*he is a pig*” deyish — bu metaforadir, holbuki “*he is like a pig*” — bu *simile* (ya'ni o'xshatish). Metaforalar ba'zida fe'l shaklida (*a talent may blossom*), sifat shaklida (*a novice may be green*), yoki iboralar tarzida (*to throw the baby out with the bath-water*) ham uchraydi.

Yangi g'oyalar birikmasini yaratishdagi metaforaning roli she'riyat uchun muhimdir, ammo she'rlar metaforasiz ham yozilishi mumkin. Zamonaviy metafora tahlilida metafora ikki qismga ajratiladi: “*tenor*”— ya'ni asl ma'no (bu yerda: *life*), va “*vehicle*” — bu unga tatbiq etilgan obraz (bu yerda: *the road*, ya'ni “*the road of life*” misolida)²¹⁰. J.Lich nazariyasiga ko'ra, bu holat mazmuniy shakllanishdagi noodatiylik sifatida tilning standart chegaralarini buzadi va uni konseptual tafakkur vositasiga aylantiradi²¹¹.

Shu nuqtai nazardan, “*stylistics*” zamonaviy tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, termin adabiy uslub (*style*)ni puxta tahlil qiladi. Stilistika tahlili orqali matn tuzilishi, emotsional yuklama, leksik-sintaktik

²⁰⁷ R. Jakobson. *Language in Literature*. —Cambridge:1987.—p.62–66.

²⁰⁸ C. Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. —Oxford. 2001. —p.6.

²⁰⁹ R. Jakobson. *Language in Literature*. —Cambridge:1987. 62–66 —p.

²¹⁰ C. Baldick. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. —Oxford. 2001. —p.153.

²¹¹ G.N. Leech. *A Linguistic Guide to English Poetry*. —London. 1969. —p.19–23.

vositalar va uslubiy registrlar (masalan, rasmiysi yoki norasmiysi) aniqlanadi. Xususan, Mik Short (Mick Short)ning “Exploring the Language of Poems, Plays and Prose” (1996) asari bu sohaning kirish darajasidagi muhim manbalaridan biridir.²¹² M.Hollideyning “*register theory*” doirasida stilistik tahlil matndagi ijtimoiy va janr xususiyatlari ahamiyatga molik²¹³.

Matnda tarixiy, madaniy-estetik kontekstni yaratishda “*archaism*” tilshunoslik va adabiyotshunoslikda yo‘qolib ketgan yoki yozilish vaqtiga kelib allaqachon eskirgan so‘z yoki ifodalar, yoki ularning qo‘llanilishi bo‘lib, tilning faol qatlamidan chiqib ketgan birliklarning maqsadli qo‘llanishi bilan bog‘liq. Arxaizmlar, ayniqsa, Spenser (Spenser)dan Hardi (Hardy)gacha bo‘lgan ingliz she‘riyatida keng uchraydi, biroq zamonaviy nasrda kam qo‘llaniladi. Bunday birliklar o‘tmishga xos romantik yoki nostalgik kayfiyatni uyg‘otish uchun ishlatiladi²¹⁴, masalan: Spenserning “Chaucerian” uslubidagi iboralari yoki Kolridj (Coleridge)ning “Rime of the Ancient Mariner” asarida eski balladalarga taqlid qilishgan:

‘There was a ship,’ quoth he.

‘Hold off! unhand me, greybeard loon!’

Eftsoons his hand dropped he.

“*Idiolect*” termini izohli lug‘atda tilning har bir individual shaxsga xos bo‘lgan alohida ko‘rinishidir deya ta’riflanadi. Har bir inson o‘zining nutqida yoki yozuvida o‘ziga xos leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni namoyon qiladi.²¹⁵ Bu holat uni umumiy til tizimidan ajratib turadi. “*Idiolect*” termining sifat shakllari: *idiolectal* yoki *idiolectic* ekanligi asoslangan.

“*Dialect*” ham ma’lum bir hudud, millat yoki ijtimoiy guruhga mansub kishilar tomonidan so‘zlashiladigan tilning mintaqaviy yoki ijtimoiy xilma-xilligini bildiradi. Dialektlar orasida talaffuz, so‘z boyligi va ko‘pincha grammatik tuzilma jihatdan farqlar kuzatiladi²¹⁶. Turli dialektlar orasidagi tafovutlarni o‘rganish sohasi “*dialectology*” deb atalib, sifat shakli: *dialectal* - ichki monolog, hissiy kechinma va ong oqimi orqali namoyon bo‘ladi. Adib Jeyms Joysning “*Ulysses*”²¹⁷

²¹² C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001. –p.215.

²¹³ M.A.K. Halliday. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. – London. 1978. –p.112–117.

²¹⁴ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001. –p.18.

²¹⁵ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001. –p.121.

²¹⁶ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001. –p.64.

²¹⁷ J. Joyce. Ulysses. –New York. 1961. –p.34–38

romanida L.Blumning nutqi o‘ziga xos idiolektal qatlam orqali mualliflik dunyoqarashini ochib berganligini²¹⁸ kuzatish mumkin.

Kris Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” lug‘atida bu terminlar poststrukturalizm, narratologiya va stilistik yondashuvlar bilan uzviy bog‘lanadi.

“*Narrative*” voqea yoki hodisalarning (haqiqiy yoki to‘qima) bog‘langan ketma-ketligini hikoya qilish bo‘lib, termin odatda “*narrator*” (hikoya qiluvchi) tomonidan “*narratee*” (tinglovchi yoki o‘quvchi)ga yo‘naltiriladi. Narrative hodisa yoki holatlarning oddiy tavsifidan ham, ularning dramatik sahnalashtirilishidan ham farqlanadi (garchi dramatik asarlarda ham narrative nutqlar bo‘lishi mumkin)²¹⁹. Har bir “*narrative story*” (voqealar zanjiri) va “*discourse*” (uni qanday hikoya qilish) elementlaridan tashkil topib, hodisalar plot (syujet) doirasida tanlab olinadi va tartib bilan joylashtiriladi. Narrative shakllar oddiy jumlati axborotlardan (*The cat sat on the mat*) tortib roman, epopeya, sayohatnomalar, kundaliklar va qisqa hikoyalargacha bo‘lgan turli shakllarni o‘z ichiga oladi. Adabiyotshunoslik tahlilda hikoyalar odatda “*first-person narrative*” (birinchi shaxsda hikoya) va “*third-person narrative*” (uchinchi shaxsda hikoya) kabi turlarga ajratiladi.

Narrative sifat shaklida “hikoya qilishga oid” degan ma’noni bildiradi. Shu boisdan, “*narrative technique*” bu hikoya qilish uslubi, “*narrative poetry*” voqeani hikoya qiluvchi she’riyat (masalan: *ballads*, *epics*, *verse romances*) bo‘lib, termin “*lyric poetry*” (lirik she’riyat)dan farqlanadi. Ba’zi “*narratology*” (narratologiya) nazariyotchilari “*narrative*” matnlarni “*non-narrative*” (hikoyasiz) matnlardan ajratib turadigan xususiyatlar majmuasini aniqlashga harakat qilinib, bu xususiyatlar “*narrativity*” deb yuritiladi²²⁰.

Jerar Jenettning narratologik nazariyasi “*narrative*” zamonaviy matnlarda vaqt paradigmasining manipulyatsiyasi, retrospektiv va fragmentarlik usuli orqali tahlil qilinadi. Toni Morrisonning “*Beloved*” romanida hikoya retrospektiv shaklda, travmatik xotira va irqiy tajribalarni psixologik konstruksiya sifatida ifoda etadi²²¹. Nazarimizda “*narrative*” strukturaning voqea bayoni bilan birga madaniy va tarixiy identifikatsiya sifatida ishlashini ko‘rsatadi.

“*Intertextuality*” terminini ilk bor Yuliya Kristeva (Julia Kristeva) kiritgan bo‘lib, termin biror matnning boshqa matnlar bilan mavjud

²¹⁸ –P.Trudgill. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. –London. 2000. –p.45–52.

²¹⁹ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001. –p.165–166.

²²⁰ M.Toolan. Narrative: A critical linguistic introduction. –Routledge. 2001.–p.5–6.

²²¹ T. Morrison. Beloved. –New York: 2004. –p.37–41.

bo'lishi mumkin bo'lgan turli aloqa shakllarini anglatadi. Bunday intertekstual munosabatlar tarkibiga “*anagram*”, “*allusion*”, “*adaptation*”, “*translation*”, “*parody*”, “*pastiche*”, “*imitation*” kabi usullar va boshqa transformatsiya shakllari kiradi. “*Structuralism*” va “*post-structuralism*” adabiy nazariyalarida matnlar tashqi haqiqatga emas, balki boshqa matnlarga (yoki o'ziga matn sifatida) murojaat qiluvchi tuzilmalar sifatida qaraladi. Tilshunos T.Morrison “*intertext*” termini xususida shunday fikrni bayon etadi: “*Intertext*” matnga asoslanayotgan matnni, undan foydalanayotgan matnni yoki ularning o'zaro bog'liqligini ifodalash uchun turlicha ma'noda qo'llanadi²²².

“*Neologism*” tilga yangi kiritilgan yoki yangidan ixtiro qilingan so'z yoki ibora bo'lib, tilning dinamik rivojlanish jarayonida paydo bo'ladi. Neologizmlar zamonaviy ijtimoiy, texnologik yoki madaniy o'zgarishlarga javoban shakllanadi va ko'pincha yangilik, g'oya yoki kashfiyotlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu atamaning fe'l shakli “*neologize*” bo'lib, “yangi so'z yaratmoq” degan ma'noni anglatadi²²³. Shuningdek: “*coinage*”, “*nonce word*”, “*portmanteau word*” kabi terminlar ham yangi so'z yaratish bilan bog'liq boshqa tushunchalarni ifodalaydi.

“*Eponymous*” - “nom beruvchi” degan ma'noni anglatuvchi atama bo'lib, u biror joy, narsa, tashkilot, taom yoki kitob nomi biror real yoki xayoliy shaxs sharafiga atalgan holatlarda qo'llaniladi. Masalan, Tolstoyning Anna Karenina romanidagi bosh qahramon Anna Karenina – bu “*eponymous heroine*” hisoblanadi. Bu atama ba'zida matn sarlavhasida bevosita nomi keltirilmagan bo'lsa-da, unga ishora qilingan obrazlarga ham nisbatan kengaytirilgan shaklda ishlatiladi²²⁴. Aytaylik, Hardining “*The Mayor of Casterbridge*” asaridagi “*Michael Henchard*” obraziga “*eponymous character*” deyiladi. Shuningdek, “*eponym*” atamasi – biror kishining ismi asosida joy, narsa yoki tushunchaga nom berilgan holatni bildiradi.

“*Homonym*” – bu boshqa bir so'z bilan shakl jihatdan aynan bir xil bo'lgan, lekin mazmuni jihatidan farq qiladigan til birligi sanalib, talaffuzi (*homophone*), imlosi (*homograph*) bir xil bo'lishi, yoki har ikkalasini o'zida birlashtirgan bo'lishi mumkin²²⁵. Masalan: *days/daze*, *lead (guide)/lead (metal)*, *pitch (throw)/pitch (tar)*. Ya'ni, shaklan bir xil

²²² G. Allen. Intertextuality. –London: 2000. –p.252.

²²³ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.169.

²²⁴ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.86.

²²⁵ C. Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.116.

bo‘lgan ikki yoki undan ortiq so‘zlar orasidagi bu holat “*homonymy*”, sifat shakli: “*homonymic*” deb ataladi.

Xulosa qilib ta’kidlash lozimki, Kris Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” asari zamonaviy adabiyotshunoslikda nazariy aniqlik va terminologik barqarorlikni ta’minlashda muhim manba hisoblanadi. Lotin, yunon tilidagi terminlar guruhlar aro tadqiq etildi, shu jumladan, lug‘atdagi fransuz tilidan o‘zlashgan 24 ta adabiyotshunoslik termini besh semantik-guruh asosida tasniflanib, ularning leksik-semantik mohiyati, tarixiy-etimologik ildizlari va adabiyotshunoslik amaliyotdagi funksional roli yoritildi. Ayniqsa, “*différance*”, “*discours*”, “*écriture*”, “*langue*”, “*histoire*” va “*lisible*” kabi nazariy atamalar orqali poststrukturalizm, semiotika va narratologiyaning murakkab konseptlari tahlil qilindi. Janr va matnshunoslik doirasida “*avant-garde*”, “*belles-lettres*”, “*drame*”, va “*récit*” singari atamalar adabiy shakllarning struktura va uslubiy xususiyatlarini aniqlashda metodologik asos bo‘ldi. Usul va stilistik vositalarga oid “*cheville*”, “*claque*” va “*longueur*” kabi terminlar esa adabiy matnning texnik xususiyatlari, ritmik tuzilishi va estetik samaradorligini baholash mezonlarini belgiladi. Tematik va emotsional qatlamga mansub “*courtly love*”, “*jouissance*”, “*vraisemblance*” kabi terminlar o‘quvchi resepsiyasi, poetik motiv va badiiy haqiqat muammolari bilan bevosita bog‘liq ekanligi oydinlashdi. “*Oeuvre*” va “*philosophes*” esa mualliflik merosi va madaniy-intellektual harakatlarning tarixiy, estetik kontekstda qanday shakllanishini ko‘rsatdi. Xulosa shuki, lug‘atdagi fransuzcha adabiyotshunoslik terminlari faqat atama sifatidagina emas, balki g‘oyaviy-estetik, madaniy va gnoseologik tahlil uchun asos bo‘luvchi nazariy vosita sifatida zamonaviy adabiyotshunoslik tadqiqotda fundamental ahamiyat kasb etdi.

Kris Boldikning “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” lug‘atida uchraydigan lingvistik terminlar esa zamonaviy tilshunoslikning asosiy paradigmalari doirasida – fonetik-morfologik, sintaktik-kommunikativ, semantik-pragmatik, diskursiv-matnshunoslik, kognitiv-konseptual, korpus lingvistikasi hamda stilistik-estetik tahlil yo‘nalishlarida – semasiologik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida har bir termin o‘zining shakl, ma’no va funksional xususiyatlari bilan nazariy va amaliy til tizimining muayyan qatlamini ifodalovchi birlik sifatida baholandi. Fonema va morfema kabi qurilish birliklaridan boshlab, “*onomatopoeia*”, “*syntax*”, “*speech act*”, “*semantics*”,

“pragmatics”, “lexis”, “stylistics”, “neologism”, “narrative”, “intertextuality” kabi murakkab diskursiv va stilistik birliklargacha bo‘lgan keng doiradagi terminlar lingvistik yondashuvlar asosida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, genealogik ildizlar, paradigmatic bog‘liqliklar va real matnlar asosida har bir terminning funksional vazifasi ochib berildi.

Demak, Kris Boldik lug‘atidagi adabiyotshunoslik hamda lingvistik terminlar nafaqat izohli birliklar balki zamonaviy lingvo-adabiyotshunoslik tafakkurni ifodalovchi konseptual vositalar sifatida talqin etilishi yaqqol namoyon bo‘ldi.

4.2. “Dictionnaire des littératures de langue française” lug‘atidagi fransuz adabiyotshunoslik terminlarining semantik va tavsifiy xususiyatlari

Zamonaviy adabiy tafakkur va madaniy-matnshunoslikda muayyan adabiyot terminlarining tarixiy shakllanishi, semantik yuklamasi va madaniy funksiyasini tahlil qilish, nafaqat nazariy asos, balki metodologik yondashuvni ham shakllantiradi. Bu borada Jan-Pyer de Bomarchais (Jean-Pierre de Beaumarchais), Daniel Kuti (Daniel Couty) va Alen Rey (Alain Rey) muharrirligida tayyorlangan “Dictionnaire des littératures de langue française” (DLLF) lug‘ati fransuz adabiyotshunoslikining tilshunoslik, stilistika va ijtimoiy-estetik mezonlaridagi ko‘p qatlamli mazmunini anglash uchun muhim manbadir.

Ushbu faslda DLLF doirasida *adabiyotshunoslik* tushunchasining tarixiy genezisi va hozirgi zamon kontekstidagi talqini, adabiy ifodaning stilistik figuralari (*metafora, metonimiya, allegoriya*) va adabiy janrlar tizimi (*narration, comédie, drame*) tahlilga tortildi.

“*Littérature n.f.*” tushunchasining tarixiy semantik taraqqiyoti uning yozuv, estetik ong va madaniy identifikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqligini ochib beradi. Metafora, metonimiya va allegoriya kabi uslubiy vositalar fransuz adabiy matnlarining obrazli tuzilishida semantik va sotsiomadaniy qatlamlarni shakllantiradi, shu bilan birga, “*genres littéraires*”, xususan “*narration*”, “*comédie*” va “*drame*” singari janrlarning tarixiy shakllanishi va zamonaviy talqinlari, matnlar orasidagi stilistik farqlilikni anglashda omil bo‘lib xizmat qiladi.

Avvalo, tadqiq etilayotgan mazkur lug‘atda fransuz tili va adabiyotning lingvistik-madaniy evolyutsiyasiga nazar solindi.

Fransuz tilining tarixiy shakllanishi bir necha davrlarga bo‘linadi:

XI–XIII - asrlardagi eski fransuz tilida diniy va didaktik mazmundagi ritmik asarlar paydo bo‘lgan;

XIV–XV-asrlarda grammatik soddalashuv va dialektlar ichidan adabiy norma shakllangan;

XVI–XVII - asrlarda klassik fransuz tilida leksik va stilistik jihatdan yuksalish, fonetik va orfografik me‘yorlarning shakllanishi yuz bergan;

XVIII - asrdan boshlab zamonaviy fransuz tili milliy va xalqaro maqomga ega bo‘lib, sotsial funksiyalarning keng doirasini bajara oladigan madaniy vositaga aylangan.

XVI–XIX - asrlarda normativlashuv jarayonlari kuchayib, Parijcha fransuzcha rasmiy til sifatida ustunlikka erishib, elita va xalq tillari o‘rtasidagi sotsiolingvistik tafovutlar kuchaytirilgan.

Akademik me‘yor grammatik lug‘atlar va ensiklopedik manbalar orqali mustahkamlandi, biroq badiiy ijod erkinligiga intilgan yozuvchilar bu me‘yoriy doiralar ichida stilistik yangiliklar yaratganligi ham ma‘lum bo‘ldi. Fransuz adabiy dialektal shakllar, argo va xalqona leksik birliklarni o‘zlashtirib, estetik va ideologik murakkablikni ifodalash vositasiga aylangan. XX-asrga kelib, polifonik strukturalar, yozma va og‘zaki shakllar o‘rtasidagi tafovut, global leksik o‘zgarishlar va stilistik eksperimentlar adabiy matnlarning ko‘p qatlamli tuzilishini shakllantirdi. Selin (Céline), Keno (Queneau), Rob-Griyye (Robbe-Grillet) kabi adiblar fonetik va sintaktik buzilishlar orqali tilning hayotiylik darajasini oshirib, yozuv va talaffuz o‘rtasidagi tafovutni ifoda vositasi sifatida qo‘lladilar.

Fransuz adabiy tili sotsial guruh o‘rtasidagi ziddiyatlar, siyosiy norozilik, tarixiy hodisa va shaxsiy kechinmalarni ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Rable (Rabelais) erkinlik, Russo (Rousseau) ichki hissiyot, Bualo (Boileau) me‘yor, Monten (Montaigne) esa fikr erkinligi tarafdori sifatida tildan o‘z estetik pozitsiyasini ifodalashda foydalanganlar²²⁶. Fransuz tili endilikda faqat Fransiyada emas, balki butun frankofon hududlarda – Shveytsariya, Kanada, Afrika, Karib mintaqasida – ham adabiy ifoda vositasiga aylangan bo‘lib, buning natijasida fransuz adabiyotshunosligi markazdan chekka hududlarga qadar kengayib, ko‘p markazli, o‘zgaruvchan va madaniy mozaikaga ega global til makonini yaratgan.

“Adabiyot” tushunchasi o‘zining etimologik ildizlari va semantik qatlamlari bilan qadimiy yozma madaniyat va til bilan bog‘liq bo‘lib, tarixiy shakllanishi davomida bir nechta madaniy bosqichlardan o‘tgan.

²²⁶ J.-P.Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris:1994. –p.1208.

Lotin tilidagi “*litteratura*” soʻzi yunon tilidagi “*grammatikê*” atamasining morfologik tarjimai boʻlib, dastlab “harf” (*littera*), “yozuv belgisi”, keyinroq “til sanʼati” va “alfavitlar toʻplami” maʼnolarini anglatgan. Oʻrta asrlarda bu soʻz “kitobiy bilim” degan tushuncha bilan bogʻlangan va xalq tiliga qarama-qarshi qoʻyilgan. Fransuz tiliga oʻtishda XIII–XV-asrlarda “*letter*”, “*lettrerie*”, “*lettreüre*” kabi shakllarda ishlatilgan bu atama, XVI-asrda “*littéraire*” sifatida, XVII-asrda “*lettré*” – savodli, madaniyatli shaxs maʼnosida oʻz aksini topgan. XVIII-asrning ikkinchi yarmida esa “*littérature*” tushunchasi muhim burilishni boshdan kechirib, “bilimlar majmui”dan estetik, madaniy ongga asoslangan ijodiy faoliyatga aylanadi, jamiyat va shaxs oʻrtasidagi madaniy ifoda sifatida anglash tendensiyasi kuchayadi²²⁷. Shu bosqichda “*fransuz adabiyoti*”, “*nemis adabiyoti*”, “*quyi adabiyot*” kabi turlar shakllanadi.


XIX–XX-asrlarda adabiyot yozuvchilarning sotsial maqomi va madaniy mavqeini belgilovchi mezonga aylanadi. *Madam de Staël* (*Mme de Staël*), *Gyote* (*Goethe*), *Volter* (*Voltaire*) singari adiblar adabiyotga “ijodiy ong”, “shaxsiy uslub”, “falsafiy mazmun” kabi zamonaviy tushunchalarni kiritib, uni mustaqil estetik hodisa sifatida talqin qilishgan. Shatobrian (*Chateaubriand*) “erkin sanʼat” deb atagan va ilmiy mantiqqa boʻysunmaslik hususiyatiga urgʻu bergan. Shu bilan birga, “*littérature*” atamasi yuqori (klassik) hamda ommaviy (quyi) janrlarni qamrab oluvchi madaniy makonga aylangan. Bugungi adabiy tafakkurda “*littérature*” va “*littéarité*” oʻrtasidagi farq muhim ahamiyat kasb etadi: birinchisi – adabiy matnlarning madaniy kontekstdagi mavjudligi, ikkinchisi – matnning adabiyot darajasini belgilovchi stilistik, semantik, ekspressiv va psixologik xususiyatlar majmuidir. Adabiy matnni tahlil qilishda stilistika, ritorika, semiotika, matnshunoslik kabi nazariy yoʻnalishlar matnning ichki tuzilishi, estetik kodi va sotsiomadaniy aylanishini oʻrganishgan. Matn yozuv, ogʻzaki qadriyatlar, ovoz, harakat, dramatik ifoda kabi omillar bilan bogʻliq tahlil doirasiga kiradi.

Zamonaviy adabiyotda “*littéarité*” ijtimoiy kontekstda tahlil qilinib, ruscha “*литературность*”, fransuzcha “*qualité littéraire*” va “*caractère littéraire*” kabi tushunchalar anglashiladi. Ushbu qarashlar adabiyotga yagona va qatʼiy taʼrif berish qiyinligini koʻrsatib, “adabiyot” hozirda shunchaki matnlar majmui emas, balki madaniy kod,

²²⁷ J.-P. Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris:1994.–p.1309.

estetik xabar, ijtimoiy aylanish, kommunikativ funksiya va psixologik ta'sir birligidan iborat murakkab tizimdir.

Ommaviy iste'mol madaniyatida bu tushuncha ko'pincha muallifning familiyasi orqali aniqlangan, ("un Balzac", "un Simenon"), har bir asar o'z kodiga ega ekanligi, umumiy qolipga sig'masligi, madaniy muomala doirasida alohida funksiyaga ega bo'lishini anglatadi. Shunday qilib, adabiyot zamonaviy ongda ijtimoiy, estetik, madaniy va kommunikativ munosabatlarning kesishgan nuqtasida joylashgan, doimiy tarzda yangilanishga va turlicha talqinlarga ochiq dinamik hodisa hisoblanadi.



Fransuz adabiyoti tarixida til ifoda, tafakkur, obraz, ma'no va ijtimoiy identifikatsiya vositasida shakllanib borgan. Shu jarayonda adabiy matnlarning semantik ko'lam va obrazli kuchini ta'minlovchi eng muhim uslubiy figuralardan biri bu “*métaphore n.f.*” (metafora) sanaladi. Aristotel davridan boshlab “*Achille s'élança comme un lion*”

(“Axilles sher kabi otildi”) kabi oddiy taqqoslashlar bilan solishtirilganda, metafora ushbu o‘xshatishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri anglatadi: “*Achille est un lion*” (“Axilles – sher”)²²⁸. Ushbu o‘rinda tilshunoslar nazarida sintaktik va semantik struktura orqali bir ma’no boshqa bir tushunchaga ko‘chadi, shunda obrazli yondashuvning keng ko‘lamli psixosemantik ta’siri yuzaga keladi. Apolliner (Apollinaire)ning “*Déjà la nuit en son parc amassait les ténèbres...*” misolida “*la nuit*” (tun) “*parc*” (bog‘) sifatida obrazlashib, tilning ichki semantik tuzilmasi orqali poetik konnotatsiyalarni yaratadi.

Metafora oddiy so‘zlarning o‘zaro konnotativ, semantik va madaniy qatlamlarni yuzaga chiqaruvchi muhim figura (badiiy ifoda shakli) sanaladi.

Giro (Guiraud)ga ko‘ra, “*la métaphore*” bu semantik transfer bo‘lib, bir belgi ikkinchisining o‘rnini egallaydi va mazmunni ko‘chirish orqali uni o‘zlashtiradi. Bu jarayon “*le signe Gallienne*”, “*Baldi*”, “*la Pléiade*” kabi obrazlar asosida izohlanadi va badiiy matnda “*figures de style*” sifatida ko‘rinadi. Bart (Barthes) “*Éléments de sémiologie*” asarida figuralikni metaforik mazmun sathiga tenglashtiradi: metafora adibga ko‘ra yozuvni (*écriture*) dramatiklashtiruvchi vosita²²⁹, deya hisoblaydi.

Asl mohiyatiga ko‘ra, metafora analogik tuzilmaga asoslanadi, biroq bu analogiyaning tabiiyligini har doim ham isbotlab bo‘lmaydi. Chunki doimo “*le sens proper*” (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no) bilan “*le sens figure*” (ko‘chma ma’no) o‘rtasidagi murakkab bog‘lanish orqali mavjud bo‘ladi. Masalan, “*rouge*” (qizil) va “*sang*” (qon), “*feu*” (olov) va “*violence*” (zo‘ravonlik) o‘rtasidagi bog‘liqliklarda, metafora faqat poetik emas, balki ijtimoiy ma’no ham kasb etadi.

Shu boisdan, metafora ko‘pincha “*phénomène social*” (ijtimoiy hodisa) sifatida ham qaraladi. Burdye (Bourdieu) kabi sotsiologlar metaforani ijtimoiy va madaniy kodlarning ideologik darajada takrorlanish shakli, deb ta’riflaydi²³⁰.

Metaforaning “*langage religieux*” (diniy til) doirasidagi ishlatilishi uning ramziy-falsafiy ahamiyatini namoyon qiladi. “*La Métaphore*” kontekstda “*la philosophie religieuse*” (diniy falsafa)ni anglatadi va “*le double langage*” (ikki yoqlama til) ya’ni rasmiy va ramziy qatlamlarni tashkil etadi. Bu figuralik, ya’ni “*figuralité*”, diniy yozuvlardagi “*le*

²²⁸ J.-P. Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris: 1994.–p.1486.

²²⁹ R. Barthes Éléments de sémiologie. –Paris: 1964. –p.125.

²³⁰ J.-P. Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris: 1994.–p.1486.

corps glorieux” (ulug‘langan tana) singari obrazlar orqali arxetipik mazmunlar bilan boyitiladi.

Molino ta’kidlaganidek, tilshunoslik doirasida “*logique du sens*” (ma’no mantiqi) o‘rganish lozim bo‘lib, metaforani oddiy stilistik vosita emas, balki “*fonction symbolique*” (ramziy funksiya) sifatida talqin qilish imkonini beradi²³¹. Demak, metafora estetik shakl, jamiyatning axloqiy, falsafiy va madaniy tizimlaridagi mazmun uzatish vositasi deyish mumkin.

Tilning yana bir asosiy obrazli–nomlovchi figuralaridan biri sanalgan “*métonymie*” (metonimiya) bo‘lib, u tasviriy o‘xshatishga emas, balki real yaqinlik, sabab–oqibat, qism–butun, joy–narsa kabi kontekstual munosabatlarga asoslangan. Yakobson metonimiyani tilning tabiiy ishlashi va realistik diskursning markazi, deb baholagan. Masalan: “*le trône*” (taxt) orqali davlat hokimiyati, “*le glaive*” (qilich) orqali adolat, “*le laurier*” (loviya novdasi) orqali shon-sharaf ifodalanadi²³². “*Le vase, la coupe, le calice pour la liqueur...*” (idish orqali ichimlik), “*le Ciel pour Dieu*” (osmon orqali Xudo) kabi misollar metonimiyaning fizik va semantik yaqinlikka tayanishini ko‘rsatadi. “*Ventre affamé n’a point d’oreilles*” (“*Qorni ochga qorni to‘qning gapi yurmaydi*”) degan iborada esa “*ventre*” (qorin) orqali butun organizmning holati anglatiladi. Metonimiya ayniqsa XIX-asr realistik romanlarida keng qo‘llanilgan, tasvirni ijtimoiy va madaniy aloqalar orqali ifodalaydi.


Adabiy tilning obrazli va semantik ko‘lamini kengaytiruvchi uchinchi asosiy figura bu “*allégorie n.f.*” (allegoriya) bo‘lib, u konkret obrazlar orqali mavhum g‘oyalarni ko‘rinarli qilishga intiladi. Tarixan allegoriya didaktik shakl bo‘lib, o‘rta asrlarda diniy va axloqiy tushunchalarni (masalan, “*l’homme fidèle*”, “*le citoyen*”) ikonografik, ramziy timsollar vositasida talqin qilishda muhim rol o‘ynagan. Allegorik ifodalar ko‘pincha “*figures iconographiques*” (ikonografik timsollar), “*vertus*” (fazilatlar), “*sacré*” (muqaddaslik), “*tableaux*” (rasmlar) orqali matn ichida shakllangan²³³. XX-asrda surrealistlar ushbu shaklni zamonaviy ifoda vositasi sifatida qayta kashf etganligi tarixdan ma’lum bo‘ladi. Rene Magritt (René Magrittning “*La Mémoire*” (1944) asari allegorik ifoda orqali inson ongi va hissiyotlarini vizual obrazga aylantirgan. Shu jihatdan olib qarasaq, allegoriya ham didaktik, ham

²³¹ J.-P. Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris:1994.–p.1487.

²³² J.-P. Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris:1994.–p.1488.

²³³ J.-P. Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris:1994. –p.8-9.

poetik, ham ideologik vazifani bajaribgina qolmay, estetik shakl, semantik qatlamlar orqali madaniy tafakkurni anglash vositasidir.



Tadqiq etayotgan izohli lug'atda "*genres littéraires*" (*les*) – adabiyotshunoslik janrlariga to'xtalishni joiz hisobladik. Berilgan ta'rifga ko'ra janrlar matnlar to'plamini muayyan mezonlarga ko'ra birlashtirish imkonini beruvchi kategoriya, deya aniqlik kiritilgan.

Adabiy janrlar matnni muayyan belgilar asosida tasniflash imkonini beradi. Og'zaki janrlar holatida (masalan, dafn marosimi yoki teatrdagi tragédie) kontekst aniq bo'ladi, biroq yozma janrlar uchun bu mezonlar ko'proq o'quvchi tomonidan matnning tashqi belgilariga (sarlavha, format, uslub) va boshqa matnlar bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Har bir janrning o'ziga xos qoidalari mavjud: masalan, "*tragédie classique*" qat'iy me'yorlar (*les trois unités, bienséance, vraisemblance*) asosida qurilgan bo'lsa, "*roman d'aventures*" (sarguzasht romani) yoki "*conte merveilleux*" (mo'jizaviy ertak) singari "*genres mineurs*"²³⁴ (ikkinchi darajali janrlar) tarixan past darajadagi janr sifatida qaralgan, lekin bugungi kunda ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelishi sababli qayta qadrlanmoqda.

Janr tushunchasi orqali matnlarni tahlil qilish, baholash, yangilash va ierarxialarni o'zgartirish mumkin. Barok²³⁵ davridan boshlab janrlar estetik tamoyillarga tayangan (masalan, "*Putten*" hamda "*tragédie*" – "*bourgeois*"ni madh etish, "*comédie*" tanqid qilish janri sifatida ajratiladi). Uyg'onish davrida bu janrlar insoniyat taraqqiyotiga moslashtirib tahlil qilindi (*lyrique* – bolalik, *épique* – balog'at, *dramatique* – keksalik). XX-asrda "*formalism*" va "*structuralisme*" oqimlari janrlarni ichki struktura, "*narrativité, typologie*", "*function*"

²³⁴ J.-P. Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris: 1994. –p.897.

²³⁵ Barok – Yevropa san'ati va adabiyotida 17-asr o'rtalaridan 18-asr boshlarigacha hukmronlik qilgan estetik-badiiy yo'nalish bo'lib, unda hissiyot, bezakdorlik, dramatism, ziddiyat va ko'tarinkilik ustuvor o'rin egallagan.

asosida qayta talqin qildi. Shu bilan birga, “*genres populaires*” (xalq orasidagi janrlar)ga bo‘lgan e’tibor ortib, avangard, ierarxik janr tizimini tanqid ostiga oldi.

Bugungi adabiyotda janrni baholash kommunikativ funksiyaga va o‘quvchi qabuliga asoslanadi. Har bir janr muayyan diskurs turiga (*judiciaire, délibératif, épideictique*) va kommunikatsion ehtiyojga xizmat qiladi.²³⁶ Matn va janr endilikda “*système de variants*” sifatida qaralib, o‘zgaruvchan, moslashuvchan shaklda talqin qilinadi.

Adabiy janr turlarining asosiylaridan biri sifatida hikoyaviy janrlar sanaladi. Narrativ janr adabiyotdagi asosiy shakllardan biri bo‘lib, hikoya qilishning ikki asosiy yo‘nalishi – “*narration n.f.*” (hikoya qilish amali) va “*narrativité*” (hikoya qilish sifati) orqali tushuntiriladi. Narration bu voqealarni vaqt ketma-ketligida bayon etuvchi diskursiy jarayon bo‘lib, unda “*narrateur*” (hikoyachi), “*voix*” (ovoz), “*temps*” (zamon) va “*mode*” (mayl) kabi elementlar ishtirok etadi. “*Narrativité*” matnning hikoyaviy xususiyatga egaligini bildiruvchi belgi bo‘lib, voqealarning mavjudligi, sabab-natija aloqasi va qahramonlar tizimini talab qiladi. J.Jenett (Gérard Genette), R.Bart (Roland Barthes) va K.Bremond (Claude Bremond) bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqni aniqlashtirib, “*narrativité*” tushunchasini faqat matn bilan cheklamay, rasm, kino, fotojurnalistika, reklama kabi boshqa madaniy shakllarga ham tadbiq etganlar. Ayniqsa, “*narratifs sans narration*” holatlarida hikoya jarayoni mavjud bo‘lsa-da, hikoyachining ovozi yoki pozitsiyasi ko‘rinmaydi. “*Narration*” tahlili ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: “*repérage des marques formelles*” (formal belgilarni aniqlash) va “*étude sémantique des unités disjointes fonctionnellement*” (semantik birliklarning tahlili)²³⁷. Ushbu yondashuvda matndagi shaxs olmoshlari, zamon, izoh va nuqtayi nazar – “*point de vue du narrateur*” – hikoyachining til orqali namoyon bo‘lishini aniqlaydi. Klassik matnlarda ushbu jarayon “*énonciation parallèle*” (paralel nutq shakli) orqali yaqqol ko‘zga tashlanadi: “*il raconte*”, “*vous décrivez*”, “*nous pensons*” kabi shakllar orqali “*narration*” termini matnni boshqa turlardan ajratadi. Bunday lingvistik belgilar orqali “*voix du texte*” (matnning ovozi) va “*trace linguistique de l’énonciation*” (so‘zlashuvning til jihatidan izchil ko‘rinishi) aniqlanadi. Masalan, M.Prustning “*À la recherche du temps perdu*” asarida “*narrateur*” – bu asar qahramoni (*héros*) emas, balki kuzatuvchi (*observer*) va so‘zlovchi

²³⁶ J.-P.Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris: 1994. –p.900.

²³⁷ J.-P.Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris:1994.–p.1607.

subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. “*Narrateur*” (hikoyachi) faqat voqealarni tasvirlash bilangina cheklanmay, balki “*métalangage narrative*” (hikoyaviy metatil) orqali ularni tahlil qiladi, kuzatuvchi pozitsiyasidan matn ichidagi voqelikni tartibga soladi hamda o‘quvchiga qabul qilish jarayonini ochib beruvchi so‘zlovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy yondashuvlarda “*narration*” – faqat hikoya qilish emas, balki “*codage*” (kodlash), “*mise en récit*” (voqealarni hikoyaga aylantirish) va “*articulation des instances*” (nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi bog‘lanish) orqali shakllanadigan diskursiy konstruksiyadir. R.Bartning fikriga ko‘ra, hikoya qilish jarayoni har doim bir kommunikatsion modelga asoslanadi, unda “*narrateur*” va “*lecteur*” (o‘quvchi) matn ichida belgilar orqali ifodalanadi. “*Narration*” matnini ko‘p darajali tuzilma sifatida tashkil qiladi: “*sujet*” (voqea), “*langage*” (ifoda tili), “*temps*” (zamon), “*focalization*” (e‘tibor markazi) kabi omillar orqali voqelikni tasvirlaydi va aks ettiradi²³⁸. Shu bilan birga, “*narration*” o‘quvchi ongida “*illusion narrative*” – ya’ni haqiqat hissini uyg‘otadi, bu esa drama, roman, film, “*mise en abyme*” (matn ichidagi matn) singari shakllarda namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham, “*narration*” har doim madaniy, tilshunoslik va ijtimoiy semiozning faol elementi hisoblanadi.

“*Comédie n.f.*” termini XIV - asrda ilk bor tilga olingan bo‘lib, XVI - asrga kelib keng qo‘llanila boshlandi. Dastlab bu so‘z teatrning umumiy shaklini anglatar edi, keyinchalik “*pièce*” (pyesa), “*representation*” (namoyish), “*troupe*” (aktyorlar guruhi), “*edifice*” (bino) va “*art d’écrire pour la scène*” (sahnaga mos matn yozish san’ati) kabi teatrga oid aniq tushunchalarga bog‘landi. Renessans davrida “*comédie*” asta-sekin dramaturgik janr sifatida shakllangan bo‘lsa-da, u hali to‘liq “*rire*” (kulgi) tushunchasi bilan bog‘lanmagan edi. Ilk bosqichda termin “*tragédie*” (fojea)ga qarshi turuvchi, hayotiy mavzularni (oddiy odamlar, kundalik voqealar) yengil va kulgili ohangda aks ettiruvchi shakl bo‘lib maydonga chiqdi. Shahar hayoti, realistik tipdagi “*personnages dramatiques*” (dramatik obrazlar) orqali “*comédie*” bilish (*connaissance*), hayotga yaqinlik (*familiarité*) va axloqiy zavq (*plaisir moral*)ni taqdim etgan. XVI–XVII- asrlarda “*comédie*” atrofida shakllangan nazariy qarashlar tahlilga tortilgan. Aristotelning “*Poétique*” asariga tayanib, fransuz adabiyotshunoslari, xususan, Skaliger (Scaliger), Kastelvetro (Castelvetro) va d’Obinyak

²³⁸ J.-P.Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris:1994.–p.1608.

(D'Aubignac) tomonidan nazariya yanada rivojlantirildi. Ular “*comédie*” sahnasida “*vraisemblance*” (haqiqatga o‘xshashlik) va “*bienséance*” (muvofiqlik) mezonlarini asosiy estetik talab sifatida ilgari surdi. Ushbu qarashlar orqali “*comédie*” endilikda faqat kulgiga asoslangan yengil janr emas, balki “*théâtre régulier*” (qoidaviy teatr) darajasidagi muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunuvchi adabiy shakl sifatida qaraladigan bo‘ldi.

Shu tariqa “*comédie*” asta-sekin ikki tomonlama estetik va axloqiy yo‘nalishda shakllandi. Bir tomondan, san‘at asari sifatida teatr sahnasini bezab turadigan hayotiy ifoda vositasiga aylandi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy munosabatlar, kundalik odatlar va axloqiy me‘yorlarni yumor orqali aks ettiruvchi tarbiyaviy janrga aylandi. Bu yangi qiyofa “*comédien*”i o‘z davrining ijtimoiy tili va madaniy ko‘zgasiga aylantirib, uni “*klassik tragédie*” bilan teng, biroq o‘ziga xos uslub va vazifaga ega janr sifatida mustahkamlab berdi.

XVII-asr o‘rtalaridan boshlab “*comédie*” ikkita yo‘nalishda rivojlanadi: biri – “*comédie régulière*” (qoidaviy komediya), ikkinchisi – “*comédie populaire*” (xalqona komediya). Sahnadagi klassik dramatik me‘yorlarni sinovdan o‘tkazgan Pyer Korneyl (Pierre Corneille), Pol Skarron (Paul Scarron), Jan Mariye (Jean Mairet) kabi mualliflar bir tomonda turar edi, ikkinchi tomondan, Tabarin, Gros-Guillaume, Gautier-Garguille singari xalq aktyorlari “Hôtel de Bourgogne” kabi teatr sahnalarida “*comique trivial*” (oddiy kulgi)ni tomoshabinga taqdim etardi. “*Comédie*” bu davrda ommaviy auditoriyani jalb qilish bilan birga, shakllangan tomoshabin (*public affiné*) tomonidan ham qadrlana boshladi²³⁹. Shunday qilib “*comédie*” kulgi hamda real hayotni aks ettiruvchi janrga aylandi.

“*Drame n.m.*” (drama) atamasi doriycha “*dran*” (harakat qilmoq) fe‘lidan kelib chiqqan bo‘lib, qadimiy yunon tilida sahnadagi harakat yoki pyesani anglatgan. Bu so‘z Aristotelning “*Poétique*” asarida teatr faoliyatini ifodalash uchun ishlatilgan va keyinchalik lotin tili orqali Yevropa tillariga kirib kelgan. Fransuz tilida “*drame*” so‘zi 1730-yillargacha keng ishlatilmagan bo‘lsa-da, XVIII-asrda Deni Didro (Denis Diderot) ushbu janrni nazariy asoslab, uni “*tragédie*” (fojea) va “*comédie*” (komediya) orasidagi “*oraliq janr*” sifatida tavsifladi. Yozuvchi ushbu janrni “*drame bourgeois*” deb nomlab, ijtimoiy tengsizlik, axloqiy muammolar va oilaviy ziddiyatlarni aks ettiruvchi

²³⁹ J.-P. Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris: 1994. –p.528.

teatr shakli sifatida qaradi²⁴⁰. Didroga ko‘ra²⁴¹, drame – bu hayotning aksi bo‘lib haqiqatga yaqin, hissiy, jamiyatdagi oddiy insonlar hayotiga bevosita bog‘liq janrdir. Shuningdek, bu boradagi nazariyalar Sebastyan Mersye (Sébastien Mercier), Bomarshe (Beaumarchais), Dyuma (Dumas fils) kabi dramaturglar tomonidan davom ettirildi. Ayniqsa “*drame sentimental*”, “*drame familial*” va “*drame moral*” kabi shakllar ijtimoiy tabaqa, gender roli, e‘tiqod va shaxsiy erkinliklar o‘rtasidagi ziddiyatni ochib berishda muhim o‘rin egallaydi. Didroning “*Ce ne sont plus, à proprement parler, les caractères, ce sont des conditions*” (“Endi bu sahnadagilar shunchaki xarakterlar emas, balki jamiyatdagi sharoitlarning timsolidir”) degan iborasi ushbu janrning semantik asosini aniqlab beradi.

Genres littéraires-Adabiy janrlar

1. Narration (Hikoyaviy Janr)

◆ Bosh kategoriyalar:

Narration (hikoya qilish)

Narrativité (hikoyaviylik sifati)

◆ Narration tarkibiy

qismlari:

Narrateur (hikoyachi)

Shaxs olmoshlari (je, il, vous...)

Fikr ifodasi (nous pensons...)

Voix (matnning ovozi)

Temps (zamon)

Mode (ifoda shakli)

Point de vue du narrateur

(hikoyachining nuqtayi nazari)

Énonciation parallèle (paralel nutq shakli)

◆ Narrativité belgilar:

Voqealar mavjudligi; Sabab-

natija aloqasi; Qahramonlar

tizimi; “Narratifs sans

narration” (hikoya bor,

hikoyachi yo‘q);Metalangage

narrative (hikoyaning o‘z

tuzilishini tahlil qiluvchi til)

◆ Zamonaviy yondashuvlar:

Codage;

Mise en récit

Articulation des instances

Illusion narrative

2. Comédie (Komediya)

◆ Tarixiy rivojlanish:

XIV asr: umumiy teatr shakli

XVI-XVII asr: dramaturgiya

sifatida shakllanish

◆ Asosiy xususiyatlar:

Oddiy odamlar, kundalik

voqealar

Rire (kulgi), plaisir moral

(axloqiy zavq)

Genre profane (diniy emas)

Vraisemblance (haqiqatga

o‘xshashlik)

Bienséance (muvofiqlik)

◆ Estetik va axloqiy jihatlar:

Théâtralité (sahnalilik)

Éthique sociale (ijtimoiy axloq)

Représentation du réel (real

hayotni aks ettirish)

Satira, yumor, kulgi vositasi

◆ Turlar:

Comédie régulière (qoidaviy

komediya)

Comédie populaire (xalqona

komediya)

3. Drame (Drama)

◆ Etymologik asos:

Doriycha “dran” – harakat

qilmoq

Aristotel – teatr uchun

ishlatgan

◆ Diderot yondashuvi:

Drame bourgeois (burjua

dramasi)

Théâtre moral (axloqiy teatr)

Codage social (ijtimoiy

kodlash)

◆ Asosiy mavzular:

Gender, axloq, tengsizlik,

oilaviy inqiroz

Conditions (shartlar) >

caractères (xarakterlar)

◆ Turlari:

Drame sentimental

Drame familial

Drame moral

Drame romantique (V. Hugo)

Drame bourgeois moderne

(XX asr)

²⁴⁰ J.—P.Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. Dictionnaire des littératures de langue française. –Paris: 1994. –p.709.

²⁴¹ Дидро Д. Эстетические взгляды и драматургия. – Москва : 1964. –412 с.

XIX - asrga kelib, “*drame romantique*” shaklida yangi teatr uslubiga aylandi. Viktor Gyugoning “*Préface de Cromwell*” (1827) asarida bu janr “*tragédie*” va “*comédie*” o‘rtasidagi chegaralarni buzuvchi, “*le grotesque et le sublime*” (dag‘allik va yuksaklik)ni uyg‘unlashtiruvchi dramatik shakl sifatida asoslab beriladi. Bu shakl odatiy hayotiy voqealarni taqdir oynasi orqali ifodalaydi: “*Le drame, ce sont les événements banals de la vie quotidienne: mais vus à travers les portes du destin humain*”. Keyinchalik bu shakl “*drame bourgeois modern*”ga aylandi va XX-asrda A.Bernsteyn (Henri Bernstein), A.Batay (Henry Bataille) singari dramaturglar tomonidan gender tengsizligi, moliyaviy zo‘ravonlik, oilaviy inqirozlar kabi mavzularda boyitildi. Shu tariqa “*drame*” oddiy hikoya bilan birga, voqealarni harakat orqali his ettiruvchi, madaniy, axloqiy va ijtimoiy anglashni shakllantiruvchi sahna san‘atiga aylandi.

Fransuz adabiyotshunoslik terminlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, adabiyotshunoslik – bu bir tomonlama matnlar majmui, ijtimoiy, madaniy va semantik jihatlari ila o‘zaro bog‘langan ko‘p qirrali hodisadir. “*Littérature*” tushunchasi o‘zining tarixiy rivoji davomida yozuvdan estetik hodisagacha evolyutsiyalashgan bo‘lsa, “*littéarité*” esa adabiyotshunoslik mezonlarini aniqlovchi stilistik va ekspressiv xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Shu bilan birga, “*métaphore*”, “*métonymie*” va “*allégorie*” kabi stilistik vositalar fransuz adabiyotining semantik chuqurligini ta‘minlaydi. Qolaversa, “*genres littéraires*” doirasida keltirilgan “*narration*”, “*comédie*” va “*drame*” janrlari o‘z tarixiy va zamonaviy shakllanish bosqichlarida madaniy estetikani, o‘quvchi bilan muomala jarayonini va sotsial diskursni o‘zida aks ettiradi. Shu ma‘noda, DLLF lug‘atining terminologik yondashuvi adabiy matnlarni sotsiomadaniy va lingvistik-konseptual nuqtai nazardan anglashda zamonaviy adabiyotshunoslik uchun nazariy asos yaratadi.

4.3. “Petit Larousse Illustré 2020” tasvirli lug‘atidagi lisoniy birliklarning leksik va konseptual tahlili

Zamonaviy leksikografik izlanishlarda tilshunoslik terminologiyasini chuqur semantik, funksional, konseptual tahlil qilish ilmiy-tadqiqot ishlari uchun, balki amaliy tilshunoslik, pedagogika, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik doiralarida ham dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayonda “*Petit Larousse Illustré 2020*” tasvirli

lug‘ati fransuz tilining terminologik resursini zamonaviy ilmiy talablar asosida shakllantirishda muhim manba vazifasini bajaradi. Lug‘at o‘zining ensiklopedik mazmuni, tasviriy-funksional yondashuvi, interaktiv tuzilmasi bilan lingvistik birliklarning leksik izohini, ularning semantik spektri, paradigmatic aloqalari va kognitiv asoslarini aniqlashtirishga imkon yaratadi.

Zamonaviy leksikografik tadqiqotlarda lingvistik birliklarning leksik va konseptual tahlili tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu jihatdan, “Petit Larousse Illustré 2020” tasvirli lug‘atining tahlili fransuz tilining lingvistik tizimini chuqur anglash, terminlarning kelib chiqishi, semantik yuklamasi, stilistik o‘ziga xosligi va grammatik o‘rni haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Mazkur faslda ushbu lug‘atdagi til birliklari fonetik-fonologik, morfologik, sintaktik va semantik-nazariy yondashuvlar asosida ketma-ketlikda o‘rganildi.

“Petit Larousse Illustré 2020” tasvirli lug‘atida aks etgan fonetik va fonologik “*phonétique*”, “*phonologie*”, “*phonème*”, “*allophone*”, “*prosodie*”, “*intonation*” va “*accent*” kabi atamalar tildagi tovushlarning fizik va funksional xususiyatlarini, nutqdagi roli hamda intonatsion va urg‘udagi ifodalarni aniqlashda asosiy konseptual birliklar sifatida qaraladi.

Xususan, “*phonétique* n.f.”²⁴² – fonetika bu tilning tovush unsurlarini va og‘zaki muloqot jarayonlarini ilmiy asosda o‘rganuvchi soha hisoblanadi. Bu atama yunoncha “*phōnētikos*” so‘zidan olingan bo‘lib, nutq tovushlarini ilmiy tahlil qilishni nazarda tutadi. Fonetika, shuningdek, so‘zlarning talaffuzini maxsus belgilar yordamida ifodalash (transkripsiya) usulini ham o‘z ichiga oladi. Ya’ni, “*phonétique*” bu ham nazariy, ham amaliy darajadagi tahlil yo‘nalishidir. Lug‘atda sinonim va antonimlik leksemalar qayd etilmaganligi ayon bo‘ladi

“*Phonologie* n.f.”²⁴³ – fonologiya tabiiy tillarning tovush tizimlarini, ma’no farqlanishini o‘rganadi.

Fonologik tizimning eng muhim birligi sanalgan “*phonème*” atamasi qadimgi yunoncha “*φωνή*” (*phōnē* — “tovush”, “ovoz”) so‘zidan kelib chiqqan. Terminga qo‘shilgan “-ma” qo‘shimchasi harakat natijasini bildiradi (masalan, “nutq tovushi” yoki “aytilgan tovush”). Lotin tiliga “*phonēma*” ko‘rinishida o‘tgan, undan so‘ng fransuz tiliga “*phoneme*” shaklida kirganligi ensiklopedik manbadan

²⁴² Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.770.

²⁴³ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.771.

ma'lum bo'lib, "*phoneme* n.m."²⁴⁴ – (*fonema*) bo'lib, bu tildagi eng kichik ma'no farqlovchi tovush birligidir. Fonema segmentlab bo'lmaydigan, ya'ni bo'linmaydigan element sifatida qaraladi. Shuningdek, fonema har doim ham bitta shaklda talaffuz qilinmasligi mumkin. Atama muayyan fonetik muhitga ko'ra har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bunday hodisa "*allophone* n.m."²⁴⁵ – allofon, deb nomlanadi. Masalan, so'z boshida va oxirida bir xil fonema turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Atama "*variante combinatoire*" (kombinator variant), "*variante contextuelle*" (kontekstual variant) hamda "*variante positionnelle*" (pozitsional variant) kabi so'z birikmalari bilan sinonimlik munosabatiga ega.

Shuningdek, qadimgi yunon va lotin she'riyatida ayniqsa muhim bo'lgan holda, unlilarning uzun-qisqa talaffuziga oid qoidalar majmuasi; fransuz poeziyasida esa she'r satrlarini tuzishda bo'g'inlar soniga asoslangan tizimli yondashuv va an'anaviy hisoblash usuli bo'lgan yunon tilidan (*prosôdia*) o'zlashgan "*prosodie* n.f."²⁴⁶ – intonatsion tizim termini zamonaviy lingvistikada termin fonemadan kichik yoki katta (bo'g'in, so'z, sintagma, gap) birliklarning fonik shakl va substansiyalarini o'rganib, urg'u, intonatsiya, ritm, nutq sur'ati va pauza kabi unsurlarni o'z ichiga oladi.

Prosodik hodisalarning markazi sanalgan o'rta asr lotin tilidagi "*intonnare*" – "ohang bilan boshlamoq", fransuz tilidagi "*entonner*" fe'li orqali, klassik lotin tiliga "*intonare*" – "ohang berib aytmoq" fe'li va "*tonus*" – "ohang, tovush" so'zining ta'siri ostida shakllangan "*intonation* n.f."²⁴⁷ – intonatsiya bo'lib, termin gapdagi melodik o'zgarishlarni, ya'ni ohang balandligi va tembrning farqlanishini bildiradi. Intonatsiya tilning muloqotdagi funksional jihatlarini – e'tibor, so'roq, emotsiya, urg'u kabilarni ifodalashda xizmat qilib, fonetik nuqtayi nazardan fundamental chastota va melodiyaning o'zgarishini anglatadi.

Fonetik tizimda e'tiborni tortuvchi, lotincha "*accentus*" so'zidan olingan "*accent* n.m."²⁴⁸ – ya'ni *urg'u* – turli kontekstlarda qo'llanilib, bir nechta lingvistik va estetik funksiyalarga ega. Tilshunoslikda bu atama, birinchidan, bo'g'inning talaffuzda ajralib chiqishini anglatadi; ikkinchidan, muayyan mintaqa yoki ijtimoiy guruhga xos bo'lgan

²⁴⁴ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.770.

²⁴⁵ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.31.

²⁴⁶ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.428.

²⁴⁷ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.548.


²⁴⁸ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.8.

talaffuz xususiyatlarini bildiradi; uchinchidan, grammatik yoki fonetik ma’no ifodalovchi diakritik belgi sifatida qo‘llanadi. Aynan shu nuqtai nazardan, *accent aigu* (´), *accent grave* (`) va *accent circonflexe* (^) kabi urg‘u belgilari fonetik yoki grammatik funksiyalarni ko‘rsatishda muhim vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, “*accent*” atamasi musiqiy va stilistik kontekstlarda ham qo‘llanib, ohang ichida kuchaytirilgan, ajratib ko‘rsatilgan tovush nuqtasini ifodalaydi, shuningdek, “*accent*” leksik birligi ma’no yaqinligi jihatidan “*empreinte*” (iz), “*manière*” (uslub), “*note*” (ohang) kabi birliklar bilan semantik yaqinlik kasb etadi. Fonetika sohasida esa u “*accentuation*” (urg‘ulash) termini bilan paradigmatic bog‘lanishda bo‘lib, bu atamalar o‘zaro kontekstual almashuvchanlik xususiyatiga ega sanaladi.

4.4.1.-diagramma

“Fonetik va fonologik tushunchalar xaritasi” (Konseptual diagramma)



“Petit Larousse Illustré 2020” lug‘atidagi morfologik terminlar fransuz tilida so‘z shaklining tuzilishi, grammatik o‘zgarishlari va yangi birliklar yasash jarayonlarini tavsiflaydi. “*Morphologie*”, “*morphème*”, “*allomorphe*”, “*affixe*”, “*suffixe*”, “*préfixe*”, “*flexion*”, “*dérivation*” va “*composition*” singari atamalar morfematik asos, affiksiyalash va so‘z yasashning strukturaviy va semantik jihatlarini ifodalovchi lingvistik birliklar hisoblanadi.

“*Morphologie* n.m.”²⁴⁹ – morfologiya termini fransuz tilshunosligida til birliklarining shakliy tashkil topishi va grammatik o‘zgarishlarini o‘rganadigan soha sifatida ta’riflanadi. Atama so‘zlarning “*formation*” (yasalishi) va “*désinences*” (so‘z shaklining grammatik o‘zgaruvchan qismlari)ni o‘rganishga qaratilgan. Shu bois, “*morphologie*” lingvistik birlik sifatida morfemalarning shakllanishini va ularning so‘z tuzilmasidagi funksional joylashuvini anglatadi.

“*Morphème* n.m.”²⁵⁰ – morfema yunoncha “*morphê*” – “shakl” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “*morphologie*” doirasidagi eng asosiy birlik, til tizimidagi “*unité minimale de signification*” (eng kichik ma’noli birlik) sifatida ajralib turadi. Atama fonologik jihatdan bo‘linmaydi, lekin semantik yuklamaga ega lingvistik birlik sifatida “*morpheme*” ikki turga bo‘linadi: leksik (*chant-*) va grammatik (*-er*) morfemalar bo‘lib, ular so‘zning mazmuniy asosini belgilash va grammatik vazifasini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “*chanter*” (kuylamoq) fe’lida *chant-* – asosiy semantik yukni ko‘taruvchi, “*-er*” esa grammatik kategoriyani belgilovchi birlik sifatida qatnashadi. “*Morpheme*” tilning semantik va grammatik tuzilishini shakllantiruvchi yadro birligi sinonimik jihatdan “*formant*”, kam hollarda “*monème*” atamaları bilan qiyosiy bog‘liq bo‘lib, morfemaning funksional va strukturaviy jihatlarini anglatishda qo‘llanadi.

“*Allomorphe* n.m.”²⁵¹ – allomorf “*morpheme*”ning kontekstga qarab yuzaga chiqadigan fonetik variantidir. Termin “*variante contextuelle*” sifatida lingvistik birlikda semantik barqarorlikni saqlagan holda fonologik moslashuvga erishadi. Masalan, “*aller*” (bormoq) fe’lining shakllarida: *allons*, *vais*, *irai* dagi *al-*, *v-*, *ir-* segmentlari – bitta morfemaning allomorflaridir. “*Allomorphe*” lingvistik birlik sifatida morfemaning yuzaga chiqish shaklini ifodalab, morfologik tizimning elastikligini ko‘rsatadi.

Shu morfematik asosda hosil qilingan termin lotincha *affixus* (biriktirilgan) so‘zidan kelib chiqqan “*affixe* n.m.”²⁵² – affiks atamasi til tizimida mustaqil ishlay olmaydi, ammo “*base lexicale*” ga birikib, yangi birliklar yaratishda ko‘maklashadi. Affiks lingvistik birlik sifatida so‘zga semantik yoki grammatik ma’no yuklaydi. Fransuz tilida affikslar uch ko‘rinishda uchraydi: “*préfixe*” (old qo‘shimcha), “*suffixe* n.m.”²⁵³ –

²⁴⁹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.663.

²⁵⁰ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.663.

²⁵¹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.31.

²⁵² Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.19.

²⁵³ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.973.

ort qo‘shimcha, va “*infixe*” (ichki qo‘shimcha). Masalan, “*chanter*” fe‘lidagi “-er” “*suffixe*”, “*refaire*” fe‘lidagi “re-” “*préfixe*” sifatida lingvistik o‘zgaruvchanlikni ifodalaydi.

“*Suffixe n.m.*” – suffiks lotincha “*suffixus*” (“ustiga biriktirilgan”) so‘zidan olingan bo‘lib, affikslarning grammatik turkumini o‘zgartiruvchi quyi turidir. Bu birlik “*derivation*” (hosila yasash) jarayonida semantik jihatdan yangi so‘z yaratadi. Misol uchun:

“*arroser*” → “*arrosage*” (fe‘ldan otga),

“*gentil*” → “*gentillement*” (sifatdan ravishga), “*gentillesse*” (sifatdan otga).

Bu lingvistik birliklar grammatik kategoriya o‘zgarishini ko‘rsatgan holda “*suffixe*” ni yangi birlik yaratuvchi vosita sifatida belgilaydi.

Bunga qarama-qarshi bo‘lgan termin “*préfixe n.m.*”²⁵⁴ – prefiks lotincha “*praefixus*” (oldinga qo‘yilgan) so‘zidan olingan bo‘lib, so‘z boshiga birikib, uning semantik maydonini kengaytiruvchi, lekin grammatik turkumini o‘zgartirmaydigan affiks turidir. Lingvistik birlik sifatida “*préfixe*” semantik boyituvchi vosita hisoblanadi. Masalan:

faire → *refaire* (yana qilmoq),

lire → *relire* (qayta o‘qimoq).

“*Flexion n.f.*”²⁵⁵ – fleksiya lotincha *flexio*, -*onis* (“egilish, burilish”) so‘zidan olingan bo‘lib, bu atama so‘zlarning grammatik kategoriyalarga (son, rod, shaxs, zamon va h.k.) mos holda shakl o‘zgarishini ifodalovchi morfologik jarayonni bildiradi. Lingvistik birlik sifatida “*flexion*” – “*procédé morphologique*” bo‘lib, termin orqali “*genre*” (rod), “*nombre*” (son), “*personne*” (shaxs), “*temps*” (zamon) kabi tushunchalar ifodalanadi. Masalan:

aller → *vais*, *va*, *allons* – bu shakllar bir fe‘lning zamon, son, va shaxsga ko‘ra o‘zgarishidir.

“*Flexion*” morfologik tizimda so‘z shakllarining sintaktik roli va kontekstga moslashuvini ta‘minlab, yuqoridagi birliklar so‘z yasashga ham asos bo‘ladi.

“*Dérivation n.f.*” – derivatsiya lotincha “*derivatio*, -*onis*” (asos *rivus* — “ariq, irmoq”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu atama mavjud leksik asosga affikslar qo‘shish orqali yangi so‘zlar hosil qilish jarayonini anglatuvchi morfologik hodisani ifodalaydi. Aytaylik, bu birliklar “*suffixation*” asosida hosil qilingan va derivatsion jarayon morfologik strukturaning kengayishini namoyon etadi.

²⁵⁴ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.815.

²⁵⁵ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.426.

Affiksatsiyadan farqli tarzda soʻz yasovchi atama “*composition* n.f.”²⁵⁶ – lotincha *compositio*, *-onis* (“birlashtirish, tuzish”) soʻzidan olingan boʻlib, lingvistik kontekstda bu atama yangi leksik birlikni hosil qiladi. Termin ikki yoki undan ortiq “*unités lexicales*” (leksik birliklar) yoki ilmiy ildizlar (fransuz, lotin yoki yunon tiliga oid morfemalar)ning birikmasi orqali shakllanadi.

Soʻz yasashning ushbu produktiv usuli semantik jihatdan yaxlit va sintaktik jihatdan mustaqil birliklar yaratishda rol oʻynaydi. Hosil boʻlgan murakkab birliklar til tizimida leksik boylikni kengaytirish, konseptual aniqlikni taʼminlash va tuygʻu yoki gʻoya ifodasini intensivlashtirish kabi funksiyalarga xizmat qiladi.

Masalan:

“*porte-monnaie*” (“hamyon”, *porter* + *monnaie*)


“*gratte-ciel*” (“osmonoʻpar bino”, *gratter* + *ciel*)

“*chef-lieu*” (“maʼmuriy markaz”, *chef* + *lieu*)

Bu kabi kompozitsion birliklar tarkibida qatnashuvchi komponentlar oʻz leksik qiymatini qisman yoki toʻliq saqlagan holda, yangi semantik birlik hosil qiladi.

4.4.2.-diagramma

Fransuz tilining morfologik tuzilmasiga oid asosiy terminlar va ularning tizimli munosabatlarini ifodalovchi diagramma



“Petit Larousse Illustré 2020” tasvirli lugʻatidagi sintaksisga oid terminlar fransuz tilidagi gap qurilishi, soʻzlar oʻrtasidagi sintaktik munosabatlar va ularning grammatik-funksional rolini aniqlashda ham, jumladan, “*syntaxe*”, “*phrase*”, “*mot*”, “*énoncé*” va “*discours*” kabi asosiy birliklar bilan birga, “*sujet*”, “*verbe*”, “*complément*”,

²⁵⁶ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.229-230.

“*préposition*”, “*conjonction*” kabi elementlar gapning tuzilmasi va mantiqiy bog‘liqligini yoritadi.

Sintaksisning nazariy asoslari va asosiy birlikga tegishli terminlarning izohli lug‘atda “*syntaxe n.f.*”²⁵⁷ – sintaksis yunoncha “*suntaksis*” (tartib) va quyi lotin tilidagi “*syntaxis*” so‘zlaridan olingan bo‘lib, bu atama so‘zlarning gap tarkibida qanday tartibda joylashishi va ularning o‘zaro grammatik munosabatlarini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limini bildiradi. Sintaksis atamasi lingvistik, mantiqiy va algoritmik (dasturlash) kontekstlarda ham qo‘llaniladi.

Sintaktik tizimning elementar birliklaridan biri “*mot n.m.*”²⁵⁸– so‘zi quyi lotin tilida “*muttum*” (g‘o‘ldirash, tovush chiqarish) so‘zidan olingan bo‘lib, bu atama fonetik va grafik jihatdan mustaqil bo‘lgan, ma’no ifodalovchi eng muhim lingvistik birlikni ifodalaydi. Izohli lug‘atga ko‘ra, “*mot*” (so‘z) sinonimik jihatdan “*terme*” (termin), “*vocable*” (so‘z birligi), “*parole*” (nutq bo‘lagi) kabi birliklar bilan bog‘liq bo‘lib, ma’no doirasiga ko‘ra esa “*boutade*” (hazil), “*pointe*” (keskin fikr), “*saillie*” (yorqin ibora), “*trait*” (ta’sirli so‘z) kabi stilistik vositalar bilan semantik yaqinlik kasb etadi.

“*Phrase n.f.*”²⁵⁹ – gap lotincha “*phrasis*”, yunoncha “*phrasis*” (ifoda) so‘zidan olingan bo‘lib, bu atama grammatik jihatdan tuzilgan va semantik jihatdan yakunlangan fikrni ifodalovchi asosiy sintaktik birlikni anglatib, ega va kesim asosida shakllanadi.

“*Discours n.m.*”²⁶⁰– nutq, quyi lotin tilidan o‘zlashgan “*discursus*” (yugurish, harakatlanish) hamda “*cours*” (oqim) leksemalarining ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, bu termin og‘zaki yoki yozma shakldagi mazmunli ifoda majmuasini anglatadi. Tilshunoslikda “*discours*” atamasi sossyuriy ma’nodagi “*parole*” (so‘zlashuv faoliyati) bilan bog‘liq bo‘lib, uni subyekt tomonidan amalga oshirilayotgan nutqiy faoliyat sifatida tavsiflaydi.

Lug‘aviy ma’noda “*discours*” rasmiy yoki marosim chiqishlar (masalan, “*discours de bienvenue*” – “xush kelibsiz nutqi”), shuningdek, biror nazariy qarash yoki mafkura asosidagi ifodalar (masalan, “*discours marxiste*”) sifatida ravshanlashadi.

Sinonimik jihatdan, kontekstga ko‘ra quyidagi birliklar bilan yaqinlik kasb etadi:

²⁵⁷ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.984.

²⁵⁸ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.664.

²⁵⁹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.773.

²⁶⁰ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.326.

rasmiy nutq ma'nosida: “*allocution*” (nutq), “*conférence*” (ma'ruza), “*exposé*” (taqdimot), “*harangue*” (olomon oldidagi nutq);

uzoq, odatiy nutq ma'nosida: “*causerie*” (suhbat), “*laius*”, “*topo*” (og'zaki izoh);

salbiy qiymatli kontekstda: “*bavardage*” (be'mani gap), “*palabre*” (asossiz tortishuv), “*parlote*” (bo'lar-bo'lmas gap), “*tartine*” (keraksiz uzun nutq).

Shu bois, “*discours*” lingvistik birlik sifatida semantik yaxlitlik, ijtimoiy kontekstga moslik va sintaktik ketma-ketlik mezonlariga asoslangan nutqiy struktura hisoblanadi.

Til birliklari orasida “*sujet* n.m.”²⁶¹ – ega – lotincha “*subjectus*” (quyilgan, bo'ysundirilgan) otidan, shuningdek, “*subjicere*” (ostiga qo'ymoq, bo'ysundirmoq) fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, bu atama ot va sifat sifatida biror narsaga bo'ysunuvchi, taalluqlilik yoki bog'liqlik holatni ifodalashda qo'llaniladi. Shuningdek, harakatni bajarayotgan subyekt sifatida muhim rol o'ynab, fe'l bilan grammatik bog'lanadi. “*Verbe* n.m.”²⁶² – fe'l harakat, holat yoki o'zgarish ma'nosini anglatadi va gapdagi boshqa birliklarni o'ziga bo'ysundiruvchi markaziy birlik hisoblanadi.

“*Nom* n.m.”²⁶³ lotin tilidan o'zlashgan “*nomen, -inis*” – nom, ism so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu atama tilshunoslikda mavjudotlar, tushunchalar, holatlar yoki narsalarni ifodalovchi asosiy so'z turkumi sifatida qaralib, “*sujet*”, “*complement*” yoki “*determinant*” vazifasini bajaradi.

Otlarga xos belgilarni ifodalash uchun “*adjectif* n.m.”²⁶⁴ – quyi lotin tilidan kirib kelgan “*adjectivum*” hamda yunoncha “*epithêton*” (“qo'shilgan, ilova qilingan”) so'zidan olingan bo'lib, bu atama “*substantif*” (ot) bilan birikib, belgi, sifat yoki aniqlik ifodalovchi birlik sifatida tilshunoslikda qo'llanadi. “*Adjectif qualificatif*” (belgi bildiruvchi sifat) mavjudot, narsa yoki tushunchaning xususiyatini ifodalasa, “*adjectif déterminatif*” (aniqlovchi sifat) otni nutqda aniqlash, kontekstga kiritish vazifasini bajaradi.

“*Adverbe* n.m.”²⁶⁵ – lotincha “*adverbium*” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, termin “*ad*” (“yonida, yaqin”) va “*verbum*” (fe'l) komponentlaridan tashkil topgan atama o'zgarmas lingvistik birlik

²⁶¹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.974.

²⁶² Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.1060.

²⁶³ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.691.

²⁶⁴ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.15.

²⁶⁵ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.17.

bo‘lib, “*verbe*” (fe‘l), “*adjective*” (sifat), boshqa “*adverbe*” (ravish) yoki ba’zida “*nom*” (ot)ning ma’nosini sifat, miqdor, daraja, tarz, sabab yoki shart nuqtayi nazaridan aniqlashtiradi; shuningdek, “*affirmation*” (tasdiq), “*negation*” (inkor) yoki “*interrogation*” (so‘roq) kabi modal funksiyalarni ham bajaradi.

Sintaktik aniqlik va qisqartmalarda ishtirok etuvchi birliklar sifatida gapdagi takrori kamaytirish, muvozanatni saqlash yoki aniqlik kiritish uchun boshqa turdagi birliklar qo‘llaniladi. Shu jihatdan, “*pronom n.m.*”²⁶⁶– lotincha “*pronomén, -inis*” (o‘rniga qo‘yilgan nom) so‘zidan olingan, atama tilshunoslikda “*nom*” (ot)ning o‘rnida qo‘llanadigan, referensial bog‘liqlikka ega bo‘lgan lingvistik birlikni bildiradi.

“*Déterminant n.m.*”²⁶⁷– aniqlovchi ot oldidan kelib, unga egalik, ko‘rsatkich yoki miqdor singari grammatik ma’lumotlarni yuklaydi. Bu birlik “*article n.m.*”²⁶⁸ – artikl shaklida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu termin lotincha “*articulus*” (bo‘g‘in, bo‘lak) so‘zidan shakl topgan “*artus*” (“bo‘g‘in”) leksemasining kichraytma shaklidir. Tilshunoslikda “*article*” otdan oldin kelib, uning aniqlik darajasini belgilovchi xizmatdosh birlik bo‘lib, otning ma’lum yoki noma’lum ekanligini bildirib, “*article défini*” (le, la) yoki “*indéfini*” (un, une) orqali otlarning aniq yoki umumiylikni ifodalaydi.

“*Interjection n.f.*”²⁶⁹– undov termini lotincha “*interjectio, -onis*” (oraga tashlash, so‘z orasiga kiritish) so‘z hamda “*interjicere*” (oraga qo‘ymoq, aralash-tirmoq) fe‘lidan olingan, mustaqil va o‘zgarmas lingvistik birlik, hissiy reaksiyalarni (hayrat, quvonch, g‘azab, og‘riq va boshqalar) ifodalash uchun ishlatiladi. “*Interjection*” odatda mustaqil gap shaklida kelib, boshqa sintaktik birliklarga grammatik jihatdan bog‘lanmaydi.

So‘z va gap birliklari o‘zaro bog‘lashda “*conjunction n.f.*”²⁷⁰– bog‘lovchi termini lotin tilidan “*conjunctio, -onis*” (“birlashtirish, qo‘shilish”) so‘zidan olingan bo‘lib, tilshunoslikda ikki so‘z yoki gapni o‘zaro grammatik bog‘laydigan o‘zgarmas birlik sifatida ta’riflanadi. “*Conjunction de coordination*” (bog‘lovchili bog‘lovchi) teng birliklarni (masalan, *et* – “va”, *mais* – “lekin”) bog‘lasa, “*conjunction de subordination*” (ergash bog‘lovchi) bir gapni boshqasiga ergashtiradi (masalan, *parce que* – “chunki”, *lorsque* – “qachonki”). Leksik-

²⁶⁶ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.827.

²⁶⁷ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.315.

²⁶⁸ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.69.

²⁶⁹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.546.

²⁷⁰ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.237.

paradigmatik nuqtayi nazardan, bu terminning sinonim sifatida “*conjugaison*” (fe’l qo‘shilishi), “*junction*” (tutashish), “*rencontre*” (uchrashish), “*reunion*” (birikish), “*union*” (uyg‘unlashuv) kabi birliklar bilan semantik yaqinlikka ega bo‘lib antonim sifatida “*disjunction*” (ajratish), “*dissociation*” (ajralish), “*division*” (bo‘linish), “*separation*” (ajratilish) birliklariga qarama-qarshi semantik qatorni tashkil etadi.

“*Coordination* n.f.”²⁷¹ – bog‘lovchilik, muvofiqlashtirish termini quyi lotin tili “*coordinatio, -onis*” (“muvofiqlashtirish, uyg‘unlashtirish”) so‘zidan olingan, tilshunoslikda, harakat yoki birliklar o‘rtasidagi muvofiqlikni bildiradi. Tilshunoslikda “*coordination*” gapdagi bir xil sintaktik maqomga ega birliklar (so‘zlar, iboralar yoki gaplar) o‘rtasidagi grammatik munosabatni anglatadi. “*Subordination* n.f.”²⁷² – ergashgan bog‘lovchi tilshunoslikda bu bir birlikning boshqasiga grammatik yoki semantik jihatdan qaram holda bog‘lanishini anglatadi. Masalan, ergash gap (*proposition subordonnée*) asosiy gapga (*proposition principale*) assimetriyali tarzda bog‘lanadi. Bunday bog‘lanish “*parce que*” chunki, “*si*” agar, “*lorsque*” qachonki kabi ergash bog‘lovchilar orqali yuzaga keladi. “*Subordination*” holati so‘zlar orasida ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, ot va unga grammatik jihatdan bo‘ysunuvchi sifat yoki aniqlovchi to‘ldiruvchi o‘rtasidagi munosabatlar ham “*subordination*” xarakteriga ega bo‘ladi. Shuningdek, “*préposition*” predloglar “*à*”, “*de*”, “*pour*” kabi shakllarda bir birlikni boshqasiga bog‘lab, ularning semantik aloqasini belgilaydi.

Gapning ma’nosini to‘ldirish uchun “*complement* n.m.”²⁷³ – to‘ldiruvchi lotincha “*complementum*”, “*complere*” – to‘ldirmoq, to‘liq qilmoq ma’nosida shakllanib, ushbu termin “*complément d’objet direct*”, “*indirect*” yoki “*circonstanciel*” (hol) shaklida ifodalanadi. Ayniqsa “*circonstanciel*” – vaqt, sabab, shart yoki joy kabi holatlarni ifodalovchi muhim sintaktik birlikdir.

“*Sémantique* n.m.”²⁷⁴ – semantika lotincha “*semanticus*”, yunoncha “*sêmantikos*” – ma’no bildiruvchi atama bo‘lib, so‘zlar, iboralar va gaplarning ma’nosini, ularning tildagi ma’no tizimini va qanday ma’no anglatishini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Ushbu atama tilshunoslikda ma’no bilan bog‘liq birliklarni o‘rganadigan muhim soha sifatida qaraladi. Birinchi navbatda, termin til birliklarining – so‘zlar,

²⁷¹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.248.

²⁷² Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris:2019. –971 –p.

²⁷³ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –228 –p.

²⁷⁴ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –929 –p.

iboralar, gap va matnning – semantik (ma’no) jihatini tahlil qiladi. Ikkinchidan, “*sémantique*” deduktiv mantiqdagi ifodaning rostlik yoki yolgʻonlik mezonlarini oʻrganadi. Uchinchidan, ushbu atama formal tizimlar – ya’ni mantiqiy formulalar va matematik modellar – bilan ishlashda bu formulalarning semantik interpretatsiyasini sintaktik munosabatlardan ajratib tahlil etadi.

“*Lexique* n.f.”²⁷⁵ – lugʻat / leksika til tizimidagi soʻzlar toʻplami yunoncha “*lexicon*”, “*lexis*” – “soʻz”dan tarkib topgan grammatik qoidalardan farqli ravishda, ma’no va shakl jihatidan oʻziga xos birliklardan iborat. “*Lexique*” koʻpincha maxsus sohalarga oid qisqa lugʻat shaklida tuziladi: “*lexique medical*” (tibbiyot lugʻati), yoki ikki tilni solishtiruvchi “*lexique bilingue*” (ikki tilli lugʻat)i kabi, shuningdek, “*lexique*” adabiy asar doirasida ham qoʻllanadi: “*Le lexique de Victor Hugo est riche et varié*” (Viktor Gyugoning leksikasi boy va xilma-xildir). “*Lexique*” tilning grammatika tizimiga qarama-qarshi holda, uni tashkil etuvchi muhim kodlar yigʻindisidir. Sinonim shaklida “*glossaire*” (izohli lugʻat) va “*vocabulaire*” (soʻz boyligi) atamaları qoʻllanadi.

“*Lexicologie* n.f.”²⁷⁶ – leksikologiya bu leksik birliklarning ichki tuzilishi, ularning shakllanishi, semantik oʻzgarishlari va nutq kontekstida boshqa til birliklari bilan oʻzaro munosabatlarini tahlil qiluvchi ilmiy soha hisoblanadi. “*Lexicologie*” tilshunoslikda nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun zamin yaratadi.

“*Lexicographie* n.f.”²⁷⁷ – lugʻatshunoslik amaliy sohaga oid boʻlib, soʻzlarni tanlash, taʼriflash, ularning izohlarini berish va misollar asosida tizimlashtirish jarayonini qamrab oladi. Ushbu fan “*lexicologie*” nazariyasiga tayanadi, biroq termin natijasida qoʻlga kiritilgan maʼlumotni amaliy shaklda, ya’ni lugʻat koʻrinishida taqdim etishni anglatadi.

“*Polysémie* n.f.”²⁷⁸ – lotincha “*polysemus*”, yunoncha “*polusēmos*” – (koʻp maʼnoli) koʻp maʼnolilik bir leksemaning bir nechta oʻzaro bogʻliq yoki farqli maʼnolarda qoʻllaniladi. Aytaylik, “*clé*” (kalit) soʻzi “*outil pour ouvrir une serrure*” (qulfni ochuvchi asbob) yoki “*élément de solution*” muammo yechimi kabi maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Bu holat umumiy qoʻllaniladigan soʻzlarda keng tarqalgan boʻlib,

²⁷⁵ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.586.

²⁷⁶ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.586.

²⁷⁷ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.586.

²⁷⁸ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.799.

leksikaning dinamikasini ifodalaydi. Ilmiy-texnik sohalarda, aksincha, “*monosémie*” – bir ma’ nolilik ustuvor bo’ladi.

“*Synonymie n.f.*”²⁷⁹ – sinonimiya lotincha “*synonymia*”, yunoncha “*sunônumia*” – “bir xil nomlilik” mazmuni bir-biriga yaqin yoki bir xil bo’lgan so’zlar orasidagi semantik munosabatni anglatadi. Sinonimiya matndagi uslubiy boylikni oshiradi va takroriylikni kamaytiradi: “*joie*”, “*bonheur*” va “*allégresse*” – barchasi quvonch holatini bildiradi, ammo uslubiy yoki kontekstual jihatdan farqlanadi.

“*Antonymie n.f.*”²⁸⁰ – antonimiya ma’nosi jihatidan qarama-qarshi bo’lgan leksemalar orasidagi semantik bog’lanishdir. Masalan: “*chaud*” (issiq) va “*froid*” (sovuq), yoki “*vrai*” (rost) va “*faux*” (yolg’on). Bu hodisalar qarama-qarshilik asosidagi kategoriyalarning leksik sistemadagi rolini anglatadi.

“*Homonymie n.f.*”²⁸¹ – omonim lotincha “*homonumia*”, yunoncha “*homônumia*” – “bir xil nomlilik” talaffuzi yoki yozilishi bir xil, ammo ma’nosi har xil bo’lgan so’zlar bilan bog’liq hodisadir. Masalan, “*ver*” (qurt), “*verre*” (oyna), “*vert*” (yashil) – bu uchala so’z talaffuzda bir xil, lekin ma’nosi farqlidir. Omonimiya ko’pincha sheva, matn konteksti yoki nutq ohangi orqali ajratiladi.

“*Néologisme n.m.*”²⁸² – yangi so’z, neologizm yaqinda yaratilgan, yangi ma’no yuklangan yoki boshqa tillardan olingan so’zlar. Masalan, “*télétravail*” (masofadan ishlash), “*infox*” (soxta axborot) – zamonaviy ehtiyojlar natijasida shakllangan “*néologisme*” hisoblanadi. Shu jihatdan, “*archaïsme n.m.*”²⁸³ – eskirgan so’z, lotincha “*archaïsmos*”, yunoncha “*arkhaïsmos*”, “*arkhaios*” – “qadimgi” arxaizm – til tizimida eskirgan, zamonaviy nutqda faol ishlatilmaydigan, tarixiy qatlamga mansub birliklar. Masalan: “*moult*” (ko’p) o’rniga hozir “*beaucoup*” “*roy*” o’rniga “*roi*” ishlatiladi. Adabiyotshunoslikda “*archaïsme*” uslubiy maqsadda, tarixiy atmosfera yaratish uchun qo’llanib, ushbu atama “*néologisme*”ga qarama-qarshi turadi.

“*Étymologie n.f.*”²⁸⁴ – etimologiya lotincha “*etymologia*”, yunoncha “*etumologia*”, “*etumos*” – “haqiqiy, asl so’zlarning kelib chiqishi, tarixiy ildizi va semantik taraqqiyoti bilan shug’ullanuvchi fan sohasi sanaladi. Masalan: “*école*” (maktab) so’zi yunoncha “*skholè*” (bo’sh

²⁷⁹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.984.

²⁸⁰ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.53.

²⁸¹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.506.

²⁸² Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.685.

²⁸³ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.62.

²⁸⁴ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.393.

vaqt) soʻzidan kelib chiqqan. Etimologik tahlil til tarixini oʻrganish va til oʻzgarishlarini anglashda muhim manbadir.

“*Grammaire* n.f.”²⁸⁵ – grammatika lotincha “grammatical”, yunoncha “*grammatikê*”, “grammatikos” – “oʻqish yoki yozish sanʼatiga oid” yozma va ogʻzaki til normalarini belgilovchi va nazorat qiluvchi qoidalar majmuasi boʻlib, tildan grammatik jihatdan toʻgʻri foydalanishni taʼminlaydi. Bu kategoriya tilning strukturaviy elementlarini (ot, feʼl, sifat, bogʻlovchi, artikl va boshqalar) toʻgʻri qoʻllanishi va ularning tizimli tartibda ishlatilishini oʻrgatadi. Masalan, “*Exercice de grammaire*” - grammatika mashqi degan ibora til birikmalarini grammatik meʼyor asosida qoʻllashga doir mashqlarni anglatadi va h.k.

“*Cas* n.m.”²⁸⁶ – kelishik ot va olmoshlarning gapdagi boshqa birliklarga nisbatan grammatik munosabatini bildiruvchi morfologik kategoriya sifatida lotincha “*casus*” qulash, keyinchalik tasodif maʼnosida, “*cadere*” qulamoq feʼlidan shakllangan. Fransuz tilida “*cas*” asosan predlog orqali ifodalanib, “*à Marie*” (Mariga), “*de l’homme*” (odamning) bu grammatik hodisa til birliklarining rolini (ega, toʻldiruvchi, hol va b.) aniqlashtirishda xizmat qiladi. Boshqa kontekstlarda “*cas*” “holat”, “voqea”, “sharoit” kabi maʼnolarda qoʻllanadi: *En cas de pluie, prenez un parapluie* (Yomgʻir boʻlsa, soyabon oling).

“*Genre* n.m.”²⁸⁷ – rod, grammatik jins otlarning grammatik tasnifi sanalgan termin lotincha “*genus, -eris*” tur, nasl, xil mazmunidan hosil boʻlib, tilga xos morfologik va semantik xususiyatlar asosida *masculin* (mujskoy rod) va *féminin* (jenskoy rod) shakllarida ifodalanadi. Masalan: *le livre* (kitob – mujskoy rod), *la table* (stol – jenskiy rod). “*Genre grammatical*” (grammatik jins) soʻzlarning tildagi formal belgilariga asoslanadi, “*genre naturel*” (tabiiy jins) maʼno asosidagi jinsni bildiradi (masalan: *homme* – erkak, *femme* – ayol). Bu kategoriya artikl, sifat va olmoshlarning ot bilan uygʻunlashishida muhim rol oʻynaydi.

“*Nombre* n.m.”²⁸⁸ – son: birlik/koʻplik) soʻzlarning birligi (*singulier*) yoki koʻpligi (*pluriel*) shaklida ifodalanishini belgilovchi grammatika kategoriya lotincha “*numerus*” umumiy son yoki miqdorni bildiruvchi birlik sifatida, kontekstga qarab “*chiffre*” (raqam), “*effectif*”

²⁸⁵ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.477.

²⁸⁶ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.166.

²⁸⁷ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.462.

²⁸⁸ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.691-692.

(umumiy son / tarkib), yoki “*quantité*” (miqdor) kabi sinonimik birliklar bilan almashib qo‘llaniladi. Bu kategoriya gapdagi birliklar soniga oid ma’lumotni taqdim etadi: “*l’enfant*” (bola – yakkalik), “*les enfants*” (bolalar – ko‘plik). Ba’zi tillarda “*duel*” (ikkilik) shakli ham mavjud.

“*Personne n.f.*”²⁸⁹–shaxs termini lotincha “*persona*” teatr niqobi mazmunidan shakllangan bo‘lib fe‘lning qaysi shaxs tomonidan bajarilayotganini bildiruvchi grammatika kategoriya uchta asosiy shaxsga bo‘linadi: “*première personne*” (birinchi shaxs – *je* – men), “*deuxième personne*” (ikkinchi shaxs – *tu* – sen), “*troisième personne*” (uchinchi shaxs – *il/elle* – u). Fe‘lning zamon va maylga mos shakllari shaxsga qarab o‘zgaradi: “*Je parle*” (Men gapiryapman), “*Tu parles*” (Sen gapiryapsan), “*Il parle*” (U gapiryapti). Shuningdek, kategoriya tilshunoslikda kommunikativ ishtirokchilarni aniqlashda asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi.

“*Temps n.m.*”²⁹⁰ – lotincha “*tempus*” zamon harakatning vaqt bo‘yicha joylashuvini bildiruvchi grammatik termin bo‘lib, fransuz tilida quyidagi zamonlar asosiy hisoblanadi: “*present*” (hozirgi zamon), “*imparfait*” (noaniq o‘tgan zamon), “*passé composé*” (murakkab o‘tgan zamon), *futur simple* (kelasi zamon). Misollar: *Je mange* (Men yeyapman), “*J’ai mangé*” (Men yedim), “*Je mangerai*” (Men yeyman). “*Temps*” termini so‘zi vaqtning o‘lchovi, davomiyligi, bosqichi yoki davri kabi ma’nolarda qo‘llanilib, kontekstga qarab “*délai*”, “*durée*”, “*moment*”, “*époque*”, “*saison*”, “*étape*”, “*quantité*” kabi leksemalar bilan sinonimik qatorni hosil qiladi.

“*Aspect n.m.*”²⁹¹ – lotincha “*aspectus*” qarash, ko‘rinish aspekt, harakat holati fe‘l bildirayotgan harakatning qanday davom etayotganini, tugallangan-tugallanmaganligini yoki boshlangan-boshlanmaganligini ifodalovchi termindir. Fransuz tilida bu hodisa aniq grammatika birliklari orqali emas, balki kontekst va zamon shakllari orqali ifodalanadi. Masalan: “*Il écrivait une lettre*” (U xat yozayotgan edi – davomli aspekt), “*Il a écrit une lettre*” (U xat yozdi – tugallangan aspekt). Aspekt nutqdagi voqelikning vaqt ichida qanday ko‘rinishda tasvirlanayotganini belgilab, kontekstga qarab “*air*”, “*allure*”, “*apparence*”, “*dehors*” (tashqi ko‘rinish) hamda “*angle*”, “*côté*”, “*point de vue*”, “*perspective*”, “*vue*” kabi qarash va tahlil burchaklarini bildiruvchi sinonimlar bilan ma’nodosh tarzda qo‘llaniladi.

²⁸⁹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.764.

²⁹⁰ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.999-1000.

²⁹¹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.71.

“*Voix n.f.*”²⁹² – lotincha “*vox*”, “*vocis*” ovoz, so‘zlash atalgan nisbat ko‘rsatkichi sanalgan termin fe‘l va gapdagi ishtirokchilar (ega va to‘ldiruvchi) o‘rtasidagi grammatik va semantik munosabatni belgilash vazifasini bajaradi. Uch asosiy turi farqlanadi: “*voix active*” (aniq nisbat) – subyekt harakatni bajaradi: “*Le chat mange la souris*” (Mushuk sichqonni yeydi); *voix passive* (majhul nisbat) – subyekt harakatni boshidan kechiradi: *La souris est mangée par le chat* (Sichqon mushuk tomonidan yeyilmoqda); “*voix pronominale*” o‘zlik nisbati subyekt va obyekt bir shaxs bo‘ladi: *La chatte se lave* (Mushuk o‘zini yuvmoqda). “*Voix*” nisbat fe‘lning semantik yo‘nalishini va gapdagi rolini tushunishda muhim rol o‘ynashi izohli lug‘atda ta’kidlangan.

Sotsiolingvistik va psixolingvistik terminlar guruhiga kiruvchi “*sociolinguistique n.f.*”²⁹³ – ijtimoiy tilshunoslik tilning ijtimoiy o‘zgaruvchanligini o‘rganuvchi fan sohasidir. Atama shaxslarning ijtimoiy mavqei, yoshi, jinsi, ta’lim darajasi, kasbi, yashash joyi kabi omillarning tilga va uni ishlatish uslubiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi. Masalan, bir jamoada yoshlar va keksalar o‘rtasidagi til tafovutlari yoki erkak va ayollar tilida kuzatiladigan farqlar “*sociolinguistique*” doirasiga kiradi.

Shuningdek, “*psycholinguistique n.f.*”²⁹⁴ – psixolingvistika inson ongidagi kognitiv faoliyat bilan til o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Bu soha nutqning yaratilishi, eshitilishi, tushunilishi va psixik jarayonlar bilan bog‘liqligini ilmiy asosda tahlil qiladi. Masalan, bolalarda tilni o‘zlashtirish bosqichlari yoki til buzilishlarining psixologik sabablari “*psycholinguistique*” tadqiqotining asosiy obyekti hisoblanadi.

“*Neurolinguistique n.f.*”²⁹⁵ – neyrotilshunoslik til va miya faoliyatining o‘zaro aloqadorligini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalishdir. Bu fan til buzilishlarining (afaziya, disleksiya) miya bilan bog‘liq sabablari, so‘z yodlash, grammatik ishlov berish va fonetik qabul qilishni o‘rganadi.

“*Dialecte n.m.*”²⁹⁶ – lahja muayyan geografik hududda shakllangan va fonetik, grammatik, semantik xususiyatlar jihatidan umumiy til tizimidan farq qiluvchi tarmoqdir. Masalan, Fransiyaning Elzas hududida “*alsacien*”, janubida “*Occitan*”, g‘arbida “*Breton*” kabi

²⁹² Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.1076.

²⁹³ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.947.

²⁹⁴ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.832.

²⁹⁵ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.687.

²⁹⁶ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.318.

“*dialecte*”lar mavjud. “*Dialecte*”lar ko‘pincha “*parler*” (nutq uslubi) yoki “*idiome*” (mahalliy til shakli) sinonimlari bilan qo‘llaniladi.

“*Idiolecte* n.m.”²⁹⁷ – idiolekt tilning har bir individual foydalanuvchiga xos bo‘lgan maxsus shaklidir. Bu til foydalanuvchisining so‘z tanlovi, talaffuzi, gap qurilishi, grammatik shakllardan foydalanish uslubidagi o‘ziga xosligini bildiradi.

“*Diglossie* n.f.”²⁹⁸– diglossiya bir jamoada ikki til yoki til varianti mavjud bo‘lib, ulardan biri yuqori maqomda, ikkinchisi ijtimoiy jihatdan pastroq maqomda bo‘lgan til holatidir. Masalan, Elzaslik bir shaxs oilada “*dialecte alsacien*”da gapirsa, ish joyida “*français standard*”dan foydalanadi.

“*Bilinguisme* n.m.”²⁹⁹– ikki biror shaxs yoki jamiyatda ikki tilning erkin va faol ishlatilishidir. Bu ikki tillilik shaxsiy (*individuel*) yoki ijtimoiy (*collectif*) bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda mazkur faslda “Petit Larousse Illustré 2020” tasvirli lug‘atidagi fonetik-fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va sotsiolingvistik birliklarning izchil tahlili asosida fransuz tilining lingvistik tizimi murakkab, ammo yaxlit va izchil struktura sifatida namoyon bo‘ldi. Har bir terminning kelib chiqishi, semantik yuki, paradigmatic aloqalari va funksional xususiyatlari tahlil etilgan holda, ularning lug‘atdagi ifoda shakllari aniqlashtirildi.

Fonetika va fonologiya bo‘yicha birliklar tovushlarning tizimli tashkil topishi va nutqdagi funksiyalarini yoritgan bo‘lsa, morfologik birliklar so‘z yasash, grammatik o‘zgarish va semantik o‘zgaruvchanlik mexanizmlarini ochib berdi. Sintaksis terminlari esa so‘z va gaplar o‘rtasidagi grammatik munosabatlar, gap tuzilishi va nutqdagi mantiqiy izchillikni ifodalashda muhim vosita sifatida qaralgan. Shuningdek, semantik birliklar orqali leksik tizimdagi sinonimiya, antonimiya, polisemik va omonimik hodisalar aniqlashtirildi.

Sotsiolingvistik va psixolingvistik birliklar til va jamiyat, til va ong o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib bergan bo‘lib, lug‘at terminlarining faqat ta’rif beruvchi emas, balki konseptual model yaratuvchi manba sifatida ham qaralishiga zamin yaratdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

²⁹⁷ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.518.

²⁹⁸ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: 2019. –p.322.


²⁹⁹ Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris:2019.–p.116.

4.4. “Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘atida til va adabiyotshunoslik terminlarning sinonimik paradigmasi

“*Le Grand Robert de la Langue Française*” (2001) – fransuz tilining eng nufuzli va chuqur tahlilga asoslangan 6 jildlik Ensiklopedik lug‘ati bo‘lib, u mashhur fransuz leksikografi Pol Rober (Paul Robert) (1910–1980) tashabbusi bilan yaratilgan va uning lug‘atchilik an‘analarini davom ettiruvchi “*Dictionnaires Le Robert*” nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Ushbu lug‘atning ilk shakli – “*Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française*” – 1950–60-yillarda P.Rober boshchiligida ishlab chiqilgan bo‘lib, keyinchalik tilshunoslar, grammatiklar, stilistlar guruhi ishtirokida kengaytirilib, XXI-asrning zamonaviy tahliliy yondashuvlariga mos ravishda 2001-yilda yangi tahrirda chop etilgan. Lug‘at fransuz tilining semantik tarmoq asosida bog‘langan sinonimik, etimologik hamda stilistik tizimini mukammal aks ettiradi va adabiyotshunoslik, ilmiy nutqida qo‘llaniladigan terminlar, iboralar, kontekstual izohlar bilan boyitilgan.

“Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘atining til va adabiyotshunoslikga oid terminlari sinonimik paradigmasi asosida tahlil qilingan bo‘lib, ushbu tahlil semantik-paradigmatik, stilistik-funksional va genealogik-etimologik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Paradigmatik tahlil mezonlariga ko‘ra, har bir asosiy (dominant) termin – masalan, “*langue n.f.*”, “*texte n.m.*”, “*mot n.m.*”, “*métaphore n.f.*”, “*poésie n.f.*” – o‘z atrofida semantik yaqinlik, stilistik maqom va qo‘llanish kontekstlari asosida bog‘langan sinonimlar paradigmasini tashkil qiladi. Har bir birlik paradigmadagi o‘zaro semantik tafovut, stilistik registr, kognitiv yadro, nutqiy maqom va diskursiv-funksional rolga ega bo‘lishi bilan farqlanadi. Bu tahlillar paradigmatik tizimlarda leksik birliklarning o‘zaro munosabatini chuqur anglashga xizmat qiluvchi tasniflash yondashuvlariga asoslanib, tilshunoslikda morfologik, leksik, semantik, stilistik va diskursiv paradigmalarning birlashgan integrativ jihatlariga ko‘ra o‘rganildi.

Lingvistik birliklar paradigmasi: langue, dialecte, parler, idiom



“Le Grand Robert de la Langue Française” lugʻatida “*langue*” termini tilshunoslik nuqtai nazaridan ijtimoiy jamoaga xos boʻlgan ifoda va muloqot tizimi sifatida tavsiflanadi; bu jihatdan termin “*idiom*”, “*dialecte*” va “*parler*” kabi atamalarga sinonim boʻlib, Sossyur tomonidan ilgari surilgan strukturaviy yondashuv bilan bogʻlanadi. Lugʻatda “*individual nutq*” (*parole*)ga qarama-qarshi qoʻyilgan boʻlib, umumiy, ijtimoiy va abstrakt tizim sifatida koʻriladi; termin qoidalar va birliklar (*fonetik, morfologik, sintaktik, semantik*) majmuasidan iborat va aynan “*linguistique*” fanining tadqiqot obyektidir³⁰⁰. Lugʻatda “*langue maternelle*” (ona tili), “*langue morte*” (oʻlik til), “*langue vivante*” (tirik til) kabi turlari, shuningdek, “*langue de bois*” iborasi orqali siyosiy stereotip va andozaviy nutq namunalari ham ajratib koʻrsatilib, “*langue*” nafaqat kommunikativ vosita, balki ijtimoiy-kognitiv va ideologik tizim sifatida ham talqin qilinishi keltirilgan.

Paradigmatik qatorda sinonim sifatida berilgan “*dialecte*” atamasi mazkur lugʻatda quyidagicha talqin etiladi: bu – maʼlum tilning hududiy (*parler régional*) yoki tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan variantidir. Misol sifatida “*dialecte normand*”, “*dialectes d’oc*”, “*dialectes d’oil*” kabi tarmoqlar keltirilgan boʻlib, ular tilning joylashuvga bogʻliq shakllari hamda tarixiy bosqichlarini ifodalaydi. Ushbu taʼrif “*dialecte*” tushunchasini nafaqat sinxron (yaʼni bir davrdagi hududiy shakl), balki diaxron (yaʼni tarixiy rivojlanish jarayoni) nuqtai

³⁰⁰ P.Robert.Le Grand Robert de la Langue Française.-Paris:2001.-p.652.

nazaridan ham izohlaydi³⁰¹. Dialekt ta'rifida sheva darajasidagi oddiy og'zaki variant emas, balki grammatik va fonetik tizimga ega, mustaqil til shakli sifatida baholanadi. Shu bilan birga, u ko'pincha sotsiolingvistik jihatdan "standart til"dan quyi maqomda qaraladi, ya'ni rasmiylik va ijtimoiy obro' nuqtai nazaridan cheklangandir. *Dialecte* – bu tilning joy va vaqt bo'yicha shakllangan alternativ ko'rinishi bo'lib, til tizimlarining tarixiy o'zgarishlari va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarini anglashda muhim kategoriya, lingvistik xilma-xillikni ilmiy jihatdan tasniflashda asosiy termin sanaladi.

"Le Grand Robert de la Langue Française" (2001) lug'atida "*parler*" atamasi tilshunoslik nuqtai nazaridan muayyan hududiy yoki ijtimoiy guruhga xos bo'lgan nutq shakli sifatida ta'riflanadi (masalan, *parler régional, parler populaire*) va termin "*dialecte*" hamda "*idiome*" bilan semantik jihatdan uyg'un tushuncha sifatida berilgan³⁰². Ushbu atama Sosyurning "*parole*" (individual nutq) konsepsiyasiga yaqin bo'lishi bilan birga, lug'atda ayniqsa sotsiolingvistik va dialektologik tasnif nuqtai nazaridan muhim birlik sifatida ko'rsatilgan. "*Parler*" umumiy til (*langue*)dan farqli o'laroq, ko'proq *jonli, og'zaki, lokal* va *norasmiy* nutq variantlarini bildiradi hamda atama "*parler enfantin*", "*parler paysan*" kabi kontekstlarda turli ijtimoiy qatlamlarning uslubiy til shakllarini anglatadi. Shunday qilib, "*parler*" bu nafaqat "gapirish" akti, balki individual va guruh til amaliyotini shakllantiruvchi vosita sanaladi.

"*Idiome*" atamasi "*Le Grand Robert de la Langue Française*" lug'atida biror til jamoasiga xos ifoda vositalari majmui sifatida ta'riflanadi. Yunoncha "*idiôma*" ("xos nutq") so'zidan kelib chiqqan bu termin muayyan ijtimoiy yoki madaniy guruhga oid til shaklini bildiradi³⁰³. Atama "*dialecte*" va "*parler*" bilan semantik yaqinlikka ega bo'lsa-da, ko'pincha o'ziga xos kommunikativ va sotsiolingvistik tizim sifatida mustaqil til maqomini oladi. "*Idiome*", *étranger*" shaklida u boshqa millat tilini anglatuvchi neytral atama sifatida ishlatiladi. Sosyur nazariyasida "*idiome*" atamasi "*langue*" bilan yaqin, biroq termin tilning konkret ifoda tizimi, ya'ni madaniy, tarixiy va uslubiy kontekstlarda farqlanadigan birlik sifatida talqin qilinadi.

Sinonimik birliklarning paradigmatic va stilistik tafovutlari nafaqat "til" maydonida, balki "matn va nutq" terminologiyasida ham aniq

³⁰¹ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.322.


³⁰² P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.813.

³⁰³ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.577.

ko‘zga tashlanadi. “Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘atida “*texte* n.m.”, “*discours* n.m.”, “*parole* n.f.”, “*énoncé* n.m.” terminlari semantik yaqinligiga qaramay, ularning genealogik manbasi, stilistik reestri va nutqiy maqomi orqali qat’iy farqlanadi. Bu tafovutlar sinonimiyani kontekstual va funksional asosda talqin etishga imkon beradi.

4.4.2.-rasm.

“Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘atida “*texte*” konsepti atrofida shakllangan lingvistik-paradigmatik model: discours, parole va énoncé birliklari



“*Texte*” atamasi izohli lug‘atda ko‘p ma’noli konsept sifatida keltirilgan bo‘lsa-da, tilshunoslik nuqtai nazaridan u, avvalo, yozma nutqning lingvistik obyekti sifatida so‘z, ibora va gaplardan tashkil topgan mazmunli, tarkibiy yaxlitlikka ega birlik deb talqin etiladi. Termin “*texte manuscrit*” yoki “*texte imprimé*” shaklida moddiy ko‘rinishda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, mazmun va ifoda jihatdan strukturalashgan, tugal birlik sifatida ajralib turadi³⁰⁴. Matnning o‘z muallifidan mustaqilligi, xususan, Mallarme, Bart va Derrida kabi nazariyotchilar ta’kidlaganidek post-strukturalistik yondashuvda uning muallifdan ajralgan, o‘z-o‘zini ifodalovchi va o‘quvchi bilan yangi

³⁰⁴ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.1106.

ma'no kontekstini yaratadigan subyektiv emas, balki obyektiv struktura ekanligini asoslaydi.

“*Discours*” atamasi mazkur lug‘atida tilshunoslik nuqtai nazaridan “*langue*” ya’ni abstrakt va tizimli til tuzilmasiga qarama-qarshi ravishda real, kontekstda yuzaga kelgan yozma yoki og‘zaki nutqiy birliklar majmui sifatida ta’riflanadi. Bu jihatdan u Sosyurning “*parole*” tushunchasi bilan semantik yaqinlikda tursa-da, “*discours*” kengroq tahliliy maydonni strukturaviy, pragmatik, ijtimoiy va semantik jihatlarni ham o‘z ichiga oladi³⁰⁵. Tilshunoslik, nutq nazariyasi va matnshunoslik doirasida atama kommunikativ akt sifatida o‘rganiladi, ya’ni ma’lum muhitda, aniq maqsad va auditoriyaga qaratilgan, gapiruvchining pozitsiyasi va uslubini aks ettiruvchi ifoda shaklidir. Lug‘atda keltirilgan “*discours direct*” va “*discours indirect*” kabi iboralar esa nutqning formal va grammatik ko‘rinishlaridagi farqlarni anglatib, kommunikativ niyat va uslubga bog‘liq differentsiallikni ko‘rsatadi.

Matn va nutq paradigmasidagi “*parole*” atamasi izohli lug‘atda tilshunoslik nuqtai nazaridan til orqali fikrni artikulyatsiyalangan tovushlar vositasida ifodalash amaliyoti sifatida ifodalanadi va termin Sosyur til nazariyasidagi “*langue*” (umumiy va ijtimoiy til tizimi)ga qarshi qo‘yilgan, individual hamda kontekstual nutqiy faoliyatni anglatadi. Bu jihatdan “*parole*” real kommunikatsiya jarayoni, gapiruvchining til vositalarini faol va ijodiy qo‘llash akti bo‘lib, u diskursiv va stilistik tahlil uchun zarur manba hisoblanadi³⁰⁶. Lug‘atdagi ta’rifda ushbu birlikning subyektiv, betartib, o‘zgaruvchan xususiyati ta’kidlanar ekan, termin tilning dinamik, faoliyat ko‘rinishini ifodalab, nutqshunoslik, pragmatik va sotsiolingvistik doirasida keng qo‘llaniladigan fundamental kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

“*Énoncé*” atamasi tilshunoslik nuqtai nazaridan “*énonciation*” (nutq akti) natijasida hosil bo‘lgan og‘zaki yoki yozma “*discours*” segmenti sifatida talqin qilinadi. Termin til birliklarining real kontekstda ifodalanish shakli bo‘lib, strukturaviy va pragmatik tahlil uchun muhim birlik hisoblanadi³⁰⁷. “*Énoncé*” gapiruvchining fikrini tugal shaklda yetkazuvchi nutq birligi bo‘lib, unda sintaktik tartib, semantik mazmun va pragmatik ko‘rsatkichlar (subyektivlik, zamon, modallik) mujassam bo‘ladi. Ushbu birlik “*discours*”, “*parole*” va “*texte*” kabi kategoriyalar

³⁰⁵ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.330.

³⁰⁶ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.814.

³⁰⁷ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.391.


bilan paradigmatic bog‘liq bo‘lib, ayni paytda matnshunoslik va kommunikativ tilshunoslik doirasida minimal ifoda sifatida qaraladi.

Mazkur terminlar sinonimik tizimda o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ularning konkret qo‘llanilish sohasi, kontekstual vazifasi va stilistik maqomi ularni ierarxik, funksional jihatdan farq qiladi. Sinonimlik bu yerda faqat semantik yaqinlik emas, balki stilistik-funksional tafovutlar orqali shakllanadi.

Xuddi shu asosda “*mot*” semantik maydonida ham kuzatiladi. “*Le Grand Robert*” lug‘atida “*mot n.m*”, “*lexique n.m.*”, “*vocabulaire n.m.*” va “*terme n.m.*” terminlari bir-biriga semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ular stilistik reestri, paradigmatic maqomi, qo‘llanilish sohasi bo‘yicha farqlanadi.

4.5.3.-rasm.

“Mot” atamasining leksik-semantik va terminologik paradigmatic tarmoqlanishi



“*Mot*” (lot. *mutum*, *mutire* – “so‘zlamog‘”) termini “*Le Grand Robert de la Langue Française*” lug‘atida fonetik-grafemik birlik sifatida emas, balki keng qamrovli stilistik, semantik va pragmatik struktura tarzida yoritiladi. Uning asosiy shakllari – *mot nouveau*, *courant*, *rare* – leksik birliklarning chastotaviy, funksional va ijtimoiy registrlaridagi tafovutlarini ko‘rsatadi, “*mot grossier*” yoki “*mot de Cambronne*” tilning tabu va evfemistik qatlamlariga mansub bo‘lib, “*familière*” va “*argotique*” kontekstlarda yuzaga chiqadi. “*Mot à mot*” kabi strukturalar orqali literal tarjima fenomeni, “*donner le mot*” yoki “*demi-mot*” orqali diskursiv va kontekstual implikatsiyalar ifodalanadi³⁰⁸. Shuningdek, “*mot-clé*” konsepti matnning semantik yadrosini belgilasa, “*mot d’auteur*”, “*mot d’enfant*” yoki “*mot d’esprit*” birliklari stilistik-individual mazmunga ega bo‘lib, aforizmik yoki estetik yuklama bilan ajralib turadi. Sinonimik paradigmada bu birliklar “*terme central*”, “*noyau sémantique*”, “*pivot lexical*” kabi variantlarda namoyon bo‘ladi.

³⁰⁸ P.Robert. *Le Grand Robert de la Langue Française*. –Paris. 2001.–p.743.

Fransuz shoiri, esseist S.Mallarme (Mallarmé) hamda tarixchi, adabiyotshunos M.Fuko (Foucault) asarlaridagi “*Le sens des mots*” va “*Le mot et les choses*” misollarida “mot” tushunchasi kognitiv-konseptual refleksiya, ya’ni til orqali ong va tafakkurni anglatuvchi markaziy nazariy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

“*Lexique*” (yun. *lexikon [biblion]* – “so‘zlar kitobi”, “*lexis*” – “nutq, so‘z”, “*legein*” – “yig‘moq, aytmoq”) termini “Le Grand Robert” lug‘atida ikki asosiy semantik yo‘nalishda talqin qilinadi: bir tomondan, u muayyan soha, fan yoki san‘atga oid qisqacha tartiblangan lug‘at (masalan, ikki tilli yoki terminologik so‘zlik) sifatida “*vocabulaire*” atamasi bilan sinonim sifatida beriladi; ikkinchi tomondan esa, u butun bir tilda mavjud bo‘lgan barcha leksik birliklarning yig‘indisini, ya’ni umumiy so‘z boyligini anglatadi (*Le lexique du français*)³⁰⁹. Shu bilan birga, “*lexique*” individual yoki ijtimoiy leksik repertuarni, ya’ni bir shaxs yoki guruhga xos bo‘lgan til resurslarini ifodalashda ham qo‘llaniladi (*Le lexique d’un écrivain*). Ilmiy nuqtai nazardan, bu atama metalingvistik kontekstda – ya’ni normativ-deskriptiv funksiya bajaruvchi lug‘atlar doirasida – va leksik tizim sifatida – tilning semantik dinamikasi, stilistik identiteti va kognitiv resurslarini ifodalovchi qatlamda – keng qo‘llaniladi. Sinonimik paradigma doirasida esa “*lexique*” atamasi “*vocabulaire*” bilan ma’nodosh paradigmatic qatorda berilgan.

“*Vocabulaire*” (lot. *vocabulum* – “so‘z, nutq”) atamasi “Le Grand Robert” lug‘atida leksik tizimni ifodalovchi ko‘p qirrali va semantik jihatdan boy tushuncha sifatida izohlanadi. Termin uch asosiy ma’noda qo‘llaniladi: birinchidan, qisqacha yoki ixtisoslashgan lug‘atni, ya’ni muayyan fan yoki mavzuga oid so‘zlar to‘plamini bildiradi (*vocabulaire français-anglais*); ikkinchidan, til yoki matnga oid mavjud leksik birliklar majmuasini anglatadi (*avoir un vocabulaire pauvre, réduit; enrichir son vocabulaire*), bu holatda termin “*lexique*” bilan sinonimdir; uchinchidan esa, “*vocabulaire*” maxsus sohalarga xos terminlar tizimini ifodalab, “*terminologie*” bilan semantik yaqinlikda qo‘llaniladi (*vocabulaire juridique, technique*)³¹⁰.

Ilmiy jihatdan ushbu atama universal (umumtil birliklari), individual (shaxsiy so‘z boyligi) va ixtisoslashgan (sohaga oid terminlar) leksik qatlamlarni o‘zida mujassam etadi. Atama sinonimik paradigmada “*lexique*” va “*terminologie*” bilan kesishsa-da, asosiy diqqatni kognitiv

³⁰⁹ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris. 2001.–p.661.

³¹⁰ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris. 2001. –p.1182-1183.

resurslar, uslubiy daraja va ekspressiv salohiyatga qaratadi. Ayniqsa, “*vocabulaire réduit*” yoki “*enrichir son vocabulaire*” kabi ifodalarda til egasining nutqiy imkoniyatlari baholanadi. Adabiyotshunoslik kontekstdagi “*vocabulaire*” esa yozuvchining stilistik ovozi, estetik tafakkuri va leksikaviy jihatlarini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichga aylanadi. Shu bois, “*vocabulaire*” atamasi tilshunoslikda leksik dinamikani, adabiyotshunoslikda esa uslubiy-estetik tuzilmani anglatuvchi markaziy kategoriya hisoblanadi.

Fransuz tilidagi “*terme*” atamasi o‘z ildizini lotincha “*terminus*” – “chegara”, “nihoya nuqtasi” ma’nosidan olgan bo‘lib, u qadimgi Rimda joy va vaqtni belgilovchi mezon sifatida qo‘llanilgan. Bugungi zamonaviy fransuz tilshunosligi va adabiyotshunosligida ushbu atama polisemantik birlik sifatida qaraladi: u bir vaqtning o‘zida leksik birlik, mantiqiy-kategorik ko‘rsatkich hamda ilmiy-nazariy tushunchalarni ifodalovchi semantik komponent sifatida faol ishlatiladi. Tadqiq etilayotgan lug‘atda “*terme*” termini to‘rtta asosiy semantik-terminologik doirada izohlanadi. Birinchidan, atama vaqt bilan bog‘liq kategoriya sifatida biror jarayon yoki holatning yakuni, muddati yoki belgilangan chegarasini anglatadi (masalan, *à terme* – muddat oxirida; *terme d’échéance* – tugash vaqti). Ikkinchidan, nutq va ifoda vositasi sifatida stilistik jihatdan tanlangan, aniq leksik birliklarni anglatib, “*mot*”, “*lexeme*”, “*expression*” kabi birliklar bilan sinonimlikda qo‘llaniladi (masalan, *Chercher le terme exact* – aniq so‘zni topmoq).

Uchinchidan, terminologik kontekstda, “*terme*” atamasi ilmiy va texnik atamalar (masalan, *les termes techniques*, *les termes d’une équation*) sifatida ishlatiladi va “*terminologie*”, “*concept*”, “*designation*” kabi terminlar bilan paradigmatic bog‘lanadi. To‘rtinchidan, “*rhétorique*” va semantik ekvivalentlik nuqtai nazaridan “*terme*” sinonimik, muqobil ifoda vositasi sifatida “*equivalent*”, “*synonyme*”, “*paraphrase*” kabi birliklarga yaqin turadi³¹¹. “*Terme*” atamasi “Le Grand Robert” lug‘atida kognitiv-kategorik, stilistik-uslubiy, va nazariy-logik birlik sifatida yoritilib, uning giperonimik (umumlashtiruvchi) va giponimik (xususlashtiruvchi) semantik munosabatlardagi o‘rni keltirib o‘tilgan.


“Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘atida adabiyotshunoslikga oid terminlar sinonimik leksik paradigmalar doirasida ko‘p qirrali semantik va stilistik munosabatlarda yoritiladi. Bunda “*métaphore n.f.*”, “*image n.f.*”, “*figure n.f.*”, “*comparaison*

³¹¹ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.1102.

n.f.”, “*allégorie* n.f.”, “*métonymie* n.f.”, “*symbole* n.m.” kabi obrazlilik va tasvir vositalari, “*poésie* n.f.”, “*vers* n.m.”, “*strophe* n.f.”, “*ode* n.f.” kabi poetik shakllar, “*style* n.m”, “*register* n.m.” “*ton* n.m.”, “*voix* n.f.” kabi uslubiy-intonatsion qatlamlar bir-biriga paradigmatic bog‘langan holda namoyon bo‘ladi.

4.4.4.-rasm.

“*Métaphore*” atamasi asosida shakllangan stilistik va semantik paradigmatic qator



“*Métaphore*” (lotincha va yunoncha *meta-phore* – “ma’no o‘zgarishi”) – bu til vositasi bo‘lib, ma’noning o‘zgarishi asosida biror konkret birlikni boshqa, odatda abstrakt kontekstdagi birlik bilan analogik o‘xshatish orqali almashtirishdan iborat. Mazkur lug‘atda termin stilistik figura (*figure*, *trope*) sifatida tavsiflanib, semantik jihatdan “*image*” (tasvir) bilan bevosita bog‘lanadi³¹². Metafora “*comparaison*” (taqqoslash) bilan yaqinlikka ega bo‘lsa-da, undan farqli o‘laroq, “*comme*” (kabi) kabi ko‘makchisiz amalga oshadi (masalan: *Il est fort comme un lion* → *C’est un lion*). Sinonimik paradigmasida esa termin *image*, *figure*, *trope*, *comparaison*, *allégorie* (allegoriya), *métonymie* (metonimiya) va *symbolisme* (ramziylik) kabi birliklar bilan semantik va stilistik munosabatda bo‘ladi.

“*Image*” (lotincha *imago*) termini fransuz tilshunosligi va adabiyotshunosligida ko‘p qirrali semantik va stilistik birlik sifatida talqin qilinadi. Lug‘atga ko‘ra, termin real obyektning vizual tasviri, aks ettirilgan shakli, optik sistemasidagi nusxa, grafik yoki plastik ifoda (*dessin*, *figure*, *gravure*) hamda metaforik ifoda shakllarini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa tilshunoslik va stilistika kontekstida “*image*” →

³¹² P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.720.

“*comparaison*”, “*figure*”, “*métaphore*” kabi birliklar bilan sinonimik paradigmatic tizimda tahlil qilinadi³¹³. Shu jihatdan termin konkretni abstrakt orqali ifodalashda, semantik o‘zgarishlar yaratishda, ramziylik (symbole) va o‘xshatishlar vositasi sifatida xizmat qiladi. “*Image de marque*” kabi birikmalar esa sotsioleksik qatlamda obro‘, ijtimoiy identitet, yoki brend tushunchalarini anglatadi. Shuningdek, “*imaginer*” fe’li bilan bog‘liq holda “*image*” tushunchasi tasavvur, xotira, illyuziya, yoki stilistik o‘xshatish kabi semantik maydonlarda ham faol ishlatiladi.

Izohli lug‘atda “*figure*” termini o‘zining etimologik ildizini lotincha “*figura*” (“shakl”, “ko‘rinish”, “tasvir”) so‘zidan olib, ko‘p qatlamli ma’no tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. Atamaning asosiy semantik yadrosi tashqi ko‘rinish vizual tasvir va timsollar orqali aniqlanadi. Dastlab termin predmet yoki insonning tashqi shakli sifatida tushunilgan bo‘lsa, keyinchalik bu atama badiiy, geometrik, mimik va diskursiv sohalarda kengaytirilgan³¹⁴. Masalan, “*figure humaine*” – inson siymosi, “*figure de proue*” – kema burunidagi haykal, “*figure de l’aventurier*” – sarguzashtchi obraz kabi ma’nolarda uchraydi. Idiomatik shakllarida esa “*faire figure de...*” kabi konstruksiyalar orqali shaxsiy taassurot, ijtimoiy ko‘rinish yoki mavqe anglatiladi. Shu bilan birga, “*figure*” geometriyada fazoviy chiziqlar va shakllarning belgisi sifatida, yuz ifodasi va hissiyotlar bilan bog‘liq semantik maydonda, hamda nutqiy diskursda “*figure de style*” yoki “*figure de rhétorique*” sifatida stilistik va ritorik funksiyani bajaradi. Termin ko‘chma ma’no (*sens figuré*) yasovchi asosiy til vositasi bo‘lib, nutqda semantik ko‘chish, tasviriylik va obrazlilikni ta’minlaydi. Sinonimik paradigmasida esa “*image*”, “*forme*”, “*effigie*”, “*style*”, “*tropes*” kabi terminlar bilan o‘zaro yaqinlikda namoyon bo‘ladi.

“Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘atiga ko‘ra, “*comparaison*” (lotincha *comparatio*, *comparare* – solishtirmoq) atamasi ikki yoki undan ortiq fikr obyektlarini birgalikda ko‘rib chiqib, ular orasidagi o‘xshashlik yoki farqlilikni aniqlash jarayonini anglatadi. Bu jarayon yaqinlashtirish (*rapprochement*), taqqoslash (*comparer*) orqali amalga oshadi va ko‘pincha “*faire la comparaison entre...*” kabi konstruksiyalar bilan ifodalanadi³¹⁵. Adabiy-lingvistik nuqtai nazardan bu termin o‘zining asosiy grammatik realizatsiyasini taqqoslovchi ravishlar (masalan: *comme*, *plus*, *moins*, *autant*) orqali namoyon qiladi

³¹³ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.579.

³¹⁴ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.469-470.

³¹⁵ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –P.210.

va ustunlik, tenglik yoki quyilik darajasini bildiruvchi nutqiy strukturalarda ishtirok etadi. Sintaktik jihatdan parallel qurilma (*mettre en comparaison*) orqali shakllanadi. Shu bilan birga, “*comparaison*” atamasi ko‘chma ma’nodagi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda *metafora* yoki *obraz* bilan bog‘liq semantik bog‘lanishni bildiradi. Sinonimik paradigmasida termin “*image*”, “*métaphore*”, “*analogie*” kabi atamalar bilan semantik jihatdan tutashib, ularning orasidagi chegarani belgilovchi konseptual birlik sifatida maydonga chiqadi.

Tadqiq etilayotgan lug‘atda “*allégorie*” (yunoncha *allos* – “boshqa” va *agora* – “xalq yig‘ini” so‘zlaridan; dastlabki ma’nosi: “jamoat oldida gapirish”) atamasi ikki asosiy semantik qatlamda izohlanadi. Birinchidan, termin har biri muayyan mavhum tushunchani ifodalovchi va ramziylashtiruvchi konkret tasviriy yoki hikoyaviy elementlar ketma-ketligidan iborat bo‘lgan badiiy struktura sifatida tushuniladi³¹⁶. Masalan, “*Les allégories du Roman de la rose*” asarida har bir obraz muayyan g‘oyani timsol qiladi. Ikkinchidan, “*allégorie*” – bu rasm, haykal, film kabi badiiy asar, undagi har bir element alohida bir g‘oyaning jihatini ifodalaydi. Sinonimik paradigmasida termin “*symbole*”, “*emblème*”, “*fable*”, “*parabole*”, “*exemplum*” kabi konseptlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ayniqsa allegorik ifoda vositalarining mavhum mazmuni obrazli struktura orqali yetkazish imkoniyati nuqtai nazaridan farqlanadi.

“*Métonymie*” (quyi lotin tili va yunoncha *meta* – “o‘zgarish” va *onoma* – “ism”) atamasi didaktik uslubda quyidagicha ta’riflanadi: bu biror tushunchani unga aloqador boshqa bir tushuncha orqali ifodalash asosiga qurilgan stilistik figura bo‘lib, bu ikki tushuncha o‘rtasida zaruriy munosabat mavjud bo‘ladi³¹⁷, masalan, sabab va oqibat, butun va qism, tashqi va ichki, o‘xshashlik va aloqadorlik. Aytaylik, “*boire un verre*” (“stakanni ichmoq”) ushbu o‘rinda stakan emas, balki uning ichidagi ichimlik nazarda tutiladi. Sinonimik paradigmasida “*métonymie*” metaforaga yaqin turadi, biroq ular orasidagi asosiy farq metafora o‘xshashlikka, metonimiya esa aloqadorlik munosabatiga asoslanadi.

“*Symbole*” (lotincha *symbolum*, yunoncha *symbolon* – “belgi, tanish belgi” va *ballein* – “otmoq, qo‘shmoq”) atamasi ko‘p qatlamli semantik va madaniy-ma’naviy tushuncha sifatida talqin etiladi. Dastlab, bu termin nasroniy kontekstda e’tiqod formulasi (masalan, *Symbole des apôtres* – havoriylar e’tiqodi) sifatida qo‘llanadi. Asosiy semantik

³¹⁶ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.29.

³¹⁷ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.721.


qatlamda esa “*symbole*” ko‘zga ko‘rinadigan yoki tasavvur qilinadigan narsa bo‘lib, o‘z shakli, tabiati yoki ijtimoiy konvensiyaga ko‘ra, bevosita biror mavhum tushunchani ifodalaydi. Masalan, kabutar – tinchlik timsoli; olov – ehtiros yoki o‘lim belgisi sifatida ishlatiladi. Shu tarzda, “*symbole*” predmet va g‘oya o‘rtasida madaniy-belgili kodni shakllantiradi.

Ramz odatda ma’naviy, axloqiy, diniy, poetik konnotatsiyalarni o‘zida mujassamlashtirib, “*allégorie*”, “*image*”, “*métaphore*” kabi birliklar bilan sinonimik paradigmada uzviy bog‘lanadi³¹⁸. Ayniqsa, adabiyotshunoslik kontekstda termin ta’sirchanlik kuchiga ega obrazli ifoda yoki nutqiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi (*image ou énoncé à valeur évocatrice*). Shuningdek, termin konvensiyaviy belgilar (masalan, kimyoviy yoki matematik simvollar) orqali abstrakt mazmuni ifodalovchi vosita bo‘lishi mumkin. Shuningdek, “*symbole*” insoniy fazilat yoki g‘oyaning mujassam obraziga aylangan shaxs yoki obraz bilan bog‘liq bo‘ladi (masalan: *Elle est le symbole de la générosité* – U saxovat timsolidir).

Lug‘atda “*poésie n.f.*”, “*poème n.m.*”, “*vers n.m.*”, “*strophe n.f.*”, “*ode n.f.*” terminlari sinonimik tizimda joylashgan bo‘lsa-da, ularning paradigmatic maqomi, estetik roli va funksional tuzilmasiga oydinlik kiritildi.

4.5.5.-rasm.

Poetik terminlarning sinonimik-paradigmatik strukturaviy diagrammasi



³¹⁸ –P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.1080.

“*Poème*” (lotincha *poema*, yunoncha *poiēma* – “yaratilgan narsa”) termini lugʻatda adabiyotshunoslik janr nuqtai nazaridan badiiy matnning ritmik qurilgan shakli sifatida taʼriflanadi. Termin sheʼriy asar boʻlib, “*versifié*” (yaʼni vaznli, qofiyali) yoki “*en prose rythmée*” (ritmik nasr) shakllarida boʻlishi mumkin. “*Poème*” ballada, elegiya, epopeya, fabl, sonet kabi janrlarni oʻz ichiga oladi va poetik strukturaning konkret mahsulidir. Sinonimik paradigmada ushbu atama “*pièce en vers*”, “*composition poétique*” yoki “*poème symphonique*” kabi atamalar bilan bogʻliq³¹⁹. Shu bilan birga, oddiy ifoda shaklida ham (“*Un bon poème sort tout fait*”) qoʻllanilishi mumkin. Bu termin koʻproq individual poetik matn darajasida, yaʼni ijodiy mahsulot sifatida tushuniladi.

“*Poésie*” lotincha “*poēsis*” va yunoncha “*poiein*” (yaratmoq) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, bu termin umumiyroq tushunchani bildiradi: til sanʼati, ritm (vers yoki proza), ohangdorlik va obrazlilik orqali estetik mazmuni ifodalovchi faoliyat yoki hodisa sifatida talqin qilinadi. “*Poésie*” nafaqat yozma yoki ogʻzaki ifoda vositasi, balki sheʼriylik xususiyati va poetik sezgirlikni bildiruvchi estetik kategoriya sifatida ham tushuniladi³²⁰. Sinonimik paradigma doirasida “*poésie*” – “*métrique*”, “*prosodie*”, “*versification*”, “*lyrisme*”, “*dramatisme*” kabi atamalar bilan bogʻlanadi. Shu bilan birga, “*poésie*” – bu shoirning dunyoqarashi va uslubini belgilovchi madaniy, estetik jarayonni bildiradi. Demak, “*poésie*” – bu jarayon va hissiyot, “*poème*” – uning konkret shakli sanaladi.

Izohli lugʻatda “*vers*” termini bir nechta maʼnoda keltirilgan boʻlsa-da, adabiyot nuqtai nazaridan uning asosiy ahamiyati sheʼriy tuzilma bilan bogʻliqdir. Etimologik jihatdan lotincha “*versus*” – “burilish, satr” soʻzidan kelib chiqqan bu termin, poetik matnning asosiy qurilish birligi boʻlib, metrik va ritmik mezonlarga asoslangan³²¹. Lugʻatda “*vers*” avvalo yoʻnalishni bildiruvchi predlog sifatida tavsiflanadi (“*vers la sortie*” – chiqish tomon), biroq adabiyotshunoslik kontekstda termin sheʼriy satr sifatida stilistik va strukturaviy birlikni anglatadi³²². Sinonimik paradigmada “*vers*” “*métrique*”, “*prosodie*”, “*rythme*” va “*piéd*” kabi birliklar bilan paradigmatic aloqada boʻlib, atama sheʼrning

³¹⁹ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.864.

³²⁰ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.864.

³²¹ Absalamova G.Sh. “Le Grand Robert de la Langue Française” lugʻatidagi til va adabiyot terminlarining sinonimik paradigmasi // Xorazm Maʼmun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2025. – № 7/4. – B. 22-24.

³²² P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris. 2001. –p.1168.

fonik (tovush) va ritmik tashkilotida markaziy o‘rin egallaydi. “*Vers*”, shuningdek, dramatik poeziya, lirika yoki epik asarlarda ifoda vositasi sifatida qo‘llanilib, uslubiy, ritmik va estetik jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiq etilayotgan lug‘atda “*strophe*” atamasi qadimiy yunoncha *strophê* – “burilish”, “aylanish” (yun. *strephō* – “aylantirmoq, o‘girmoq”) ildizidan olingan bo‘lib, fonetik va semantik jihatdan “*apostrophe*”, “*catastrophe*”, “*strepto-*” kabi boshqa yunoncha ildizli atamalar bilan genealogik aloqaga ega. Bu holat “*strophe*” terminining etimologik asosida qadimgi she‘riyat marosimlarida qo‘shiqchilarning burilish yoki harakat traektoriyasi bilan bog‘liq konseptual mazmun yotganligini ko‘rsatadi³²³. Leksik-semantik jihatdan “*strophe*” o‘zaro bog‘langan, ichki mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan bir nechta “*vers*” (misra)lardan iborat poetik birlik bo‘lib, bunda “*metre*” (silabik-ritmik o‘lchov) va “*rime*” (qofiya)ning maxsus tartibi muhim ahamiyat kasb etadi. Stilistik va struktural tahlilda “*strophe*” poetik matnning sintaktik va intonatsion butunligini ifodalovchi markaziy birlik sifatida qaraladi. Sinonimik paradigmada termin “*couplet*”, “*quatrain*”, “*canzone*” kabi boshqa metrik strukturalar bilan paradigmatic munosabatda turadi.

“Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘ati zamonaviy fransuz tilshunosligida sinonimik paradigmalarining paradigmatic, stilistik va genealogik qirralarini tahlil qilgan holda, terminlarning o‘zaro semantik bog‘liqligini sistematik asosda taqdim etadi. Tilshunoslikka oid paradigmalarda “*langue*” dominant termin sifatida belgilangan bo‘lib, termin tilning ijtimoiy va strukturaviy tizimi sifatida qaraladi. Ushbu markaziy birlik atrofida “*idiome*”, “*dialecte*” va “*parler*” kabi semantik yaqin terminlar joylashtirildi. “*Langue*” Sossyur nazariyasida umumiy, ijtimoiy va abstrakt til tizimini anglatgan bo‘lsa, “*parler*” va “*dialecte*” tilning individual, hududiy yoki sotsiolingvistik ko‘rinishlarini ifodalashi oydinlashdi. Lug‘atda “*mot*” atamasi dominant birlik sifatida ajralib, fonetik-grafemik birlikdan tashqari, semantik yadro, stilistik-individual ifoda shakli, aforizm, tabu va evfemizm kontekstlarida ham faol qo‘llanilishi bilan boshqa terminlardan farq qildi. “*Mot*” atrofida esa “*lexique*”, “*vocabulaire*” va “*terme*” kabi leksik birliklar sinonimik paradigmani shakllantiradi. “*Mot*” tilning kognitiv-konseptual darajadagi markaziy kategoriyasiga aylangan bo‘lsa, “*lexique*” tildagi umumiy yoki shaxsiy so‘z boyligini, “*vocabulaire*” nutq egasining ekspressiv va uslubiy imkoniyatlarini aks ettiradi. “*Terme*” ilmiy-nazariy kontekstda konseptual tushunchalarni

³²³ P.Robert. Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris. 2001. –p.1064.

ifodalovchi yuqori stilistik birlik sifatida taqdim etilganligi tadqiq qilindi. Shuningdek, matn-nutq paradigmasida “*texte*” dominant semantik birlik bo‘lib, terminga “*discours*”, “*parole*” va “*énoncé*” kabi atamalar paradigmasida ulanadi. “*Texte*” tilshunoslikda post-strukturalistik nuqtai nazardan obyektiv, mazmunli, strukturalashgan birlik sifatida e’tirof etildi va uning atrofida shakllangan sinonimlar nutqiy aktlar, kommunikativ segmentlar va kontekstual ifoda shakllarini tashkil etdi.

Adabiyotshunoslik terminlarining sinonimik paradigmasida “*métaphore*” asosiy dominanta sifatida ilgari surildi. Termin obrazlilik va ko‘chma ma’no vositasi sifatida “*image*”, “*figure*”, “*comparaison*”, “*allégorie*”, “*métonymie*” va “*symbole*” kabi terminlarni semantik-figurativ qatlamda birlashtirdi. “*Métaphore*” orqali tilning estetik va tasviriy imkoniyatlari yuzaga chiqib, klassik trop sifatida boshqa stilistik figuralarga mezon bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Poetik strukturalar ichida esa “*poésie*” markaziy tushuncha bo‘lib, atama ijodiy-estetik faoliyat sifatida “*poème*”, “*vers*”, “*strophe*”, “*ode*” kabi birliklarni o‘ziga paradigmatic jihatdan bog‘ladi. Xususan, “*poésie*” poetik jarayonni, “*poème*”ning konkret mahsulini bildirishi ochiqlandi.

IV bob bo‘yicha xulosa

1. Ushbu bobda ingliz va fransuz izohli lug‘atlarida keltirilgan adabiyotshunoslik va tilshunoslik terminlarining tarixiy-etimologik, tarkibiy-mazmuniy, leksik-semantik, milliy-madaniy, funksional va konseptual xususiyatlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy adabiyotshunoslik va lingvistik tafakkurda tutgan o‘rni aniqlashtirildi. Lug‘atlardagi terminlar individual birlik, sotsiomadaniy va g‘oyaviy-madaniy makon ichidagi ilmiy tasniflar sifatida tahlil qilindi.

2. Kris Boldikning lug‘atida adabiyotshunoslik terminlari intuitiv va analitik yondashuvda bayon qilingan bo‘lib, “*stream of consciousness*”, “*tragedy*”, “*allegory*”, “*catharsis*”, “*sublime*” kabi terminlar orqali adabiyotshunoslik matnlarning semantik chuqurligi, hissiy struktura va estetik-falsafiy qatlamlari aniqlashtirildi. Adabiy shakl va janrlar tasnifida “*sonnet*”, “*trilogy*”, “*récit*”, “*drame*”, “*comédie*” kabi birliklarning shakli, “*phoneme*”, “*morpheme*”, “*onomatopoeia*” kabi fonetik-morfologik birliklardan tortib “*syntax*”, “*speech act*”, “*semantics*”, “*pragmatics*”, “*lexis*”, “*stylistics*”, “*narrative*”,

“*intertextuality*” kabi terminlarning murakkab semasiologik mazmuni va etimologik evolyutsiyasi tahlil qilindi.

3. Kris Boldik lug‘atidagi fransuz tilidan o‘zlashgan atamalar – xususan “*différance*”, “*discours*”, “*écriture*”, “*lisible*”, “*avant-garde*”, “*belles-lettres*” singari birliklar – zamonaviy adabiyotshunoslik tafakkurda poststrukturalizm, semiotika va resepsiya nazariyasi bilan bevosita bog‘liq konseptual birliklar sifatida aniqlab olindi va ularning semantik qatlamlari hamda o‘quvchining interpretativ faoliyati bilan bog‘liq ichki dinamikasi tadqiq qilindi.

4. “*Dictionnaire des littératures de langue française*” lug‘atida metafora, metonimiya, allegoriya kabi stilistik birliklarning semantik va stilistik tafsilotlari orqali fransuz adabiyotining ko‘p qatlamli mazmun strukturalari yoritildi. Ayniqsa, “*littérature*”, “*littéarité*”, “*genres littéraires*”, “*narration*”, “*drame*”, “*comédie*” kabi asosiy tushunchalar orqali adabiyotshunoslikning sotsiomadaniy, estetik va gnoseologik talqinlari ifodalandi.

5. “*Petit Larousse Illustré 2020*” lug‘atida fransuz tilidagi fonetik-fonologik, morfologik, sintaktik va semantik birliklar (masalan, “*phonème*”, “*morphème*”, “*syntaxe*”, “*aspect*”, “*temps*”, “*genre*”, “*voix*”) izchil tahlil qilinib, ularning paradigmatic bog‘liqligi, leksik-konseptual yuklamasi va zamonaviy lingvistik jarayondagi o‘rni ko‘rsatib berildi. Lug‘atdagi terminlar nafaqat til tizimini tavsiflashga, balki madaniy ongni anglashga ham xizmat qilishi oydinlashdi.

6. “*Le Grand Robert de la Langue Française*” lug‘atidagi til va adabiyotshunoslikga oid terminlarning sinonimik paradigmatalari semantik, stilistik va funksional mezonlar asosida tahlil qilindi. “*Langue*”, “*mot*”, “*texte*”, “*métaphore*”, “*poésie*” kabi dominant terminlar atrofida shakllangan paradigmatic tizimlar orqali fransuz tilida terminlarning o‘zaro bog‘liqligi, kontekstual farqlanishi va uslubiy darajalari aniqlandi. Tahlil natijasida sinonimik birliklar oddiy ma’nodoshlik emas, balki murakkab diskursiv va estetik tizim sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatildi.

V BOB. INGLIZ VA FRANSUZ TILLARIDA TILSHUNOSLIK HAMDA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING MILLIY-MADANIY INTEGRATSIYASI

5.1. Mishel Montenning “Les Essais” asarida fransuz adabiyotshunoslik terminlarining ifoda shakllari va ularning stilistik tafovutlari

Terminlar nafaqat ilmiy tafakkur vositasi, balki milliy-madaniy identitetni aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklar hamdir. Har bir tilda shakllangan adabiyotshunoslik atamaları o‘z tarixiy taraqqiyoti, falsafiy oqimlari, urf-odatları va ijtimoiy qadriyatları bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu terminlarning semantik, stilistik, diskursiv jihatlari milliy kontekstda shakllanadi.

Mazkur bob fasllarida fransuz va ingliz tillarida qo‘llaniladigan lingvoadabiyotshunoslik terminlarining o‘xshash va farqli jihatlari Mishel de Montenning “*Les Essais*” (“Tajribalar”) asari misolida tahlil etildi.

Monten fransuz esse janrining asoschisi, adabiyotshunoslik-falsafiy yozuvchidir. Adibning asarlarida insoniy tajribaning reflektiv, shaxsiy va falsafiy talqinlar yoritiladi. “*Les Essais*” asari adabiyotda, madaniy, lisoniy manba hisoblanadi.

Shu jihatdan, avvalo, “*essai*” terminiga to‘xtalish joiz deb hisobladik. Atamaning ilk ta’riflaridan biri Krest Mena (La Croix du Maine) tomonidan 1584-yilda “*Bibliothèque française*” asarida shunday deydi: “*Ce titre ou inscription est fort modeste, car si on veut prendre ce mot d’Essais, pour coup d’Essai, ou apprentissage, cela est fort humble et rabaissé; et si on le prend pour essais ou expériences, c’est-à-dire discours pour se façonner sur autrui, il sera encore bien pris de cette façon*”³²⁴ (1772,II,130). (“Bu sarlavha yoki yozuv juda kamtarona, chunki “*Essey*” so‘zini “ilk urinish” yoki “o‘rganish” deb tushunsak, bu juda kamtarona baholangan va agar uni tajriba yoki sinov, ya’ni o‘zini boshqalarga ko‘ra shakllantirish yo‘li sifatida olsak, bu ham yaxshi talqin bo‘ladi.”)

Iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, o‘sha davridayoq muallifning birinchi asarini “*coup d’essai*” (“ilk sinov”) deb atash odat tusiga kirgan bo‘lib Dyū Bartas (Du Bartas) va Pyer De Brash (Pierre De Brach)ning asarlari bunga misol bo‘ladi. “*Coup d’essai*” iborasi Uyg‘onish davrida keng

³²⁴ F. Goyet Humilité de l’essai. –Toulouse: 2002. –p.201–215.

tarqalgan, masalan, Maro (Marot) o‘zining “*L’Adolescence Clémentine*” asariga yozgan muqaddimada: “*ce sont oeuvres de jeunesse, ce sont coups d’essay*” (“Bu mening yoshlik asarlarimdir, sinov maqolalardir”), deb keltirilgan³²⁵.

Shuningdek, Rable (Rabelais) ham “Gargantua”da o‘z asarlarini: “*ce prélude et coup d’essay*” (bu kirish so‘zi va sinov maqoladir) deya ataydi. Dj.Douson (J. Dawson) o‘z tadqiqotida Monten 1540–1555-yillarda Tuluz shahrida bo‘lib o‘tgan “Les Jeux Floraux” she‘riyat tanlovlarida qatnashgan bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladi. Mutafakkir, ehtimol, o‘z asarining sarlavhasi sifatida “*coup*” so‘zidan voz kechib (nashriyotchi tavsiyasi bilan), uning o‘rniga “*essais*” ko‘plik shaklini tanlagan. “*Se façonner sur autrui*” (“o‘zini boshqalarga qarab shakllantirish”) iborasi ushbu nomga chuqur, dialogik ma‘no yuklaydi.

Monten o‘z davrida “*essai*” atamasiga qanday ma‘no berganini bir necha bor asarda izohlaydi. Masalan, “Essais” asarida bu so‘z: sinov, o‘zini sinab ko‘rish, hayotiy tajriba va o‘zlikni ifoda etish vositasi sifatida tushuntiriladi³²⁶. “*S’essayer*” yozuvchi uchun o‘zini sinash jarayonini bildiruvchi reflektiv fe‘l bo‘lib, “*autant qu’il y aura d’encre et de papier au monde*” (III, 9.945) (“dunyoda siyoh va qog‘oz bor ekan, yozaveraman”) deya tavsiflaydi.

Essey qatlamli, doimiy tafakkur shakli sifatida yuzaga chiqadi va o‘z yakunini o‘quvchi bahosidan emas, muallifning g‘oyib bo‘lishi bilan topadi. E.Telle (E.Telle) Monten haqida shunday yozadi: “*l’essai, en soi, est jugé comme un travail, un effort, et ne se limite pas à une idée*”³²⁷ (Telle, 233) (“essey o‘z-o‘zidan mehnat, harakat, kuch sarflash bo‘lib, faqat bitta g‘oya bilan cheklanmaydi.”) Jumlada “*travail*” (mehnat) so‘zining ishlatilishi ham bejiz emas. Essey bu yangi narsani yaratish uchun mavjud biror obyektini boshqacha tarzda o‘zlashtirish mehnatidir. Boshqa matni o‘zlashtirish essey janrida bir vaqtning o‘zida “*jugement*” (baholash) va “*travail*” (mehnat) sifatida yuz beradi. Izoh yoki sharh essey shaklining ajralmas qismi bo‘lib, esseyist uchun eng maqbul uslub “*se mêler de tout*”³²⁸ (“har narsaga aralashuvchi”) yondashuvdir.

Monten “*l’indiligent lecteur*” (III.9.994) – (“loqayd o‘quvchi”)ni matni iste‘mol qila olmaydigan shaxs sifatida ko‘rsatadi va o‘zini

³²⁵ A.Blinkenberg. Quel sens M. a-t-il voulu donner au mot Essais dans le titre de son œuvre? –Bordeaux:1964. – p.22–32

³²⁶ Absalamova G.Sh. Mishel Monten ijodida insho va allegoriya janrining tavsifiy xususiyatlari // Tamaddun nuri jurnali. – Qoraqalpog‘iston, 2024. – № 3 – B. 124-127.

³²⁷ E. Telle À propos du mot ‘essai’ chez Montaigne. –Genève.1968. –p.225–247.

³²⁸ M. Lits Pour une définition de l’essai. Les Lettres Romanes. –Belgique.1990. –p.283–296.

“*suffisant lecteur*” (I.24.127) – (“yetarli darajada o‘quvchi”) deb ta’riflab, matndagi mazmundan ongli ravishda zavq oluvchi subyekt sifatida tasvirlaydi³²⁹. Yozuvchi boshqalarning tarixini tajriba asosida “*tatib ko‘rganini*” bildiradi: “*J’ai assez vecu... j’en faict l’essay, son eschançon*” (III.13.1080). Bu holatda “*essai*” so‘ziga “*gustus*” – (“ta’m”) ma’nosi yuklanadi, bu esa reflektiv, shaxsiy idrok va tahlilga asosan keltirilgani ham ma’lum bo‘ladi.

G.Lukach (G.Lukács) “*À propos de l’essence et de la forme de l’essai*” maqolasida essey yozish san’at asari yoki kitob haqida so‘z yuritgach, darhol tark etishini ta’kidlaydi: “*Essayiste parle d’un tableau ou d’un livre, mais l’abandonne aussitôt – pourquoi?*” Sababi, “*l’idée de ce tableau... comme départ, comme tremplin*” ya’ni ushbu obyekt unda shunchalik kuchli tasavvur uyg‘otadiki, uni faqat tramplin sifatida ishlatadi (Lukács, 30)³³⁰. Shu bois, “*discours de l’autre*” (boshqaning nutqi) matnga faqat bahona sifatida kiradi. Monten qarshi chiqib, bob sarlavhalari ko‘pincha asosiy mazmunga to‘liq mos kelmasa-da, “*seulement par quelque marque*” (III.9.994) ya’ni muayyan belgi orqali unga ishora qiladi.

Essey yozuvchisining vazifasi – tashqi matndan voz kechmagan holda o‘z “men”ini ifoda etishdir. Essey matnini to‘g‘ri tushunish uchun uni tarixiy kontekstda o‘qish muhim. Har bir esseyning ortida bir “*pré-texte*”, ya’ni umumiy anglashilgan diskurs yotadi: “*c’est l’Histoire... transformé en référence discursive*”. Biroq Monten bunday asosni doimiy rad etadi: “*Pour revenir à notre histoire*”, “*Retombons à nos coches*” (I.31.212; III.6.915), adib doim yangi nuqtai nazar izlaydi. Montenga ko‘ra, mualliflar o‘zini “*quelque marque*” orqali bildiradi, “*par mon estre universel*” (III.2.805) ya’ni butun borlig‘i orqali so‘zlaydi. Shu bois essey shakl emas, balki shakllanish jarayonidir: “*le message, c’est le médium (la forme)*”. Bu ifoda tovush (*voix*) emas, balki tana (*corps*) orqali amalga oshadi: “*le corps... la physionomie... la taille...*” - subyektivlik tashqi belgilar vositasida obyektivlashadi.

Monten nazarida esseyning o‘ziga xosligi shundaki, “*le seul livre...*”(II.8.385) – o‘z turida betakror kitobdir. Essey doimiy qayta yozilishga, tarix bilan suhbat qilish, “*tracé littéraire*” (yozuvchi izi) “*écriture de l’autre*” (boshqaning nutqi) dir.

³²⁹ Absalamova G.Sh. Mishel Montening “Tajribalar” asarida fransuz adabiyotshunoslik terminlarining o‘xshash va farqli tomonlari // Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlar. – Qo‘qon, 2025. – № 4 – B. 1280-1283.

³³⁰ Lukács G. À propos de l’essence et de la forme de l’essai. –Paris: 1974. –p.12–33.

Frankfurt maktabining asosiy vakili Teodor V.Adorno Lukachga qarshi essey tarixiy holatni doimiy yangilash deb tushuntiradi. Essey tarixni takrorlamaydi, balki uni qayta yozadi. “*Le rapport à l’expérience... est un rapport à l’Histoire tout entiere*” (Adorno, 14)³³¹.

Quyidagi jadvalda “*essai*” atamasining “Les Essais” asarida qo‘llangan stilistik va mazmuniy-funksional tafovutlari qisqacha tahlil qilindi.

5.1.1.-jadval.

“Essai” terminining stilistik tafovutlari

“Essai” ifoda shakli (stilistik/kontekstual)	Stilistik-funksional tafovut (mazmuni va yondashuvi)
Coup d’essai (ilk sinov, urinish)	Kamolotdan oldingi urinish, yoshlik tajribasi, kamtarona baho
Essais / expériences (tajriba, sinov)	O‘zini boshqalarga qarab shakllantirish, refleksiya vositasi
S’essayer (o‘zini sinash)	Reflektiv harakat, yozuvchi sifatida o‘zini sinab ko‘rish akti
Je me goute / gustus (ta‘m, lazzatlanish)	O‘zlikni shaxsiy idrok bilan anglash, ichki zavq va mazmun
Travail / Jugement (mehnat / baholash)	Fikriy mehnat orqali baholovchi yondashuv, yozuv orqali ong hosil qilish

“*Tajribalar*” asarida “*fable*” (afsona) atamasining turli ma‘nolari keng ishlatilgan. Bu so‘z va uning hosilalari, avvalo, shaxsiy fikrga asoslangan “*inventions et récits mensongers*” (“uydirma va yolg‘on hikoyalar”)ga tegishlidir (I.26.154). Bunday hikoyalar “*fondent les ‘policies*” (“ijtimoiy tartiblarni asoslaydi”) (II.16.629) yoki “*constituent les savoirs*” (“bilim tizimini tashkil etadi”) (I.32.215).

“*Fable*” so‘zi ko‘proq badiiy fantastikani bildiradi: Terensiy dramatik asarlari, Ezop masallari (“*apologue ésofique*”) (II.10.410), Ovidiyning “*Metamorfoza*”laridan hikoyalar (I.26.175; II.35.749), shuningdek, “*Thyestes*”, “*Édipe*”, “*Macareus*” kabi antik syujetlar (I.23.171) yoki Krisipp tomonidan sharhlangan Yupiter va Yunon haqidagi falsafiy hikoyalar (III.5.858). Shuningdek, she‘riyatning “*umbrages fabuleux*” (“afsonaviy soyasi”) qadimgi falsafaning zaif tomonlarini ko‘rsatadi (II.12.545), hatto Platonning ta‘sirida bo‘lgan “*Lois*” asarida ham Monten “*mensonges profitables*” (“foydali yolg‘onlar”) (II.12.512) ni amaliy jihatdan tan oladi³³². Monten o‘zining

³³¹ Adorno T. *L’essai comme forme*. –Paris:1984. –p.5–29.

³³² H. Ehrlich. *La critique et le langage*. –Paris.1975. –p.65–74.

tadqiqotida bu pozitsiyani “*témoignages fabuleux*” (“afsonaviy guvohliklar”) orqali asoslaydi.

5.1.2.-jadval.

“Les Essais” asarida “fable” (afsona) terminining kontekstual ishlatilishi, semantik yo‘nalish va stilistik funksiyalari

№	Qayerda (bo‘lim / sahifa)	“Fable” qanday ishlatilgan	Ma‘nosi	Izoh
1	I.26.154	uydirma va yolg‘on hikoyalar	uydirma	inson o‘ylab topgan, haqiqatga mos bo‘lmagan hikoyalar
2	II.16.629	ijtimoiy tartibni asoslaydi	jamiyat qurilishi	fabl’lar jamiyatda tartib va qonunni asoslashda yordam beradi
3	I.32.215	bilim tizimini tashkil qiladi	bilim manbai	“Fable”lar orqali odamlar bilim oladi
4	I.27.184	inson hukmi zaif	subyektivlik	haqiqat emas, lekin odamlar ishonadi
5	II.10.410	ezop masallari	axloqiy saboq	hayvonlar orqali saboq beruvchi hikoyalar
6	I.26.175; II.35.749	ovidiyning hikoyalari	fantastika	sehrli voqealarni o‘z ichiga olgan hikoyalar
7	I.23.171	antika syujetlar (Thyestes va boshqalar)	tragediya	qadimgi yunon miflaridan olingan hikoyalar
8	III.5.858	falsafiy hikoyalar	falsafa orqali ifoda	falsafiy g‘oyalarni tushuntiruvchi hikoyalar
9	II.12.545	she‘riyatdagi afsonalar	g‘oyani yashirish	she‘rlar afsona bilan haqiqatni yashiradi
10	II.12.512	foydali yolg‘on	tarbiyaviy yolg‘on	odamlarga yaxshi yo‘l ko‘rsatish uchun to‘qilgan hikoya
11	III.4.837	aldovli pushaymonlar	emotsional ta’sir	o‘quvchi his qiladi, lekin biladi – bu haqiqat emas
12	I.21.105	agar bo‘lishi mumkin bo‘lsa	shartli haqiqat	afsona – haqiqatga o‘xshab ko‘rinsa, qabul qilinadi

Mutafakkir Montening “Tajribalar” asarida adabiyotshunoslik termini “*fantaisie*” atamasi va unga oid hosilalar *chimères* (xayolot),

rêveries (xayolparastlik), *ravasseries* (bo‘lar-bo‘lmas xayollar), *songes* (tushlar) vositasida qo‘llaniladi.

Aristotelning “*De anima*” (III, 3) asarida “*phantasia*” (so‘z ildizi “*phainien*”, ya‘ni “ko‘rinmoq”, “*phôs*”– “yorug‘lik”) sezgi faoliyati va idrok “*noesis*” talqin etiladi. Bu tizim sezgi orqali idrok qilinadigan narsalarni aqldan o‘tgan tushunchalarga aylantirishga xizmat qiladi.

“*Summa Theologiae*” asarida Tomas Akvinskiy tomonidan bu qobiliyat sezgi bilan bog‘liq quvvat tavsiflanadi. Atama tashqi olamdagi obyektlarning tasvirlarini yaratadi (*phantasmata*), xotira tasvirlarni saqlaydi. “*Phantasia*” ularni ongda saqlovchi kuch bo‘lib, xotirani “*un trésor des formes reçues par les sens*” (sezgilar orqali qabul qilingan shakllarning xazinasini) ta‘riflaydi³³³. O‘rta asrlarda “*phantasiai*” va “*imagination*” atamaları ba‘zida sinonim sifatida ham ishlatilgan.

“Tajribalar” asarida “*fantaisie*” “*réceptacle ou agent*” (qabul qiluvchi idrok) bo‘lib, atama xayol va xatolik manbai sifatida ta‘riflanadi. Bu aldanchi kuch bo‘lib, “*elle faict de soi et de nous ce qu’il luy plaist*” (u bizdan va biz orqali o‘zi xohlagan narsani yaratadi) (II.29.711). Bu holat kishini tasvirlar bilan to‘ldiradi, masalan: “*De l’expérience*”da bu holat aniq tasvirlangan, yoki “*il l’anticipe par fantaisie*” (“fantaziya orqali oldindan ko‘radi”) (II.12.491) degan iborada, bu holat real obyekt bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani yo‘qotadi.

Bunday tanqidiy yondashuv kamida ikki manbadan kelib chiqqan: birinchisi tibbiyot tafakkuri, ehtimol, andalyuslik musulmon faylasuv Ibn Rushd (Averroes)dan olingan, “*Paduya*” maktabiga ham ta‘sir qilgan. Masalan, G.Bruno “*fantaisie*”ga jismoniy holatlar ko‘p ovqatlanish, jigar faoliyatining buzilishi yoki qora o‘tning ko‘pligi bilan bog‘liq psixosomatik holatlar vositasida yondashadi. Monten “*De la force de l’imagination*”, (I.21) va “*Des boiteux*” (III.11.1032) kabi boblarda bu hodisalarni tasvirlab beradi.

Monten “*Lycaon*” haqidagi rivoyatni ham eslatib, Apollon g‘azablanganida “*il s’estoit, par quelque alteration des sens*” (uning sezgilari buzilgan edi), degan holat tasvirlab, “*fantaisie*” tushunchasini ko‘pincha ruhiy yoki patologik holat bilan bog‘laydi. Shuningdek, “*une humeur mélancolique*” (II.8.3885) melanxolik tUSDagi kayfiyatda yuzaga kelgan fantaziya bolalarga nisbatan haddan tashqari mehrni ifodalaydi. Fantaziya sezgi orqali olingan taassurotlarni “*discrimination systématique*” asosida ajratish jarayoniga tayanadigan kognitiv hodisadir. Monten atamani “*chaque jour une nouvelle*

³³³ A.Tournon Montaigne en toutes lettres. –Paris:1989. –p.138–147.

fantaisie”(III.1.1333) har kuni yangilanadigan tasavvur mahsuli sifatida ta’riflaydi.

Fantaziya ba’zan “jasur, ammo ehtiyotsiz tasavvurlar” (III.1.1035) ko‘rinishida, ba’zida esa faqat “*interrogation*” savol tarzida shakllanadi (III.2.527). Monten fikricha, fantaziya bu doimiy aniqlikka emas, balki noaniqlikka tayanadigan kuchdir: “*n’ayant qu’une certitude: son incertitude*” (II.18.388). Fantaziya haqiqatni belgilashdan ko‘ra, uni izlashni ifodalaydi: “*non pour établir la vérité, mais pour la chercher*” (I.56.317).

5.1.3.-jadval.

“Les Essais” asarida “fantaisie” ning stilistik ishlatilishi

№	Qayerda (bob / sahifa)	Ifoda shakli	Ma’nosi	Stilistik izoh
1	II.29.711	elle ‘faict de soi et de nous ce qu’il luy plaist’	Xayoliy kuch	Fantaziya ongda tasodifiy obrazlar yaratadi
2	II.12.491	il l’anticipe par fantaisie	Oldindan tasavvur qilish	Fantaziya obyektiv haqiqatdan uzilgan holda ishlaydi
3	I.21	De la force de l’imagination	Tasavvur kuchi	Aqliy tasavvurlar jismoniy holatlarga ta’sir qiladi
4	III.11.103 2	Des boiteux	Tasavvur va xastalik	Fantaziya patologik holatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin
5	II.8.3885	une humeur mélancolique	Melanxolik kayfiyat	Kayfiyat va xayol o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatadi
6	III.1.1333	chaque jour une nouvelle fantaisie	Doimiy yangilanadigan tasavvur	Fantaziya har kuni o‘zgarib turadi, noaniq tabiatga ega
7	III.1.1038	les songes fantastiques et chimères	Tush va xayolot	Fantaziya uyqu va uyg‘oqlik orasidagi obrazlar shaklida namoyon bo‘ladi
8	III.1.1035	jasur, ammo ehtiyotsiz tasavvurlar	Fantastik fikrlar	Aqliy xayollar jasur, lekin noaniq bo‘lishi mumkin
9	III.2.527	interrogation	Savol	Fantaziya aniqlik emas, izlanish bilan bog‘liq

10	II.18.388	n'ayant qu'une certitude : son incertitude	Noaniqlik ishonchi	Fantaziya noaniqlikda bo'ladi	doimiy mavjud
11	I.56.317	non pour établir la vérité, mais pour la chercher	Haqiqatni izlash	Fantaziya aniqlash emas, balki uni izlashga xizmat qiladi	haqiqatni

Monten “Essais” asarida “*proverb*” maqollar va xalq iboralarini xalq donishmandligining ifodasida ko‘rib, ularni shaxsiy tafakkurini ifodalashda ishlatadi. Yozuvchi “*proverb*” orqali o‘z fikrlarini umumlashgan tajriba bilan boyitib, maqollar mutolaa, tanqidiy fikrlash va janr ichidagi “xalq falsafasi” bo‘lib, ularni san’atkorona uslub bilan qayta talqin etadi.

“*Proverbes*” va maqollarga oid iboralar Monten asarida quyidagi turlarga ajratilganligini guvohi bo‘ldik:

-“quasi-phrases” yoki “collocations”, masalan: “*plier/tousser bagage*”, “*entrer en danse*”, “*partir entre ses dents*” maqollarning ma’nosi har bir tarkibiy qismlaridan kelib chiqadi;

-“demi-phrases” yoki “locutions”, misol uchun: “*être armé de pied en cap*”, “*s’en aller à vau-l’eau*”, “*revenir bagues sauvées*” maqollarning ma’nosi esa tarkibiy qismlardan birining ko‘chma ma’nosida shakllanadi;

-“phrases completes” yoki “proverbs”: “*acheter chat en poche*”, “*les cordonniers sont les plus mal chaussés*”, “*cautériser en mère de cruauté*”. iboraning umumiy ma’nosi semantik ortiqchalikdan (*surajoutée*) hosil bo‘ladi.

Maqolli iboralardan foydalangan holda, Monten “*sermo quotidianus*”, kundalik xalq tilidan foydalanadi. Montenning tili, odatda, “bas” deb ataluvchi qatlamga oid, ko‘pincha komik uslubda qo‘llaniladigan xalq tilidir. Bu holat uning “*Essais*” asarida quyidagicha ifodalanadi: “*J’ay naturellement un style comique et privé*”, “*mes façons sont mon langage : trop serré, desonné, coupé, particulier*”, “*et ne m’énine pas en lettres ceremonieuses d’une belle enflure de paroles courtoises*” (I.40.252). Yozuvchi o‘zining tilda ilmiy va didaktik ritorikadan voz kechishini shunday: “*Je parle que j’aye, c’est un parler simple et naïf non pedantesque, non fasqueux, non rhétique*” tasvirlaydi. Xatto mantiqiy terminlarni o‘z lug‘atidan chiqarib tashlab, Parijdagi oddiy xalq tilini afzal ko‘radi: “*J’aimeroi mieux qu’on me servist de ceux qui servent aux halles à Paris*” (I.26.172); “*J’aimeroi mieux qu’on me fust appris aux tavernes à parler*” (III.8.926–927). Monten grammatika va ritorikaga asoslangan soxta “ilmiy” tildan ham

uzoqlashadi: bunday tilda “*tropes*” ya’ni metafora, metonimiya, allegoriya, grammatik shakllar ustunlik qiladi, lekin ularni “*grimace et galippein*” (*bo‘rttirilgan va bezakli ifodalar*) deb hisoblab: “*ce sont trinceries qui touchent le babil de votre chambrière*” (I.51.307) deya gaplarni xizmatkorning bekorchi gaplariga qiyoslaydi.

5.1.4.-jadval.

“Essais” asaridagi “proverb” atamasining ifoda shakli va stilistik tafovutlari

Ifoda shakli	Ma’nosi	Stilistik tafovut
J’aimeroy mieux qu’on me servist de ceux qui servent aux halles à Paris	Oddiy xalq tilini afzal ko‘rish	“Bas” uslub: quyi qatlam tili orqali haqiqatni ifodalash
J’aimeroy mieux qu’on me fust appris aux tavernes à parler	Mehmonxona va bozor tili	Ilmiy tilga qarshi xalq og‘zaki tiliga moyillik
J’ay naturellement un stile comique et privé	Shaxsiy va kulgili tilda yozish	Maqollar orqali o‘z uslubini shakllantirish
ce sont trinceries qui touchent le babil de votre chambrière	Sun’iy ritorikani tanqid	Bezaksiz, soddaligi bilan farqlanuvchi maqol tilini afzal ko‘rish
Je trouve communément plus de vérité aux propos des paysans	Dehqonlarning so‘zida haqiqat bor	Xalq donishmandligi maqollar orqali ifodalanadi
acheter chat en poche	Ko‘z ochmay sotib olish	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xalq og‘zaki tajribasi orqali ogohlantirish
les cordonniers sont les plus mal chaussés	Etikdo‘zning o‘zi etik kiyolmaydi	Ziddiyatli haqiqatni kulgili tarzda berish
plier/tousser bagage, entrer en danse	“Quasi-phrases”	Barqaror birikmalar orqali umumiy tajriba ifodasi
être armé de pied en cap, s’en aller à vau-l’eau	“Locutions”	Frazeologik birliklarning ko‘chma ma’nosi ustuvor
accorder au peuple la dignité du peuple romain	Xalqni qadrlash	Maqol orqali siyosiy-falsafiy nuqtai nazarni ifodalash

Montenning “*Essais*” asarida “*metafora*” so‘zi atigi ikki marta uchrasa-da, bu uslubiy vosita Monten nasrining ajralmas qismi sifatida ko‘riladi. Yozuvchi “*pensée, image, chez lui c’est tout un*” ya’ni fikr va

tasvir unda bir butun degan holatni ifodalaydi. XIX-asrning fransuz adabiy tanqidchisi, esseisti va shoiri Sent-Bev (Charles-Augustin Sainte-Beuve) ham bu fikrni tasdiqlab, “*on n’y reçoit les idées qu’en images*” – “unda g‘oyalar faqat tasvir orqali qabul qilinadi” deya yozadi. Hatto Montening ilk o‘quvchilar ham Montenga “*Tu es trop espais en figures*” deya asar metaforalarga haddan tashqari to‘yinganidan e‘tiroz bildirgan (III.5.875).

Monten “*metaphore*”, “*allégorie*” kabi atamalarni tanqidiy ma‘noda tilga oladi, ularni maktab ritorikasiga oid sun‘iy vositalar sifatida baholaydi. Yozuvchi metaforani harakatdagi o‘simliklar singari ko‘chuvchi va o‘zgaruvchanligini tasvirlaydi: “*comme les herbes, s’amendent et fortifient en les transplantant*” (III.5.874). Shunga ko‘ra mutafakkir o‘zini “*écrivain*” emas, balki “*imageur*” -tasvir yaratuvchi deb ataydi va obrazlar orasidagi bog‘liqlikni “*lier ensemble par analogie*” analogiya orqali ifodalaydi (III.7.637). Montenga nazarida metafora nafaqat stilistik vosita, “*moyen efficace de n’entasser que des textes*” (I.40.251), fikrni tasvir orqali jonlantirish usuli ekanligi aniqlandi.

5.1.5.-jadval.

“Les Essais” asarida “*métaphore*” va “*fiction*” terminlarining ifoda shakli va stilistik tafovutlari

Termin	Ma‘nosi	Ifoda shakli	Stilistik tafovut
Métaphore	Ko‘chma ma‘no, tasviriy o‘xshatish	“ <i>pensée, image, chez lui c’est tout un</i> ”, “ <i>Tu es trop espais en figures</i> ”, “ <i>comme les herbes...</i> ”, “ <i>le semblable est entendu</i> ”	Fikr va tasvir bir butun. Harakatdagi tasvir, jonli obraz. O‘xshashlik orqali anglash. Metafora orqali estetik jonlanish
Fiction	To‘qima, fikrni shakllantiruvchi vosita	“ <i>parole à feinte</i> ”, “ <i>fiction légitime</i> ”, “ <i>fiction formulaires</i> ”, “ <i>vecteurs de vérité</i> ”	Voqelikni bevosita emas, balki o‘ylangan chekinish orqali ifodalash. Huquqiy va falsafiy kontekstda ham ishlatiladi. Fikrlash usulini faollashtiruvchi adabiyotshunoslik vosita

Xuddi shu asosda, Monten “*fiction*” atamasi orqali falsafiy va huquqiy tafakkur sohalarida ham o‘z uslubini boyitganini ko‘rish

mumkin. “Les Essais” asarida “*fiction*” atamasi oddiy, badiiy fikrlashni shakllantiruvchi va uni ifodalovchi epistemologik vosita sanalishi talqin qilinadi. Adib “*fiction*”ni adabiylikdan tashqariga huquqshunoslik va falsafa doirasida ham tatbiq etadi³³⁴. Masalan, “*fiction formulaires*” va “*fictions légitimes*” kabi tushunchalar “*Apologie*” (III.12.537) da va Alsiat (Alciat) kabi huquqshunoslar asarlarida qo‘llaniladi.

Mishel Montening “Les Essais” asari fransuz adabiy tafakkurida estetik, gnoseologik, stilistik ifoda shakllarining shakllanishi va rivojlanishida muhim sanalgan adabiyotshunoslik terminlar – “*essai*”, “*fantaisie*”, “*fiction*”, “*métaphore*”, “*proverb*” atamalari yoritilib, quyidagicha xulosa qilindi.

“*Essai*” tushunchasi Monten uchun faqat janr nomi emas, balki doimiy harakat, o‘zini sinash, reflektiv tafakkur va shaxsiy tajriba orqali fikrni tushuntirishdir. Essey muallif “*je*” (men) zamirida harakatda bo‘lgan ong shakli sifatida, shaxsiy “*gout*” (ta‘m) orqali “*se façonner sur autrui*” – boshqalar orqali o‘zini shakllantirishdir.

Qolversa, Monten o‘z matnlarida “*fantaisie*” atamasini xayoliylik, mavhumlik va gnoseologik beqarorlik ifodasi sifatida talqin qilishi, Aristotel va O‘rta asr mualliflaridan meros bo‘lgan “*phantasia*” kontsepsiyasini yangicha tadqiqida inson tafakkurining ong va sezgi oraliq‘idagi murakkab, ko‘p qatlamli jihatini tasvirlaganligi oydinlashadi.

“*Fiction*” atamasi Montenda badiiy to‘qima emas, falsafiy, huquqiy va adabiy tafakkur oraliq‘idagi kognitiv strategiya ekanligi namoyon bo‘ladi. “*Fictions légitimes*” va “*fiction formulaires*” kabi tushunchalar adabiylik chegarasidan chiqib, diskursiv qatnashishi, Monten uchun “*fiction*” haqiqatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki “*écart réfléchi*” – “o‘ylangan chekinish” orqali ifodalashi essey mazmunidan namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi “*Essais*”da metaforani stilistik va kognitiv vosita sifatida talqin etgan, “*pensée, image, chez lui c’est tout un*”- fikr va tasvir bir butunga tayangan holda, fikrni jonlantirish, tafakkur energetikasini oshirish va tafsirni metaforadan foydalanib harakatga keltirilganligi aniqlandi. Yana bir stilistik qatlam – “*proverb*” (maqollar, xalq iboralari) – Monten uchun xalq donishmandligi va madaniy xotiraning nutqiy ifodasi sifatida, proverbial birliklar orqali matnning soddaligini, axloqiy xulosalarini boyitgan, tafakkurga xos “*expression seconde*” ikkilamchi, ramziy ifodasi ochib berildi. Har bir atama muallif

³³⁴ A. Tournon. Les prosopopées ironiques. –Paris:–p.115.

tafakkurining yangi sathini ochdi: “*essai*” – harakat, “*fantaisie*” – tasavvur, “*fiction*” – shakllantirish, “*métaphore*” – jonlantirish, “*proverb*” – umumlashtirish tadqiq qilindi.

5.2. “Les Essais” asarida fransuz tilshunoslik terminlarining mushtarak va differensial xususiyatlari


Mishel Montening “Tajribalar” asari fransuz adabiyotining mumtoz namunalaridan biri bo‘lib, yozuvchining falsafiy qarashlari, hayotiy kuzatuvlari, lingvistik yondashuvlari o‘ziga xos mahorat bilan aks ettirilgan. Asarning badiiy va falsafiy o‘lchamlari bilan bir qatorda, unda tilshunoslik sohasidagi turli terminlar, ularning mushtarak hamda differensial belgilarini ham o‘rganishni talab etadi.

Til – Monten uchun nafaqat muloqot vositasi, balki inson tafakkurining in’ikosidir. Monten “*langue*” (til) atamasini tafakkur va ifoda o‘rtasidagi murakkab, doimiy o‘zgaruvchan, ko‘p qatlamli hodisa deb baholaydi. Yozuvchining qarashiga ko‘ra, tilda “*orthographe du temps*” – zamonning imlosi, murakkab leksik tuzilma (*lexique*) va ongli “*désordre*” – tartibsizlik mujassam bo‘lib, bu holat beparvolik emas, balki “*licence*” – ongli erkinlik mahsulidir. Monten fransuz tilining hali shakllanmagan, doimiy “*variation*” – o‘zgarish holatidagi tabiatini tan oladi va uni “*nerveux, puissant et pertinent*” – asabiy, kuchli va o‘rinli holatga yetkazishni istaydi, ko‘pincha “*langue illustre*” – ichki ma’noni yorituvchi tilni afzal ko‘radi.

Grammatik mutaassiblikni tanqid qilgan holda, Monten “*langage des princes de l’art d’écrire*” – adabiy yozuv tili bilan “*parler des Essais*” – o‘zining shaxsiy, erkin uslubidagi til o‘rtasidagi tafovutni ochib beradi. Chinakam til ritorik qoidalarga emas, balki “*le naturel des halles*” – xalq tili va hayotiy ifoda kuchiga tayanmog‘i lozim. Shu tarzda, Monten “*langue*” atamasini lingvistik, falsafiy, estetik va epistemologik talqin qiladi.

5.2.1.-rasm.

Monten “Les Essais” asarida “Langue” (Til) terminining mushtarak va differensial xususiyatlari



Monten o‘zining “*Les Essais*” asarida tilning ko‘p qatlamli tabiatini ochib berishda “*polysémique*” (ko‘p ma‘noli) so‘zlardan foydalanadi. Bunday leksik birliklar o‘quvchini bir tomondan “*difficultés d’interprétation*” (talqinda qiyinchiliklar) holatiga olib kelsa, boshqa tomondan “*richesses inattendues*” (kutilmagan ma‘no boyliklari)ni kashf etishga undaganligi namoyon bo‘ladi³³⁵.

Asarning o‘zi ham “*polysémique titre*” (ko‘p ma‘noli sarlavha)ga ega. “Essais” atamasi turli kontekstlarda bir vaqtning o‘zida “*expérience*” (tajriba), “*épreuve*” (sinov), “*examen*” (tahlil) va “*degustation*” (tatib ko‘rish) kabi ma‘nolarda ishlatiladi.

Monten tomonidan tanlangan ba‘zi “*mots polysémiques*” polisemik so‘zlar, masalan: “*branler*” (tebranish, beqarorlik), “*curiosité*” (qiziqish), “*raison*” (aql, sabab), “*âme*” (ruh) stilistik va semantik jihatdan zichlik kasb etadi³³⁶. Ayniqsa, “*réflexion rhétorique*” (ritorik tafakkur) doirasida “*maître*” (hokim/ustoz) va “*sujet*” (mavzu/subyekt) kabi konsepsiyalar bilan murakkab munosabatda qo‘llyaydi.

³³⁵ M.-L.Demonet. À plaisir. Sémiotique et explication des mots de Montaigne. –Orléans: 2002, –p.199–217; H. Friedrich. Montaigne. –Paris:1968. –p.376.

³³⁶ M.de Vroey. Le mot justice chez Montaigne: un cas de polysémie.–Bordeaux: 2001. –p.15–24; 21–22.

Monten “*polysémie*”ni oddiy til hodisasi emas, balki “*langage philosophique*”(falsafiy nutq) va “*expérience du jugement*” fikr yuritishni talqin etadi. Har bir soʻz koʻp maʼno qatlamlariga ega boʻlib, fransuz tilshunosligida “*signifié multiple*” (koʻp anglatma) va “*réfèrent variable*” (oʻzgaruvchan referent) koʻrinishida izohlanadi³³⁷.

Monten fikr yuritishda “*jugement*” (baholov, hukm chiqarish)ning ikkilik tabiatini “*valeur positive*” (ijobiy baho), “*valeur negative*” (salbiy baho)ni doimiy ravishda koʻrsatadi³³⁸. Ayniqsa, “*Que sais-je ?*” (Men nima bilaman?) iborasi orqali “*suspension du jugement*” hukmni toʻxtatish gʻoyasini ilgari suradi³³⁹. Montening “*Les Essais*” asarida “*polysémie*” hodisasi tilshunoslik terminlarining mushtarak va differensial xususiyatlarini ochib beradi³⁴⁰. Bu terminlar:

Mushtarak jihatdan: bir nechta asosiy maʼnolarni oʻz ichiga oladi (“*expérience*”– tajriba va idrok);

Differensial jihatdan: har bir kontekstda turlicha semantik rol bajaradi (“*mot*” – lingvistik birlik sifatida yoki tafakkur vositasi sifatida). Demak, Monten tilni noaniq emas, balki semantik jihatdan boy, polifonik va interpretativ imkoniyatlarga ega boʻlgan ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida tasvirlaydi.

5.2.2.-rasm.

“Polysémie” terminining Monten “Les Essais” asaridagi mushtarak va differensial xususiyatlari

Mushtarak xususiyatlar

1. Bir nechta asosiy maʼnoga ega
→ Masalan: *expérience* – tajriba, sinov, tahlil, tatib koʻrish
2. “*Signifié multiple*” (koʻp anglatma)
→ Har bir soʻz bir vaqtning oʻzida bir nechta maʼno qatlamini olib yuradi
3. “*Réfèrent variable*” (oʻzgaruvchan referent)
→ Maʼno real kontekstga qarab har xil rarsaga ishora qiladi
4. Semantik boylik manbai
→ Oʻquvchini kutilmagan maʼnolarni zlashga undaydi (*richesses inattendues*)
5. Falsafiy nutq vositasi
→ Oddiy lingvistik hodisa emas, balki tafakkur vositasi (*langage philosophique*)

Differensial xususiyatlar

1. “*Essais*” – koʻp maʼnoli sarlavha
→ Bir soʻz bir vaqtning oʻzida tajriba, tahlil, sinov yoki tatib koʻrishni anglatadi
2. Kontekstga qarab semantik dominanta oʻzgaradi
→ Har bir holatda maʼnoning asosiy jihati farq qiladi
3. Polisemik soʻzlar: “*branler*”, “*curiosité*”, “*raison*”, “*âme*” → Har biri bir necha darajadagi tahlil va talqinni talab qiladi
4. “*Sujet*” – ikki tomonlama anglash: mavzu/shaxs
→ Bir soʻz orqali ham mavzuni, ham shaxsiy identitetni anglatadi
5. “*Jugement*” – ikkiyoqlama baholash
→ Bir soʻz ijobiy hamda salbiy bahoni bildirishi mumkin

³³⁷ R.A.Sayce. The Essays of Montaigne.: A Critical Exploration. –London:1972. –p.179–182.

³³⁸ E.Telle. À propos du mot essayer chez Montaigne. –Paris:1968. –p.225–247.

³³⁹ N.Russell. Steps toward a Rhetoric of Judgment in Montaigne’s “De Democritus et Heraclitus” (I.50), Neophilologus, 2001, –p.177–192 .

³⁴⁰ J.Vignes. L’exercice, l’épreuve et l’expérience. Essai et essayer dans le livre III des Essais, Paris, 2003, –p.926.

Montenning “*Les Essais*” asarida “*bilinguisme*” – ikki tillilik masalasi murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘tariladi. Asarda Montenning birinchi tili lotin bo‘lgani aytiladi: bu tilni “*sans fouet et sans larmes*” (“qamchi va ko‘z yoshisiz”) uslubida, otasi tomonidan yaratilgan “*institution exquisite*” (“ajoyib ta’lim tizimi”) orqali o‘zlashtiradi. Shuningdek, “*Collège de Guyenne*”dagi ta’limi ham lotin tilida olib borilgan bo‘lsa-da, bu tilda hech qanday yozma asar qoldirmagan. Aksincha, “*Journal de voyage*” – Sayohat kundaligining katta qismini italyan tilida yozgan, bu tillar o‘rtasidagi “*fonction pragmatique*” – amaliy kommunikativ vazifaning ifodasidir.

Montenning ikki tilliligi yaqqol tarzda asar matnida ko‘plab “*citations*” (iqtiboslar), “*paraphrases*” (parafrazalar) va “*allusions*” (ishoralar) orqali namoyon bo‘ladi. Monten boshqa mualliflarni iqtibos olishda tanqid qilgan bo‘lsa-da (*se reprocher les emprunts*), o‘zi bu uslubda chuqur bilim qatlamini ifoda etishini tan oladi (*reconnaît qu’ils traduisent une dimension essentielle*). Yozuvchida lotin tili “*modèle intellectual*” – nazariy va falsafiy model vazifasini, fransuz tili shaxsiy ekspressiyani ifodalovchi “*langue d’écriture* (yozuv tili)” vazifasini bajaradi. Shunday qilib, Monten tilshunoslik nuqtai nazaridan mushtarak (universal) va differensial (ajratib turuvchi) xususiyatlar orqali ikki tillilikni falsafiy, matnshunoslik va estetik doiralarda tahlil qiladi.

5.2.3.-rasm.

“Bilinguisme” ikki tillilikning umumiy va farqlovchi tomonlari

Umumiy jihatlar

Monten asarida ikki tillilikning doimiy, asosiy va tan olingan jihatlari

1. **Ikki til asosida shakllangan shaxsiyat** → Lotin – bolalik tili, fransuz – yetuklik davrining ifoda tili
2. **Tillarning amaliy funksiyasi mavjud (“fonction pragmatique”)**
→ Til – fikrni estetik yoki kommunikativ yetkazish vositasi
3. **Madaniyatlararo bilim uzviyligi**
→ Iqtiboslar va ishoralar orqali turli tillar o‘rtasida intertekstual aloqalar o‘rnatiladi
4. **Tillar bir-birini to‘ldiradi**
→ Lotin – nazariy, intellektual model; Fransuz tili – shaxsiy ekspressiya vositasi
5. **Tarjimaviy tafakkurga asoslangan ifoda**
→ Parafrazalar va alluziyalar orqali ikkala til mazmunli uyg‘unlikda ishlatiladi

Ajratib turuvchi jihatlar

Monten yondashuvidagi ikki tillilikning o‘ziga xos, noan’anaviy xususiyatlari

1. **Tilni o‘zlashtirish va unutish (perte de compétence linguistique)**
→ Lotin tilini o‘rgangan, lekin faol kompetensiyani yo‘qotgan
2. **Lotin – falsafiy model, fransuz – yozuv tili**
→ Ikkala tilning kommunikativ roli bir xil emas
3. **“Bilinguisme stylistique” – stilistik ikki tillilik**
→ Iqtibos va o‘z fikr uyg‘unlashgan stilistik qatlamda aks etadi
4. **Sayohat kundaligida italyan tilidan foydalanish**
→ Uchinchi til orqali ikki tillilikni amaliy nuqtai nazardan kengaytiradi
5. **Iqtiboslar orqali mualliflik pozitsiyasining ikki tildagi ifodasi**
→ “Emprunt” (olish) va “reformulation” (qayta ifoda) o‘rtasida tafovutli yondashuvni yaratadi

Monten o'zining "*Essais*" asarida "*orthographe*" (imlo) terminiga tilning tabiiy rivoji, yozuvdagi erkinlik va uslubiy xususiyatlari bilan yondashib, atamani muayyan normativ qoidalar tizimidan ko'ra, individual yozuv amaliyotining ifodasida talqin qiladi. Ayniqsa, "*Exemplaire de Bordeaux*" (Bordeaux nusxasi)dagi yozma dalillar Montening imloga juda e'tiborli bo'lgani, yozuvdagi shakllarni tanlash, o'zgartirish va imloviy variantlar ustida ishlashda til estetikasi, uslubiy individuallik va lingvistik tajribasidan kelib chiqqanligi yaqqol bilinadi.

Xususan, *Bordo nusxasining* sarlavha sahifasi orqa tomonidagi "*Suivés l'orthographe antiene*" ("eski imloni kuzatinglar") degan ko'rsatma oddiy va qat'iy pozitsiyani bildiruvchi ibora sifatida ko'rinadi. Garchi Monten o'zi "*il ne se mesle, ny d'ortografe*" ("na imlo, na tinish belgilari bilan shug'ullanmayman") deya aytgan bo'lsa ham, u "*qu'ils suivent l'ancienne*" ("ular faqat eskisiga amal qilsin") degan shakldagi amaliy ko'rsatma bilan cheklanadi³⁴¹. Shuningdek, "*Ny de la punctuation: je suis peu expert en l'un et en l'autre*" (III.9.965) deb o'zini chetga tortgandek ko'rinadi. Biroq qo'lyozmalarni filologik tahlil qilish jarayonida ushbu da'voga uning real yozuv faoliyati o'rtasida muayyan ziddiyat sezildi.

Darhaqiqat, "*Bordeaux nusxasi*" sahifalarida Monten nafaqat bosmachiga misollar asosida yo'l-yo'riq ko'rsatishga intilgan va ayrim imlolarni qayta ko'rib chiqqan. Masalan, "*gite*" o'rniga "*giste*", "*aggrerér*" o'rniga "*agréer*" ("qabul qilmoq") shakllarining afzal ko'rilishi yoki hatto "*orthographie*" so'zining o'zini ham "*orthographe*" tarzida yozilishi Montening til va yozuv tizimiga ongli tarzda aralashganligini tasdiqlaydi³⁴². Yozuvchining bu holatidan kelib chiqib, Monten imloga nisbatan bir tomondan normativlikni rad etadi, ikkinchi tomondan yozuv shakllarni sinchkovlik bilan boshqargan, deyish mumkin.

Ko'plab noshirlarning Monten matnida "*orthographe à l'ancienne*" (eski imlo)ni tiklashga urinishlari, mazkur tarixiy qatlamni to'g'ridan to'g'ri takrorlashga emas, balki uni zamonaviy o'quvchi uchun qayta "*actualiser*" (moslashtirish) zaruratiga olib keladi. Ammo, Montening o'z matnlariga qo'shgan tuzatishlari va puxta tahrir "*minutieux soins*" qilgani shoshqaloq xulosalar chiqarishdan tiyilishga undaydi. Montening "*orthographe*" (eski shakldagi "imlo") shaklini afzal ko'rishi,

³⁴¹ Salles A. *L'orthographe de Montaigne*. –Paris: 1937. –p.63–66.

³⁴² Keatley R. *Le Statut du valet dans le Journal du voyage de Montaigne en Italie, par la Suisse et l'Allemagne en 1580 et 1581*. Paris.1997, –p.8–32.

ayniqsa “*la rime du droit*” (huquqiy qofiyani) saqlab qolish uchun qilgan harakatlari, uning shaxsiy fonetik intuitsiyasiga asoslanib, “*orthografe*”ni “*orthographe*” (imlo) shaklida qayta tiklaydi. Shuning uchun ham “*suivés l’orthografe antiene*” (eski imloni kuzatinglar) degan soʻzlarning oʻzi ham Monten til evolyutsiyasiga qanday munosabatda boʻlganini ochiq koʻrsatadi.

Quyida biz mutafakkirning 1588-yilda va 1592- yilda yozilgan izohlarda, fransuz tilidagi “*orthographique*” imloning oʻzgargan holatlaridan misollar beramiz.

Masalan: “*u*” harfi “*v*” harfiga (yoki aksincha) ustun qoʻyiladi; ikki marta yoziladigan undoshlar qisqartiriladi (*consonnes redoublées*); “*an*” boʻgʻini ustun boʻladi; “*je aim*” (*men sevaman*) kabi soʻzlarda birinchi shaxsdagi koʻplikda “*nous avons*” oʻrniga “*nous avoyns*” ishlatiladi; “*il est*” oʻrniga “*il estait*” yoki “*certain*” oʻrniga “*certaing*” yoziladi; “*et*” (*va*) qisqartmasi tushiriladi; “*median*” soʻzlar (*masalan: “aultre” oʻrniga “autre”*) normadan chetga chiqadi³⁴³.

Yagona meʼyorlarning yoʻqligi sharoitida, imloviy birlikni taʼminlash Monten uchun emas, balki keyinchalik aniqlashtiriladigan “*Académie française*” (Fransuz akademiyasi) uchun muhim vazifa sanalgan. Monten asar matnida kuzatiladigan imloviy beqarorlik va shakli xilma-xillik “*Les Essais*” asarining mazmuniy talqiniga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Monten asarida oʻziga xos yozuv strategiyasini “*j’accomply usage de toutes choses*” (I.31.205) men hamma narsadan foydalanaman degan prinsipi asosida shakllantirgan boʻlib, aynan shu yondashuv natijasida bitta atamani uch xil variantda – “*illettré*”, “*illetrez*”, “*illettres*” yozadi. Bu bilan Monten fikrning harakatchanligi va ifodaning erkinligi bilan uygʻunlashtiradi.

“*Les Essais*”dagi imloviy xilma-xillik Montening matnga nisbatan erkin va ongli yondashuvini namoyon etadi. Yozuvchi “*orthographe*” (imlo)ning tashqi shakli, matnning ichki dinamikasini ifodalovchi stilistik va semantik komponent sifatida talqin qiladi³⁴⁴. Shuning uchun ham asarni bu davrda til ustida olib borilgan falsafiy va lingvistik eksperiment sifatida baholash mumkin.

Matnlar orasidagi imloviy variantlar asosan nashriyot bosmachilar (*compositeurs*)ning aralashuvi bilan bogʻliq boʻlib, ular tipografik elementlar (*types typographiques*) orqali ikki harfli undoshlar

³⁴³ Hoffmann G. “New Editions of Montaigne’s Essais. –Paris: 2000. –p.209–230.

³⁴⁴ Hoffmann G. New Editions of Montaigne’s Essais. –Paris:2000. –p.209–230.

(*consonnes géminées*)ni qisqartirishga va “*et*” soʻzini “&” belgisi bilan almashtirishga intilgan. Ayrim holatlarda, “*essais*” soʻzi “*essayz*”, “*qui*” esa “*quy*” yoki “*quiu*” shaklida yozilgan boʻlib, bu fonetik yaqinliklar (*ressemblances phonétiques*) tufayli yuzaga kelgan adashtirishlarning natijasidir.

Matnni nashr etish jarayonida bosmachilar orasida uslubiy farqlar ham kuzatiladi. Ayrim sahifalarda (1, 4, 5, 8, 9, 12, 13, 16) mujskoy roddagi artikllar (“*le*”, “*aux*”) qoʻllanilgan boʻlsa, boshqa sahifalarda (2, 3, 6, 7, 10, 11, 14, 15) jenskoy rod shakllari (“*la*”) ustunlik qiladi, bu matnga jenskoy rodga yaqin fonetik taʼsir beradi. Xususan “*chargées*” - “*chargéz*” shakllarida yaqqol koʻzga tashlanadi³⁴⁵.

Nashriyot bosmachilarning bosmaxonada mazmuni toʻliq anglamasdan harakat qilgani, baʼzi yozuvlarini intuitiv almashtirishga olib kelgan. Monten bu til na davlat, na cherkov tizimida “*parfait*” (mukammal) darajada emas, balki hali ham “*imparfait*” (mukammal emas) bosqichida³⁴⁶ ekanligini taʼkidlaydi. Shu bilan birga tilning “*imperfection*” (kamchilik) va “*instabilité*” (beqarorlik) holatini chuqur anglab, uni “*langue figée*” (qotib qolgan til)dan koʻra “*langue en devenir*” (rivojlanayotgan til) sifatida qabul qilib, “*langue écrite*” (yozma til)ni emas, balki “*langue vive*” (jonli til)ni afzal koʻrishini ushbu satrlarda: “*Le français s’écoule tous les jours de nos mains*” (*Bordeaux*, f.433v; III.9.982) fransuz tili har kuni qoʻlimizdan oqib ketmoqda, deb yozadi.

Tadqiqotchi A.Turnon (A.Tournon) Montenning gʻayrioddiy tinish belgilarini (*punctuation insolite*) shubha falsafasiga asoslangan pirronik uslubini (*style pyrrhonienne*) deb baholaydi³⁴⁷. Monten jummalarni yakunlovchi ohang (*rythme concluant*) bilan emas, noaniqlik bilan tugatib, oʻzining shubhakorlik uslubini (*procédés du scepticisme*) namoyon qiladi. Bu yondashuv uning imloviy oʻyinlari (*jeux orthographiques*) orqali matnga poetik chuqurlik va noaniqlik olib kirganini anglatadi.

³⁴⁵ Catach N. L’orthographe de Montaigne et sa punctuation, d’après l’Exemplaire de Bordeaux. –Paris: 1997.– p.135–172.

³⁴⁶ Beaulieux C. Les traces de l’orthographe particulière de Montaigne dans la première édition des Essais. –Paris: 1953–1954. –p.59–63.

³⁴⁷ Tournon A. ‘Ny de la punctuation’: sur quelques avatars de la segmentation autographe des Essais, –Genève 1999. –p.147–159.

“Orthographe” atamasining umumiy va o‘ziga xos jihatlari (Monten”Les Essais” asari asosida)

Mushtarak xususiyatlari

1. Til tizimining tashqi shaklini belgilaydi:
“Orthographe” terminida ham boshqa grammatik kategoriyalar (morfologiya, sintaksis) kabi tartib, me’yor, qoidabozlik mavjudligi nazarda tutiladi.
2. Normativlik va standartlashirishga aloqador:
Fransuz tilshunosligidagi ko‘plab atamalar singari bu atama ham, odatda, rasmiy qoidalar tizimi sifatida qaraladi.
3. Lingvistik tasnifga ega:
“Orthographe” fonetika, morfologiya, semantika singari sohalarga bevosita ulanadi va ularning vositasi sifatida ishlaydi.
4. Tilshunoslikda tarixiylik komponentiga ega:
Ko‘plab atamalar singari bu termin ham tarixiy taraqqiyotda shakllangan va o‘zgarib borgan.

Differensial xususiyatlari

1. Normativ emas, ekspressiv yondashuv – “Orthographe” Monten uchun qoidalar emas, uslubiy erkinlik vositasidir.
2. Ongli imlovii xilma-xillik – “Illettré / illetrez / illetres” kabi shakllar stilistik niyat bilan tanlangan.
3. Etimologik-fonetik yondashuv – “Orthographe”, “giste” kabi variantlar fonetik va grafemik sezgi asosida qo‘llanadi.
4. Til falsafasi ifodasi – Imlo orqali Monten tilni “rivojlanayotgan hodisa” sifatida talqin qiladi.
5. Matbaa bilan muloqot – “Suivés l’orthographe antiene” degan ko‘rsatma orqali u nashr jarayonini boshqaradi.
6. Shubha poetikasi – Noan’anaviy tinish belgilar va imlovii o‘yinlar orqali shubhakorlik uslubini yaratadi.

Tilshunoslikda “*écriture*” atamasi tilning diskursiv va gnoseologik shakllanish jarayonini anglatadi. Montenning “*Les Essais*” asarida “*écriture*” o‘zlikni anglash, fikrni ushlab va o‘zini tahlil qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Monten taxminan 1571-yoki 1572-yilda o‘zining “*chimères*” (xayollarini) “*en Rolle*” (yozuvga) (I.8.33) tushira boshlaganida, aslida nima uchun yozayotganini aniq bilmagandek ko‘rinadi. “*Écriture*” adibning ichki ehtiyoj “*pulsion*” (turtki, impuls) “*contempler à son aise*” (erkin holda mulohaza yuritish) ifodasi, o‘zini so‘roq qilish va tushunishga imkon bergan³⁴⁸.

Vaqt o‘tishi bilan, yozishga undovchi sabablar aniqroq bo‘la boshlaydi, yozuvchi tushunadiki, “*humeur mélancolique*” (melanxolik kayfiyati), ya’ni “*chagrin de la solitude*” (yolg‘izlikdan kelib chiqadigan g‘am) bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, u sevimli do‘sti (La Boétie) vafotidan keyin o‘zini “*jeté*” (“otib yuborilgan”) deb his qilgan va shunday yozadi: “*premierement mis en teste ceste resverie de se mesler d’écriture*” (II.8.385) (“avval boshda menga yozishga kirishish fikri kelgan”). Keyinchalik, yozishni “*thérapie*” (terapiya) yoki “*projet*” (reja, loyiha) sifatida ko‘ra boshlaydi, chunki “*se dire*” (o‘ziga aytish), “*se peindre*” (o‘zini tasvirlash), yoki “*se faire connaître*” (o‘zini

³⁴⁸ Jeanneret M. Rabelais et Montaigne: l’écriture comme parole.–Paris: 1976. –p.78–94.

tanitish) istagida bo‘ladi. (*Au Lecteur*. 3; *À Madame de Duras*, II.37.783-784).

Darhaqiqat, “*enracinement profond dans l’affect*” (hissiyotga chuqur ildiz otganlik) Montening yozuv motivatsiyasini tushuntiradi. Yozuv (*écriture*) Monten uchun hech qachon “*corps mort*” (o‘lik jism), ya’ni jonlanmagan sun’iy tuzilma bo‘lmasdan, har doim “*naturelle*”, “*spontanée*”, “*irréfléchie*” (tabiiy, o‘z-o‘zidan keladigan, ongli ravishda emas) hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, yozishning insoniy ichki hayot, ya’ni “*l’homme intérieur*” (ichki odam) bilan bog‘liqligi ko‘rinib, yozuvni hayotiy, “*respiratoire*” (nafas olishga oid) hodisaga aylantiradi.

Shuningdek, yozuv – “*procréation physique*” jismoniy ijodiy akt emas, balki “*procréation spirituelle*” ma’naviy tug‘ilishdir. Yozuvchi o‘zining “*sorte entreprise*” ma’naviy tashabbusi orqali tilning jonli harakatini “*mouvement de la voix*” (ovoz harakati)ni ifodalaydi. Demak, adib uchun “*écrire*” (yozmoq) nafaqat o‘zini sinovdan o‘tkazish, o‘z fikrini “*jugement*” (baholash), “*movement*” (harakat) va “*espérance*” (umid) bilan yangilab borish muhim hisoblanadi.

Monten uchun “*écriture*” yozuv “*parole en puissance*” (potensial nutq) sifatida, fikrning jonli ifodasi “*mémoire vive*” tarzida, yozish orqali “*voix*” (ovoz) orqali o‘zini “*dessin de moi*” tasvirlash, “*je suis moy mesmes la matière de mon livre*” - o‘z kitobining materialidek ko‘radi³⁴⁹.

Montenga ko‘ra, yozuv va nutq bir-biriga qarama-qarshi emas, balki “*équivalence parfait*” mukammal tenglikda: “Men doimo gapirayotganimday yozaman, yozish bu gapirishning boshqa shaklidir” deya “*écriture*”ni “*voix au papier*” (qog‘ozdagi ovoz), “*parole sur le texte*” (matndagi jonli nutq) deb ataydi. Yozuvni “*être vivant*” (tirik mavjudot), “*enfant spirituel*” (ma’naviy farzand) deb ta’riflaydi va tananing, ruhning birlashgan ifodasi sifatida ko‘radi. Yozuvchiga ko‘ra ushbu jarayon “*opération physique et morale*” (jismoniy va axloqiy amaliyot) bo‘lib, Derrida ilgari surgan “*métaphysique de l’écriture*” dan farq qiladi³⁵⁰.

Monten yozuv va nutqni qarama-qarshi emas, “*double register*” deb anglaydi: ya’ni yozayotganda gapiradi, gapirayotganda yozadi. Uning yozuvi “*écriture comme parole*” nutqdagi yozuv bo‘lib, “*poétique du moi*” - “o‘zlik poetikasi”ga aylanadi. Monten “*écriture*”ni ongli, estetik

³⁴⁹ Blum C. “Écrire le ‘Moi’: J’ajuste, mais je ne corrige pas”. 1983. Paris, –p.337–53.

³⁵⁰ Bots W.J.A. “Montagne et Derrida: L’écriture de Montaigne”, BHR, 1983., –p.301–315 .

va stilistik harakat sifatida ko‘rib, yozuv orqali o‘zini, ovozi va fikrini bir butun tarzda jonli matnga aylantiradi.

5.2.5.-rasm.

“Écriture” atamasining mushtarak va differensial xususiyatlari (Monten asari asosida)

Mushtarak xususiyatlari (umumiy, tilshunoslik doirasidagi)

- 1.Lingvistik vosita – Yozuv belgilar, til tizimi va diskurs orqali ma’no yaratish jarayonidir.
- 2.Gnoseologik funksiya – Bilimni saqlash, uzatish va fikrni ifodalash vositasi.
- 3.Diskursiv faoliyat – Tilning kommunikativ ishlatilishi bilan bog‘liq.
- 4.Voix (ovoz) orqali ma’no yaratish – Matnda muallifning ichki ovozi eshitiladi.
- 5.Kognitiv jarayon – Yozish fikrlash va idrokni shakllantiruvchi aqliy faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Differensial xususiyatlari (Montendagi o‘ziga xosliklar)

- 1.Shaxsiy-terapevtik harakat – Yozuv Monten uchun ichki ehtiyoj, yolg‘izlikni yenguvchi vosita.
- 2.O‘zlik ifodasi (“poétique du moi”) – Yozuv orqali muallif o‘zini chizadi: “je suis moy-mesmes la matière de mon livre”.
- 3.Tirik, jonli til – Yozuv og‘zaki nutqqa teng, “voix au papier” (qog‘ozdagi ovoz) sifatida qaraladi.
- 4.Tabiiy va spontaniy jarayon – Ongli emas, “naturelle”, “irréfléchie” tarzda kechadi.
- 5.Matnga hayotiy harakat berish – Yozuv “être vivant” (tirik mavjudot), “enfant spirituel” (ma’naviy farzand) deb tasvirlanadi.
- 6.Nutq va yozuv tengligi – Monten uchun yozuv va nutq bir xil: yozayotganda gapiradi, gapirayotganda yozadi.

“Parole” termini “Tajribalar” asarida insoniylik, axloqiy javobgarlik va ijtimoiy o‘zaro aloqaning muhim vositasi bo‘lib, “*De la vanité des paroles*” bobida so‘zning qadri, undan oqilona foydalanish haqida mulohaza yuritadi. Yozuvchi “*le babel*” (behuda shovqinli so‘zlashuv)ni rad etib, amaliyotga asoslangan fikrga ustuvorlik beradi: “*ceux qui préfèrent les λόγους aux λόγωργους*” (I.26.173). Monten so‘z san’atini “*science de parlerie*” va “*rhétorique*” sifatida tanqid qiladi va nutqni “*marchandise vulgaire*”ga aylantirmaslikni ogohlantiradi³⁵¹.

Mishel Monten “*parole*”ning yolg‘on va sun‘iy ko‘rinishlaridan (*oratio mendax, copia affectée*) ehtiyot bo‘lishga chaqiradi. Aslida, *parole* – “*don de Dieu pour communiquer la pensée*” bo‘lib, insonlar orasidagi ichki aloqani ifoda etadi. Shuning uchun so‘z Monten nazarida “*témoin de l’âme*” (ruhning guvohi), “*engagement*” (majburiyat), va “*fidélité*” (sadoqat)³⁵² kabi tushunchalar bilan bog‘langan. Shuning uchun Monten “*la parole n’existe que de qui la dit*” ya’ni so‘z uni aytgan kishiga tegishlidir, degan fikrni ilgari suradi.

Nutqdagi so‘zni Monten “*polis*” – jamiyat, muloqot va “tiriklar orasida o‘yin”, deb baholaydi. “*Un parler ouvert*” ochiq so‘zlashuv orqali inson o‘zini ochadi, jamoa bilan uyg‘unlikda yashaydi. Monten

³⁵¹ Derrida J. L’Écriture et la différence. –Paris: 1967. –p.446.

³⁵² Rigolot F. Parole et écriture dans les Essais de Montaigne.–Paris:1990. –p.859–882.

uchun “*parole*” bu “*être avec les autres*” – boshqalar bilan mavjud bo‘lish, “*parole donnée*” (aytilgan va’da) axloqiy tamoyil, deb biladi³⁵³.

5.2.6-rasm.

“Parole” atamasining mushtarak va Montenga xos differensial xususiyatlari

Mushtarak xususiyatlari (*umumiy tilshunoslik doirasida*)

Kommunikativ vosita – So‘z muloqot va axborot uzatish vositasidir.

Til tizimining amaliy ko‘rinishi – “Parole” – “*langue*”ning individual ifodasidir.

Psixofiziologik jarayon – So‘zlash aqliy va jismoniy faoliyat natijasidir.

Og‘zaki shaklda namoyon bo‘ladi – Nutq asosan og‘zaki ifoda orqali yetkaziladi.

Shaxsiy va kontekstual – Har bir “parole” zamon va shaxsga bog‘liq.

Differensial xususiyatlari (*Montenga xos*)

Axloqiy vosita – So‘z halollik va mas‘uliyat timsolidir.

Ijtimoiy birlik belgisi – So‘z boshqalar bilan mavjud bo‘lishning asosidir.

Samimiyat talabi – Chin so‘z yurakdan chiqmog‘i lozim.

Sun‘iy nutqdan ehtiyotlanish – Behuda va yolg‘on so‘z tanqid qilinadi.

Ruhning ifodasi – “Parole” inson ichki olamini ochadi.

Axloqiy majburiyat – “Parole donnée” – va’da, sadoqat belgisi.

So‘zga xiyonat – jamiyatga xiyonat – So‘zni buzish ishonchni yemiradi.

Bo‘sh so‘zdan voz kechish – Mazmunga asoslangan nutq afzalligi uqtiriladi.

Montenning “*Les Essais*” asari fransuz tilshunosligi nuqtai nazaridan ko‘p qirrali tilshunoslik terminlari, ularning semantik ko‘lami va kommunikativ funksiyalarining tahliliga asoslanadi. Asarda til (*langue*) oddiy muloqot vositasi sifatida emas, balki tafakkur, idrok hamda ekspressiyaning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Monten “*orthographe*”, “*nom*”, “*mot*”, “*lexique*”, “*jugement*”, “*parole*”, “*écriture*” kabi atamalarni mushtarak (universal) va differensial (kontekstga xos) xususiyatlariga ko‘ra tadqiq qilinmoqda.

Adib “*polysémie*” – ko‘p ma‘nolilik, tilni semantik jihatdan ochiq, o‘zgaruvchan tasvirlashi, tilning noturg‘un tabiati, shakllanayotgan grammatika, ko‘p funksiyalik (*polyfonctionnalité*) va konnotativ boylik sifatida baholagan, shuningdek, “*langue illustre*”, “*langue en devenir*” va “*langage philosophique*” kabi konsepsiyalar orqali yuzuvchi tilga nisbatan zamonaviy tilshunoslikda qabul qilingan konseptual yondashuvlarga yo‘l ochishini o‘rganib chiqadi.

Asarda “*parole*” va “*écriture*” terminlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinib, “*parole*” – bu insoniylikning mohiyati, ichki ovozning tashqi ifodasi, axloqiy majburiyat va sadoqatning belgisi deb qaralganligi, “*écriture*” fikr, xotira, idrok va o‘zlikni anglatuvchi kognitiv faoliyat shakli sifatida ko‘rishi aniqlandi.

³⁵³ Zumbühl D. *La Lettre et la voix : de la Renaissance à Rousseau.* –Paris:1987. –p.301.

Demak, Monten tilni normativlik doirasidan chiqarib, uni jonli, o‘zgaruvchan, ijtimoiy va individual ifoda shakli sifatida ko‘rsatishga kirishganligi “*Les Essais*”dagi “*bilinguisme*” (lotin va fransuz tillari), ortografik variantlar, stilistik ikki tillilik (*bilinguisme stylistique*), fonetik-beqaror yozuvlar va semantik o‘yinlar muallifning ongli poetik strategiyasining ifodasi bo‘lib, tilshunoslik terminlarini amaliy va nazariy darajada tadqiq qilishga imkon beradi hamda terminlar bilim, estetik ifoda va shaxsiy tajribaning vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

5.3. Ingliz va fransuz tillaridagi adabiyotshunoslik hamda lingvistik terminlarning lingvomadaniy uyg‘unlashuvi va o‘zaro ta’siri

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari har bir xalqning madaniy-kognitiv tafakkuri, sivilizatsiyaviy yo‘nalishi va gnoseologik qadriyatlarini mujassamlashtirgan lingvistik birliklar bo‘lib, ularning shakllanishi semantik zarurat, madaniy, tarixiy va asosga tayanadi. Ingliz va fransuz terminologik tizimlari tashqi formal o‘xshashliklariga qaramasdan, o‘zaro qiyosiy tahlilda sezilarli falsafiy, kognitiv va diskursiv tafovutlarga ega. Ingliz tilshunoslik va adabiyotshunoslik atamalari empirik tafakkur, individual idrok hamda funksionalizm asosida shakllanib, jamiyatning kommunikativ ehtiyojlari bilan bog‘liq holda moslashuvchan semantik strukturalarni namoyon eadi, fransuz terminlari esa ratsionalistik tafakkur, estetik normativlik va institutsional maqom bilan belgilanadi.

Ingliz va fransuz tillaridagi adabiyotshunoslik hamda lingvistik terminlar o‘rtasidagi lingvomadaniy uyg‘unlashuv va o‘zaro ta’sirni o‘rganish zamirida har ikki tilning madaniy qadriyatlari, tarixiy rivojlanish yo‘li va estetik me’yorlari yotadi.

Ushbu faslda ingliz va fransuz adabiyot-tilshunoslik terminlarining semantik, stilistik va sintaktik jihatdan uyg‘unligi, ularning madaniyatlararo ta’sirining tahlili kuzatiladi. Terminologik moslik va farqlar grammatik tuzilma, gnoseologik va sivilizatsion dunyoqarashlar zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda nufuzli hisoblangan izohli lug‘atlardan foydalanish orqali yoritildi.

Terminlar mazmuni, ularning stilistik va madaniy funksiyalari, tarixiy rivojlanish traektoriyasi Kris Boldik (*Chris Baldick*) tomonidan tuzilgan “*The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*” (Oxford University Press, 2001) hamda “*Oxford English Dictionary (OED)*”

hamda K.Braun (K.Brown), J.Miller (J.Miller) “The Cambridge Dictionary of Linguistics” lugʻatlariga tayangan holda aniqlandi.

Fransuz tilshunosligi va leksikografiyasiga oid tahlillarda tilshunos Jan Dyubua (*Jean Dubois*) ning “Dictionnaire de linguistique” (Larousse, 2002) va zamonaviy fransuz tilining stilistik va semantik tafsilotlarini ifodalovchi “Le Grand Robert de la langue française” izohli lugʻatlaridan foydalanildi. Ushbu asosiy manbalar yordamida adabiyotshunoslik janrlar, stilistik vositalar, sintaktik birliklar va lingvistik kategoriyalar darajasida terminlar oʻrtasidagi lingvomadaniy uygʻunlik va tafovutlar madaniyatlararo diskurs doirasida tahlil qilindi.

Ingliz va fransuz adabiyotida *adabiyotshunoslik janrlarning* til orqali ifodasi ikki madaniyat oʻrtasida lingvomadaniy uygʻunlikni namoyon etadi. “*Absurd*”³⁵⁴ – “*l’absurde*”³⁵⁵, “*allegory*”³⁵⁶ – “*allégorie*”³⁵⁷, “*ballad*”³⁵⁸ – “*ballade*”³⁵⁹, “*epic*”³⁶⁰ – “*épopée*”³⁶¹ va “*pastoral*”³⁶² – “*pastorale*”³⁶³ kabi janrlarda insoniy izlanishlar, axloqiy qadriyatlar, qahramonlik va tabiat goʻzalligi til obrazlari orqali tasvirlanadi.

Masalan, Xarold Pinter (Harold Pinter) va va Ejen Ionesko (Eugène Ionesco) semantik boʻshliqlar yordamida mavjudlik maʼnosizligini ifodalasa, Jon Bunyan (John Bunyan) va Lafonten (La Fontaine) ramzlar vositasida maʼnaviy gʻoyalarni yetkazadi. Ballada va epik janrlar xalq ogʻzaki ijodi bilan metrik shakllarni uygʻunlashtirib, ohangdorlik yaratadi; pastoral janrda ingliz adabiyoti xalqona soddalikni, fransuz anʼanasi aristokratik ideallarni tarannum etadi.

Boshqa janrlarda ham madaniy tafakkur va til vositalari oʻrtasidagi bogʻliqlik koʻzga tashlanadi. “*Satire*”³⁶⁴ – “*satire*”³⁶⁵, “*fabliau*”³⁶⁶ – “*fabliau*”³⁶⁷ va “*tragedy*”³⁶⁸ – “*tragédie*”³⁶⁹ janrlarida ijtimoiy tanqid, hayotiy donishmandlik va his-tuygʻular tasviri turli til uslublari bilan

³⁵⁴ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.1.

³⁵⁵ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.8 .

³⁵⁶ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.5.

³⁵⁷ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.44.

³⁵⁸ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.24.

³⁵⁹ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.138-139.

³⁶⁰ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.81-82.

³⁶¹ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.611.

³⁶² C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.186.

³⁶³ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.1228.

³⁶⁴ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.228.

³⁶⁵ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.1521.

³⁶⁶ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.93.

³⁶⁷ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.673.

³⁶⁸ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.260.

³⁶⁹ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.1694 –p.

ifodalanadi. “*Dystopia*”³⁷⁰ – “*dystopie*”³⁷¹ hamda “*bildungsroman*”³⁷² – “*roman d’apprentissage*”³⁷³ janrlarida zamonaviy jamiyatdagi tahdidlar va shaxsiy o‘shish mavzulari semantik ifodalar bilan yoritiladi. “*Metafiction*”³⁷⁴ – “*métarecit*”³⁷⁵ va “*epistolary novel*”³⁷⁶ – “*roman épistolaire*”³⁷⁷ janrlarida o‘z-o‘zini anglash, ichki monolog va psixologik holatlarda lingvistik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. “*Frame narrative*”³⁷⁸ – “*récit-cadre*”³⁷⁹ va “*soliloquy*”³⁸⁰ – “*soliloque*”³⁸¹ shakllari orqali fikrlash, dramatik tasvir va estetik tafakkur imkoniyatlari boyitiladi.

Ingliz va fransuz adabiyotshunoslik maktablari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir asosan tarixiy almashinuv va stilistik g‘oya transferi orqali yuzaga keladi. Bu jarayon ko‘pincha adabiyotshunoslik g‘oyalarni o‘zlashtirish, yangi kontekstda talqin qilish va muqobil uslubiy yondashuvlarda ko‘rinadi³⁸². Xususan, “*Absurd*” – “*l’absurde*” janri fransuz ekzistensializmidan ildiz olgan, ammo ingliz dramaturgiyasida realistik sahna vositalari orqali qayta shakllangan. X.Pinter fransuz falsafiy qarashlarini ingliz sahnasining o‘ziga xos tili va muhitida ifodalagan.

“*Allegory*” – “*allégorie*” janrida Lafonten va J.Bunyan o‘rtasidagi ramziy tasvir va didaktik yo‘nalish ikki madaniyatda o‘xshash axloqiy estetikani aks ettiradi.

“*Epic– épopée*” janridagi “*Paradise Lost*” va “*La Chanson de Roland*” asarlari orasidagi qahramonlik obrazlari ikki adabiy maktabning estetik mushtarakligini ifodalaydi. Shu jumladan, “*satire*” – “*satire*” va “*fabliau*” – “*fabliau*” janrlarida ingliz yozuvchilari fransuz hajviy uslublaridan ilhomlanib, o‘zining milliy ifoda shaklini yaratgan. Misol uchun, Choser “*Metafiction*” – “*métarécit*” va “*epistolary novel*” – “*roman épistolaire*” janrlarida postmodern yondashuvlar ikki adabiyot o‘rtasidagi tajriba almashinuvini kuchaytirgan.

³⁷⁰ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.74.

³⁷¹ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.496.

³⁷² C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.27.

³⁷³ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.1584.

³⁷⁴ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford:2001.–p.151.

³⁷⁵ <https://www.lalanguefrancaise.com/dictionnaire/definition/metatextualite#0>

³⁷⁶ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.85.

³⁷⁷ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001.–p.515.

³⁷⁸ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.101.

³⁷⁹ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002.–p.449.

³⁸⁰ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.239.

³⁸¹ [soliloque - Définitions, synonymes, prononciation, exemples | Dico en ligne Le Robert](#)

³⁸² Absalamova G.Sh. Lingvosemantik yondashuvda adabiy-lug‘aviy terminlarning nazariy tahlili: Kris Boldik lug‘ati asosida // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – Toshkent, 2025. – № 8 (5-jild). – B. 155-158.

Ingliz va fransuz adabiy madaniyatida *poetik vositalarning* qo‘llanilishi ko‘plab o‘xshashliklarga ega bo‘lgan. Aytaylik, “*alliteration*”³⁸³ – “*alliteration*”³⁸⁴ tovush uyg‘unligi orqali musiqiylik yaratishda ishlatiladi; ingliz tilida bu vosita dramatik urg‘u beradi, fransuz tilida tovushlar simmetriyasi orqali estetika hosil qiladi. Shuningdek, “*apostrophe*”³⁸⁵ – “*apostrophe*”³⁸⁶ ya’ni bevosita murojaat shakli – har ikki madaniyatda dramatik intensivlikni kuchaytiradi. Ingliz tilida Shekspir, fransuz tilida shu millat dramaturgi Rasin bu uslubni hissiy hayajonni oshirish uchun qo‘llashgan.

“*Oxymoron*”³⁸⁷ – “*oxymoron*”³⁸⁸, “*hyperbole*”³⁸⁹ – “*hyperbole*”, “*metonymy*”³⁹⁰ – “*métonymie*” kabi figurativ vositalar har ikki tilda qarama-qarshilik, bo‘rttirish va nom almashtirish orqali poetik tasvirning estetik kuchini oshiradi. Ayniqsa, “*pun*”³⁹¹ – “*calembour*”³⁹² orqali so‘z o‘yinlari madaniy hazil va tanqidni ifodalaydi; bu vosita Shekspir va Rable asarlarida muhim dramatik effekt yaratadi. “*Euphemism*”³⁹³ – “*euphémisme*”³⁹⁴ va “*rhetorical question*”³⁹⁵ – “*question rhétorique*”³⁹⁶ madaniy va emotsional ta’sir bilan bog‘liq bo‘lib, ingliz va fransuz adabiyotining umumiy madaniy uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Ba’zi *stilistik va poetik vositalar* ingliz hamda fransuz adabiyotida o‘xshash bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish maqsadi, chastotasi, madaniy talqini jihatidan farqlanadi. Misol uchun, “*blank verse*”³⁹⁷ – “*vers blanc*”³⁹⁸ ingliz poeziyasida, xususan Shekspirda erkinlik va tabiiy nutq ifodasida qo‘llanilgan, fransuz adabiyotida bu shakl deyarli ishlatilmaydi, chunki “*alexandrine*” (12 bo‘g‘inli qat’iy o‘lchov) ustuvorlik qiladi. Bunda ikki madaniyatning poetik tafovutni ko‘rish mumkin.

Ingliz va fransuz adabiyotida til va madaniyat uyg‘unligi adabiyotshunoslik matnlarni *tematik va semantik qatlamlarini* yaratishda

³⁸³ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001.–p.6.

³⁸⁴ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. Paris. 2001.–p.20.

³⁸⁵ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001.–p.17.

³⁸⁶ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: Larousse, 2002.–p.44.

³⁸⁷ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001.–p.178-179.

³⁸⁸ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: Larousse, 2002.–p.370.

³⁸⁹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001.–p.178-119.

³⁹⁰ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001.–p.178-154.

³⁹¹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. Oxford. 2001.–p.178-209.

³⁹² –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. Paris. 2001.–p.221.

³⁹³ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.178-189.

³⁹⁴ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.53.

³⁹⁵ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.178-218.

³⁹⁶ <https://www.lalanguefrancaise.com/linguistique/question-rhetorique>

³⁹⁷ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.178-28.

³⁹⁸ <https://www.lalanguefrancaise.com/linguistique/question-rhetorique>

muhim o‘rin tutadi. Bu uyg‘unlik “*symbol*”³⁹⁹ – “*symbole*”⁴⁰⁰ termini orqali yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, “*elegy*”⁴⁰¹ – “*élégie*”⁴⁰² janri ingliz va fransuz lirikasini poetik tilda ifoda etadi.

Hikoya qilish uslubi ham madaniy uyg‘unlashuv mezoni sifatida qaraladi. “*Narrative*”⁴⁰³ – “*narration*”⁴⁰⁴ va “*narrator*”⁴⁰⁵ – “*narrateur, trice*”⁴⁰⁶ terminlari qissaning umumiyligi (*frame narrative*) va hikoyachining ovozi ifodalaydi.

Lingvistik ijtimoiy qatlam ham til va madaniyat birikuvida o‘z aksini topadi. “*Register*”⁴⁰⁷ – “*registre*”⁴⁰⁸ orqali ingliz tilida formal va informal uslublar farqlanadi. Fransuz tilida esa uch bosqichli stilistik daraja (*soutenu, courant, familière*) mavjud.

Adabiy matnlardagi takrorlanuvchi obrazlar, ya’ni “*motif*”⁴⁰⁹ – “*motif*”⁴¹⁰ tushunchasi madaniy hissiyotlarni (*oy, dengiz, yo‘qotish*) til orqali tematik birlikni yaratadi. Bu obrazlar madaniyatlararo estetik kod sifatida xizmat qiladi. Yashirin ma’no va emotsional qiymat ifodasida “*connotation*”⁴¹¹ – “*connotation*”⁴¹² orqali ifodalanadi. “*Home*” va “*chez moi*” kabi so‘zlar har bir tilda madaniy konnotatsiyalarni yaratib, lingvistik ifoda vositalarining madaniy ong bilan uyg‘unlashganligidan dalolat beradi.

Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, ingliz va fransuz tillarining *sintaktik tizimi* grammatik me’yorlar va til madaniyati bilan bog‘liqdir⁴¹³. “*Sentence*”⁴¹⁴ (ingliz tilida) har qanday tugallangan fikrni bildiruvchi gapni, fransuz tilida “*phrase*”⁴¹⁵ strukturaviy aniqlik, sintaktik to‘liqlik va madaniy xususiyatni aks ettiradi. “*Subject*”⁴¹⁶ – “*sujet*”⁴¹⁷ va “*object*” – “*objet*”⁴¹⁸ elementlari ham madaniy til

³⁹⁹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.252.

⁴⁰⁰ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.1626.

⁴⁰¹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.76.

⁴⁰² –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris. 2001. –p.557.

⁴⁰³ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001.–p.165.

⁴⁰⁴ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.1136.

⁴⁰⁵ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford; 2001.–p.166.

⁴⁰⁶ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris: 2001. –p.1134,

⁴⁰⁷ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001. –p.215.

⁴⁰⁸ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris. 2001. 1435 –p.

⁴⁰⁹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.162.

⁴¹⁰ –P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. –Paris:2001. –p.1115.

⁴¹¹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford; 2001. –p.49.

⁴¹² Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.169.

⁴¹³ Absalamova G.Sh. Lingvistik va adabiy terminlarning funksional-ma’no jihatlarini va qo‘llanish shartlari // Agro ilm. – Samarqand, 2025. – Maxsus son 6 [115]. – B. 219-220.

⁴¹⁴ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.189.

⁴¹⁵ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.416.

⁴¹⁶ The Oxford English Dictionary. –Oxford: 1989. –p.1614.

⁴¹⁷ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.506-507.

⁴¹⁸ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002.–p.383.

me'yorlari bilan belgilanadi. So'z tartibi (*word order*⁴¹⁹ – *ordre des mots*⁴²⁰) masalasida ingliz tilida qat'iy *SVO* tartibi ustuvor bo'ladi, fransuz tilida "*inversion*⁴²¹" sintaktik o'zgarishlarga keng imkoniyat beriladi.

"*Complement*⁴²²" – "*complément*⁴²³" tushunchasi ham ikki tilda madaniy farqlilikni aks ettiradi. Ingliz tilida to'ldiruvchi unsurlar nisbatan erkin joylashtirilsa, fransuz tilida bu birliklar qat'iy sintaktik qoidalarga bo'ysunadi.

"*Determiner*⁴²⁴" – "*déterminant*⁴²⁵" terminlari ingliz tilida kontekstdan kelib chiqadigan "*a*", "*the*" kabi soddaroq shakllar orqali ishlatilsa, fransuz tilida rod va sonni ham bildiradigan "*le*", "*la*", "*les*" kabi murakkabroq sistemani talab qiladi.

"*Tag question*⁴²⁶" – "*interrogation*⁴²⁷" konstruksiyalari orqali ham lingvomadaniy tafovutlar seziladi. Ingliz tilida bu iboralar sintaktik to'ldirish va muloqotdagi ishonchni tekshirishda ishlatiladi ("*You came, didn't you?*"), fransuz tilida ("*Tu viens, n'est-ce pas?*") ko'proq stilistik muvozanat yaratish, suhbatdosh bilan madaniy muvofiqlikni saqlaydi.

Ingliz va fransuz tillari orasidagi madaniy semantik tafovutlar "*mood*⁴²⁸" – "*mode*⁴²⁹" kategoriyasi orqali ko'zga tashlanadi. Ingliz tilida modal fe'llar orqali (masalan, "*can*", "*must*") ehtiyoj, imkon va majburiyatni bildiradi, fransuz tilida bu ma'no "*subjonctif*", "*conditionnel*" kabi mustaqil grammatik mayllar bilan, ko'pincha noaniqlik, ehtimollikni ifodalash maqsadida qo'llaniladi. Fransuz madaniyatida til orqali ijtimoiy hurmat, ehtiyotkorlik va diplomatik ifodaga alohida urg'u berilishini ko'rsatadi.

Ingliz va fransuz tillarining *morfologik birliklari va grammatik tuzilmalarida* til tizimining xarakteri, madaniy rasmiylik, stilistik me'yorlar va estetik qadriyatlar bevosita ifodasini topadi. "*Affix*⁴³⁰" – "*affixe*⁴³¹", "*prefix*⁴³²" – "*préfixe*⁴³³" va "*suffix*⁴³⁴" – "*suffixe*⁴³⁵" kabi

⁴¹⁹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford: 2001. –p.255.

⁴²⁰ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002.–p.337.

⁴²¹ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002.–p.267.

⁴²² Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.p 195.

⁴²³ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. Paris: Larousse, 2002.–p.158.

⁴²⁴ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.131.

⁴²⁵ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002.–p.140.

⁴²⁶ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.445.

⁴²⁷ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002.–p.255.

⁴²⁸ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge; 2013. –p.293.

⁴²⁹ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002.–p.306.

⁴³⁰ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.16.

⁴³¹ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002.–p.24.

⁴³² Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.16.

⁴³³ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.377.

birliklar ingliz tilida semantik yuklamaga ega bo‘lib, tilni soddalashtirish va funksional qulaylikka xizmat qiladi. Aksincha, fransuz tilida bu birliklar morfologik va grammatik vazifalarni bajaradi: ayniqsa fe‘l tuslanishi, rod, son kelishuvi, zamon, mayl ifodasida ularning normativ ahamiyati yuqori sanaladi.

“*Inflection*⁴³⁶” – “*flexion*⁴³⁷” elementi ingliz va fransuz tillarining morfologik tabiati o‘rtasidagi chuqur tafovutni yoritadi. “*Agglutinative language*⁴³⁸” – “*langue agglutinante*⁴³⁹” atamasi har ikkala tilning agglutinativ til bo‘lmagaligini bildiradi. Fransuz tilida qo‘shimchalar vositasida barqaror grammatik birliklar, ingliz tilida yordamchi so‘zlar vositasida ifoda berish afzal ko‘riladi.

“*Number*⁴⁴⁰” – “*nombre*⁴⁴¹” tizimi orqali grammatik shakl va talaffuz o‘rtasidagi madaniy tafovut namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida birlik va ko‘plik shakllari “-s” qo‘shimchasi bilan farqlansa, fransuz tilida bu grammatik jihatdan yozma shaklda aniq ifodalanadi, talaffuzda farq deyarli sezilmaydi va fransuz tilida og‘zaki nutqdagi ixchamlik, yozmadagi rasmiylik o‘rtasida madaniy tafovutni yuzaga keltiradi.

“*Tense*⁴⁴²” – “*temps*⁴⁴³” va “*aspect*⁴⁴⁴” – “*aspect*⁴⁴⁵” kabi birliklar orqali ikki tilning vaqt tushunchasiga yondashuvi ko‘zga tashlanadi. Ingliz tilida zamon va grammatik shakllar (*perfect, progressive*) orqali, fransuz tilida perifrastik konstruksiyalar yordamida (masalan, *être en train de*) beriladi.

“*Voice*⁴⁴⁶” – “*voix*⁴⁴⁷” va “*passive voice*” – “*voix passive*⁴⁴⁸” birliklarida har ikki tilda passiv ifoda mavjud, fransuz tilida rod va son bilan grammatik me‘yorlariga, ingliz tilida bog‘lanishlar ko‘proq kontekstual moslashuvga tayanadi, natijada ingliz tili stilistik soddalikni saqlab qoladi, fransuz tili grammatik aniqlik va rasmiylikni ta‘minlaydi.

⁴³⁴ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.448.

⁴³⁵ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.466.

⁴³⁶ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.227. –p.228.

⁴³⁷ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.204.

⁴³⁸ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.p 17.

⁴³⁹ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.22.

⁴⁴⁰ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge:2013. –p.316-317.

⁴⁴¹ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.325-326.

⁴⁴² Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge:2013.–p.437-438.

⁴⁴³ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.478.

⁴⁴⁴ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.436-437.

⁴⁴⁵ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.53.

⁴⁴⁶ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.466-467.

⁴⁴⁷ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.509.

⁴⁴⁸ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.352.

“*Verb*⁴⁴⁹” – “*verbe*⁴⁵⁰” ingliz tilida fe’l shakllari soddaroq va kam tuslanishli bo‘lib, yordamchi fe’llar yordamida ma’no kengaytiriladi. Fransuz tilida fe’l shakllari rod, son, shaxs, zamon va modalitetga ko‘ra murakkab tarzda o‘zgaradi.

Ingliz va fransuz tillaridagi *pronominal birliklar* va artikllar grammatik tizimni shakllantiradi, har bir tilning normativlik tamoyillarini ifoda etadi. “*Pronoun*⁴⁵¹” – “*pronom*⁴⁵²” ingliz tilidagi shaxs olmoshlari (*he, she, it*) odatda neytral kontekstda ishlatiladi. Fransuz tilidagi pronomlar (*il, elle, ce*) rod, son va gapdagi rolga qarab murakkab morfosintaktik tizimda shakllanadi.

“*Reflexive pronoun*⁴⁵³” – “*pronom réfléchi*⁴⁵⁴” ingliz tilida refleksiv olmoshlar (*himself, themselves*) asosan sintaktik talabga qarab ishlatiladi. Fransuz tilida refleksiv birliklar (*se, me, nous*) olmoshli fe’llar vositasida har bir gapda tartibga ega (masalan, *se laver*).

“*Possessive pronoun*⁴⁵⁵” – “*pronom possessif*⁴⁵⁶” egalik olmoshlari ingliz tilida (*my, your, his*) kontekstdan kelib chiqib soddalashtirilgan shaklda, nisbatan erkin ishlatiladi. Fransuz tilidagi egalik olmoshlari (*mon, ma, mes*) rod va son bilan grammatik uyg‘unlikda qo‘llaniladi.

“*Article*⁴⁵⁷” – “*Article défini/indéfini*⁴⁵⁸” ingliz tilidagi artikllar (*a/an, the*) aniqlik darajasini bildirib, kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Fransuz tilidagi artikllar (*le, la, les, un, une, des*) rod va son bilan grammatik bog‘lanadi.

So‘z turkumlari va pronominal birliklar darajasida ingliz va fransuz tillari o‘rtasidagi lingvomadaniy bog‘liqlik grammatik struktura va madaniy iboralarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ingliz tili ushbu birliklardan moslashuvchan, fransuz tili grammatik qat’iylik bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llaydi.

“*Nominalization*⁴⁵⁹” – “*nominalization*⁴⁶⁰”, “*syntax*⁴⁶¹” – “*syntaxe*⁴⁶²” va “*adposition*⁴⁶³” – “*adposition*” kabi lingvistik birliklar

⁴⁴⁹ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge. 2013.p 462-463.

⁴⁵⁰ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. Paris: Larousse, 2002. –p.505.

⁴⁵¹ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge. 2013.–p.437.

⁴⁵² Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: Larousse, 2002. –p.356-357.

⁴⁵³ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge. 2013.–p.377.

⁴⁵⁴ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. Paris: Larousse, 2002. –p.405.

⁴⁵⁵ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics.– Cambridge. 2013.p 350.

⁴⁵⁶ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. Paris: Larousse, 2002. –p.373.

⁴⁵⁷ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. Cambridge. 2013.–p.35.

⁴⁵⁸ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. Paris: Larousse, 2002. –p.108.

⁴⁵⁹ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013. –p.309-310.

⁴⁶⁰ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.378.

⁴⁶¹ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.431.

⁴⁶² Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.468.

⁴⁶³ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.13.

til tizimining shakllanishida Grammatik va kommunikativ normalalar bilan bog‘liqdir. “*Nominalization*” – “*nominalization*” ingliz tilida fe‘l negizidan ot yasash (*to decide* → *decision*; *to move* → *movement*) orqali hosil bo‘lgan birliklar tilning analitik, soddalashtirilgan va funksional xususiyatlarini aks ettiradi. Fransuz tilida nominalizatsiya (*décider* → *décision*) grammatik murakkablik, stilistik nafislik hamda yozma madaniyatdagi yuqori ekspressivlik vositasi sifatida qadrlanadi.

“*Syntax*” – “*syntaxe*” ingliz sintaksisi nisbatan erkin, kontekstga moslashuvchan va iqtisodiy bo‘lib, asosan so‘zlarning tartibiga (SVO) tayangan holda ishlaydi. Bu hol ingliz tilida ifoda, tezkorlik va kommunikativ samaradorlikka yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Qarama-qarshi ravishda fransuz sintaksisi qat‘iy normativ qoidalarga, grammatik moslik va stilistik barqarorlikka asoslangan bo‘lib, til orqali ijtimoiy maqomni saqlash, rasmiylikni ta‘minlash, madaniy uyg‘unlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, sintaktik tuzilmaning o‘ziga xosligi har ikki tilning madaniy til yuritish an‘analarini aks ettiradi.

“*Adposition*” – “*adposition*” (*préposition*⁴⁶⁴ – *postposition*⁴⁶⁵) ingliz tilida adpozitsiyalar sodda va amaliy ko‘rinishda ishlatiladi (*on the table, at home*) hamda “*phrasal verb*” shaklida so‘z oxirida ham kelishi mumkin (*look up, turn off*) hamda strukturalar tilning moslashuvchan, erkin va semantik jihatdan ko‘p ma‘noli ifodalar yaratishga moyilligini bildiradi. Fransuz tilida esa prepozitsiyalar (*à Paris, avec moi*) faqat so‘z oldida qat‘iy tartibda keladi va sintaktik tuzilma doirasida formal grammatik me‘yorlar asosida qo‘llaniladi.

Fonologik tizim va talaffuzga oid birliklar ingliz va fransuz tillaridagi talaffuz, urg‘u va intonatsiya tizimlarining asoslarini yoritadi. Ingliz tilidagi “*phoneme*⁴⁶⁶” tushunchasi allofonlar bilan aniqlanadi, fonemik farqlash funksional ma‘no ajratish imkonini beradi. Fransuz tilidagi “*phoneme*⁴⁶⁷” tushunchasi talaffuzdagi fonologik izchillikka tayanadi. Ingliz tilida “*intonation*⁴⁶⁸” axborot markazi va pragmatik nuqtai nazarni, ohang va kommunikativ maqsadni belgilaydi. Fransuz tilida “*intonation*⁴⁶⁹” termini grammatik ohanglilikni tartibga soladi, talaffuzning madaniy qiymatini oshiradi. Ingliz tilidagi “*stress*” urg‘u orqali so‘zlar o‘rtasida semantik tafovut keltirib chiqaradi, fransuz tilida

⁴⁶⁴ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.376-377.

⁴⁶⁵ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.376-374.

⁴⁶⁶ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013. –p.339.

⁴⁶⁷ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.359.

⁴⁶⁸ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013. –p.251.

⁴⁶⁹ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.310.

“*accentuation*⁴⁷⁰” fonologik jihatdan barqaror bo‘lib, so‘z oxiriga urg‘ulanadi va talaffuzning musiqiy ohang estetik qiyofasini tashkil etadi.

Semantik birliklar va ma‘no qatlamlari lingvomadaniy tafovutlarni o‘zida mujassam etadi. Ingliz tilidagi “*metonymy*⁴⁷¹” termini soddalik, muloqotda tejamkorlik va dinamiklikni ta‘minlaydi. Fransuz tilidagi “*métonymie*⁴⁷²” atamasi tarixiy ramzlar, stilistik va madaniy konnotatsiyalar bilan uyg‘unlashadi. Ingliz tilida “*polysemy*⁴⁷³” kontekst orqali farqlanadi, tilning moslashuvchanligini ifodalaydi. Fransuz tilida “*polysémie*⁴⁷⁴” termini rasmiy yozma nutqda ijtimoiy tafakkur va stilistik darajani aniqlovchi vosita sifatida qadrlanadi. Har ikki tilda mavjud bo‘lgan “*semantics*” sohasi ingliz tilida dinamik, funksional yondashuvda, fransuz tilida nazariy, madaniy qatlamlarni ifoda etuvchi uslubda rivojlangan.

Ingliz tilida “*focus*⁴⁷⁵” atamasi urg‘u va so‘z tartibi orqali ajratilib, axborot nuqtasi belgilanadi. Fransuz tilida “*focus*⁴⁷⁶” termini stilistik va sintaktik tartib asosida shakllanib, ifoda estetikasini ta‘minlaydi. “*Anaphora*⁴⁷⁷” va “*cataphora*⁴⁷⁸” terminlari ingliz tilida diskurs soddaligi va izchilligini, fransuz tilida bu birliklar sintaktik qat‘iylik va stilistik tafakkur orqali mustahkamlanadi.

Ingliz tilidagi “*clitic*⁴⁷⁹” termini fonetik qisqartma shakllarida og‘zaki nutqni yengillashtiradi. Fransuz tilida “*clitique*⁴⁸⁰” termini talaffuz me‘yoriga bog‘langan. Ingliz tilida “*binding*⁴⁸¹” sintaktik bog‘lanish sifatida namoyon bo‘ladi. Fransuz tilida “*théorie de l’anaphore*⁴⁸²” termini ijodiy yondashuv va stilistik moslashuvni ta‘minlaydi.

Ingliz tilidagi “*deixis*⁴⁸³” termini kontekstual nuqtai nazar va fazoviy-voqelikni, fransuz tilidagi “*déixis*⁴⁸⁴” ijtimoiy masofa, madaniy muomala va hurmatni ifodalaydi. Ingliz tilida “*person deixis*” “*you*”

⁴⁷⁰ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.3-4.

⁴⁷¹ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford:2001. –p.154.

⁴⁷² Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.302-303.

⁴⁷³ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford. 2001. –p.199.

⁴⁷⁴ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.369.

⁴⁷⁵ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013. –p.174.

⁴⁷⁶ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.204.

⁴⁷⁷ C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. –Oxford:2001.–p.199.

⁴⁷⁸ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.66.

⁴⁷⁹ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics.– Cambridge: 2013.–p.81.

⁴⁸⁰ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.89.

⁴⁸¹ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.51-52.

⁴⁸² Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.36.

⁴⁸³ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge: 2013.–p.125.

⁴⁸⁴ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.432.

zamonaviy, neytral murojaatni, fransuz tilida “*déixis personnelle*” “*tu/vous*” madaniy etiketni aks ettiradi. Ingliz tilida “*politeness*” “*please*”, “*would you mind*” kabi iboralarda ifodalangan oddiy xushmuomalalik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Fransuz tilida “*politesse*” grammatik vositalar orqali madaniy darajadagi hurmat, ehtiyotkorlik va rasmiy muloqot me‘yorlarini shakllantiradi.

Leksik birliklar va so‘z yasaliş guruhidagi terminlar tillararo ta‘sir, tarixiy almashinuv va madaniy xususiyatlarni yoritadi. Ingliz tilida “*idiom*⁴⁸⁵” termini og‘zaki nutqni soddalashtirishga, zamonaviy muloqotda qulay ifoda sifatida faol qo‘llaniladi. Fransuz tilida ushbu termin ko‘proq yozma uslub va milliy-estetik tafakkur, tarixiy-madaniy konnotatsiyalarni mujassamlashtiradi.

Ingliz tilidagi “*loanword*⁴⁸⁶” atamasi ingliz tilining “*restaurant*”, “*ballet*” kabi fransuzcha so‘zlarni, fransuz tilidagi “*emprunt*”⁴⁸⁷ termini esa fransuz tilining “*weekend*”, “*parking*” kabi inglizcha birliklarni qabul qilganini bildiradi. Ingliz tilidagi “*compound*⁴⁸⁸” terminini ifodalovchi birliklar “*blackboard*”, “*babysitter*” kabi erkin yaratilsa, fransuz tilida “*mot compose*⁴⁸⁹” grammatik qoidalarga mos holda “*porte-monnaie*” shaklida barqaror strukturada shakllanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va fransuz tillaridagi lingvistik hamda adabiyotshunoslik terminlari madaniy tafakkur, tarixiy shakllanish va estetik qadriyatlarining bevosita aksidir. Adabiy janrlar, stilistik vositalar, sintaktik tuzilmalar va morfologik birliklarning tahlili har ikki tilning o‘ziga xos madaniy mezonlar asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Ingliz tili soddalik, kommunikativ qulaylik va empirik yondashuvga tayansa, fransuz tili sintaktik qat‘iylik, estetik izchillik va ijtimoiy rasmiylikni ifodalaydi.

Shunday qilib, ingliz va fransuz tillari o‘rtasidagi lingvomadaniy uyg‘unlashuv nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik va kognitiv sferalar kesishmasida yuzaga keladigan murakkab, ammo izchil hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

⁴⁸⁵ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge:2013.–p.218.

⁴⁸⁶ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. – Cambridge: 2013.p 271.

⁴⁸⁷ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.177.

⁴⁸⁸ Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. –Cambridge:2013. –p.93-94.

⁴⁸⁹ Dubois J., Giacomo, F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. –Paris: 2002. –p.73-74.

V bob bo'yicha xulosa

1. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik terminlari har bir tilda o'ziga xos, estetik qadriyatlari va ijtimoiy-kognitiv tafakkuri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jihatlari ularning semantik, stilistik hamda diskursiv shakllanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Mishel Montening "Les Essais" asarida "essai", "fantaisie", "fiction", "métaphore", "proverb" kabi terminlar orqali fransuz madaniy-estetik tafakkurining qatlamlari oydinlashib, har bir atama muallifning tafakkur usuli, tilga munosabati va zamonaviy fransuz adabiy diskursini shakllantirishdagi roli orqali lingvomadaniy birlikka aylanganligi aniqlandi.

2. Monten tilni faqat muloqot vositasi emas, balki tafakkur va ontologik izlanish shakli sifatida talqin qilib, "langue", "parole", "écriture", "orthographe", "polysémie" singari terminlar orqali tilning beqaror, o'zgaruvchan, konnotativ va ko'p funksiyali tabiatini ochib beradi. Matndagi lingvistik birliklar yozuvchi tafakkurining harakatchanligi, madaniy qatlamlar va ichki nutq (voix intérieure) bilan qanday uyg'unlashganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Monten imloviy erkinlik, stilistik beqarorlik va individual yozuv uslubini ongli poetik strategiya sifatida ilgari surganligi namoyon bo'ldi.

3. Ingliz va fransuz tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminologiyasi tashqi o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, ularning semantik yuklamasi, madaniy funksiyasi va kognitiv nuqtai nazari sezilarli farq qiladi. Ingliz terminlari empirik tafakkur, kontekstga moslashuvchanlik va soddalashtirishga asoslangan bo'lsa, fransuz terminlari ratsionalistik struktura, stilistik qat'iylik va estetik institutsionallik bilan belgilanadi. Bu tafovut adabiy janrlar, sintaktik birliklar, morfologik va semantik sistemalardagi lingvomadaniy uyg'unlashuvda yaqqol o'z aksini topganligi kuzatildi.

4. "Absurd–l'absurde", "allegory–allégorie", "epic–épopée", "pastoral–pastorale", "metafiction–métarécit" kabi terminlar ingliz va fransuz adabiy madaniyatida lingvistik vosita sifatida insoniy izlanish, axloqiy g'oya, dramatik intensivlik va poetik o'zlikni ifoda etdi. Xuddi shuningdek, stilistik birliklar – "oxymoron", "hyperbole", "metonymy", "euphemism" singari terminlar ikki madaniyatdagi estetik ifoda vositasi sifatida madaniy hodisalarni tilda jonlantirishga xizmat qilib, bu orqali til va madaniyat o'zaro uyg'unlashuvi, har bir tilda stilistik vositalar milliy tafakkur bilan integrallashgan holda faol qo'llanilishi zohir bo'ladi.

5. Ingliz va fransuz tillaridagi tilshunoslik birliklari sintaktik, morfologik, semantik va pragmatik darajalarda nafaqat grammatika tizimi, balki ularning madaniy tafakkuri, estetik qarashlari va kommunikativ qadriyatlarini ham ifodalaydi. Ingliz tili pragmatik moslashuvchanlik, minimalizatsiya va empirik soddalikka tayangan bo'lsa, fransuz tili normativ qat'iylik, stilistik barqarorlik va ijtimoiy maqomga asoslangan ifoda usulini afzal ko'radi. *“Syntax–syntaxe”*, *“article–article”*, *“tag question–question rhétorique”*, *“politeness–politesse”* kabi birliklar orqali har bir til o'zining madaniy diskursini shakllantirgan bo'lib, bu hodisa ingliz-fransuz lingvistik terminologiyasida madaniyat bilan bog'liq semantik izchil bog'liqlikni yaqqol ifodalaydi.

XULOSA

1. Tadqiqotda ingliz va fransuz tillarida shakllangan lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy, semantik-konseptual, milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish hamda tadqiq qilish borasida xorij va o‘zbek olimlari, jumladan, O.Vyuster, M.Kabre, M.K.Lom, F. de Sossyur N.Chomskiy, J.Lakoff, D.Kristal, J.Lich, J.Layons, S.Bessnett I.V.Arnold, M.Alekseyeva, H.Dadaboyev, M.Umarxo‘jayev, I.Mirzayev, O.Axmedovning til va ma’no o‘rtasidagi aloqalarining semantik-paradigmatik negizi, terminlarning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, logika, ontologiya va informatika bilan bog‘liq umumnazariy asoslari, gnoseologik, epistemologik, sotsiolingvistik hamda kognitiv aspektlari, strukturaviy qurilishi, semantik differensial belgilari, kognitiv talqini hamda diskursiv nazariyalariga tayanildi. Ushbu yondashuvlar orqali terminlarning ilmiy bilish, til tizimi va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liqligi oydinlashdi. Terminlar faqat nomlash vositasi bo‘lib qolmay, bilimlarni ijtimoiy muomalaga kirituvchi va diskurslarni belgilovchi metodologik birlik sifatida qaralganligi aniqlandi.

2. Tadqiqot doirasida adabiyotshunoslik va lingvistik terminlarning morfosintaktik va leksik tarkibi qiyosiy tahlil qilinib, ingliz tilida qisqa, moslashuvchan va konversiyaga moyil tuzilmalar, fransuz tilida ko‘p komponentli, predlogli va qoidalarga asoslangan konstruksiyalar ustuvor ekani aniqlandi. Ularning semantik yadro sohasi va paradigmatik tarmog‘i lingvokulturologik model orqali tavsiflanib, har bir terminning ichki struktura va tashqi diskursdagi o‘rni belgilangan o‘rni o‘rganildi.

3. Tadqiqot doirasida tilshunoslik terminlarining shakllanishi tarixiy-lisoniy bosqichlar (antik davr, o‘rta asrlar, ma’rifatparvarlik, zamonaviy strukturalizm va poststrukturalizm) kontekstida ko‘rib chiqildi. Har ikki tildagi terminlarning rivojlanishida lotin va yunon manbalarining chuqur ta’siri, fransuz tili grammatika nazariyasining ingliz tilida paradigmatik talqinlarning ustuvorligi aniqlanib, rivojlanish istiqbollari raqamli madaniyat, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tarjima vositalari ta’sirida global konvergensiya yo‘naltirilganligi namoyon bo‘ldi.

4. “Dictionnaire des littératures de langue française” lug‘atidagi fransuz adabiyotshunoslik terminlarining semantik va definitson xususiyatlari fransuz adabiyotshunosligiga xos “*métaphore*”, “*allegorie*”, “*lyrisme*”, “*tragédie*”, “*classique*” kabi terminlarning

tarixiy genezisi, ijtimoiy-estetik yuklamasi va definitson qatlamlari bo'yicha semantik tahlil amalga oshirildi. Fransuz adabiy tafakkurining klassikadan modernizmga qadar bo'lgan bosqichlarida bu terminlar g'oyaviy identifikatsiya vositasiga aylanganligi aniqlanib, ular orqali fransuz adabiy makonining tarixiy-madaniy rivojlanishi yoritib berildi.

5. "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" lug'atida aks etgan lingvistik terminlarning semasiologik tavsifida leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan "*phoneme*", "*morpheme*", "*syntax*", "*semantics*", "*intertextuality*", "*idiolect*" kabi terminlar tilshunoslik va adabiyotshunoslik o'rtasidagi bog'lovchi bilim sohalari sifatida ko'rib chiqilib, mazkur lug'at strukturalistik va poststrukturalistik modeldagi tushunchalarni o'zida jamlagan semasiologik jihatdan har bir kontekstda o'zgaruvchan ma'no komponentlarini ifodalashi ravshanlashdi.

6. Tadqiqot davomida ingliz va fransuz tillaridagi lingvistik hamda adabiyotshunoslik terminlarining hosil bo'lish mexanizmlari affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, semantik kengayish, metaforizatsiya holatlari asosida o'rganilib, har ikki til terminotizimida derivatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari, ingliz tilida qisqa va pragmatik modelga, fransuz tilida grammatik qoidalariga sodiq bo'lgan yasaliş me'yorlariga ustuvorlik berilishi aniqlandi. Shuningdek, kelib chiqish manbalari bo'yicha lotincha va yunoncha ildizlar, o'zaro tillararo almashinuv vositasida shakllangan birliklarning faol roli ma'lum bo'ldi.

7. Ingliz tilidagi tilshunoslik terminlari xususan: "*phonology*", "*syntax*", "*morphology*", "*discourse*", "*language*", "*speech*", "*computer linguistics*", "*deep learning*", "*compound*", "*narrative*", "*genre*", "*text*", "*structure*" fransuz tilidagi tilshunoslik terminlari: "*langue*", "*parole*", "*écriture*", "*orthographe*", "*polysémie*", "*discours*", "*narration*", shuningdek ingliz tilidagi adabiyotshunoslik terminlari: "*poetics*", "*rhetoric*", "*fiction*", "*fantasy*", "*essay*", "*metaphor*", "*proverb*", "*romance*", "*reform*", "*utopia*", "*narrative*", "*structure*" singari, fransuz tilidagi adabiyotshunoslik terminlari: "*essai*", "*fantaisie*", "*fiction*", "*métaphore*", "*proverbe*", "*classicisme*", "*vraisemblance*", "*raison*", "*essai philosophique*", "*égalité*", "*réforme*", "*utopie*", "*existentialisme*", "*surréalisme*" kabi birliklarning g'oyaviy, falsafiy va stilistik qatlamlarda ifodalanganligi, ularning zamon, makon kesimida o'zgaruvchanligini ko'rsatuvchi xulosalar berilib, tadqiqot natijalariga ko'ra, bu terminlar orqali madaniy

zamonaviylikning tarkibiy-mazmuniy, milliy-madaniy xususiyatlari va estetik talqini ochiqlandi.

8. Tadqiqotda “*stream of consciousness*”, “*allegory*”, “*parody*”, “*metatheatre*”, “*bildungsroman*” kabi adabiyotshunoslik terminlarining zamonaviy adabiy tanqid nazariyalari bilan uygʻun tahlil qilinib, adabiy tafakkurning murakkab qatlamlarini ochishda samarali vosita ekanligi yoritildi. “*Freedom–liberté*”, “*genre–genre*”, “*narrative–narration*”, “*discourse–discours*” kabi parallel terminlar asosida ikki til terminlarining madaniy va konnotativ farqlanishi kuzatildi. Ingliz tilidagi terminlar individualizm, amaliy yondashuv va zamonaviylik timsoli sifatida namoyon boʻlsa, fransuz tilidagi muqobillari tarixiy-estetik, ijtimoiy-normativ va falsafiy tafakkur bilan bogʻliqligi oydinlashdi.

9. “Petit Larousse Illustré” lugʻatidagi morfologik, sintaktik va semantik birliklar tahlil qilinib, ularning konseptual chegaralari ochiqlanib, ensiklopedik va stilistik koʻrinishlari uygʻun ifoda topganligi tahlil qilingan boʻlsa, “Le Grand Robert” lugʻatida sinonimik paradigmalarning tahlili kontekstual asosda semantik nozikliklar, uslubiy farqlanishlar va funksional oʻrin almashish holatlari aniqlandi.

10. Tadqiqotda ingliz va fransuz lingvo-adabiyotshunoslik terminlarining tarjima jarayonlaridagi semantik siljish, konnotativ noaniqlik va madaniy kodlarning uygʻunlashuvi tahlil qilinib, oʻzaro madaniy identifikatsiya asosida paydo boʻlgan lingvokulturologik uygʻunliklar aniqlanib, “*genre–genre*”, “*liberty–liberté*”, “*tragedy–tragédie*” kabi juftliklar orqali adabiyot-estetik qiymatlarning transmadaniy konvergentsiyasi tavsiflab berildi.

11. Tadqiqotda fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika, stilistika, poetika va narratologiyaga oid terminlarning tematik guruhlarini tuzilib, ularning paradigmatic, sintagmatic va giponimik aloqalari asosida tartiblanganligi koʻrsatildi. Tadqiqot natijalariga koʻra, bu tasniflash nafaqat tizimlashtirishga xizmat qilishi, balki har bir terminning nazariy kontekstdagi epistemik funksiyasini ochib berishda tayanch omil ekanligi dalillandi.

ATAMALAR IZOHI

1– qism. Linqvistik terminlar

1. (En) **Affix**; (Fr) **affixe** (n.m) – Soʻzga qoʻshiladigan grammatik birlik
2. (En) **Allomorph**; (Fr) **allomorphe** (n.m) – Bir morfemaning turli fonologik shakllari
3. (En) **Allophone**; (Fr) **allophone** (n.m) – Fonemaning talaffuzdagi variantlari
4. (En) **Anaphora**; (Fr) **anaphore** (n.f.) – Oldingi birlikka ishora qiluvchi birlik
5. (En) **Antonym**; (Fr) **antonyme** (n.m) – Qarama-qarshi maʼnoli soʻz
6. (En) **Article**; (Fr) **article** (n.m) – Aniqlik/noaniqlik bildiruvchi birlik
7. (En) **Aspect**; (Fr) **aspect** (n.m) – Harakatning vaqt koʻrinishini bildiruvchi birlik
8. (En) **Assimilation**; (Fr) **assimilation** (n.f.) – Tovushlarning bir-biriga taʼsiri bilan oʻzgarishi
9. (En) **Clause**; (Fr) **proposition** (n.f.) – Mustaqil yoki ergash gap boʻlagi
10. (En) **Collocation**; (Fr) **collocation** (n.f.) – Soʻzlar orasidagi barqaror bogʻlanish
11. (En) **Complement**; (Fr) **complément** (n.m) – Gapda feʼl, sifatni toʻldiruvchi unsur
12. (En) **Compound**; (Fr) **mot composé** (n.m) – Ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan birlik
13. (En) **Conjunction**; (Fr) **conjonction** (n.f.) – Soʻz yoki gaplarni bogʻlovchi birlik
14. (En) **Constituent**; (Fr) **constituant** (n.m) – Gapdagi tarkibiy boʻlak
15. (En) **Conversion**; (Fr) **conversion** (n.f.) – Soʻz turkumining oʻzgarishsiz oʻzgarishi
16. (En) **Derivation**; (Fr) **dérivation** (n.f.) – Yasalma soʻz hosil qilish jarayoni
17. (En) **Determiner**; (Fr) **déterminant** (n.m) – Ot oldidan kelib aniqlik bildiruvchi birlik
18. (En) **Ellipsis**; (Fr) **ellipse** (n.f.) – Gapda tushib qolgan soʻz

- 19.(En) **Etymology**; (Fr) **étymologie** (n.f.) – Soʻzlarning kelib chiqishini oʻrganadigan soha
- 20.(En) **Gender**; (Fr) **genre** (n.m) – Otlarning grammatik jinsi
- 21.(En) **Homonym**; (Fr) **homonyme** (n.m) – Bir xil shakldagi, lekin maʼnosi har xil soʻz
- 22.(En) **Idiom**; (Fr) **idiotisme** (n.m) – Koʻchma maʼnodagi ifoda
- 23.(En) **Inflection**; (Fr) **flexion** (n.f.) – Soʻz shakllanishidagi grammatik oʻzgarish
- 24.(En) **Interjection**; (Fr) **interjection** (n.f.) – Hissiy holatni ifodalovchi soʻz
- 25.(En) **Inversion**; (Fr) **inversion** (n.f.) – Soʻz tartibining odatiydan farq qilishi
- 26.(En) **Lexeme**; (Fr) **lexème** (n.m) – Maʼnoli mustaqil soʻz birligi
- 27.(En) **Lexicon**; (Fr) **lexique** (n.m) – Tilga oid barcha soʻzlar majmuasi
- 28.(En) **Metalinguistics**; (Fr) **métalangage** (n.m) – Til haqidagi til
- 29.(En) **Morpheme**; (Fr) **morphème** (n.m) – Soʻz hosil qiluvchi eng kichik birlik
- 30.(En) **Morphology**; (Fr) **morphologie** (n.f.) – Soʻz tuzilishini oʻrganadigan boʻlim
- 31.(En) **Noun**; (Fr) **nom** (n.m) – Ot turkumidagi soʻz
- 32.(En) **Object**; (Fr) **objet** (n.m) – Feʼlning taʼsiriga uchraydigan birlik
- 33.(En) **Paradigm**; (Fr) **paradigme** (n.m) – Grammatika uchun namunaviy tuzilma
- 34.(En) **Particle**; (Fr) **particule** (n.f.) – Mustaqil maʼnosi boʻlmagan grammatik birlik
- 35.(En) **Part of speech**; (Fr) **partie du discours** (n.f.) – Soʻz turkumi
- 36.(En) **Passive**; (Fr) **passif** (n.m) – Harakat natijasini bildiruvchi feʼl shakli
- 37.(En) **Phoneme**; (Fr) **phonème** (n.m) – Maʼnoni farqlovchi eng kichik tovush
- 38.(En) **Phonetics**; (Fr) **phonétique** (n.f.) – Tovushlarni oʻrganadigan tilshunoslik sohasi
- 39.(En) **Phrase**; (Fr) **syntagme** (n.m) – Sintaktik birlik
- 40.(En) **Plural**; (Fr) **pluriel** (n.m) – Koʻplik shakli
- 41.(En) **Polysemy**; (Fr) **polysémie** (n.f.) – Koʻp maʼnolilik

- 42.(En) **Pragmatics**; (Fr) **pragmatique** (n.f.) – Kontekstda til birligi ma'nosini o'rganadi
- 43.(En) **Prefix**; (Fr) **préfixe** (n.m) – So'z boshida keluvchi qo'shimcha
- 44.(En) **Preposition**; (Fr) **préposition** (n.f.) – So'zlar orasidagi munosabatni bildiruvchi birlik
- 45.(En) **Pronoun**; (Fr) **pronom** (n.m) – O'rini bosuvchi so'z
- 46.(En) **Proposition**; (Fr) **proposition** (n.f.) – Gap yoki fikr birligi
- 47.(En) **Redundancy**; (Fr) **redondance** (n.f.) – Ortiqcha takror yoki keraksiz birlik
- 48.(En) **Referent**; (Fr) **référent** (n.m) – So'z orqali anglatilgan narsa
- 49.(En) **Semantics**; (Fr) **sémantique** (n.f.) – So'zlarning ma'nosini o'rganadigan bo'lim
- 50.(En) **Sentence**; (Fr) **phrase** (n.f.) – Tugallangan fikrni bildiruvchi birlik
- 51.(En) **Singular**; (Fr) **singulier** (n.m) – Yakkalik shakli
- 52.(En) **Stress**; (Fr) **accent tonique** (n.m) – So'zdagi urg'u
- 53.(En) **Subject**; (Fr) **sujet** (n.m) – Harakat egasi
- 54.(En) **Suffix**; (Fr) **suffixe** (n.m) – So'z oxirida keluvchi grammatik birlik
- 55.(En) **Syntax**; (Fr) **syntaxe** (n.f.) – So'zlarning gapda tartiblanishini o'rganadi
- 56.(En) **Tense**; (Fr) **temps** (n.m) – Harakatning vaqt ko'rinishi
- 57.(En) **Transformation**; (Fr) **transformation** (n.f.) – Strukturaning o'zgarish usuli
- 58.(En) **Verb**; (Fr) **verbe** (n.m) – Harakatni bildiruvchi so'z
- 59.(En) **Vocabulary**; (Fr) **vocabulaire** (n.m) – So'zlar majmuasi
- 60.(En) **Voice**; (Fr) **voix** (n.f.) – Fe'lning egaga nisbatan ko'rinishi
- 61.(En) **Word**; (Fr) **mot** (n.m) – Tilning asosiy ma'noli birligi
- 62.(En) **Word formation**; (Fr) **formation des mots** (n.f.) – So'z hosil qilish usullari
- 63.(En) **Zero morpheme**; (Fr) **morphème zéro** (n.m) – Ko'rinmaydigan lekin grammatik rol o'ynovchi morfema
- 64.(En) **Analogy**; (Fr) **analogie** (n.f.) – O'xshatish asosidagi strukturalar
- 65.(En) **Agreement**; (Fr) **accord** (n.m) – So'zlar orasidagi grammatik moslashuv

66.(En) **Aspectuality**; (Fr) **aspectualité** (n.f.) – Harakatning davomiyligi yoki yakunlanganligini bildiruvchi xususiyat

67.(En) **Articulation**; (Fr) **articulation** (n.f.) – Tovush hosil bo‘lishi

68.(En) **Auxiliary verb**; (Fr) **verbe auxiliaire** (n.m) – Asosiy fe’lga yordam beruvchi fe’l

69.(En) **Cohesion**; (Fr) **cohésion** (n.f.) – Matnning ichki bog‘liqligi

70.(En) **Communicative act**; (Fr) **acte de parole** (n.m) – Nutq orqali ifoda etilgan niyat

71.(En) **Contrastive linguistics**; (Fr) **linguistique contrastive** (n.f.) – Tillarni qiyoslash orqali o‘rganish sohasi

72.(En) **Deixis**; (Fr) **déixis** (n.f.) – Nutqdagi kontekstga bog‘liq ishoralar

73.(En) **Diglossia**; (Fr) **diglossie** (n.f.) – Ikkita til shaklining bir jamiyatda mavjudligi

74.(En) **Ellipsis**; (Fr) **ellipse** (n.f.) – So‘zning tushib qolishi

75.(En) **Interlanguage**; (Fr) **interlangue** (n.f.) – Til o‘rganuvchining oraliq tili holati

76.(En) **Language acquisition**; (Fr) **acquisition du langage** (n.f.) – Tillarni o‘zlashtirish jarayoni

77.(En) **Linguistics**; (Fr) **linguistique** (n.f.) – Tilni ilmiy o‘rganish sohasi

78.(En) **Narrative**; (Fr) **narration** (n.f.) – Voqeani bayon qilish usuli

79.(En) **Phonology**; (Fr) **phonologie** (n.f.) – Fonemalarning tizimi va funksiyasini o‘rganish

80.(En) **Register**; (Fr) **registre** (n.m) – Tilning ijtimoiy-madaniy ko‘rinishi

2– qism. Adabiyotshunoslik terminlari

1.(En) **Allegory**; (Fr) **allégorie** (n.f.) – Abstrakt tushunchalarni voqea yoki personaj orqali ifodalovchi uslub

2.(En) **Alliteration**; (Fr) **allitération** (n.f.) – Undosh tovushlarning takroriyliigi

3.(En) **Antagonist**; (Fr) **antagoniste** (n.m) – Qahramonga qarama-qarshi obraz

4.(En) **Archetype**; (Fr) **archétype** (n.m) – Universal, prototipik obraz

5.(En) **Ballad**; (Fr) **ballade** (n.f.) – She’riy va qo‘shiqsifat epik janr

- 6.(En) **Biography**; (Fr) **biographie** (n.f.) – Biografik asar
- 7.(En) **Catharsis**; (Fr) **catharsis** (n.m) – Tragediya orqali kechinmalarni poklash
- 8.(En) **Character**; (Fr) **personnage** (n.m) – Asardagi obraz, qahramon
- 9.(En) **Classicism**; (Fr) **classicisme** (n.m) – Tartib, muvofiqlik va ratsionallikka asoslangan adabiyotshunoslik oqim
- 10.(En) **Climax**; (Fr) **climax** (n.m) – Syujetdagi eng yuqori dramatik nuqta
- 11.(En) **Comedy**; (Fr) **comédie** (n.f.) – Kulgili syujetga asoslangan dramatik janr
- 12.(En) **Context**; (Fr) **contexte** (n.m) – Matnning til va madaniy muhiti
- 13.(En) **Denouement**; (Fr) **dénouement** (n.m) – Syujetdagi yechim bosqichi
- 14.(En) **Dystopia**; (Fr) **dystopie** (n.f.) – Ideal jamiyatga qarama-qarshi, tahlikali dunyo tasviri
- 15.(En) **Elegy**; (Fr) **élégie** (n.f.) – Yo‘qotish yoki qayg‘uni aks ettiruvchi lirik asar
- 16.(En) **Epic**; (Fr) **épopée** (n.f.) – Qahramonlik haqidagi keng ko‘lamli asar
- 17.(En) **Epistolary novel**; (Fr) **roman épistolaire** (n.m) – Maktub shaklida yozilgan roman
- 18.(En) **Fable**; (Fr) **fable** (n.f.) – Axloqiy xulosa chiqaruvchi qisqa hikoya
- 19.(En) **Fabliau**; (Fr) **fabliau** (n.m) – O‘rta asrlar hazilomuz hikoyasi
- 20.(En) **Fantasy**; (Fr) **fantastique** (n.m) – Sehrlı, mo‘jizaviy dunyo tasviri
- 21.(En) **Flashback**; (Fr) **retour en arrière** (n.m) – O‘tmish voqeani esga olish
- 22.(En) **Focalization**; (Fr) **focalisation** (n.f.) – Hikoya qilishda diqqat markazi kimda
- 23.(En) **Frame narrative**; (Fr) **récit-cadre** (n.m) – Ichki hikoya shaklidagi kompozitsiya
- 24.(En) **Genre**; (Fr) **genre** (n.m) – Adabiyotshunoslik asar turi
- 25.(En) **Hyperbole**; (Fr) **hyperbole** (n.f.) – Haddan tashqari mubolag‘a usuli

26.(En) **Imagery**; (Fr) **imagerie** (n.f.) – Tasvirlar vositasida tasavvur uygʻotish

27.(En) **Intertextuality**; (Fr) **intertextualité** (n.f.) – Matnlararo aloqa

28.(En) **Irony**; (Fr) **ironie** (n.f.) – Aytgan maʼnosi bilan asl maʼno orasidagi farq

29.(En) **Metaphor**; (Fr) **métaphore** (n.f.) – Oʻxshashlik asosidagi koʻchma maʼno

30.(En) **Metonymy**; (Fr) **métonymie** (n.f.) – Aloqadorlik asosida nomlash

31.(En) **Monologue**; (Fr) **monologue** (n.m.) – Qahramonning yakka gapirishi

32.(En) **Narrative**; (Fr) **narration** (n.f.) – Voqeani bayon qilish usuli

33.(En) **Narrator**; (Fr) **narrateur** (n.m.) – Hikoya qiluvchi shaxs

34.(En) **Novel**; (Fr) **roman** (n.m.) – Uzoq hajmli epik janr

35.(En) **Ode**; (Fr) **ode** (n.f.) – Ulugʻlovchi lirik janr

36.(En) **Parody**; (Fr) **parodie** (n.f.) – Kinoyaviy taqlid

37.(En) **Pastoral**; (Fr) **pastorale** (n.f.) – Qishloq hayotini kuylovchi janr

38.(En) **Personification**; (Fr) **personnification** (n.f.) – Jonli boʻlmagan narsalarga jonli sifat berish

39.(En) **Plot**; (Fr) **intrigue** (n.f.) – Syujetning tuzilmasi

40.(En) **Point of view**; (Fr) **point de vue** (n.m.) – Hikoya nuqtai nazari

41.(En) **Prologue**; (Fr) **prologue** (n.m.) – Asarning boshlanish qismi

42.(En) **Protagonist**; (Fr) **protagoniste** (n.m.) – Asardagi bosh qahramon

43.(En) **Realism**; (Fr) **réalisme** (n.m.) – Hayotni haqiqiy koʻrsatish yoʻnalishi

44.(En) **Satire**; (Fr) **satire** (n.f.) – Tanqidiy, kinoyaviy asar

45.(En) **Setting**; (Fr) **cadre** (n.m.) – Voqealar boʻlayotgan joy va vaqt

46.(En) **Short story**; (Fr) **nouvelle** (n.f.) – Qisqa hajmli syujetli asar

47.(En) **Simile**; (Fr) **comparaison** (n.f.) – Oʻxshatishga asoslangan ifoda

48.(En) **Soliloquy**; (Fr) **soliloque** (n.m.) – Qahramonning oʻzi bilan gaplashuvi

- 49.(En) **Stream of consciousness**; (Fr) **courant de conscience** (n.m) – Ong oqimi usuli
- 50.(En) **Style**; (Fr) **style** (n.m) – Adabiyotshunoslik asarning uslubiy ko‘rinishi
- 51.(En) **Symbol**; (Fr) **symbole** (n.m) – Ramziy obraz
- 52.(En) **Symbolism**; (Fr) **symbolisme** (n.m) – Simvollar orqali ma’no ifodalash oqimi
- 53.(En) **Synesthesia**; (Fr) **synesthésie** (n.f.) – Sezgilar aralashuvi asosidagi ifoda
- 54.(En) **Theme**; (Fr) **thème** (n.m) – Asarda markaziy g‘oya yoki mavzu
- 55.(En) **Tone**; (Fr) **ton** (n.m) – Muallifning hissiy munosabati
- 56.(En) **Tragedy**; (Fr) **tragédie** (n.f.) – Fojeaviy yakunli dramatik janr
- 57.(En) **Utopia**; (Fr) **utopie** (n.f.) – Ideal jamiyat tasviri
- 58.(En) **Verse**; (Fr) **vers** (n.m) – She’riy satr
- 59.(En) **Villanelle**; (Fr) **villanelle** (n.f.) – An’anaviy fransuz she’riy shakli
- 60.(En) **Voice**; (Fr) **voix narrative** (n.f.) – Hikoya qiluvchi ovozning uslubi
- 61.(En) **Dialogism**; (Fr) **dialogisme** (n.m) – Turli nuqtai nazarlarning mavjudligi
- 62.(En) **Free indirect style**; (Fr) **style indirect libre** (n.m) – Muallif va qahramon ohangining uyg‘unlashuvi
- 63.(En) **Grotesque**; (Fr) **grotesque** (n.m) – g‘ayritabiiy obrazlar uyg‘unligi
- 64.(En) **Interior monologue**; (Fr) **monologue intérieur** (n.m) – Ichki monolog
- 65.(En) **Leitmotif**; (Fr) **leitmotiv** (n.m) – Asarda takrorlanuvchi mavzu yoki obraz
- 66.(En) **Magic realism**; (Fr) **réalisme magique** (n.m) – Sehr va haqiqat uyg‘unligi
- 67.(En) **Motif**; (Fr) **motif** (n.m) – Qayta-qayta uchraydigan ifoda yoki mavzu
- 68.(En) **Myth**; (Fr) **mythe** (n.m) – Qadimiy rivoyat yoki timsollar majmuasi
- 69.(En) **Narratology**; (Fr) **narratologie** (n.f.) – Hikoya tuzilishini o‘rganuvchi soha

70.(En) **Oxymoron**; (Fr) **oxymore** (n.m) – Qarama-qarshi soʻzlarning uygʻunligi

71.(En) **Parable**; (Fr) **parabole** (n.f.) – Axloqiy saboq beruvchi hikoya

72.(En) **Pastoral**; (Fr) **pastorale** (n.f.) – Qishloq hayotini ulugʻlovchi asar

73.(En) **Persona**; (Fr) **personna** (n.f.) – Adabiyotshunoslik obrazga aylantirilgan shaxs

74.(En) **Prose**; (Fr) **prose** (n.f.) – Sheʼr boʻlmagan nasriy nutq

75.(En) **Realism**; (Fr) **réalisme** (n.m) – Reallikka asoslangan adabiyotshunoslik oqim

76.(En) **Refrain**; (Fr) **refrain** (n.m) – Takrorlanuvchi satr

77.(En) **Rhetoric**; (Fr) **rhétorique** (n.f.) – Nutq uslublari ilmi

78.(En) **Romance**; (Fr) **roman courtois** (n.m) – Ritsarlik muhabbati haqidagi epik janr

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ– huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyotshunoslik va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Xalq so‘zi, 2017 yil, 4 avgust.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

4. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild –T.:O‘zbekiston , 2017. – 592 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Xalq so‘zi. 2017-yil 18-fevral. – № 28 (6722).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2909-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyotshunosliki universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 152-son qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 29-dekabr, Elektron resurs: <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Isoqxon Ibrat

nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs:
<http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>

II. Ilmiy– nazariy adabiyotlar

Milliy nashrlar

11. Abduazizov, A. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish: oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – 175 b.

12. Axmedov O. O‘zbek tilining leksik tizimi va semantik xususiyatlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 210 b.

13. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma / Hamidulla Dadaboyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.

14. Eltazarov J. Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. – Samarqand: Fan, 2004. – 110 b.

15. Hotamov N. O‘zbek tilida termin yaratishning leksik– semantik asoslari. – Toshkent: Fan, 2002. – 220 b.

16. Mirzayev I. Hozirgi o‘zbek adabiyotshunoslik tili. – Toshkent: Fan, 1995. – 304 b.

17. Musayev K.M. Til leksikasi va terminlar tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 102 b.

18. Nurmatova S. Tilshunoslikda semantik tahlil: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2011. – 185 b.

19. O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyotshunosliki terminlarining izohli lug‘ati. – Buxoro: BuxDU, 2019. – 180 b.

20. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013. – 312 b.

21. Sadikova I. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Universitet, 2015. – 240 b.

22. Sodiqova M. Fe‘l stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1975. – 108 b.

23. Umarxo‘jayev M. Leksikologiya va leksikografiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 200 b.

24. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod– Moliya, 2007. – 304 b.

25. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetik tahlil asoslari– Toshkent: Fan, 2007. – 150 b.

Xorijiy nashrlar

26. Арнольд И. В. The English Word: Structure, Meaning and Usage. – М.; Высшая школа, 1986. – 295 с.

27. Богин Г. И. Язык и семиотика. – М.; УРСС, 1991. – 200 с.

28. Винокур Г. О. Проблемы культуры речи. – М.; Наука, 1967. – 168 с.
29. Виноградов В. В. Проблемы русской грамматики; Лексика и грамматика в системе языка. – М.: Наука, 1986. – 560 с.
30. Гарбовский Н. К. Теория и практика перевода. – М.; Академия, 2004. – 347 с.
31. Герд А. С. Значение термина и научное знание // Научно–техническая информация. – 1991. – С. 1–4.
32. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград; Перемена, 2002. – 356 с.
33. Комиссаров В. Н. Теория перевода. – М.; Высшая школа, 1990. – 253 с.
34. Костенко Я. Ф. Общественно–политические воззрения Мишеля де Монтеня. – Москва; Институт философии РАН, 1995. – 16 с.
36. Лотте Д. С. Основы построения научно–технической терминологии. – М.; Наука, 1961. – 45 с.
37. Суперанская А. В. Общая лексикология. – М.; Наука, 1973. – 310 с.
38. Темиргазина Р. К. Дискурсивный анализ: основы теории и методологии. – Алматы; КазНУ, 2007. – 256 с.
39. Anselme F. Montaigne ou l'éducation du jugement // Aux sources de la pédagogie moderne. – Bruxelles; Éditions de l'Institut de Sociologie, 1950. – P. 57–95.
40. Anscombe J. La structuration des concepts scientifiques dans le discours. – Paris; 1991. – 256 p.
41. Aulotte R. Montaigne et le devoir d'être heureux // Acta Universitatis Lodziensis. – Łódź; Université de Łódź, 1982. – P. 356–364.
42. Bassnett S. Translation Studies. – London; Routledge, 2002. – 176 p.
43. Batisse F. Montaigne et la médecine. – Paris; Presses Universitaires de France, 1962. – 289 p.
44. Bellenger Y. Le jourd'huy mourra en celui de demain; Montaigne et la jeunesse. – Paris: Honoré Champion, 1990. – 116 p.
45. Benveniste É. Problems in General Linguistics. – Coral Gables; University of Miami Press, 1971. – 523 p.
46. Boon J.-P. Montaigne gentilhomme et essayiste. – Paris; Éditions Universitaires, 1971. – 96 p.

47. Bots W. Montaigne ou l'univers littéraire d'un voyageur malade. – Paris: Honoré Champion, 1995. – 158 p.
48. Bruno de Bessé. La définition terminologique. – Paris; Presses Universitaires de France, 1990. – 253 p.
49. Cabré M. T. La terminologie: théorie, méthode et applications. – Ottawa; University of Ottawa Press, 1998. – 422 p.
50. Ceard J. La culture du corps: Montaigne et la diététique de son temps. – Paris; Honoré Champion, 1989. – 96 p.
51. Charpentier F. Figure de La Boétie dans les Essais de Montaigne. – Paris; Honoré Champion, 1988. – 189 p.
52. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA; MIT Press, 1965. – 251 p.
53. Defaux G. Montaigne et le travail de l'amitié. – Orléans; Paradigme, 2001. – 354 p.
54. Demonet M.-L. Montaigne et la question de l'homme. – Paris; Honoré Champion, 1999. – 45 p.
55. Depecker L. Entre signe et concept: éléments de terminologie générale. – Paris; Presses Sorbonne Nouvelle, 2002. – 316 p.
56. Desan P. Montaigne dans tous ses états. – Fasano; Schena Editore, 2001. – 341 p.
57. Dotoli G. La voix de Montaigne: Langue, corps et parole dans les Essais. – Paris: Honoré Champion, 2007. – 346 p.
58. Durst-Andersen M. Linguistic Supertypes: A Cognitive–Semiotic Theory of Human Communication. – Berlin; New York; De Gruyter Mouton, 2011. – 395 p.
59. Eco U. A Theory of Semiotics. – Bloomington; Indiana University Press, 1976. – 354 p.
60. Ehrlich H.-H. Montaigne: la critique et le langage. – Paris; Klincksieck, 1972. – 132 p.
61. Elbaz F. Le profit du change: l'intertextualité dans l'essai de Montaigne. – Paris; Honoré Champion, 1984. – 84 p.
62. Engel W. The Art of Memory and Montaigne's Scene of Writing. – Amherst; University of Massachusetts Press, 1989. – 49 p.
63. Faure E. Montaigne. – Paris; Hachette, 1923. – 49 p.
64. Franzon M. Montaigne et la chanson de la couleuvre. – Francia; 1978. – 12 p.
65. Gisele M.-C. Montaigne: l'écriture de l'essai. – Paris; Presses Universitaires de France, 1988. – 159 p.

66. Gray F. Montaigne bilingue. – Paris; Honoré Champion, 1991. – 63 p.
67. Gray F. Le style de Montaigne. – Paris; Klincksieck, 1958. – 262 p.
68. Halliday M. A. K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. – London; Edward Arnold, 1978. – 256 p.
69. Hatim B.; Mason, I. Discourse and the Translator. – London; New York: Longman, 1990. – 272 p.
70. Hoffmann F. Emond Auger et le contexte Tridentin de l'essai Du Repentir. – Bordeaux; Presses Universitaires de Bordeaux, 2001. – 275 p.
71. Hymes D. Language in Culture and Society: A Reader in Linguistics and Anthropology. – New York; Harper & Row, 1964. – 762 p.
72. Joly E. Une stratégie de la relation amoureuse dans les Essais de Montaigne. – Lille; Presses Universitaires du Septentrion, 2003. – 520 p.
73. Konstantinovich I. Montaigne et Plutarque. – Genève; Droz, 1989. – 533 p.
74. Kristeva J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York; Columbia University Press, 1980. – 368 p.
75. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago; University of Chicago Press, 1987. – 614 p.
76. L'Homme M. C. Lexical Semantics for Terminology: An Introduction. – Amsterdam; Philadelphia; John Benjamins Publishing Company, 2020. – 220 p.
77. Lugli V. Une Amitié illustre: Montaigne et La Boétie. – Florence; Olschki, 1935. – 224 p.
78. Lyons J. Semantics. Vol. 2. – Cambridge; Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
79. MacKenna A. Ils croient, ou ils croient croire: réflexions sur la foi chez Montaigne et chez Bayle. – Bordeaux; Presses Universitaires de Bordeaux, 1998. – 72 p.
80. Magnien-Simonin C. Montaigne et Aulu-Gelle. – Bordeaux; Presses Universitaires de Bordeaux, 1995. – 42 p.

81. Mathieu-Castellani G. Le paysage de l'honnête dans les Essais de Montaigne. – Saint-Étienne; Publications de l'Université de Saint-Étienne, 1985. – 263 p.

82. Meylaerts R. (ed.). Translation and Its Others: Selected Papers of the CETRA Research Seminars in Translation Studies 2002–2008. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2009. – 280 p.

83. Micha A. Introduction II Michel de Montaigne. Essais. – Paris; Honoré Champion, 1995. – 28 p.

84. McKinley M. Les Terrains vagues des Essais: itinéraires et intertextes. – Paris; Champion, 1996. – 144 p.

85. Montaigne M. Les Essais. éd. de Pierre Villey. – Paris; Presses Universitaires de France, 1965. – 1462 p.

86. Nakam G. Montaigne, la mélancolie et la folie. – Paris; Presses Universitaires de France, 1984. – 213 p.

87. Nakam G. Le Temps malade de Montaigne: Thérapeutique des Essais. – Vincennes; Presses Universitaires de Vincennes, 1989. – 40 p.

88. Quint D. Montaigne and the Quality of Mercy: Ethical and Political Themes in the Essais. – Princeton; Princeton University Press, 1998. – 75 p.

89. Rondeau G. Introduction à la terminologie. – Boucherville (Québec); Gaëtan Morin, 1981. – 312 p.

90. Russell D. Montaigne et la fin de la mémoire. – Paris; Honoré Champion, 2001. – 323 p.

91. Starobinski J. Montaigne en mouvement. – Paris; Gallimard, 1982. – 193 p.

92. Starobinski J. Montaigne et la dénonciation du mensonge. – Munich; Wilhelm Fink Verlag, 1980. – 480 p.

93. Stadius P. Le Réel et la joie: Essai sur l'œuvre de Montaigne. – Paris; Honoré Champion, 1997. – 136 p.

94. Swales J.M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge; Cambridge University Press, 1990. – 288 p.

95. Tournon A. Montaigne: La glose et l'essai. – Lyon; Presses Universitaires de Lyon, 1984. – 351 p.

96. Traverso E. Montaigne et Aristote. – Florence; Olschki, 1974. – 58 p.

Trinquet R. La Jeunesse de Montaigne: ses origines familiales, son enfance et ses études. – Paris: Klincksieck, 1972. – 466 p.

97. Villey P. *La vie et l'œuvre de Montaigne*. – Paris; Presses Universitaires de France, 1988. – 32 p.

98. Wüster E. *Die allgemeine Terminologielehre: Ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaft, Logik, Ontologie und Informatik*. – Berlin: New York; Walter de Gruyter, 1979. – 388 p.

III. Lug‘atlar

99. Ахманова О.С. *Словарь лингвистических терминов*. – М.: УРСС; Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.

100. Звегинцев В.А. *Словарь лингвистических терминов*. – М.: Пилигрим, 2005. – 376 с.

101. Золотова Г.А. *Коммуникативные аспекты русского синтаксиса*. – М.: Наука, 1982. – 366 с.

102. Кожина М.Н. *Стилистика: Словарь–справочник*. – М.: Флинта; Наука, 2007. – 312 с.

103. Крысин Л.П. *Толковый словарь иноязычных слов*. – М.: Флинта, 2006. – 672 с.

104. Шмелев Д. Н. *Лексикология современного русского языка: Словарь терминов*. – М.: Флинта; Наука, 2004. – 276 с.

105. Baldick C. *The Oxford Dictionary of Literary Terms* (4th ed.). – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 416 p.

106. Beaumarchais J.-P.; Couty, D.; Rey, A. *Dictionnaire des littératures de langue française*. – Paris, 2000. – 2656 p.

107. Calvet L.-J. *Dictionnaire de la sociolinguistique*. – Paris: PUF (Que sais-je?), 2003. – 128 p.

108. Charaudeau P.; Maingueneau, D. *Dictionnaire d'analyse du discours*. – Paris: Seuil, 2002. – 661 p.

109. Crystal D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics* (6th ed.). – Malden: Wiley-Blackwell, 2008. – 560 p.

110. Cuddon J. A. *The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary Theory* (4th ed.). – London: Penguin Books, 1999. – 1024 p.

111. Dubois J. *Dictionnaire de linguistique*. – Paris; 1994. – pp. 211–213

112. Ducrot O.; Schaeffer, J.-M. *Nouveau dictionnaire encyclopédique des sciences du langage*. – Paris; 2002. – 944 p.

113. Eco U. *Dictionnaire raisonné de la sémiotique*. – Paris; 1991. – 368 p.

114. Greimas A.J.; Courtés, J. *Sémiotique: Dictionnaire raisonné de la théorie du langage*. – Paris; Hachette, 1993. – 456 p.

114. Larousse P. *Petit Larousse Illustré 2020*. – Paris; Larousse, 2019. – 2064 p.
115. *Le Grand Robert de la Langue Française*. – Paris; Le Robert, 2001. – 11 350 p.
116. Matthews P. H. *The Concise Oxford Dictionary of Linguistics* (3rd ed.). – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 464 p.
117. Mounin G. *Dictionnaire de la linguistique*. – Paris; 1974. – 384 p.
118. Perrin J.-L. *Dictionnaire des figures de style*. – Paris; Armand Colin, 2003/2001 eds. – 218–368 p.
119. Picoche J. *Dictionnaire étymologique du français*. – Paris; Le Robert, 2002. – 786–843 p.
120. Puech C. *Dictionnaire des sciences du langage*. – Paris; Armand Colin, 2006. – 350–400 p.
121. Riemer N. *The Routledge Dictionary of English Language Studies*. – London; Routledge, 2010. – 312 p.
122. Rey A. *Dictionnaire historique de la langue française*. – Paris: Le Robert, 2012. – 4032 p.
123. Schleifer R. *Literary Criticism: A Glossary of Key Terms*. – New York; 2010. – 280 p.
124. Sériot P. *Dictionnaire de l'analyse du discours*. – Paris; 2005. – 384 p.
125. Sylvain A. *Dictionnaire de stylistique*. – Paris; 1992. – 416 p.
126. Trask R.L. *A Dictionary of Grammatical Terms in Linguistics*. – London; Routledge, 1993. – 368–384 p.
127. Trask R. L. *Key Concepts in Language and Linguistics*. – London; Routledge, 1999. – 336 p.
128. *The Oxford Thesaurus – An A–Z Dictionary of Synonyms*; Fernald, J. *English Synonyms and Antonyms*. – Osnova, 2009.
129. *The Routledge Dictionary of Literary Terms*. Ed. by Childs, P.; Fowler, R. – Taylor & Francis e-Library, 2006. – 282 p.
130. Ullmann S. *Semantics: An Introduction to the Science of Meaning*. – Oxford; Basil Blackwell 1962. – 384 p.
131. Vanden Abeele, M. *Dictionnaire des termes littéraires*. – Bruxelles/Paris: Champion yoki De Boeck; 2004. – 533 p.
132. Van Dijk T. A. *Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction (Glossary)*. – London; Sage, 1997. – 320 p.
133. Vendryes J. *Dictionnaire étymologique de la langue française*. – Paris; Le Robert, 1956. – 640 p.

134. Vinay J.-P.; Darbelnet, J. Dictionnaire de traduction stylistique. – Paris; 1958. – 418 p.
135. Warnant L. Dictionnaire des belgicisms. – Bruxelles: De Boeck–Duculot / De Boeck, 2008 (2e 2015). – 380 p.
136. Webster’s New Dictionary of Synonyms. – Springfield, MA: Merriam-Webster, 1984.
137. Yaguello M. Les mots et les hommes: Dictionnaire de linguistique pour tous. – Paris; 2000. – 320 p.
138. Yule G. Glossary of Language and Linguistics. – Cambridge; 2006. – 272 p.
139. Zima P. V. Modern; Postmodern: Glossary of Literary Theory. – London; 2010. – 336 p.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

140. Марковина И. Ю. Влияние лингвистических и экстралингвистических факторов на понимание текста: Дисс... канд. филол. наук. – М.; 1982. – 220 с.
141. Мирзаев И. К. Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Л.; 1975. – 22 с.
142. Темиргазина Р. К. Дискурсивный анализ: основы теории и методологии. – Алматы: КазНУ, 2007. – 256 с.
143. Doniyorov R. Texnik terminlarning o‘zbek tiliga moslashtirilishi. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2018. – B. 23–38, 65–82.
144. Kadirbekova D. O‘zbek tilida semantik o‘zgarishlar va ularning lingvistik talqini. – Toshkent: Fan, 2020. – 190 b.
145. Sirojiddinov Sh. Adabiyotshunoslik terminlari: mazmun va metodika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2014. – B. 41–58, 101–116.
146. Xodjayeva D. Tarjimada terminologik moslik masalalari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018. – 170 b.

V. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

147. Absalamova G.Sh. Mishel Monten ijodida insho va allegoriya janrining tavsifiy xususiyatlari // Tamaddun nuri jurnali. – Qoraqalpog‘iston, 2024. – № 3. – B. 124–127.

148. Absalamova G.Sh. Mishel Montening “Tajribalar” asarida fransuz adabiyotshunoslik terminlarining o‘xshash va farqli tomonlari // Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlar. – Qo‘qon, 2025. – № 4. – B. 1280–1283.

149. Absalamova G.Sh. “Le Grand Robert de la Langue Française” lug‘atidagi til va adabiyot terminlarining sinonimik paradigmasi // Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2025. – № 7/4. – B. 22–24.

150. Absalamova G.Sh. Lingvistik va adabiy terminlarning funksional-ma‘no jihatlari va qo‘llanish shartlari // Agro ilm. – Samarqand, 2025. – Maxsus son 6 (№115). – B. 219–220.

151. Absalamova G.Sh. Lingvosemantik yondashuvda adabiy-lug‘aviy terminlarning nazariy tahlili: Kris Boldik lug‘ati asosida // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – Toshkent, 2025. – № 8 (5-jild). – B. 155–158.

152. Absalamova G.Sh. Mishel Montening “Tajribalar” asarida oila va farzand tarbiyasiga oid esselar tarjimasi. – Samarqand; 2021. – 132 b.

153. Beaulieux C. Les traces de l’orthographe particulière de Montaigne dans la première édition des Essais. – Bordeaux; 1953–1954. – P. 59–63.

154. Demonet M.-L. À plaisir. Sémiotique et explication des mots de Montaigne. – Orléans; 2002. – P. 199–217.

155. House J. English as a lingua franca: A threat to multilingualism? – Journal of Sociolinguistics, 2003. – Pp. 556–578. – 23 p.

156. Lits M. Pour une définition de l’essai. – Les Lettres Romanes, 1990. – P. 283–296. – 14 p.

157. Rigolot F. Parole et écriture dans les Essais de Montaigne. – Revue d’Histoire Littéraire de la France (RHLF), 1990. – P. 859–882. – 24 p.

158. Russell N. Steps toward a Rhetoric of Judgment in Montaigne’s “De Democritus et Heraclitus”. – Bordeaux; 2001. – P. 177–192. – 16 p.

159. Salles A. L’orthographe de Montaigne. – Bordeaux; 1937. – P. 63–66 p.

160. Seidlhofer, B. English as a lingua franca. – ELT Journal, 2005. – 339–341 p.

161. Touron A. Les prosopopées ironiques, in Rhétorique des Essais. – P. 115. – 1 p.

162. Tournon A. 'Ny de la punctuation': sur quelques avatars de la segmentation autographe des Essais. – Bordeaux; 1999. – P. 147–159. – 13 p.

163. Umarxo'jayev M. E. Chet tillarni o'qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. – Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari. – Toshkent; 2007. – B. 189–190. – 2 b.

164. Vroey M. de. Le mot justice chez Montaigne: un cas de polysémie. – Bordeaux; 2001. – P. 15–24. – 10 p.

165. Wüster E. La théorie générale de la terminologie. – Québec; 1976. – Pp. 57–58. – 2 p.

VI. Badiiy adabiyotshunosliklar

166. Aulotte R. Montaigne: "Essais". – Paris; 1988. – 127 p.

167. Bellenger I. Essais (Montaigne). – Paris; 1971. – 128 p.

168. Boase A. The Fortunes of M.: A History of the Essays in France, 1580–1669. – New York; 1935. – 462 p.

169. Butor M. Essais sur les Essais (de Montaigne). – Paris; 1976. – 220 p.

170. Desalmand P. La recherche du bonheur chez Montaigne, Pascal, Rousseau, Voltaire. – Paris; 1988. – 127 p.

171. Dreano M. La pensée religieuse de Montaigne. – Paris; 1936. – 497 p.

172. Frame D. Montaigne's Essais: a study. – N.J.; 1969. – 120 p.

173. Friedrich H. Montaigne. – Paris; 1968. – 339 p.

174. Gisele M.-C. Montaigne: l'écriture de l'essai. – Paris; Presses Universitaires de France, 1988. – 159 p.

175. Gray F. Le style de Montaigne. – Paris; Klincksieck, 1958. – 262 p.

Legros, A. Essais sur poutres: Peintures et inscriptions chez Montaigne. – Paris: 2000. – 548 p.

176. Montaigne M. Les Essais. – Paris: Presses Universitaires de France, 1965. – 1462 p.

177. Regosin, R. The Matter of My Book: Montaigne's Essais as the Book of the Self. – Berkeley: University of California Press, 1977. – 274 p.

178. Supple J. Arms versus Letters: The Military and Literary Ideals in the Essais of Montaigne. – Oxford; 1984. – 361 p.

179. Thibaudet A. Montaigne. – Paris; 1963. – 571 p.

Wendell, H. Étude sur la langue des Essais de Michel de Montaigne.
– Stockholm' 1882. – 99 p.

VII. Internet manbalari

180. <https://www.lerobert.com/dictionnaires/francais/le-grand-robert>
181. https://www.lalibrairie.com/livres/dictionnaire-des-litteratures-de-langue-francaise_0-51388_9782040271047.html
182. <https://global.oup.com/academic/product/the-concise-oxford-dictionary-of-literary-terms-9780198715443>
183. <https://www.frantext.fr>
184. <https://www.journals.uchicago.edu/toc/ms/current>
185. <https://gallica.bnf.fr>
186. <https://www.jstor.org>
187. <https://www.cairn.info>
188. <https://www.persee.fr>
189. <https://www.gutenberg.org/ebooks/author/1085>
190. <https://books.google.com>
191. <https://archive.org>
192. <https://www.universalis.fr>
193. <https://www.lexilogos.com/bibliotheque/montaigne.htm>
194. <https://www.unibo.it>
195. <https://www.unistra.fr>
196. <https://www.sorbonne-universite.fr>
197. <https://www.umontpellier.fr>
198. <https://www.umontreal.ca>
199. <https://linguanet.ru>
200. <https://spbu.ru>

ABSALAMOVA GULMIRA SHARIFOVNA

**TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK
TERMINLARINING TARKIBIY-MAZMUNYI HAMDA MILLIY-
MADANIY TAHLILI
(INGLIZ VA FRANSUZ TILLARI MISOLIDA)**

Monografiya

Muharrir: Rahimova Gulbaxor
Tex.muharrir: Mamatkarimova Munira
Musahhih: Abduraximov Shoxjahon

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,
140117, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43.

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosmaxona tasdiqnomasi:



4268

Bosishga ruxsat etildi: 09.09.2025-yil.
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84^{1/16}.
“Times New Roman” garniturası. Ofset bosma usuli.
Hisob-nashriyot t.:14,1. Shartli b.t.: 11,2.
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma № __.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.
Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy.